



811  
B-25

RASULOV RAVSHANXO‘JA

UMUMIY  
TILSHUNOSLIK

X

811  
R-25

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**RASULOV RAVSHANXO'JA**

# **UMUMIY TILSHUNOSLIK**

*Respublika oliy o'quv yurtlari o'zbek tili va adabiyoti hamda  
xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha) fakultetlari  
bakalavrlari uchun darslik*

- 9524 -

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ  
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MARKAZI**

**TOSHKENT – 2021**

UO'K: 811.512.133'374  
KBK 81.2a7  
R 25

R 25

R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik. –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021. 320 bet.

ISBN 978-9943-7186-4-7

Darslikda umumiy tilshunoslik fani, jahon tilshunosligi tarixining asosiy bosqichlari, yetakchi yo'nalishlari, maktablari, ta'limotlari va tilshunos allomalar haqida ma'lumot beriladi.

Darslikda tilshunoslikning ilmiy-nazariy va falsafiy muammolari: til va nutq, til va nutq birliklari, substansiya va forma, sistema va struktura, semiotika, tilning ikki jihati, sintagmatika va paradigmatica, tipologiya kabi muhim va murakkab masalalari hamda tilshunoslikning qator diaxron va sinxron tadqiqot metodlari haqida fikr yuritiladi.

Darslik tilshunoslarga, respublika oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi va chet tillar fakultetlarining bakalavrlariga mo'ljallangan.

\*\*\*

Учебник предоставляет информацию о науке общее языкознание, об основных этапах истории мировой лингвистики, о ведущих направлениях, школах, учениях и лингвистах-мыслителях.

В этом исследовании речь идет о таких научно-теоретических и философских проблемах языкознания, о его важных и сложных вопросах, как: язык и речь, языковые и речевые единицы, субстанция и форма, система и структура, семантика, два аспекта языка, синтагматика и парадигматика, типология, а также о ряде лингвистических методов синхронного и диахронного исследования.

Учебник предназначен для языковедов, бакалавров факультетов узбекской филологии и иностранных языков высших учебных заведений республики.

\*\*\*

The textbook provides information about science of general linguistics, the main stages of the history of world linguistics, the leading directions, schools, scientists and linguists-thinkers.

In this study, we are talking about such scientific-theoretical and philosophical problems of linguistics, its such an important and complicated questions, as: language and speech, language and speech units, substance and form, system and structure, semiotics, two aspects of the language, syntagmatics and paradigmatics, typology, and also a number of linguistic methods of synchronic and diachronic study.

The textbook is intended for linguists, bachelors of faculties of Uzbek philology and foreign languages of higher educational institutions of the republic.

UO'K: 811.512.133'374  
KBK 81.2a7

Mas'ul muharrir: Hamid Ne'matov – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: Jamoliddin Yoqubov – filologiya fanlari doktori, professor,  
Abdi Mamatov – filologiya fanlari doktori, professor.

*O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 1 martdagi 110-sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-7186-4-7

© «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi» 2021.

## MUHARRIRDAN

Tilshunoslik bo'yicha respublika oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan fanlar ichida «Umumiy tilshunoslik» o'quv fani darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlanganlik jihatidan eng kambag'al desak, xato bo'lmaydi. Keyingi 25 yildan ortiq vaqt davomida bu yo'nalishda hech narsa e'lon qilinmagan. Shunga ko'ra, R.Rasulovning ushbu darsligiga talab va ehtiyoj juda katta.

Darslikning kirish bo'limida muallif umumiy tilshunoslik o'quv fani qiziqtiradigan masalalarni juda to'g'ri sanab o'tadi va rejalashtirgan darsligining uch qismdan iborat ekanligini aytib, buning sabablarini ochib beradi.

Darslikning birinchi qismi tilshunoslik tarixi masalalariga bag'ishlanib, o'z ichiga olti bobni oladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, darslik o'zbek tolibi ilmlariga mo'ljallab yozilgan. Shu bois unda tilshunoslik fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud az Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Mirzo Mehdixon kabi sharq allomalarining lingvistik meros va talqinlari tahliliga katta e'tibor berilgan. Bu esa mazkur darslikning qimmat va ahamiyatini keskin oshiruvchi omildir.

Muosir o'zbek tilshunosligida zamonaviy tahlil usullarining shakllanishi, rivojlanishi va ommalashishi sovet lingvistikasida Ivan Meshchaninov, Lev Shcherba, Yevgeniy Polivanov, Viktor VINO-gradovlarning ta'limotlari bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli darslikning beshinchi bobida xuddi shu tilshunoslarning lingvistik qarashlarini atroflicha sharhlaydi.

Darslikning oltinchi bobida o'zbek tilshunosligi taraqqiyotiga o'z hissarini qo'shgan o'ndan ortiq tilshunos olimning ilmiy faoliyati va lingvistik qarashlari mufassal yoritiladi. Bu o'rinda shuni qayd etib o'tish kerakki, bunda ham muallif personaliya usulidan borib to'g'ri yo'l tanlagan.

Darslikning navbatdagi ikkinchi qismi tilshunoslikning nazariy masalalariga bag'ishlangan bo'lib, u o'n bir bobdan tashkil topadi. Bunda juda asosli va tushunarli shakl-u mazmunda sharhlanganidek, bamisoli til

(lison) ayni bir zamonda ham ijtimoiy, umumiy hamda xususiy (shaxsiy, individual) mohiyatli ekanligiday, fan ham ijtimoiy va shaxsiy kabi ziddiyatli mazmun – mohiyatga egadir. Akademik Sergey Vavilovning o‘z chiqishlaridan birida: «Fan – bu olim deb ataluvchi ayrim shaxslarning o‘z qiziqishlarini jamiyat (davlat) mablag‘i hisobidan qondirishlaridir» - deb hazilomuz aytgan gapida katta hikmat va haqiqat yashiringan. Kamolotga yetgan olimning ehtiyoji shu darajaga ko‘tariladiki, bu shaxsiy ehtiyoj, ijtimoiy zarurat jamiyat rivoji shartlari bilan uyg‘unlashadi – shaxs va jamiyat tavhidi yuzaga keladi. O‘tgan asr fanida Dmitriy Mendeleyev, Albert Eynshteyn, Enriko Fermi, Igor Kurchatov, Sergey Korolyov, o‘zbek olimlari Habib Abdullayev, Sobir Yunusov, Ibrohim Mo‘minov, Abdurauf Fitrat, Ayub G‘ulomov kabilarning faoliyati buning yorqin namunasidir. Bunday olimlar jamiyat ehtiyojlarini o‘z ehtiyojlari deb biladi va uni qondirishga intiladi. Ushbu darslik ham mana shunday ijtimoiy ehtiyoj tuyg‘usining shaxsiy qiziqish, ilmiy dunyoqarashini umumlashtirish shaklida voqelanish ko‘rinishlaridan biridir. Tilshunosligimizda dunyoqarash, fanning ma‘lum taraqqiyot bosqichini umumlashtirishga ulkan ehtiyoj mavjudligidan esa, jumladan, akademik Azim Hojiyevning lisoniy birliklar tabiati haqidagi maqolalari silsilasi, professor Shavkat Rahmatullayevning «Hozirgi adabiy o‘zbek tili» darsligi dalolat berib turibdi. Ravshanxo‘ja Rasulovning ushbu darsligi ham shu turdagi umumlashtirish mahsulidir. Unda muallif o‘z lingvistik dunyoqarashini, uzoq yillar davomida tadqiq etib kelayotgan manbai – til tabiatini tushunishi va talqin qilishini umumbashariy ilmiy qadriyatlar zaminida kitobxonga yetkazishga intiladi. Shu xususiyati bilan bu darslik alohida ahamiyatlidir – unda shaxsiy qiziqishlari ijtimoiy ehtiyoj bilan tavhidlashgan olimning til va tilshunoslik mohiyatiga qarashlari o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun bu ish ham oldin sanab o‘tilganlar bilan bir qatorda turib, o‘zbek tilshunosligining *yangi sifat bosqichiga* ko‘tarilayotganligidan, mana shu sifat bosqichi bo‘sag‘a va pillapoyalari shakllanayotganligidan dalolat beradi. Darslikda tahlil va talqin uchun tanlangan muammo va tushunchalar mana shunday zinapoya barpo qilish uchun zarur bo‘lgan qurilish materiallaridir – ular juda oqilona va puxta o‘ylab tanlangan. Ularning barchasi bitta yetakchi omilga – til tadqiqi jarayonida dialektikadan onglilik va izchillik bilan amaliy foydalanish, o‘z tadqiqoti, hukmlari, xulosa-yu tavsiyalarida – pirovard oqibatida fanda (tilshunoslikda, o‘zbek tilshunosligida) – mustaqillikni, hukmlarning o‘zi o‘rganayotgan manba tabiatiga, ya‘ni,

(bu bob ilti qonilishiga) muvofiqiligini ta'minlashga, fanni payravlikdan, ergashishdan xalos qilishga, tilshunoslik fanini milliy istiqloq shartlari qo'yan buyuk vazifa – ijodiy tafakkur sohibini yetishtirish, milliy g'urur va milliy mafkurani shakllantirishga xizmat qildirishga qaratilgan sayoh, bu kun talablaridan kelib chiqadigan ishlardir. Albatta, muallifning barcha talqinlarini to'la-to'kis qabul qilish, ularga ko'ri- ta nima ergashish, ularni aynan takrorlash mumkin emas va bunday yondashish muallif turg'ib va tashviq etayotgan dialektik metodolo- giyaning o'zi ham, tadqiq manbai bo'lgan tilning serqirraligi va xudiyatligi ham rad etadi. Lekin bunday masalalarning qo'yilishining o'z fani uchun inqilobiy burilish, ma'naviy-metodologik mustaqillik shartlaridir.

Ilmiy mustaqillikdan keyin iqtisodiy mustaqillikka, undan keyin naviy mustaqillikka erishish va uni mustahkamlash esa barchamiz – Vatanimiz, jamiyatimiz, ongimiz, ta'limimiz oldida turgan eng muhim vazifadir.

Darslikning mavjudagi uchinchi qismi tilshunoslik metodlari haqida bo'lib, u o'z ichiga ikki bobni oladi. Bu qism va unda ko'tarilgan masalalarning o'ziga xos mustaqil ahamiyati shundaki, mazkur o'ziga xoslikning har qanday fanda, jumladan, tilshu-noslikda, alohida mavzuga oga bo'lgan ilmiy tadqiqot metodlari masalasiga bog'lanish bilan bog'liqdir. Yunon olimi Arximedning: "Tayanch nuqtani bering, men richag bilan yerni ko'taraman" degan gapi bejiz emas. Har bir tadqiqotchi uchun metodologiya, dunyoqarash tayanch nuqta bo'lsa, uning "richag"i tadqiq metodlari, o'rganish manbaining ayrim ayrim qirralarini tavsiflash usul, yo'l va vositalaridir. Ongli, puxta o'zlashtirilgan va uqilgan tadqiq metodi bilan qurollanmagan olimni ish qurullariga oga bo'lmagan va nima qilishi kerakligini bilmagan "ustahunarmand"ga qiyoslash mumkin. Hech bir ilmiy izlanish tadqiq metodlariga amalga oshirilmaydi, lekin, afsuski, uqilgan, imkoniyatlari nima bilan cheklanganligi tadqiqotchining ongiga borib yetgan metod osonda yakunlangan ilmiy izlanish mahsuli fanda har qadamda uchra- maydi. Juda ko'p ilmiy ishlar uqilmagan payravlik, ergashish, oldingi tadqiqotlar "namuna"lari asosida bajariladi. R.Rasulovning bu darsligi metod va ma'lum metod asosida tilning ayrim-ayrim qirralarini tavsif etish tushunchasini ta'lim oluvchi ongiga singdirishga qaratilgan. Muhimi shundaki, muallif tilni va uning ayrim birliklarini, bo'g'inlarini turli metodlar bilan o'rganish turli xil xulosalarga olib kelishi – bir metod



asosida olingan xulosa shu birlikni boshqa usul bilan o'rganish natijasida chiqarilgan hukmga zid bo'lgan holda ham o'rganilayotgan narsa mohiyati tavsifini to'ldirishi, bir hodisaga xilma-xil ta'riflar berish ziddiyat emas, balki manbaning turli qirralarini ochish va uning mag'ziga chuqurroq kirish ekanligini yoshlar ongiga singdirishga intiladi.

Xulosa shuki, R.Rasulovning ushbu darsligi istiqloq davridagi dastlabki (birinchi) original tadqiqot bo'lib, talabalardek kelajak bunyodkorlariga mo'ljallab yozilganligi bilan, dolzarb masala yechimi sari mustahkam bir qadam ekanligi bilan muhimdir, uni qutlash, himoya etish hamda rivojlantirish zarurdir.

Darslik hayotimizning barcha jabhalarida ko'p fikrlilik, talqin erkinligini ommalashtirishdek ulkan vazifani amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bugungi O'zbekistonimizning milliy-madaniy va ilmiy-ma'naviy taraqqiyotiga munosib bir hissa bo'lib qo'shilishiga aminman, uning nashri va ommalashtirilishini kechiktirib bo'lmaydigan ish deb bilaman.

**O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,  
filologiya fanlari doktori, professor  
Hamid Ne'matov.**

## SO'Z BOSHI

*Maorifimiz fidoyisi Rasulxo'ja otamizning va Matlubaxon onamizning xotiralariga bag'ishlayman.*

«Umumiy tilshunoslik» fani fundamental tilshunoslik sifatida tilshunoslik fanlari guruhida eng murakkab va keng qamrovli ilmiy-nazariy, falsafiy fan mavqeiga ega. Ushbu fanning murakkabligi, keng qamrovli va falsafiy fan ekanligi bevosita o'rganiladigan o'ta jiddiy muammolar bilan, fikr yuritiladigan dolzarb masalalar bilan, lisoniy hodisalarning (faktlarning) mohiyati bilan, ularga qaysi nuqtayi nazardan yondashish bilan, ularni chuqur tahlil qilish va ulardan obyektiv ilmiy holatlar chiqarish bilan belgilanadi. —

«Umumiy tilshunoslik» fanining faollik ko'rsatish chegarasi shakllanib bo'lib, aytilgan fan o'z kuzatishlarini jahon tilshunosligi tarixi-dan o'tib, yirik maktablar va yo'nalishlardan boshlab, hozirgi tilshunoslikning eng muhim va murakkab nazariy muammolarini, g'oyalari, shuningdek, ilmiy tadqiqot metodlarini o'rganish bilan — nafaqat tilshunoslikning, balki barcha fanlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladigan darslik falsafa hamda tarix, psixologiya, mantiq kabi fanlarga ham bevosita aloqador bo'lgan masalalarni qamrab olishi bilan yakunlaydi.

Aytilganlarning isboti sifatida «Umumiy tilshunoslik» fani o'rganilgan asosiy muammolar qatoriga quyidagilarni kiritamiz:

1. Til va jamiyat (millat).
2. Til va tarix.
3. Til va tafakkur.
4. Til va taraqqiyot.
5. Til va ma'naviyat, madaniyat.
6. Til va din.
7. Til va nutq.
8. Til (nutq) birligi va ma'no (mazmun).
9. Til va yozuv.
10. Til semiotik obyekt sifatida.
11. Til sistema va struktura sifatida.
12. Tilda substansiya va forma.
13. Tilni tadqiq qilish metodlari va boshqalar.

«Umumiy tilshunoslik» fani talabalarga nima uchun kerak?

«Umumiy tilshunoslik» fani, dastavval, talabalarni nazariy jihatdan tayyorlash uchun, ularni shu yoʻnalishda puxta, «hushyor» qilish uchun zarur. Nazariy masalalar bilan mukammal qurollangan talabalargina (nafaqat talabalar) tom maʼnodagi filolog-tilshunos sifatida shakllanadi. Shuningdek, ular til hodisalari tahlilidan ilmiy xulosalar, gʻoyalar chiqara oladi, hodisalar mohiyatiga alohida eʼtibor beradi, nazariya bilan amaliyotni dialektik munosabatda oladi. Til va nutqni, ularning birliklarini chuqur oʻrganish jarayonida dialektik falsafaning qator qonunlari hamda umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik, shakl va mazmun kabi qator kategoriyalari nuqtayi nazaridan, shularga asoslangan holda, fikr yuritadi, kuzatishlar olib boradi.

«Umumiy tilshunoslik» fani talabalarning umumlingvistik tayyorgarligini, nazariy va amaliy bilim darajasini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, tilshunoslik tarixidan atroflicha xabardor qiladi. Yangi nazariya va faktik materiallar bilan tanishtiradi, mustaqil, ijodiy fikr-mulohaza yuritishga, izchillikka oʻrgatadi, nazariy saviyasini yuksaltiradi, ularni ilmiy-lisoniy tadqiqotning metodologiyasi, metodikasi va metodlari bilan qurollantiradi. Darslikda «Umumiy tilshunoslik» fani boʻyicha rus hamda oʻzbek tilshunosligida yaratilgan ishlarga ijodiy yondashgan va ulardan foydalangan holda quyidagi dolzarb masalalarga toʻxtaldik: 1. Tilshunoslik tarixi. 2. Tilshunoslikning nazariy masalalari. 3. Tilshunoslikning tadqiq metodlari.

Shuningdek, darslikda mustaqillik davri talabalaridan kelib chiqib, ushbu masalalarga oid har bir mavzu yuzasidan berilgan “Mustahkamlash uchun savollar” va “Asosiy tushunchalar”ni nafaqat oʻzbek tilida, balki ingliz tilida ham keltirdik. Buning esa oʻzbek filologiyasi va chet tillar fakulteti talabalarining ingliz tilini mukammal oʻrganishida foydali, maqsadga muvofiq boʻlishi shak-shubhasizdir.

## BIRINCHI QISM

### TILSHUNOSLIK TARIXI

#### I. QADIMGI ASRLAR TILSHUNOSLIGI

Tilshunoslik alohida, mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi choragida (1816) fanlar olamiga kirib keldi. Shak-shubhasiz, tilshunoslik ham boshqa qator fanlar kabi tadqiqotlar, tajribalar, izlanishlar, g'oyalar, kuzatishlar natijasi, «mahsuli» sifatida o'zining alohida o'rganish obyektiga va tekshirish metodiga ega bo'ldi.

Qat'iy aytish mumkinki, jahon tilshunosligi fani ham shu kungi taraqqiyot bosqichiga yetib kelguncha uzoq tarixiy taraqqiyot davrini, ummatar davrini bosib o'tdi. U turli maktablar, oqimlar, ta'limotlar tarixida bo'ldi, olimlar tomonidan lisoniy hodisalar haqida aytilgan fikrlar qarama-qarshiligiga, til hodisalari haqida yaratilgan juda ko'plab manbalarga e'govoh bo'ldi», shakllandi. Anig'i, tilshunoslik fani ham jahon fanlari sistemasida o'ziga xos va o'ziga mos doimiy mustahkam o'rni egalladi.

Tilshunoslik fanining qadimgi eng muhim manbalari, ta'limotlari, maktablari ilk bor qadimgi Hindiston, Yunoniston, Rim va Xitoy mamlakatlarida maydonga keldi.

Ura va yangi asrlarda esa til haqidagi fan Yevropada, Arabiston va O'rta Osiyoda taraqqiy qildi.

#### QADIMGI HIND TILSHUNOSLIGI

Qadimgi Hindiston jahon tilshunosligi tarixida tilshunoslik fanining boshligi, markazi sifatida tan olinadi va umum tomonidan e'tirof etiladi. Bu – mualliq haqiqat. Chunki til masalalariga bo'lgan qiziqish, tilga oid hodisalar bilan jiddiy va puxta shug'ullanish ilk bor Hindistonda – hind olimlari, filologlari tomonidan boshlab berildi. Ayni jarayonning boshlanishi dastavval sof amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Aniqrog'i, 15 asr ilgari yozilgan qadimgi hind adabiy tili yozuvida – sanskritda yaratilgan qadimgi hindlarning diniy madhiyalari – Vedalar<sup>1</sup> tili davrlar e'tibori bilan mamlakat aholisining so'zlashuv tilidan (prakritdan)

<sup>1</sup> Vedalar – ular hindulardan iborat bo'lgan diniy madhiyalar-gimnlar, diniy qo'shiqlar va afsonalar to'plami. Hindistonning tarixda eng qadimiysi va eng muhimi Rigveda (madhiyalar to'plami) hisoblanadi.

farqlanib qola boshladi. Boshqacha aytganda, qadimgi yozma yodgorliklar tili (yozma nutq) bilan so'zlashuv tili (jonli nutq) orasida ajralish, nomoslik, «ziddiyat» yuzaga keldi. Ushbu ziddiyatni, farqlanishni yo'qotish uchun hind olimlari qadimiy yozma yodgorliklar tilini o'rganishga, tadqiq qilishga, ularni ommaviylashtirishga jiddiy kirishdilar. Ular qadimgi Hindistonda alohida e'tiborga, hurmatga sazovor bo'lgan Vedalardagi ma'nosi tushunarli bo'lmagan so'zlarni aniqlab, ularning ma'nosini izohladilar, sharhladilar. Vedalar tiliga oid maxsus izohli lug'atlar tuzdilar, matnini fonetik va grammatik jihatdan tahlil qildilar. Xullas, Vedalar tilidagi so'z va jumlar ma'nosini, ularning aniq talaffuzini, shaklini saqlab qolishga bo'lgan qat'iy intilish qadimgi Hindistonda tilshunoslikning yuzaga kelishiga asosiy sabab bo'ldi.

Hindlar qadimiy davrning eng buyuk fonetikachilari va grammatikachilari sifatida tanilganlar. Ular fonetika sohasida yunonlardan ham oldin unli va undosh tovushlarni farqlaganlar, portlovchi va sirg'aluvchi, jarangli va jarangsiz tovushlarni, tovush birikmalarini, bo'g'in, urg'u, intonatsiya, cho'ziqlik va qisqalik kabi fonetik hodisalarni, jarayonlarni bilganlar. Shular yuzasidan mukammal ma'lumotlar qoldirganlar. Qadimgi hind tilshunosligida fonema haqida ham muayyan tushunchalar bo'lgan.

Qadimgi hindlar so'zlarning faqat ma'no tomonidagina emas, balki tovush tomonida ham o'zgarishlar bo'lishini bilganlar. Shunga ko'ra ular so'zlarning tovush jihatiga alohida e'tibor berganlar. Tovush haqida, tovushlarning o'zgarishi haqida tadqiqot ishlarini olib borganlar. Shuningdek, qadimgi hindlar tovushlarning fiziologik – artikulyatsion xususiyatlari, boshqa tovushlar bilan almashinishi, bir tovushning boshqa tovush ta'siri bilan o'zgarishi (kombinator o'zgarish) kabi hodisalarni aniqlashga ham e'tibor berganlar. Ular tovushlarning artikulyatsion – fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tasnif qilganlar.

Shu asosda, yuqorida aytilganidek, tovushlarni unli va undoshlarga ajratganlar, nutq a'zolarining yaqinlashuvidan unli, bir-birlariga ta'siridan, ya'ni, tegishidan undoshlar hosil bo'lishini qayd etganlar.

Agar yunon filologlari tovush almashinuvi masalasiga umuman ahamiyat bermagan bo'lsalar, hind tilshunoslari bu jarayonga alohida e'tibor berganlar, tadqiqot olib borganlar, ayni jarayonning o'ziga xosliklarini aniqlab berganlar. Qiyoslang: sanskrit tiliga oid so'zlarda, masalan, vidma so'zi «biz bilamiz» ma'nosini bersa, veda «men

tilshunos tushunchasini, vaidyas so'zi esa «olim», «ilmi» ma'nosini beribdi ko'rsatib berganlar. Qayd etilgan ma'no (tushuncha) o'zgarishlari esa i - e - ni unli tovushlarning almashinuvi natijasi ekanligi haqida ilohiyat, asosli fikrlarni bayon qilganlar.

Ushbu hind tilshunoslari grammatika - morfologiya sohasida ham o'ziga tahlilni amalga oshirdilar. Ular bu yo'nalishda ham grek tilshunoslaridan ancha ilgari ketdilar. Aniqrog'i, hind tilshunosi Guru Mandakayatsaning uch bo'limgan tashkil topishini aniq ko'rsatib beradi va unga quyidagilarni kiritadi: 1. So'zlar tasnifi (so'z turkumlari). 2. So'z yasovchi. 3. So'z o'zgarishi.

Hindlar o'zining so'z turkumini farqlaganlar: ot, fe'l, old ko'makchi va yuklamalar.

Hindlarda ot predmet ifodalovchi, fe'l esa harakat, holat ifodalovchi so'z sifatida beriladi. Old ko'makchilar esa otlarning, asosan, fe'llarning ma'nosini belgilaydi. Yuklamalar esa ma'nolariga ko'ra 1) bog'lovchi va 2) qiyoslovchi kabi turlarga ajratiladi. Olmosh va ravishlar esa ot va fe'l turkumlariga qo'shib yuborilgan, alohida ajratilmagan.

Vujudlardan farqli holda hindlar so'z turkumlarini gap bo'laklaridan ajratganlar, ya'ni, ular bilan qorishtirmaganlar, adashtirmaganlar. Shunga ko'ra, hindlar, yuqorida aytilganidek, otlarni predmet, fe'llarni harakat ifodalovchi so'z sifatida «baholaganlar».

Ushbu hindlar so'zlarni tahlil qilish, tarkibini o'rganish jarayonida ilohiy quyidagi bo'laklarga ajratganlar: 1) o'zak, 2) suffiks, 3) qo'shimcha (ifodalovchi qo'shimcha). Shuningdek, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi morfemalar farqlangan.

Yevropa olimlari hind tilshunoslarining ishlari bilan yaqindan tanishib, so'zlardan o'zak, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi morfemalarni ajratishga «kirishganlar».

Hindlar otlarda yettita kelishikni qayd etganlar: 1) bosh kelishik, 2) qiyoslovchi kelishigi, 3) jo'nalish kelishigi, 4) tushum kelishigi, 5) qurol kelishigi, 6) chiqish (ablativ) kelishigi, 7) o'rin kelishigi.

Hind tilshunoslari qo'shma so'zlarning o'ttizga yaqin turini ajratganlar. Ular qo'shma so'zlarning tuzilishida komponentlar munosabati munosabatlariga e'tibor berganlar. Masalan: ot+ot//fe'l; sifat//sifat//sifat //sifat+ot // sifat//fe'l; son+ot va boshqalar.

Hind grammatikachilari fe'l turkumining morfologik kategoriyalarini muvofiq ravishda tahlil qilgan edilar. Ular fe'lning uch zamonga birlashadigan yetti ta'rifli zamon formasini: hozirgi zamon, o'tgan zamonning tugallangan,

2. Tilshunoslik fanining eng qadimiy ta'limotlari va maktablari qayerda yuzaga keldi?

Where did the most ancient teachings and schools of Linguistics appear?:

3. Hindistonda til masalalari bilan shug'ullanishga nima sabab bo'ldi?

What was the reason of dealing with language problems in India?

4. Nima uchun hindlar qadimiy davrning eng buyuk fonetikachilari va grammatikachilari sifatida tanilganlar?

Why were the Indians famous for being the greatest photecians and grammarians in the ancient times?

5. Hindlar nechta so'z turkumini farqlaganlar?

How many parts of speech did Indians differentiate?

6. Qadimgi hindlarning eng mashhur tilshunosi kim va uning qanday asari bor?

Who was the most well-know linguist in the ancient time and what works did he have?

7. O'rta Osiyolik buyuk allomalardan kim sanskritni bilgan va qanday asar yaratgan?

Who knew Sanscrit among the Middle Asian thinkers and what works did he write?

### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Sanskrit - qadimgi hind adabiy tili.

Sanskrit is the Old Indian literary language.

2. Veda - bir nechta kitobdan iborat diniy to'plam.

Veda is a collection of religious books.

3. Fonema - morfema, leksema, so'zlarni hosil qiluvchi, ularning tovush va ma'no jihatini farqlovchi birlik.

Phoneme is a morpheme, lexeme and word forming unit differentiating sound and meaning aspects of it.

4. Ashtadxyan - she'riy usulda yozilgan qisqa va lo'nda qoidalardan iborat grammatika.

Ashtadkhian is brief rules of grammar written in poetry.

## Adabiyotlar: Bibliography:

1. С. Усмонов, Умумий тилшунослик. -Т., 1972.
2. В. Н. Козухов, Общее языкознание. - М., 1974.
3. И. А. Кондрашов, История лингвистических учений. - М., 1979.
4. В. В. Лоя, История лингвистических учений. - М., 1968.
5. Т. А. Амирова, Б. А. Ольховиков, Ю. В. Рождественский. Очерки по истории лингвистики. - М., 1975.

### QADIMGI YUNON TILSHUNOSLIGI

Qadimgi Yunoniston Yevropa tilshunosligi fanining markazi hisoblanadi. Faylasuflar va shoirlar vatani bo'lgan qadimgi Yunonistonda til masalalari dastavval faylasuflar tomonidan o'rganilgan. Yunon faylasuflari til masalalarini o'rganish jarayonida tadqiqot muammolarini, yo'nalishlarini ham belgilab oladilarki, bu yo'nalishlar umumiy, nazariy, lisoniy – falsafiy muammolar sifatida namoyon bo'ladi.

Qadimgi Yunonistonda tilshunoslik yunon falsafasining yetakchi qismi sifatida yuzaga keladi va bu sohada juda katta, salmoqli ishlar qilinadi.

Qadimgi Yunonistonda ham qadimgi Hindistondagidek matnlarni o'rganish, so'zlarni tahlil qilish, ularga izoh berish, mohiyatini ochish kabi masalalar fonetika, grammatika va leksika sohalari bilan jiddiy shug'ullanishga, shu yo'nalishlarda muhim tadqiqot ishlarini olib borishga sabab bo'ldi.

Yunon tilshunosligining taraqqiyoti ikki davrga bo'linadi:

1. Falsafiy davr.
2. Grammatik davr.

#### 1. Tilshunoslikning falsafiy davri

Yunonistonda tilshunoslikning falsafiy davri ikki asr davom etadi. Bunda tilga falsafaning bir qismi sifatida qarash, til hodisalarining mohiyatini falsafiy jihatdan ochish va tushuntirish, taxminlar, xulosalar chiqarish, g'oyalarni yaratish ayni davrning eng muhim xususiyati hisoblanadi.



Tilshunoslikning falsafiy davrida qadimgi Yunonistonda mavjud bo'lgan deyarli barcha falsafiy maktablar, oqimlar, yo'nalishlar til masalalari bilan faol shug'ullanganlar. Fikr yuritilayotgan davrning o'ta dolzarb va eng muhim muammolaridan biri so'z muammosi, so'zning tabiiy hodisami yoki shartli hodisami? ekanligi haqidagi bahs, munozara bo'lib, bu masala atrofida fikrlar qarama-qarshiligi, faylasuflarning ayni masalani hal qilishda tarafina - taraf bo'lib, «jangga» kirishishi, tadqiqot ishlarini olib borishi qizib ketdi. Aniqrog'i, bu davrning asosiy, bosh masalalaridan biri so'z bilan ma'no orasidagi, predmet bilan uning nomi orasidagi munosabat masalasi edi. Boshqacha aytganda, predmet bilan uning nomi o'rtasida qanday munosabat mavjud? So'zdagi tovush bilan ma'noning bog'lanishi qanday yuz beradi? Bu bog'lanish tabiat tomonidan beriladimi yoki so'zlashuvchilar tomonidan kelishilgan holda yuz beradimi yoki ma'lum qonun – ko'rsatma bilan tayinlanadimi, muayyan urf – odat bilan bog'lanadimi yoki odamlar tomonidan belgilanadimi, ya'ni, bu jarayon ongli, ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladimi va boshqalar.

Tilshunoslikning falsafiy davrida so'z bilan predmet orasidagi munosabat masalasini hal qilishda Geraklit va uning tarafdorlari quyidagi g'oyani ilgari suradilar. Ular har bir nom o'zi anglatayotgan narsa, predmet bilan ajralmas aloqada, bog'lanishda bo'lib, nomlarda predmetlarning mohiyati namoyon bo'ladi, «ochiladi». Aniqrog'i, suvda daraxtlar, ko'zguda o'zimiz aks etganidek, har bir nom o'zi ifodalayotgan predmetning tabiatini, mohiyatini aks ettiradi, degan fikrni ilgari suradilar. Yana ham anig'i, predmet bilan ularni anglatuvchi so'zlar orasidagi bog'lanish tabiat tomonidan berilgan bo'lib, bu bog'lanish tabiiy, zaruriy bog'lanish hisoblanadi.

Xulosa shuki, olamda mavjud bo'lgan barcha narsa – predmetlarning tabiat tomonidan berilgan, o'ziga mos va xos nomlari, «to'g'ri» nomlari bor. So'zlar tabiat tomonidan yaratilgan. Tabiat har bir predmet uchun alohida nom belgilagan, nom bergan.

Demokrit va uning tarafdorlari esa so'z va predmet munosabati masalasida Geraklit va uning tarafdorlariga qarshi quyidagi g'oyani ilgari suradilar. Ular aytadi: narsa, predmetlarning nomlari, so'zlar ularning tabiatiga qarab, mohiyatiga muvofiq holda qo'yilmaydi, balki nomlash jarayoni odatga ko'ra, odamlarning o'zaro kelishuviga, ular tomonidan belgilanishiga ko'ra amalga oshadi. Demak, predmetlarga nomlar tabiat tomonidan emas, balki jamiyat tomonidan beriladi.

Demokrit va uning tarafdorlari o'z g'oyalarining to'g'riligini isbotlash uchun yana quyidagi fikrlarni ham bayon qiladilar: 1) ko'p so'zlar bir nechta ma'noga ega bo'lib, shunga muvofiq ular turlicha predmetlarni ifodalaydi; 2) ko'pgina tushunchalar bir qancha nomga, atamaga ega bo'ladi; 3) tilning tabiiyligi g'oyasidan kelib chiqadigan bo'lsak, u holda ko'pgina predmetlarning bir nechta nomga ega bo'lishi mumkin emas; 4) vaqt o'tishi bilan bir so'z o'rniga boshqasi yuzaga keladi, ya'ni, muayyan predmet nomi o'zgarib, boshqa nomga, atamaga ega bo'ladi; 5) ko'pgina tushunchalar so'z ifodasiga, nomga ega emas. Demak, - deydi Demokrit va uning tarafdorlari, bir vaziyatda so'zlar yetishmasa, boshqa vaziyatda ular ortiqcha, ko'p, yana boshqa bir holatda so'zlar qat'iy emas, yana boshqa bir vaziyatda esa so'zlar kamlik qiladi. Demokrit fikricha, bunday holat, asosan, odamlar faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular tomonidan yuzaga keladi, tabiat tomonidan emas.

Shunday qilib, Demokrit va uning tarafdorlari narsa, predmet nomlari tabiat tomonidan, tabiiy berilgan emas, degan g'oyani ilgari suradilar va ayni fikrning to'g'riligini tilda mavjud bo'lgan omonim va sinonim so'zlar bilan isbotlaydilar. Haqiqatan, bir-biridan farq qiladigan turli narsalarning nomlari (so'zlar) qanday qilib bir xil (omonim: o't, yo'sh, qo'riq, ko'k, son, ko'r, til, ter, qo'y, quv) yoki bir narsaning qanday qilib birdan ortiq nomi (sinonim: bosh, kalla; janjal, g'oyg'o, to'polon, g'alva, mashmasha; bo'kmoq, ivim oq, kulmoq, iljaymoq, jilmaymoq, tirjaymoq, ishsha ymoq) bo'lishini Geraklit tarafdorlarining ta'limoti moslik, «to'g'rilik» ta'limoti asosida izohlab bo'lmaydi. Chunki sinonimlar tovush tomonidan farqli bo'ladi; agar so'zning tovush tomoni predmetning mohiyati, mohiyati bilan bevosita bog'langan bo'lsa, demak, sinonimlar turli xil mohiyatni ifodalovchi so'zlar sifatida bitta predmetni anglatishlari mumkin emas. Qolaversa, tabiatdagi hamma predmetlar ham o'z nomlariga ega emas.

Tilshunoslikning falsafiy davrida eng dolzarb muammo bo'lgan predmet va uning nomi orasidagi munosabat masalasi Platonning «Kratil» nomli asarida ham mukammal bayon qilinadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida til masalalari bilan jiddiy va barakali shug'ullangan oqimlardan biri stoitsizm hisoblanadi. Stoitsizm ta'limotining vakillari bo'lgan stoiklar: Xrisipp, Krates va boshqalar o'z ta'limotlarida jahondagi nomuvofiqlikka hamma narsalarning maqsadga muvofiq bo'lishini qarama - qarshi qo'yadilar. Shunga ko'ra, ular tilni

kishilarning ruhida tabiat talabiga ko'ra paydo bo'lgan deyish bilan birga so'z predmetning tabiiy xususiyatini ifoda qiladi, deb aytganlar. Stoiklar so'zlovchi gapirganida so'z orqali u predmetning tabiati haqida qanday taassurotda bo'lsa, eshituvchida ham xuddi shu xususiyatlar haqidagi taassurot tug'iladi, deb o'ylaganlar. Stoiklar predmet va uning nomi orasidagi munosabat masalasida Geraklit va uning tarafdorlari ta'limotini quvvatladilar, ya'ni, ular ham predmet va uning nomi (so'z) o'rtasida moslik, muvofiqlik mavjud deb hisoblar edilar.

Ayni vaqtda stoiklarning muxolifi bo'lgan Epikur va uning ta'limoti tarafdorlari esa Demokritning fikrini quvvatlab, so'zlar va predmetlar orasidagi aloqa, bog'lanish tabiiy bo'lishi mumkin emas, chunki narsalarning mohiyati bilan ularning nomi orasida qarama-qarshiliklar juda ko'p, degan fikri ilgari surganlar.

Epikurchilar predmet bilan uning nomi orasidagi aloqa tasodifiy, bu aloqani dastlab tilni o'zaro kelishuvchilik asosida ijod qilgan kishilar yaratgan, ana shunday tasodifiylik bo'lmaganida edi, barcha xalqlar birbirlarining tillariga tushungan bo'lar edi, deyishadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida o'zaro qizg'in kurash olib borgan yetakchi oqimlardan, yo'nalishlardan yana biri analogistlar va anomalistlar – qarama – qarshi g'oyadagi faylasuflar guruhi edi.

Ular til hodisalarida analogiya mavjudmi yoki anomaliamini, qonuniyat mavjudmi yoki qonuniyat yo'qmi, degan fikr bilan qurollanib, til bilan obyektiv borliq, so'z bilan predmet orasidagi munosabat masalasini hal qilishga kirishadilar.

Mashhur yunon grammatikachisi Aristarx boshchiligidagi analogistlar oqimi tilning grammatik qurilishi va lug'at tarkibi bilan borliq orasida moslik, muvofiqlik – o'xshashlik mavjud, degan g'oyani ilgari surishadi. Ular yunon va lotin tillarida otning uch xil grammatik jinsi (rod): erkaklar jinsi, ayollar jinsi va har ikki jinsga ham tegishli bo'lmagan oraliq jins mavjudligini aytishadi. Shunga ko'ra, ular predmetlar erkaklar jinsiga, ayollar jinsiga yoki oraliq jinsga tegishli bo'ladi, deyishadi.

Anomalistlar oqimining yetakchisi stoik Krates va uning tarafdorlari esa ushbu g'oyaga zid fikrni, zid g'oyani ilgari surishadi. Ular aytadi: tilning tarkibi va grammatik qurilishi bilan borliq orasida to'la moslik, o'xshashlik yo'q; biz doim turli tengsizlikka, moslik me'yoridan chetga chiqishlarga duch kelamiz. Masalan, tildagi uch grammatik jins atrofimizdagi narsalarga real ravishda to'g'ri keladi, deb hisoblash

bu so'z o'z shakliga qaraganda grammatik jihatdan ayollar  
so'zlariga mansub bo'lishi kerak edi. Amalda esa o'sha hayvonlarning erkagi  
ham, ilg'ochlari ham bir xilda черепуха, белка deyiladi. Shuningdek,  
rus tilidagi a'ro'm (qizilishton) so'zi o'z shakliga ko'ra faqat erkaklar  
ustiga nisbatan qo'llanaveradi. Demak, bu yerda til anomaliyasi mavjud  
bo'lib, shakl bilan mazmun orasida moslik yo'qdir.

Tilshunoslikning falsafiy davrida qadimgi yunon faylasuflari  
Anaxsimen, Prodik, Protogor, Platon, Aristotellar til masalalariga oid  
qadimgi yaratganlar va hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan  
asosiy fikrlarni bayon qilganlar.

Anaxsimen (bizning eramizgacha bo'lgan 560-502). U "Ritorika"  
asosida bilan stilistika fanining asosini yaratdi.

Prodik (bizning eramizgacha bo'lgan V asr). Prodik sinonimika  
masalalarini ishlab, uning o'ziga xos xususiyatlarini, ma'no otten-  
balarini, qiralarini farqlashga o'rgatdi.

Protogor (bizning eramizgacha bo'lgan 480-410). Protogor otlarning  
nalarini (jinasi), fe'l zamonlarini va gaplarning turlarini farqladi.  
Shuningdek, ayni davr faylasuflari ot va fe'llarni farqlab, gapning ot bilan  
fe'lning bog'lanishidan hosil bo'lishini ta'kidladilar.

Platon (bizning eramizgacha bo'lgan 427-347). O'z davrining  
asoschisi yirik faylasufi Platon etimologika fanining asoschisi sifatida  
qaratiladi. U mantiqli nutqda ikki turdagi so'zlarni: otlarni va fe'llarni  
farqladi. Gapda ega vazifasida kelgan so'zni ot deb, kesim vazifasida  
kelgan so'zni fe'l deb atadi. Fe'lning ot haqida nima tasdiqlanishini  
anglatadigan so'z ekanligini qayd etdi.

Aristotel (bizning eramizgacha bo'lgan 348-322). O'z davrining  
asoschisi buyuk qomusiy olimi - faylasufi Aristotel tilga oid masalalarni  
mantiq bilan bog'liq holda o'rgandi va u birinchi bo'lib grammatikani  
mantiqlan ajratdi.

Aristotel ham, Platon kabi, ot - egani va fe'l - kesimni tan oldi. Bu  
qadimgi qo'shimcha ko'makchi so'zlarni - bog'lovchilarni ham kiritdi,  
ot va fe'llarni uch turkumga: ot, fe'l, bog'lovchi hamda yuklama  
so'zlarga bo'ldi. Ot va fe'llarni mustaqil ma'noga ega so'zlar sifatida,  
bog'lovchi, yuklamani esa faqat grammatik vazifa bajaruvchi so'z sifatida  
qaratdi.

Aristotel o'z davridayoq gapni fikr ifodalovchi nutq birligi deb ta'rifladi. Shuningdek, u kelishiklar, tovushlar haqida ham ma'lumot berdi. Masalan, u fonetikada unli va undosh tovushlarni ajratdi.

Yuqorida aytilganlardan bir muncha farqli holda tilshunoslikning falsafiy davrida stoiklar nutqda so'zlarni besh guruhga: fe'l, bog'lovchi, artikl, atoqli otlar va turdosh otlarga ajratdilar. Shuningdek, ular ushbu so'zlarning barchasi ham ma'nolidir, deyishdi. Stoiklar otlarda beshta kelishikni farqladilar: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, jo'nalish kelishigi, tushum kelishigi va chaqirish (звательный; chiqish) kelishigi.

Stoiklar mazkur davridayoq nutqni ikkiga: tashqi nutqqa va ichki nutqqa bo'lib o'rgandilar. Ular yunon tilida 24 ta tovush borligini aytib, bularni unli va undosh tovushlarga ajratdilar.

Xullas, tilshunoslikning falsafiy davridan hozirgi tilshunoslik uchun muhim bo'lgan ikki ta'limot qoldi:

1. Tilning elementlari, birliklari (so'z va gap) –ishora, belgi.
2. Til birliklari ma'no, fikr bilan shartli bog'langan.

## 2. Tilshunoslikning grammatik davri

Tilshunoslikning grammatik davri qadimgi yunon tilshunosligida Iskandariya davri deb yuritiladi. Misr davlatining markazi bo'lgan Iskandariya makedoniyalik Iskandar nomi bilan bog'liq edi. U bosib olgan Sharq mamlakatlarida yunon tili, madaniyati, falsafasining ta'siri natijasida yunon madaniyati Sharq madaniyati bilan qo'shilib ketib, aralash madaniyat – ellinizm yuzaga keladi.

Iskandariya ellinizm madaniyatining yirik markazlaridan biri hisoblangan. Umuman, bizning eramizgacha bo'lgan III asrdan boshlab, birorta shahar: na Afina, na Rim yuksak madaniyat namunasi va ilmiy markaz bo'lgan Iskandariya shahri bilan tenglasholmas, raqobat qilolmas edi.

Xullas, yunon tilshunosligi, ayniqsa, ellinizm davrida – yunon - sharq davrida (bizning eramizgacha bo'lgan 334–31) taraqqiy qildi, rivojlandi.

Aleksandriya grammatika maktabining eng yirik vakillari Zenodot, Aristarx, Dionisiy, Apolloniy Diskol va boshqalardir.

Zenodot (taxminan bizning eramizgacha bo'lgan 250). Zenodot 800.000 dan ortiq qo'lyozma manbalarga ega bo'lgan mashhur Iskandariya kutubxonasining birinchi rahbaridir. U va boshqa yunon filologlari Gomer, Esxil, Sofokl va boshqalarning asarlari ustida faol

ta'dqiqot ishlarini olib bordilar. Ular ushbu asarlarning lug'at tarkibi va grammatikasiga oid shahlar ustida mehnat qildilar. Zenodot artiklni, almashbani farqladi.

Aristarx (bizning eramizgacha bo'lgan 215—143). Iskandariya madrasasining eng mashhur va yetakchi olimi samofrakiyalik Aristarx uzoq yillar davomida Iskandariya kutubxonasini boshqardi. U o'zining 40 ga yaqin shogirdlari bilan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordi. Ular Gomer haqqida mukammal o'rganib, uning asarlarining tekshirib chiqilgan to'liq matnini yaratishdi.

Aristarx so'z turkumi haqidagi ta'limotni mukammal ishlab chiqdi va bu haqda so'z turkumini ajratdi. Bular: ot, fe'l, sifat-dosh, artikl yoki bog'lovchi, almash, old ko'makchi, ravish va bog'lovchi.

Dionisiy (bizning eramizgacha bo'lgan 170—90).

Aristarxning shogirdi frakiyalik Dionisiy o'zigacha bo'lgan ta'dqiqotchilarning ishlari va tajribalarini o'rganib, ulardan foydalanib, ta'dqiqot uchun «Grammatika san'ati» nomli sistemalashtirilgan dastlabki umum grammatikasini yaratdi.

Dionisiy ta'limotiga ko'ra, so'z so'zlashuv nutqining (bog'langan nutqning) eng kichik bo'lagi (qismi)dir. Gap (yoki nutq) esa so'zlarning muqammal munosabatidan, bog'lanishidan hosil bo'lib, tugal fikr ifodalaydi.

Dionisiy grammatikasida ot turkumi haqida quyidagi fikr beriladi: ot birlilik va unga ko'ra o'zgaruvchi turkumdur. U sifatlarni ham otga birlashtiradi.

Dionisiy fe'l haqida fikr yuritib, fe'lning kelishiksiz so'z turkumi bo'lib, zamon, shaxs, son, mayl, nisbat, tuslanish va boshqalarga ega bo'lganini aytdi. Fe'lning beshta: aniqlik, buyruq, istak, tobelik va boshqalik mayllarini; fe'lning uchta: harakat, o'zlik va o'rta nisbatlarini; otning uchta: birlilik, juftlik va ko'plik sonlarini; fe'lning uchta: birinchi-nutqni so'zlagan, ikkinchi-nutq yo'naltirilgan va uchinchi-so'z yuritilgan ta'kidni shaxslarni qayd etadi. Grammatik zamon esa hozirgi, o'tgan va kelajak zamon kabi turlarga bo'linadi. Sifatdoshlar esa fe'l va otlarga xos bo'lgan belgilarni birlashtiradigan kategoriya sifatida talqin qilinadi.

Artikl, Dionisiy fikricha, turlanuvchi so'z turkumi bo'lib, u turlangan ot bilan ot bilan ham, keyin ham kela oladi. Olmash ot o'rnida qo'llaniladigan so'z bo'lib, ma'lum shaxslarni ko'rsatadi. Ravish turlanmaydigan so'z turkumidir, u fe'l haqida ma'lumot beradi va unga birikadi. Bog'lovchi fikrni ma'lum tariqda bog'laydigan va fikrni ifodalashdagi oraliqlarni ko'rsatadigan so'zdir. Old ko'makchi so'z turkumi bo'lib, barcha so'z

turkumlari oldidan soʻz tarkibida ham, gap tarkibida ham keladi, yaʼni, u sintaksisda ham, soʻz yasalishida ham qoʻllaniladi.

**Apolloniy Diskol** (bizning eramizning II asri). Apolloniy Diskol bizgacha yetib kelgan yunon tili sintaksisini yaratdi. U «Sintaksis haqida» asarida yunon tili sintaksisiga oid maʼlumotlarni berdi.

Iskandariya maktabi vakillari tilning tovush tomoniga ham katta eʼtibor berishdi. Ular tovushlarni akustik prinsip asosida tasvirladilar, tovush va harflarni aynan bir narsa hisoblab, ularni unli va undosh tovushlarga ajratdilar. Shunga koʻra, harflarni unli tovushlar va undosh tovushlar nomi bilan tasvirladilar. Unli harflarni (tovushlarni) oʻz holicha talaffuz qilinadigan va oʻzini alohida eshitish mumkin boʻlgan tovushlar sifatida, undosh harflarni (tovushlarni) esa unlilar bilangina talaffuz qilinadigan tovushlar sifatida qaradilar. Shuningdek, ular boʻgʻin, urgʻu haqida ham maʼlumot berishdi.

Tilshunoslikning grammatik davrida Iskandariya maktabi vakillari yunon tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi boʻyicha jiddiy tadqiqot ishlarini olib bordilar va qator asarlar yaratdilar. Yunon tilshunosligida, ayniqsa, morfologiyaga oid masalalar mukammal ishlangan boʻlib, unga nisbatan fonetika va sintaksis masalalari boʻsh tadqiq qilingan. Shuningdek, Iskandariya maktabi vakillari grammatikani falsafadan ajratdilar.

Xullas, qadimda tilshunoslikning Iskandariya davri grammatikani mustaqil fan sifatida yaratdi.

Qadimgi yunon tilshunosligi (grammatikasi) hind tilshunosligi (grammatikasi) bilan bir qatorda oʻz davrida arab tilshunosligiga (grammatikasiga) taʼsir qildi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar: Questions for Consolidation:**

1. Yunon tilshunosligi taraqqiyoti nechta davrga boʻlinadi?  
How many periods did Greek Linguistics consist?
2. Tilshunoslikning falsafiy davrining oʻziga xos jihatlari nimada?  
What are the specific features of philosophical period of Linguistics?
3. Geraklit va Demokrit tarafdorlarining soʻz va predmet munosabati masalasi dagi qarashlari qanday?  
What were the views of Heraclit and Democrit on the issues of word and subject relations?

4 Analogistlar va anomalistlar kimlar?

Who were analogists and anomalists?

3 Tilshunoslikning grammatik davrining o'ziga xos jihatlari nimadan iborat?

What are the specific features of grammar period of Linguistics?

6 Iskandariya grammatika maktabining eng yirik vakillari kimlar va ularning qanday asarlarini bilasiz?

Who were the greatest representatives of the Alexandria Grammar School and what works by them do you know?

### Asosiy tushunchalar:

#### Basic notions:

1 Falsafiy davr - yunon tilshunosligida ikki asr davom etgan davr. Til falsafaning bir qismi sifatida qaralgan va unga falsafa nuqtayi nazaridan baho berilgan.

A philosophical period which lasted for two centuries in Greek Linguistics. Language was regarded as a part of philosophy and it was judged from philosophical point of view.

2 Analogiya - o'xshashlik.

Analogy is similarity.

3 Anomaliya - noo'xshashlik.

Anomaly is non-similarity.

4 Grammatik davr - yunon tilshunosligining Iskandariya davri. Til muammolari keng va chuqur o'rganilgan davr.

A grammar period is the period of Alexandria in Greek Linguistics. It is the period in which languages problems were studied thoroughly and widely.

5 Hellenizm - yunon va Sharq madaniyatlari qo'shilib, aralashib ketgan madaniyat.

Hellenism is the mixture of the Greek and Oriental cultures.

### Adabiyotlar:

#### Bibliography:

1. Я.В.Лоя. История лингвистических учений. - М., 1968.

2. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. - Т., 1972.

3. В.И.Кодухов. Общее языкознание. -М., 1974.



4. Т.А.Амирова, Б.А. Ольховиков, Ю.В.Рождественский. Очерк по истории лингвистики. -М.,1975.

5. Н.А.Кондрашов. История лингвистических учений. -М.,1979

## QADIMGI RIM TILSHUNOSLIGI

Qadimgi Rim filologlarining tilshunoslik faniga qo'shgan hissasi katta emas. Rim grammatikasi yunon grammatikasining shoxobchasi sifatida maydonga keldi. Iskandariya maktabida yaratilgan yunon tili grammatikasi qadimgi rimliklar tomonidan lotin tiliga tatbiq qilindi. Yunon tilidagi deyarli barcha grammatik terminlar lotin tiliga o'girildi.

Yunon tilshunosligidagi analogiya va anomaliya maktablaridagi munozaralar ham Rim tilshunosligida davom ettirildi.

Qadimgi Rim tilshunosligining vakillari: Yuliy Sezar, Mark Terensiy Varron, Mark Fabiy, Kvintilian, Eliya Donata, Verriy Flakk, Prissian va boshqalardir.

**Yuliy Sezar** (eramizdan ilgarigi 100–44). Qadimgi Rimning taniqli davlat arbobi, lashkarboshisi va notig'i Yuliy Sezar «Analogiya haqida» nomli grammatikaga oid asar yozdi. U so'z va predmet munosabati masalasida analogiya<sup>2</sup> tarafdori sifatida tanildi.

**Mark Terensiy Varron** (eramizdan ilgarigi 116–27). Mark Varron 25 kitobdan iborat «Lotin tili haqida» asarini yaratdi. Shu kungacha bu asarning 6 tasi yetib keldi. Kitobda analogistlar va anomalistlar orasidagi nazariy tortishuv, munozara mukammal bayon qilinadi. U ham Yuliy Sezar kabi analogiya tarafdori edi. Varron so'z o'zgarishini analogiyaga, so'z yasalishini esa anomaliyaga kiritadi.

**Eliya Donata** (bizning eramizgacha IV asrning o'rtalari). Eliya Donata grammatikaga oid keng qamrovli mashhur asarini yozadi va uni «Grammatika san'ati» deb nomlaydi. Ushbu asar to'liq va qisqartirilgan variantlarda bizning zamonamizgacha yetib kelgan.

**Verriy Flakk** (bizning eramizning boshlari). Rim tilshunosi Verriy Flakk leksikologiya sohasida o'zigacha bo'lgan tadqiqotlarni, tajribalarni va fikrlarni umumlashtirib, katta hajmdagi «Fe'lining ma'nosi» asarini yozdi.

**Prissian** (VI asr boshlari). Rim grammatikachisi Prissian lotin tili bo'yicha o'z davrining eng katta tadqiqoti hisoblangan «Grammatika san'ati haqida ta'limot» kitobini yaratdi.

<sup>2</sup> Analogiya haqida "Qadimgi yunon tilshunosligi" bo'limiga qarang.

Qadimgi Rim tilshunosligida Donata va Prissianning grammatikaga oid yaratgan asarlari lotin tili grammatikasi qurilishining mukammal tayyori sifatida juda ko'p asrlar davomida - o'rta asrlar davri uchun namuna bo'lib xizmat qildi.

Ashunday qilib, rimliklar yunonlardan namuna olib, ularga taqlid qilib, lotin tili haqida keng tadqiqot ishlarini olib bordilar. Rimlik-larning ona tili bo'yicha grammatikaga oid tadqiqotlari, asosan, yunon tilidan tarjima qilingan bo'lsa-da, ularning grammatikalarida ayrim yangiliklar, yangicha qarashlar uchrab turadi. Jumladan, Rim tilshunoslari yunon tilshunoslaridan farqli holda Rim grammatikasiga alohida stilistikani (tulshunoslikni) kiritdilar. Rim grammatikachilari so'z turkumiga undovlarni ham kiritdi. Ammo yunon tiliga xos bo'lgan artiklni chiqarib tashladilar. Chunki lotin tilida artikl yo'q edi. Demak, lotin tili uchun ham artikl so'z turkumi xos bo'lib qoldi. Rim tilshunoslari son turkumini ikkiga: tartib va tartib songa bo'lib o'rganishdi. Yuliy Sezar lotin tiliga yunon tilida mavjud bo'lmagan ablativ (ajratish) kelishigini kiritdi va kelishiklar sonini oltitaga yetkazdi.

Rim filologlari grammatikaga oid terminlarni ham yunon tilidagi terminlar asosida yaratdilar. Jumladan, yunon va rim grammatikasiga oid ayrim terminlar ruscha va o'zbekcha tarjimalari bilan quyidagilar: onoma, nomen — имя, ot; tema, verbum — глагол, fe'l (qadimgi rus tilida nutq); autonomia, pronomen — местоимения, olmosh; nomen adjectivum — имя прилагательное, sifat; epiptoma, adverbium — наречие, ravish; artron, artikulum — artikl; prodesis, praepositio — предлог, old ko'makchi, old qo'shimcha; syndesmos, conjunctio — союз, bog'lovchi; interjection — междометия, undov; soneenta, vokales — гласные, unlilar; symfona, consonantes — согласные, undoshlar va boshqalar.

Nullas, antik davr tilshunoslik maktablarining ahamiyati jahon tilshunosligi nuqtayi nazaridan yuksakdir. Ushbu davr Yevropa madaniyatining beshigi bo'lib maydonga chiqdi. Qadimgi yunon va Rim tilshunosliklari keyingi davr tilshunosligining taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Iskandariya tilshunoslik maktablari vakillari grammatikani mustaqil tungi aylantirdilar. Ular juda katta grammatik «ashyo» (material) to'plab, ot va fe'l turkumlarining asosiy kategoriyalarini aniqlab berishdi. Yunon tilshunoslari fonetika, morfologiya, sintaksis va etimologiya fanlarining asoslarini yaratdilar. Ular so'z va gap kabi muhim hamda murakkab haqiqiy birliklarni aniqlab, izohladilar, so'z turkumlarini ajratib berdilar.

Shuningdek, antik (qadimgi) davr tilshunosligining – yunon va Rim tilshunoslik maktablarining jiddiy kamchiliklari ham bor edi. Bu davr tilshunosligi ta'limotida tilga tarixiy yondashish prinsipi yo'q edi, ya'ni ushbu davr tilshunosligi, hind tilshunosligi kabi, tilning tarixiy taraqqiyotini tushunmas edi.

Ular yunon va Rim tillaridan boshqa tillarni tadqiq qilmadilar, ya'ni bir til (yunon yoki Rim tillari) doirasida qoldilar, boshqa barcha tillarni esa yovvoyi, qo'pol til deb hisobladilar. Shuningdek, ular ko'pgina grammatik kategoriyalarni mantiq kategoriyalari bilan qorishtirdilar.

Aytilganlarga qaramasdan, Yevropa grammatik ta'limoti deyarli XIX asrgacha qadimgi yunon va Rim filologlarining ta'limotlariga asoslanib keldi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Rim tilshunosligi qaysi tilshunoslik maktabiga ergashdi?  
What Linguistic School did Rome Linguistics follow?
2. Rim tilshunosligida kimlarning grammatikasi mukammal deb hisoblandi?  
Whose grammar was considered to be complete in Rome Linguistics?
3. Rim grammatikasiga, yunon grammatikasidan farqli, qanday yangiliklar kiritildi?  
What contained Rome grammar which differed it from Greek Grammar?
4. Yunon va Rim tilshunoslik maktablarining jiddiy kamchiligi nimadan iborat edi?  
What were serious drawbacks of the Greek and the Rome Linguistic Schools?

#### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Grammatika - tilshunoslik ma'nosida.  
Grammar is in the meaning of Linguistics.
2. Termin - fanga oid so'z bo'lib, ilmiylik belgisiga ega.  
Term is a word belonging to science which has a scientific feature.

## Adabiyotlar: Bibliography:

1. Я. В. Лоя. История лингвистических учений. - М., 1968
2. С. Усмонов. Умумий тилшунослик. - Т., 1972.
3. И. И. Кодухов. Общее языкознание. - М., 1974.
4. Т. А. Амброва. Б. А. Ольховиков, Ю. В. Рождественский. Очерки по истории лингвистики. - М., 1975.
5. И. А. Кондрашов. История лингвистических учений. - М., 1979.

## QADIMGI XITOIY TILSHUNOSLIGI

Qadimgi Xitoy tilshunosligida yozma manbalar alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bizning kunlarimizgacha yetib kelgan Xitoy yozuvining eng qadimiy yozma yodgorliklari eramizgacha bo'lgan XIII-XI asrlarga borib taqaladi. Ushbu yozma yodgorliklar hayvon (qo'y) suyaklari va toshbaqa qalqonlari bo'lib, ularda fol ochish jarayoni haqida ma'lumot beriladi. Bu qadimgi «manbalar» Xitoy tilshunosligi tarixida va taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi.

Fikr yuritilgan davrlardayoq Xitoy iyeroglifi muayyan so'z sifatida, so'zni anglatuvchi, ifodalovchi sifatida xizmat qilgan, ya'ni, Xitoy iyeroglifi logogramma hisoblangan.

Xitoy madaniy taraqqiyotiga hind madaniyatining ta'siri natijasida, ya'ni, Xitoyga Hindistondan buddizmning kirib kelishi sababli - hind tilshunosligining ta'siri bilan Xitoy tilshunoslari ona tillarining fonetik - prosodemik hodisasi - intonatsiyaning to'rta turini, ko'rinishini ishlab chiqdilar.

Xitoy tilshunoslari tomonidan, ayniqsa, xan davrida (bizning eramizgacha bo'lgan 206–bizning eramizning 220) leksikologiya, leksikografiya, iyeroglifika, fonetika, grammatika va dialektologiya masalalariga katta e'tibor berilgan.

Ushbu davrning eng buyuk tilshunosi Syuy Shen «Elementlar va murakkab belgilar haqida» asari bilan yozuv nazariyasining asoslarini yaratdi. Bu manba Xitoy tilshunosligida shu kunlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xitoy tilshunosligi, ayniqsa, XVII – XIX asrlarda keng quloch yoydi. Bu davrlarda tarixiy fonetika, etimologiya va sintaksisga (sintagmaga) oid

faktlar ustida ish olib borildi. Shuningdek, tanqidiy matnshunoslik taraqqiy qildi.

Xitoy tilshunosligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan ota-bola Van Nyan – Sun (1744–1832) va Van In-Chji (1766–1834) Xitoy grammatikasining asoschilari sifatida tan olinadi.

Xitoy tilshunoslari so'z masalasida mustaqil so'zlarni va yordamchi so'zlarni farqlaganlar. Mustaqil so'zlarni o't, sifat va fe'l turkumiga ajratganlar.

Yangi davr tilshunosligining yirik vakili tadqiqotchi Chjan Bin-Lin (1869–1936) bo'lib, u Xitoy tilining me'yoriy va tarixiy fonetika va dialektologiyasi masalalarini ishlab chiqdi. Shuningdek, u fonetik yozuv loyihasini ham tuzdi.

Umuman olganda, Xitoy tilshunosligining asosiy yo'nalishi, ayniqsa, o'rta asrlarda fonetika (yoki fonologiya) hisoblangan. Xitoy yozuvi ideografik yozuv bo'lib, har bir belgi so'zga yoki o'zakka muvofiq keladi. Fonetik jihatdan esa har bir belgi bo'g'inga to'g'ri keladi. Aslida amaliy jihatdan barcha o'zaklar bir bo'g'inlidir.

XVII–XVIII asrlarda Xitoyda tarixiy fonetika katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Agar Xitoyda tasviriy fonetika poetika bilan bog'langan bo'lsa, tarixiy fonetika qadimgi matnlarni sharhlashda yuzaga kelgan ayrim masalalarga javob berish bilan shug'ullandi.

Xitoy tili tarixiy fonetikasining yaratilishi Xitoy klassik tilshunosligining qo'lga kiritgan muhim yutug'i hisoblanadi. Bu jahon tilshunosligi fanida dastlabki yo'nalish sifatida butunlay tarixiylik prinsipiga asoslangan bo'lib, o'z oldiga bevosita kuzatishda beril-magan tilning o'tmish «shakli», holati bilan bog'liq hodisalarni, faktlarni tiklash maqsadini qo'yadi. Ayni jarayonning metodlaridan va qo'lga kiritgan natijalari, yutuqlaridan hozirgi kunlarda ham foydalanilmoqda.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Xitoy yozuvi - yozma yodgorliklari qaysi asrlarga tegishli va ular nimalardan iborat?

What century did Chinese written monuments belong to and what did it consist of?

2. Xitoy iyeroglifi nimani anglatadi?

What does Chinese hieroglyph mean?

1. Qaysi tushunchalarning asosiy yo'nalishi qaysi soha bilan bog'lanadi?  
Kaysi yere were major trends in Chinese Linguitics defined by?

**Asosiy tushunchalar:**

**Basic notions:**

1. logogram - so'z, logogramma.

logograph is a word, logogramma.

2. Tarixiy fonetika - fonetik hodisalarni tarixiy aspektda o'rganish.

Historical Phonetics is studying of phonetic phenomena from historical point of view.

**Adabiyotlar:**

**Bibliography:**

1. И.И. Дуб. История лингвистических учений. - М., 1968.

2. Г.А. Азарова, Б.А. Ольховиков, Ю.В. Рождественский. Очерки по истории лингвистики - М., 1973.

3. История лингвистических учений. Средневековый Восток. - М., 1981.

## II. O'RTA ASRLAR TILSHUNOSLIGI

O'rta asrlar V asrdan (476) boshlab, XV asrgacha (1492) bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi. Ushbu davr deyarli barcha fanlar taraqqiyotida, shu jumladan, Yevropa tilshunosligida ham turg'unlik davri deb e'tirof qilinadi. Aniqrog'i, ayni davr tilshunoslik taraqqiyotida na faktik materiallar to'plashda, na mukammal nazariyalar, g'oyalar yaratishda – tilshunoslik fanining ilgariylashida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Buning asosiy sababi shundaki, g'arbiy Yevropada mazkur davrdagi tarixiy sharoit, katolik cherkovining reaksion tazyiqi ilm – fanning o'sishiga, rivojiga jiddiy to'siq qinlik qildi. Shunga qaramasdan o'rta asrlarda shu davrgacha yozuvga ega bo'lmagan bir qator xalqlarda, masalan, got, arman, irland, qadimgi ingliz, slavyan va boshqalarda yozuv - yozuv sistemasi paydo bo'ldi.

O'rta asr Yevropasining yagona, asosiy o'rganiladigan, tadqiq qilinadigan tili lotin tili hisoblandi. Lotin tilida davlat hujjatlari tuzilar, ilmiy va badiiy asarlar yozilar, katolik cherkovidagi diniy jarayonlar amalga oshiriladi. Bu til bilim olishning ham kaliti hisoblanardi. Lotin tili mantiqiy fikrlash manbasi deb ham tushunilardi. Lotin tili grammatikasining qoidalari va tushunchalari barcha tillar uchun umumiy hisoblanib, yangi tillar grammatikasiga ko'chirilar edi. Natijada, har bir boshqa tilning o'ziga xosligi yo'qolar edi. Ammo bu davrda ushbu tilda gaplashilmas-nutqiy faollik yuritilmas edi, ya'ni, u «o'lik» tilga aylangan edi. Shuning uchun lotin tilining talaffuzi emas, harflari, so'zlarning yozilishi muhim edi. Lotin tili, asosan, Donata va Prissian grammatikasi asosida o'rganilar edi.

Yevropada o'rta asrlarning oxirroqlarida – XI–XII asrlarda falsafiy-lisoniy bahs-munozara avj olib ketdi. Bu munozara realizm va nominalizm ta'limotlari nomini oldi.

**Ruhoniy Anselm** (1033–1109) boshchiligidagi realizm ta'limotiga ko'ra faqat umumiy tushunchalargina (masalan, daraxt tushunchasi, harakat tushunchasi va b.) real mavjud. Ushbu tushunchalarga muvofiq keluvchi predmet va hodisalar esa ularning kuchsiz nusxasi, xolos. Yana ham anig'i, obyektiv dunyo umumiy tushunchalardangina iborat. Ayni tushunchalarda qayd etilgan, ifodalangan predmet va hodisalar esa o'sha tushunchalarning yuzaki nusxasi (kopiyesi) dir.

**Rosselin** (1050–1110) boshchiligidagi nominalizm ta'limoti esa, haqiqatga to'la muvofiq, real tarzda faqat o'ziga xos xususiyatlarga

haqiqatga o'q bo'lgan narsa, predmet, hodisalargina mavjud, degan fikrni asos tutadi.

Ushbu tafakkurimiz orqali ushbu predmet va hodisalardan chiqarilgan umumiy tushunchalar esa, deyishadi bu ta'limot vakillari, real mavjud bo'lmaydi. Ular inson tafakkurining mahsuli hisoblanadi, shuning natijasi sifatida hosil bo'ladi, yuzaga keladi.

Platon (427-347) boshchiligidagi konseptualistlar (mo'tadil fikranchilar) ham mutlaqo to'g'ri holda real tarzda faqat alohida narsalar mavjud, ular umumiy tushunchalarimizning asosi bo'lib xizmat qiladi, deyishadi.

Konseptualistlar umumiy tushunchalar alohida mavjud bo'lmaydi, balki real mavjud narsa - predmetlardan hosil qilinib, narsa, predmet va hodisalarning asosiyatlarini aks ettiradi, deydi. Ushbu fikr hozirda ham falsafiy ta'limda tan olingan. Chunki bu g'oya obyektiv haqiqatga to'la muvofiq keladi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for consolidation:**

1 O'rta asrlar qaysi davrlarni o'z ichiga oladi va nima uchun bu davr bog'lanish davri deb yuritiladi?

2 Who periods did the Medieval period include and why is this period called to be a stagnation period?

3 Yana uchun lotin tili o'rta asrlar Yevropasining asosiy tili hisoblanadi?

4 Why was Latin considered to be a major language for the Medieval Europe?

### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1 O'rta asrlar - V asrdan XV asrgacha bo'lgan davr.

2 The Medieval period is a period between V-XV centuries.

3 Latin tili - faqat yozuv tili (o'lik til).

4 Latin is a written language (dead language).



**Adabiyotlar:**  
**Bibliography:**

1. Я.В.Лоя. История лингвистических учений. -М., 1968.
2. Н.А.Кондрашов. История лингвистических учений. -М., 1979
3. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. -Т., 1972.
4. В.И.Кодухов. Общее языкознание. -М., 1974.

**ARAB TILSHUNOSLIGI**

VII–VIII asrlarda Araviya hududida va arablar tomonidan bosib olingan qator mamlakatlarda – Old Osiyo, Shimoliy Amerika ham-da Pireney yarim orolida – jahon miqyosidagi mamlakat – Arab xalifaligi tashkil topdi.

Arab xalifaligi islom diniga asoslangan ko'p millatli davlat bo'lib, xalifatda ish yuritish vositasi va fan tili arab tili hisoblangan.

Arab xalifaligida tilshunoslikning paydo bo'lishi va rivojlanishi, Hindistondagi kabi amaliy ehtiyojlar bilan bog'lanadi, ya'ni, bu davrda eski yodgorliklar va Qur'on tili bilan jonli arab tili (shevalari) orasida katta farqlanish yuzaga keladi.

Bir tomondan, musulmon dunyosining muqaddas diniy kitobi bo'lgan Qur'onni tushunarli qilish, undagi so'zlarni to'g'ri va aniq talaffuz qilish, ikkinchi tomondan, klassik arab tilini shevalar ta'siridan saqlash maqsadida arab olimlari til masalalari bilan jiddiy shug'ullanishga kirishdilar.

Arab tilshunosligi o'z taraqqiyoti davrida hind va yunon tilshunosligi yutuqlariga, o'z an'analariga tanqidiy va ijobiy yondashgan. Arablar o'z tillarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda undan foydalanganlar.

VII–VIII asr arab tilshunosligining dastlabki markazlari Iroqning Basra va Kufa shaharlari hisoblangan. Basra va Kufa shaharlarida ikkita lisoniy maktab tashkil topgan bo'lib, ular o'rtasida tilshunoslikning ko'pgina masalalari yuzasidan «fikrlar jangi», qizg'in bahslar, munozaralar olib borilgan. Ushbu lisoniy munozaralar tilshunoslik fanining markazi Arab xalifaligining poytaxti bo'lgan Bag'dod shahriga ko'chirilganidan so'ng to'xtagan.

Arab tilshunosligining asoschilaridan biri Basra grammatika maktabining vakili Xalil al - Farohidiy (taxminan 718–791) arab tilining

«Kitobul ayn» (Kitobul ayn) deb nomlab, unda grammatikaga oid muhim fikrlarni bayon etdi. Shuningdek, olim «Kitobul avomil» («Boshqa-ruvchilar kitobi») nomi bilan ham yozdi. Ammo bu asarlar bizgacha yetib kelmagan.

Katib al-Farohidiyning shogirdi, mashhur arab tilshunosi, kelib chiqishiga ko'ra fors basralik Amir bin Usmon Sibavayxiy o'zining salmoqli «Al-kitob» asarini yaratdi. Muallif ushbu asarda o'zigacha ko'rgan barcha tadqiqotchilarning ta'limotlarini, fikrlarini, qarashlarini umumlashtiradi. U arab tili grammatikasining tugal va mukammal ko'rinishini taqdim etadi. Ushbu asar har ikkala: Basra va Kufa maktabi vakillari tomonidan bir xilda yuqori baholangan va qadrlangan.

Katib chiqishiga ko'ra yunon Abu-Abayda (770–837) noyob so'z va ibora ifodalarning keng qamrovli lug'atini tuzadi.

Bog'dodlik hind Sag'ani (1181–1252) 20 tomlik lug'at yaratadi va uni «Ta'liqlar toshqini» deb nomlaydi.

Kisrlik ibn Mansur (1232–1311) katta hajmdagi salmoqli lug'at tuzib, uni «Arab tili» deb ataydi.

Shirazlik fors Feruzobodiy (1329–1414) 60 tomlik lug'at tuzgan va uni «Qomus» (ocean) deb nomlagan. Bundan keyin yaratilgan ko'plab lug'atlar ham «Qomus» nomi bilan ataladigan bo'lgan.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan, keltirilgan asarlardan ma'lum bo'ladi, arab tilshunoslari leksikografiyaga alohida, jiddiy ahamiyat berganlar. Shuning uchun arab tilshunosligida leksikografik tadqiqotlar muhim o'rinni egallaydi. Arab leksikograflari ayrim predmetlarni anglatadigan sinonimlar lug'atini, masalan, qilichni anglatadigan 500 ta, aslorni anglatadigan 500 ta, tusni ifoda etadigan 400 ta so'z va iboradan tashkil topgan ko'plab turli mavzudagi lug'atlarni tuzganlar. Demak, arab tilshunoslari leksikografiya sohasida juda katta yutuqlarga erishganlar.

Xullas, arab leksikografiyasida lug'atlar mazmuniga ko'ra olti guruhga bo'linadi: 1. To'liq izohli lug'atlar. 2. Predmet lug'atlari (masalan, hayvonlar bilan bog'liq lug'atlar va b). 3. Sinonimlar lug'ati. 4. Noyob so'zlar lug'ati. 5. O'zlashgan so'zlar lug'ati. 6. Tarjima lug'atlari.

Arab leksikografiyasi Sharq – Eron, Turkiya, qisman hind xalqlariga ham, Yevropa xalqlariga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Arab tilshunoslari, yunon tilshunoslaridan farqli, fonetika masalalariga g'oyat sezgirlik bilan munosabatda bo'lganlar. Ular tovush va harfni, yunonlardan farqli, qat'iyon farqlaganlar. Shuningdek, harf termini bilan faqat yordamchi so'z va affikslarigina emas, balki nutq

tovushini, aloma termini bilan esa tovushning yozuvdagi ko'rinishini, ya'ni, harfini ifodalaganlar.

Arablar unli va undosh tovushlarni farqlab, undoshni mohiyat, unlini esa o'tkinchi deb ta'riflaganlar va arab so'zlarida (o'zaklarida) undosh tovushlarning asosiylikini, yetakchiligini ta'kidlaganlar. Qiyoslang: kitob, kotib, kutub. Shunga ko'ra, ular uch undoshli o'zaklarni alohida ajratganlar.

Arab tilida o'zak 3 (ba'zan 4) undoshdan iborat bo'lib, so'z va so'z formalarini yasash paytida bu undoshlar orasidagi unli tovushlar o'zgartiriladi (kitob, kotib, kutub). So'zning bunday tuzilishi fleksiya (egilish) haqidagi ta'limotni yaratishga olib keldi. Shunga ko'ra, arab - yahudiy filologiyasida o'zak, so'z yasovchi elementlar tushunchasi bilan birga fleksiya haqidagi tushuncha ham paydo bo'ldi.

Arablar, hindlar kabi, tovushlarni akustik va fiziologik belgilariga ko'ra farqlaganlar. Nutq a'zolari sifatida og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i va bo'g'iz hisoblangan. Nutq tovushlarini hosil qilishda bo'g'iz, til, tanglay, milk, tish, lab xizmat qilishi ta'kidlangan.

Arab tilshunosligida sintaksis masalalari, hind va yunonlarda-gidek, grammatikaning eng bo'sh bo'limi hisoblangan. Shunga qaramasdan, arablarda sintaksisning tekshirish obyekti sifatida gap, gapning struktur-semantik tahlili kuzatiladi. Ular gapning kamida ikki so'zdan - ikki otidan yoki ot va fe'ldan iborat bo'lishini, bu so'zlar o'rtasidagi subyekt - predikat munosabatining o'rganilishini to'g'ri ta'kidlaydilar. Gaplarning tuzilishiga ko'ra otli, fe'lli va holli turlarga bo'linishini qayd etdilar. Otli gaplarning ot so'zdan boshlanishini (masalan, Zayd turibdi), fe'lli gaplarning esa fe'l so'zdan (masalan, turgan Zayd) boshlanishini aytadilar.

Otli gapning egasi muftado, kesim esa xabar deb nomlanadi. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari sifatida 1) to'ldiruvchi, 2) hol va 3) izohlovchilar ko'rsatiladi.

So'zlar o'rtasidagi sintaktik munosabatga xizmat qiluvchilar sifatida moslashuv, boshqaruv va bitishuv olinadi. Otli gaplarda ega kesim bilan moslashadi.

Arab tilshunoslari morfologiyada, Aristotel kabi, uchta so'z turkumini-ismun (ot), fe'lun (fe'l) va harfun (yuklama, yordamchi so'zlar va affikslarni) ajratadilar. Otni keng ma'noda olib, uning tarkibiga ot, sifat, olmoshlarni ham kiritadilar.

Otlarni aloqli va turdosh otlarga, turdosh otlarni esa aniq va mavhum otlarga ajratadilar. Otlarning son, egalik, kelishik kategoriyalari ancha muhimni tasvirlanadi. Otlarning kelishik kategoriyalari sifatida tushum kelishigi (-ni), jo'nalish kelishigi (-ga, -ka, -g'a), o'rin va payt kelishigi (-da), chiqish kelishigi (-dan) va birgalik kelishigi (bila) qayd etiladi. Darajali kelishigi alohida izofa hodisasi sifatida tushuntiriladi. Bosh kelishik haqida so'z yuritilmaydi.

Arab grammatikasining morfologiya qismi Sibavayxiy asarida puxta ishlab chiqilgan. Aniqrog'i, u morfologiyaga oid quyidagi masalalarni tadqiq qildi: 1. So'z turkumi. 2. O'zakning tuzilishi. 3. Ot va uning tasnifi. 4. Fe'l va uning shakllari va boshqalar.

Arab tilshunolarining tadqiqotlarida fe'l markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Sibavayxiy o'z ishlarida fe'lning qator grammatik kategoriyalari: o'timlilik, o'timsizlik, nisbat, shaxs, son va boshqalarni qayd etadi. Fe'llarni tuzilishiga ko'ra tub va yasama fe'llarga ajratadi.

Amblarda sonlar birliklar, o'nliklar, yuzliklar va mingliklarga bo'linadi. Olmoshlarning kishilik va o'zlik olmoshi kabi turlari qayd etiladi, ularning (masalan, kishilik olmoshlarining uch shaxsi: man, san, o'z, biz, siz, ular) kabi ichki turlari ham beriladi.

Arab tilshunolarining asosiy tadqiqot obyektlaridan biri sifatida lug'atlar kuzatiladi. Arab leksikologlari so'zlarni turli nuqtayi nazardan o'rganadilar. Bu holda ular so'zlarning tuzilishini, ma'nosini, kelib chiqishini, qo'llanish darajasini hisobga oladilar, shunga ko'ra, so'zlarga baho beradilar.

Arablar so'zlarning bir ma'noli va ko'p ma'noli bo'lishini aytadilar. Ular so'zlarning ko'p ma'noliligi ayni bir so'zning turli joylarda turli predmet va hodisalarni anglatishidan hosil bo'lishini, ya'ni, shuning natijasi ekanligini ta'kidlaydilar. So'zlarning to'g'ri va ko'chma ma'nolarga ega bo'lishini aytib, ko'chma ma'no hosil bo'lishining o'n ikki usulini ishlab chiqadilar.

Arab leksikologiyasida sinonim va antonim so'zlarga alohida e'tibor beriladi va tadqiqotlarda keng o'rin ajratiladi.

Arab tilshunolari, asosiy e'tiborni o'z ona tillariga qaratishdan tashqari, fors, mo'g'ul va turkiy til masalalari bilan ham shug'ullanganlar.

Turkiy til masalalari bo'yicha tilshunos Asiruddin Abu hayyon al-Andalusiy (1256-1344) qator asarlar yaratdi. Ma'lumotlarga qaraganda, bu asarlarning o'ndan ortig'i bizgacha yetib kelgan. Masalan, 1. «Kitobul

af'ol fillisoniy turkiya» («Turk tilidan ish kitobi»). 2. «Kitob zahvul mulk finnahvit turkiya» («Turk sintaksisi sohasidan yorqin kitob»). 3. «Adduratul mudit'a fil lug'atit turkiya» («Turk tili tarixi») 4. «Kitob al idroki lisonul atrok» («Turklar tilini tushunish kitobi»).

«Turklar tilini tushunish» kitobi (1312) arab tilida yozilgan bo'lib, kirish, lug'at va grammatika bo'limlaridan tashkil topgan. Muallif asarning kirish qismida til sistemasining tuzilish elementlari – tashkil qiluvchilari sifatida lug'at tarkibini, morfologiya va sintaksisini ko'rsatadilar, ya'ni, u alohida olingan so'zlarning ma'nolarini, so'zlarning turlanishi va tuslanishining qoidalarini hamda so'z birikmalarini qayd etadi.

Asarning lug'at qismida turkiy so'zlar arab alfaviti tartibida joylashtirilgan bo'lib, unda 3000 ga yaqin so'z mavjud.

Asarning morfologiya qismida so'z turkumlari haqida fikr yuritiladi. Bunda ot, fe'l va harf (yordamchi so'zlar va affikslar) alohida qayd etiladi. Turkiy tillarning so'z yasash, so'z o'zgartirish va forma yasash kategoriyalari haqida ma'lumot beriladi. Asarda sintaksisning so'z birikmasi ta'limotiga to'xtab o'tiladi.

Turkiy tilga bag'ishlangan muallifi noma'lum «At - tuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya» («Turkiy til haqida noyob tuhfa») asari ham bo'lib, u XIV asrga oid deb taxmin qilinadi. Arab tilida yozilgan bu manba professor S.Mutallibov tarjimasida o'zbek tilida Toshkentda (1968) nashr qilingan. Asar akademik E.Fozilov va M.T.Ziyayevlar tomonidan rus tiliga o'girilib, «Изысканный дар тюркскому языку» nomi ostida (akademik A.N.Kononov muharrirligida) Toshkentda (1978) chop etildi.

Asarda qipchoq shevasining lug'at tarkibi va grammatik qurilishi tasvirlanadi. Tadqiqot uch bo'limdan: 1. Qisqacha kirish. 2. Lug'at va 3. Grammatikadan tashkil topgan. Manbaning kirish qismida til va jamiyat masalasiga e'tibor qaratilib, tilning jamiyatdagi vazifasi, o'rni, uning tafakkur bilan bog'liqligi haqida fikrlar beriladi.

Muallif: «Inson hayvondan faqat tushunish va til (so'zlash, bizningcha-nutq R.R.) bilangina farq qiladi», - deydi. Demak, fikr-lash va til (nutq) qobiliyati faqat insongagina xos ekanligi ta'kidlanadi. Binobarin, inson ana shu qobiliyatiga ko'ra o'zgalalar bilan, jamiyat a'zolari bilan aloqaga kirishadi, o'zaro aqliy, lisoniy munosabatda bo'ladi.

Ishning kirish qismida, shuningdek, grafika – yozuv bilan bog'liq ayrim masalalar hamda ba'zi tovushlar haqida, tovushlarning fiziologik –

talaffuz xususiyatlari hamda talaffuz vaqtida tushib qolish xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Masalan, d: ichir (asli ichdir); b: agar (asli arabcha alqar); r: bila (asli birla, birlan); q: sichan (sichqan), tashari (tashqari), boshar (bushqar); k: ichari (ichkari); ng: aliz (alingiz).<sup>3</sup>

Asarning lug'at bo'limida uch mingta turkiy so'z qayd etiladi. Ular arab tiliga tarjima qilinadi, ma'nolariga alohida e'tibor beriladi.

Ma'nabuning grammatikaga oid bo'limida muallif, asosan, morfolo-giyaga katta e'tibor beradi. Ishda turkiy til grammatikasi arab tili grammatikasiga qiyoslanadi. Aniqrog'i, arab tili grammatikasi aso-sida turkiy til grammatikasi tahlil qilinadi.

Asarda turkiy tildagi so'zlar arab tili grammatikasi asosida uch turkumga ot (ismun), fe'l (fe'lun) va yordamchi so'zlar (harfun)ga ajratiladi. Sifat, son va olmoshlar arab tili an'anasiga muvofiq ot turkumi tarkibiga kiritiladi. Ot ma'no jihatdan atoqli, turdosh, jamlovchi va bi-hayotli otlariga ajratiladi. Otlarning grammatik kategoriyalari: son, egalik va kelishik kategoriyalari haqida yetarli darajada ma'lumot beriladi. Otlarning son jihatdan birlik va ko'plikka ega ekanligiga e'tibor qaratiladi. Qiyoslang: at-atlar; epchi-epchilar (ayol-ayollar).

Otlarda egalik shakllari birlik va ko'plik ko'rinishiga, tuzilishiga ega ekanligi aytiladi. Qiyoslang: b a s h i m, k o' z i m - b a s h i - m i z, k o' z i m i z; b a s h i n g, k o' z i n g - b a s h i n g i z, k o' - z i n g i z; b a s h i, k o' z i - b a s h l a r i, k o' z l a r i.<sup>4</sup>

Asarda beshta kelishik kategoriyasi qayd etiladi. Bular: 1. Tushum kelishigi. 2. Jo'nalish kelishigi (-g'a, -ga, -qa, -ka, -a, ust). 3. O'rin-payt kelishigi (-da). 4. Chiqish kelishigi (-tan, -dan). 5. Birgalik kelishigi (bila).

Asarda sifat haqida ma'lumot beriladi hamda belgining eng ortiqligini ifodalovchi shakllar: -roq, -rak affikslari keltiriladi.

Olmoshlarning - kishilik olmoshlarining uch shaxsi: man, san, o'z; biz, siz, o'zlar qayd etiladi.

Asarda son turkumining to'rtta darajasi keltiriladi. Bular: birlik-lar: bir, ikki, uch, besh...; o'nliklar: o'n, yigirma, qirq, elli...; yuz-liklar: yuz, ikki yuz, uch yuz, to'rt yuz...; mingliklar: ikki ming, uch ming, to'rt ming... va boshqalar.

Muallif «At - tuhfa» asarida fe'l (fe'lun) turkumiga atroflicha to'xtaladi. Fe'l turkumining qator grammatik kategoriyalari: zamon, mayl, bo'lishli-bo'lishsizlik, shaxs, o'timlilik, nisbatlar haqida fikr

<sup>3</sup> A. Nurmonov. Ўзбек тилшунослиги тарихи. -Т., 2002, 61-бет.

<sup>4</sup> A. Nurmonov. O'sha asar. 63-бет.

yuritadi. Ishda fe'ning ancha murakkab bo'lgan nisbat kategoriyasi - uning majhullik, birgalik, orttirma va o'zlik nisbatlari haqida ma'lumot beriladi. Manbada fe'ning o'tgan, hozirgi va kelasi zamon kategoriyalari ham atroflicha yoritiladi.

«At - tuhfa» da harfun - yordamchi so'zlar masalasiga ham e'tibor beriladi. Turkiy tilda da g' i, t a q i, y o' q s a, y o' q, y a, a m m o kabi so'zlar bog'lovchi bo'lib kelishi aytiladi. Yuklamalar haqida fikr yuritilgan bo'limda faqat ta'kid yuklamalarigina emas, balki, umuman ma'noni kuchaytirish usullari haqida fikr beriladi. Qiyoslang: biy-biy (bek-bek); al-al; uk-uk.<sup>5</sup>

Turkiy tilda undovlarning uchta ekanligi aytiladi. Bular: ey, abav, abu. Masalan: A kichi! Ey odam!

«At - tuhfa» asarida grammatikaga – sintaksisga oid ma'lumotlar ham berilgan bo'lib, uning asosini gap haqidagi fikrlar tashkil qiladi. Gaplar otli va fe'lli gaplarga ajratiladi. Gapning zaruriy, tarkibiy qismlari sifatida ega (mubtado) va kesim (xabar) beriladi. Muallif: Biy uydadir, gapini sintaktik jihatdan, mutlaqo to'g'ri, ega (biy) va kesim (uydadir) kabi bo'laklarga ajratadi.

Ishda, asosan, so'roq gaplar haqida fikr yuritiladi. So'roq gaplarning o'ziga xos xususiyatlari, hosil bo'lishi, so'roq vositalari haqida fikrlar beriladi. Masalan, B i y l a r k e l d i l a r m i? N a d a n k u l a r s a n? N e c h a a q c h a d i r? va boshqalar.

Xullas, arab tilshunosligi, umuman, jahon tilshunosligi tarixida yorqin iz qoldirgan bo'lib, Yevropaga hind tilshunosligiga nisbatan ancha oldin ma'lum bo'lgan.

XIII asrning o'rtalarida (1258) arab xalifaligining poytaxti bo'lgan Bog'dod mo'g'ullar tomonidan bosib olinadi. Natijada, xalifalik o'z ichida alohida davlatlarga bo'linib ketadi. Shu bilan arab madaniyatining klassik davri o'zining nihoyasiga yetadi.

### Mustahkamlash uchun savollar: Questions for Consolidation

1. Arab tilshunosligining paydo bo'lishiga nima sabab bo'ldi?  
What are the grounds of formation of Arab Linguistics?
2. Arab tilshunosligining dastlabki markazlari qacer?  
What are the first centres of Arab Linguistics?

<sup>5</sup> A. Nurmonov. O'sha asar, 68-bet

1 Amir bin Usmon Sibavayxiy kim?

Who was Amir bin Usman?

4 Arab leksikografiyasida lug'atlar mazmunan nechta guruhga bo'linadi?

How many groups are dictionaries divided into in Arab lexicography according to their content?

5 Arab tilida o'zak nechta undoshdan iborat bo'ladi va u nima deb ataladi?

How many consonants does the stem consist of in Arabic and what is it called?

6 Arab tilshunosligida nechta so'z turkumi farqlanadi?

How many parts of speech are distinguished in Arab Linguistics?

7 "At-tuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya" qanday asar?

What is "At-tuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya"?

### Asosiy tushunchalar:

#### Basic notions:

1 Qur'on – musulmon olamining muqaddas diniy kitobi.

The Koran (Qur'an) is a sacred religious book of the Muslim World.

2 Halil al Farohidiy – arab tilshunosligining asoschilaridan biri, arab tili ilk lug'atining muallifi.

Halil al Farahidi was one of the founders of Arab Linguistics, the author of the first Arabic dictionary.

3 Undosh tovush – mohiyat.

A consonant sound is the essence.

4 Unli tovush – o'tkinchi.

A vowel sound is transitory.

5. Muftado – ega.

Muftado is a subject.

6. Xabar – kesim.

Xabar is a predicate.

7. Ismun – ot.

Ismun is a noun.

8. Fe'lun – fe'l.

Fe'lun is a verb.

9. Harfun – yordamchi so'zlar.

Harfun is auxiliary words.



10. "At tuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya" – turkiy til qipchoq shevasining lug'at tarkibi va grammatik qurilishiga oid bo'lib, arab tilida yozilgan. Muallifi noma'lum asar (XIV).

"At tuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya" is a book on vocabulary stock and grammar structure written in Arabic. The author of the book is unknown (XV c.)

**Adabiyotlar:**  
**Bibliography:**

1. Я.В.Лоя. История лингвистических учений. -М., 1968.
2. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. -Т., 1972.
3. Т.А.Амирова, Б.А.Ольховиков, Ю.В.Рождественский. Очерки по истории лингвистики.- М., 1975.
4. Н.А.Кондрашов. История лингвистических учений. -М., 1979.
5. История лингвистических учений. Средневековый Восток. М., 1981.
6. А.Нурмонов. Ўзбек тилшунослиги тарихи. -Т., 2002.

## O'RTA OSIYODA TILSHUNOSLIK

U O'rtasiyolik mashhur allomalarning jahon madaniyati, ma'rifati ilmiyotiga qo'shgan hisnisi ulkandir. Jahon tan olgan buyuk allomalari: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Eshqshariy, Mahmud az-Zamahshariy, Alisher Navoiy, Mirzo Mehdixon va boshqalarning tilshunoslik fani taraqqiyotidagi xizmatlari kattadir.

### Abu Nasr Forobiy

Ummusiy olim Abu Nasr Forobiy (873–930) yaratgan asarlar ichida «Fanlar tasnifi» (yoki «Fanlar tasnifi haqidagi so'z») kitobi tilshunoslik masalalariga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi. Buyuk alloma ilmlarshunoslikning fonetika, morfologiya, sintaksis, orfografiya, orfoepiya va shuningdek kabi fanlari haqida dastlabki tushunchalarni bergan.<sup>6</sup>

Forobiy fonetika haqida fikr yuritir ekan, nutq tovushlari, tovushshunoslikning undosh va unli turlari, undosh tovushlarning paydo bo'lishi, zamon, unli tovushlar va ularning xususiyatlari, so'zga qo'shimchalar qo'shiganda yuz beradigan tovush o'zgarishlari, so'zning fonetik me'yori haqida fikr yuritadi.

U leksika yuzasidan ma'lumot berar ekan, leksik birlik bo'lgan so'z birikmasiga, so'z ma'nolarining tasnifi masalasiga to'xtaladi, ya'ni, so'z ma'noshuning ikki turini: sodda va murakkab bo'lishini ko'rsatadi. Sodda ma'noli so'zlarga: o d a m, h a y v o n, g u l, o v q a t, o s m o n kabi ma'noli so'zlarga narsa va uning belgisini bildiruvchi: B u o d a m – b i l i m l i, h a g u l – o' s i m l i k kabi ifodalarni kiritadi.

Forobiy morfologiya masalasida so'zlarni arab tilshunosligiga mosdangan holda ot, fe'l va harflarga ajratadi. Otlarni ikkiga: atoqli va boshqalarga ajratadi. Aniqrog'i, sodda ma'noli so'zlarni ikkiga ajratadi: 1) atoqli otlar: Z a y d, A m r; 2) turdosh otlar: o d a m, h a y v o n, o t va boshqalar. Otlarga son kategoriyasi (birlik, ikkilik, ko'plik), fe'larga zamon kategoriyasi (o'tgan, hozirgi, kelasi) xosligini ta'kidlaydi.

U morfologiya masalasida so'z birikmasi haqida, nutqning qismlarga ajratilishi, so'zlarning qanday birikish qoidalari va hukm bildirishi, so'zlarning qo'shilish turlari haqida fikr yuritadi.

<sup>6</sup> Ushbu kitob Forobiy va Abu Rayhon Beruniyning tilshunoslikka oid fikrlarini berishda A. Nurmonovning ko'rsatilgan asarlaridan foydalanildi.

Forobiy orfografiya masalasida soʻzlarning yozilish qoidalari yuzasidan ham dastlabki maʼlumotlarni beradi.

Forobiy sheʼriyat – sheʼr haqida fikr yuritar ekan, sheʼming yozilish oʻlchovlari, yaʼni, sheʼming yozilishidagi toʻliq va notoʻliq oʻlchovlar, qaysi oʻlchov yoqimli va chiroyli ekanligi, umuman, sheʼr tovush va boʻgʻinlardan tashkil topishi haqida fikr bayon qiladi.

Forobiy ulugʻ faylasuf olim sifatida umumiylik va xususiylik dialektikasi nuqtayi nazaridan tilga, lisoniy hodisalarga ham muro-jaat qiladi.

U ot, feʼl va yuklama kabi soʻz turkumlarining arab tilida ham, yunon tilida ham mavjudligini aytib, buni umumiylik sifatida talqin qiladi. Ayni vaqtda arab tilshunoslari ushbu soʻz turkumlarini shu til hodisalari, birliklari asosida tahlil qilsalar, yunon tilshunoslari esa qayd etilgan morfologik kategoriyalarni oʻz ona tili materiallari asosida oʻrganishlarini taʼkidlaydiki, bu jarayon xususiylik sifatida namoyon boʻladi. Binobarin, dialektik falsafaning umumiylik va xususiylik kategoriyasi tilning muayyan tushunchalari orqali oʻzining isbotini, tasdigʻini topadi.

### **Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy**

Oʻrta asr Yevropasida Aliborona nomi bilan mashhur boʻlgan qomusiy alloma xorazmlik Abu Rayhon al-Beruniy (937–1048), maʼlumotlarga qaraganda, 150 dan ortiq asar yaratgan. Ushbu asarlar matematika, fonetika, kimyo, astronomiya, joʻgʻrofiya, tibbiyot, adabiyot, musiqa, riyoziyot va tilshunoslik kabi qator sohalarga oid boʻlib, jahon ilm-fanining durdonalari sifatida qadrlanadi.

Abu Rayhon Beruniyning lisoniy qarashlari «Saydana» nomli asarida beriladi. Anigʻi, ushbu asar dorivor oʻsimliklar, hayvonlar va maʼdanlar tavsifiga bagʻishlangan boʻlib, unda dorivor moddalarning bir necha tillardagi nomlari keltiriladi. Buyuk alloma ushbu asarda dorivor moddalarning bir necha tillarda qanday nomlanishinigina bayon qilib qolmasdan, balki ushbu moddalarning har bir tildagi mahalliy, yaʼni, har bir shevadagi nomlanishini ham alohida koʻrsatib beradi. Demak, muallif predmet va uning nomi munosabati masalasiga alohida ahamiyat beradiki, ayni masala qadimgi tilshunoslik davridan toʻ shu kungacha ham til haqidagi fanning eng dolzarb muammolaridan biri boʻlib kelmoqda.

Heruniy she'riyat masalalari bilan ham shug'ullanadi, asarlar yaratadi, a'ini ham she'r ijod qiladi. U «Saydana» asarida qator shoirlarning she'riyatidan namunalar keltiradi.

Heruniy asardagi 29 bob va 1116 maqolada dorivor moddalarning nomiga izoh beradi, har bir bob bir harfga bag'ishlanadi. U asarda 4500 dan ortiq arabcha, yunoncha, suriyacha, forscha, xorazmiycha, so'g'dcha, turkcha va boshqa tillardan o'simlik, hayvon, dorivorlar nomlarini to'playdi va izohlaydi. Demak, «Saydana» asari ayni vaqtda dorivor moddalar nomlarining izohli lug'ati sifatida ham qadrlanadi. Muallif asarda dorivor moddalar nomini arab alifbosi tartibida joylashtiradi. Bir harf bilan boshlanuvchi bir necha so'z bo'lsa, ular shu harf bobida ichki alfavit asosida beriladi. Mazkur lug'at ham izohli, ham tarjima, ham etimologik, ham dialektologik lug'at sifatida alohida ahamiyatga egadir.

### Abu Ali ibn Sino

Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan va Sharqda ulug'lab, «Shayhurras» nomi bilan atalgan vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino (980–1037) turli sohalarda, shu jumladan, tilshunoslik bobida ham bir qancha asarlar yaratdi.

Qomusiy alloma Ibn Sino: 1) «Kitobi al mill fin-nahv» («O'tkir-lik sintaksisida ekanligi kitobi»); 2) «Kitob lisonul arab» («Arab tili kitobi»); 3) «Asbobi xudut al xuruf» («Tovushlarning chegaralanish sabablari») kabi tilshunoslikka oid qator asarlar qoldirdi. Shu kungacha «Asbobi xudut al xuruf» asarining to'rtta nashri: Qohira (2), Tiflis va Toshkent nashrlari ma'lum. Asarning Toshkent nashrini tayyorlashda professor A.Mahmudov va professor Q.Mahmudovlarning xizmatlari katta bo'ldi.

Ushbu asar kirish va olti bobdan tashkil topgan. Manbada tovushning hamda nutq tovushlarining paydo bo'lish sabablari, bo'g'iz va tilning anatomiyasi, ayrim arab tovushlarining paydo bo'lishidagi o'ziga xosliklari, ushbu tovushlarga o'xshash nutq tovushlari hamda tovushlarning nutqiy bo'lmagan harakatlarda eshutilishi kabilar haqida fikr yuritiladi.

Ibn Sino tovushning hosil bo'lishida havoning to'liqinsimon harakati sabab ekanligini to'g'ri ko'rsatadi. Aniqrog'i, artikulyatsiya o'rnidan havoning siqilib chiqishi natijasida nutq tovushlari yuzaga keladi. U fizikaviy tovushlar bilan nutq tovushlarini bir-biridan farqlaydi. Fizikaviy tovushlarni «savt», nutq tovushlarini esa «harf» so'zlari-terminlari bilan

nomlaydi. Fizikaviy tovushning ham, nutq tovushining ham havoning to'liqsimon harakati sababli hosil bo'lishi ta'kidlanadi. Demak, bu tovushlarning yuzaga kelishida havoning to'liqsimon harakatlanishi umumiylik hisoblanadi. Ayni vaqtda bu umumiylikning xususiyligi shundaki, savtlardan – fizikaviy tovushlardan farqli holda harflarning – nutq tovushlarining hosil bo'lishida muayyan nutq a'zolari ishtirok qiladi. Demak, nutq tovushlari nutq a'zolari orqali, bevosita ularning ishtirokida yuzaga keladi.

Ibn Sino harflarni – nutq tovushlarini unli va undosh tovushlarga ajratadi. Unlilar miqdorini uchta, undoshlar miqdorini esa yigirma sakkizta deb belgilaydi. Undoshlar haqida mukammal ma'lumot beradi. Umuman, Ibn Sinoning fonetika sohasida yaratgan ishlarini, bayon qilgan fikrlarini, ayniqsa, uning tovushlarni unli va undosh tovushlarga ajratishini jahon tilshunosligi taraqqiyotiga qo'shgan salmoqli hissasi sifatida baholash lozim.<sup>7</sup>

### Mahmud ibn Xusayn ibn Muhammad Koshg'ariy

Mahmud Koshg'ariy O'rta Osiyoda XI asrda yashab ijod etgan buyuk allomadir. U turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi va leksikologiyasiga asos soldi, fonetikasi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar qoldirdi.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tilshunoslikning ensiklopediyasi hisoblangan mashhur «Devonu lug'atit turk» («Turkiy so'zlar devoni») asarini yaratdi. Shuningdek, shu kungacha topilmagan «Javohirun - nahv fi lug'otit turk» («Turkiy tillar sintaksisining javohirlari») nomli asarni ham yozgan.

Arab tilidan K.Brokkelman tomonidan nemis tiliga tarjima qilinib, Leypsigda (1928), Bosim Atalay tomonidan turk tiliga tarjima qilinib, Anqarada (1939) nashr qilingan «Devonu lug'a-tit turk» asari professor S. Mutallibov tomonidan o'zbek tiliga o'girilib, Toshkentda (1960-1963) nashrdan chiqadi.

Mahmud Koshg'ariyning «Devoni» akademik A.N.Kononov, professor H.Ne'matov, professor F. Abdullayev, professor S.Usmonov, professor A.Kondrashov, professor A.Nurmonov va boshqalarning taxminicha, 1072–1078; 1078–1083; 1071–1073; 1073–1074; 1076–1077 yillarda yozilgan. Xulosa bitta: asar XI asrning ikkinchi yarmida tilshunoslik maydoniga kirib kelgan.

<sup>7</sup> Qar. A. Nurmonov. O'sha asar. 21-23-betlar.

Tilni kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida, jamiyat hayotini aks ettiruvchi ko'zgu sifatida tushungan Mahmud Koshg'ariy o'zining mashhur «Devon»ida aynan bir davrga oid bo'lgan turlicha turkiy tillar hodisalarini, faktlarini sinxron – qiyosiy metod asosida solishtiradi, taqqoslaydi. Chunki o'sha davrda aynan mana shu metod arab tilshunosligida juda keng tarqalgan bo'lib, bu arab tilining ko'p shevali til ekanligi xususiyatidan kelib chiqadi.<sup>8</sup>

«Devonu lug'atit turk» asarida turkiy tilshunoslik tarixida birinchi marotaba turkiy til va dialektlarning tasnifi ham beriladi.

Xullas, Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devon»i bilan sinxron - qiyosiy tilshunoslikka asos soldi, ayni tilshunoslikning buyuk vakili sifatida tanildi.

Mahmud Koshg'ariy sinxron - qiyosiy metod bilan qurollangan holda turkiy qabilalarni kezib, asosiy diqqat-e'tiborini ularning tillaridagi umumiy va farqli xususiyatlarga qaratadi. Shuningdek, u turkiy qabilalarning joylashish o'rni haqida ham qimmatli, asosli jo'g'rofiy ma'lumotlar beradiki, bu «Devon»dagi faktlarning, fikrlarning, qarashlarning obyektivligini ta'minlaydi. Aytilganlar «Devon»ning juda katta mehnat evaziga yaratilganligidan xabar beradi.

Tilshunoslikning barcha sathlari bo'yicha qiyosiy tadqiqot ishlarini olib borgan Mahmud Koshg'ariyning «Devon»i muqaddima va lug'at qismlaridan tashkil topadi.

«Devon»ning kirish qismida asarning tuzilishi haqida, shuningdek, Shimoliy Xitoydan tortib, butun Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxorogacha tarqalgan katta hududdagi urug'lar, qabilalar va ularning tillari haqida, bu tillarning fonetik va grammatik xususiyatlari haqida ma'lumotlar beriladi.

«Devon»ning asosiy lug'at qismida esa 7,5 mingga yaqin turkiy so'z arab tiliga tarjima qilinib, izohlanadi, ularning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqida muhim fikrlar bayon qilinadi.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar – so'zlar fonetikasi – tovushlar haqida fikr yuritir ekan, tovushlarni harflardan qat'iy farqlaydi, tovushlarning fiziologik va akustik xususiyatlari haqida fikr yuritadi. U arab yozuvi sistemasidagi harflarning turkiy tillardagi mavjud tovushlarni ifodalash uchun yetarli emasligini aytib, arab yozuviga yangi belgilar kiritadi. Aniqrog'i, arab yozuvidagi 18 harfni – shu harflardan yettitasi

<sup>8</sup> А.Н.Конов, Х.Г.Нияматов. Махмуд Кашгарский о тюркских языках. История лингвистических учений. Среднеазиатский восток.-Л.,1981, 135-бет.

ustiga maxsus qo'shimcha belgi qo'yish orqali 25 taga yetkazadi. Natijada, 25 ta tovush o'zining yozma – harf shakliga, ifodasiga ega bo'ladi.

Alloma undosh tovushlar haqida gapirib, undoshlarning sodda va murakkab bo'lishi, jarangli va jarangsizligi, qattiq va yumshoqligi, undoshlarning ketma-ket kelishi: k a t t a, o p p o q (geminatsiya) kabi masalalarga to'xtaladi. Shuningdek, u singarmonizm, tovush tushishi, almashinishi, assimilyatsiya, metateza, reduksiya kabi bevosita tovushlar bilan bog'liq fonetik jarayonlar haqida ham fikr yuritadi.

Mahmud Koshg'ariy til va nutqning asosiy birligi bo'lgan so'z masalasiga leksikolog, semasiolog, leksikograf sifatida to'xtalar ekan, bunda u asosiy diqqat-e'tiborni tilshunoslikning eng muhim va eng murakkab masalalaridan biri bo'lgan so'z ma'nosiga, so'zning ko'p ma'noliligiga, so'z ma'nosining ko'chishiga, so'z ma'nosining izohi kabi o'ta jiddiy masalalarga qaratadi, ya'ni, olim «Devon»da so'zning muayyan ma'no anglatishdek eng muhim xususiyatidan kelib chiqib, so'z ma'nosi bilan bevosita bog'liq bo'lgan omonimiya, sinonimiya va antonimiya hodisalari haqida, so'z ma'nosining ko'chishi bilan bog'liq bo'lgan metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik kabi ma'noning ko'chish usullari haqida, so'z ma'nosining kengayishi va torayishi haqida fikr yuritadi, turkiy tillardan qator misollar keltiradi, fikrini isbotlaydi. Masalan, «Devon»da o't so'zi omonim sifatida qayd etiladi va quyidagi omonimik ma'nolarda qo'llanilishi aytiladi. Qiyoslang: o't-dori (u d o r i t o m d i r d i); o't-o'simlik (q o' y o' t n i y e b t u g a t d i).<sup>9</sup>

Erik-eriydigan, eruvchan (masalan, yog' va boshqa eriydigan narsa); erik-chaqqon, yo'rg'a (masalan, chaqqon, g'ayratli odam, yo'rg'a ot).<sup>10</sup>

Mahmud Koshg'ariy antonim so'zlarga ham to'xtalib, chivgin (to'q tutuvchi, semirtiruvchi, kuchli, masalan, ovqat) so'zining ma'no zidi – antonimi sifatida kevgin (to'q tutmaydigan, kuchsiz, masalan, ovqat, osh) so'zini keltiradi<sup>11</sup>, ya'ni, so'zlarning biri «kuchli» (ko'p quvvatli) ma'nosini bersa, ikkinchisi «kuchsiz» (kam quvvatli) ma'nosini anglatadi.

Muallif «Devon»da sinonimik munosabatdagi so'zlar sifatida quyidagilarni qayd etadi: ishlar, urag'ut, o'xshag'u (xotin kishi ma'

<sup>9</sup> Девони дугатит турк. 2-том. - Т., 1961, 382-бет.

<sup>10</sup> O'sha lug'at. 1-tom, 100-бет.

<sup>11</sup> O'sha lug'at. 1-tom, 415-бет.

nosida), o'pdi, ichdi (ichmoq ma'nosida); ilishdi, asishdi (osmoq ma'nosida).<sup>12</sup>

Mahmud Koshg'ariy metafora - o'xshashlik asosida ma'no ko'chirishiga tug'moq fe'lini keltiradi, ya'ni, ushbu so'z faqat insonga nisbatan emas, balki qo'llanish vaqti jihatdan ancha keyin, tashqi o'xshashlik asosida, hayvonga nisbatan ham ishlatilishi haqida ma'lumot beradi.

U ma'no ko'chirishining metonimiya usuliga to'xtalib, bulut, osmon va yong'il so'zlarini keltiradi. Bunda bulut, osmon so'zlari yong'ir ma'nosida qo'llansa, og'il so'zi go'ng, qiy ma'nosida ishlatilishini aytadi.

Alloma ma'noning kengayishiga tug'moq so'zini keltirib, bu so'z faqat odamlarga nisbatan emas, balki keyinchalik hayvonga nisbatan ham qo'llanganligini aytadi. Bundan so'zning qo'llanish qamrovi, muayyan predmet bilan bog'lanishi, uni anglatish faolligi-ning kengayganligi ma'lum bo'ladi.

So'z ma'nosining torayishi sifatida esa sobon so'zini keltirib, ayni so'zning qo'shga nisbatan ham, omochga nisbatan ham - har ikkala boshqa - boshqa predmetlarga nisbatan ishlatilgani, so'ng esa faqat omochni anglatish uchun qo'llanishini tushuntiradi.

«Devon»dagi morfologiyaga oid tadqiqotlarga kelganda, asarda so'zlar, o'sha davr arab tilshunosligi an'analari-ga ko'ra, uch turkumga ajratiladi, ya'ni, bular ot, fe'l va yordamchi so'zlar. So'z turkumlaridan, ayniqsa, fe'l bilan bog'liq qator masalalar atroflicha o'rganiladi. Bunda u fe'l yasalishi, fe'l nisbatlari, fe'l mayllari, fe'l zamonlari masalasiga alohida e'tibor beradi<sup>13</sup>, qimmatli ma'lumotlar keltiradi.

Xullas, Mahmud Koshg'ariy o'z davrining ulkan tilshunosi sifatida jahon tilshunosligi tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk allomadir.

### Abul Qosim Mahmud ibn Umar az - Zamaxshariy

Musulmon sharqida «Ustod ul-arab va-l ajam» (Arablar va g'ayri arablar ustoz), «Faxru Xvarazm» (Xorazm faxri) kabi sharafli nomlar bilan mashhur bo'lgan o'rta osiyolik allomalardan yana biri Mahmud az - Zamaxshariydir (1075-1143).

Mahmud az-Zamaxshariy Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida dunyoga keldi. Uning yoshlik yillari ilmu fan va madaniyat taraqqiy

<sup>12</sup> O'sha lug'at 1-tom, 140-,157-,166-,176-,177-,198-betlar.

<sup>13</sup> Qar. A.Nurmonov. O'sha asar, 46-50-betlar



qilgan davrga to'g'ri keldi. Zamaxshariylar oilasi dindor, hurmatli, sazovor ziyoli oilalardan edi. Shunga ko'ra u dastlabki bilimni Zamaxsharda o'z ota-onasidan oladi, xat-savodli bo'ladi. Mahmud o'z bilimini oshirish, ilm-fan bobida mukammal bo'lish maqsadida Xorazmga (Urganchga, so'ngra esa Buxoroga) yo'l oladi. Ushbu shaharlarda madrasalarda o'zining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshiradi. Bilimni yanada chuqurlashtirish maqsadida Isfaxon, Bog'dod, Makka, Marv, Nishopur, Shom, Hijoz va Iroq kabi ilm-fan, madaniyat taraqqiy qilgan shaharlarda bo'ladi, yetuk allomalardan, olimu fozillardan ilm-fan sirlarini o'rganadi, tinimsiz mehnat qiladi, doimiy izlanishda bo'ladi. Natijada, Mahmud az-Zamaxshariy o'z zamonasining buyuk allomasiga ilm-fan homiysiga, dong'i ketgan mashhur kishisiga aylanadi.

Buyuk alloma avlodlar uchun ulkan boy ilmiy meros qoldirdi. U tilshunoslik, lug'atshunoslik, jo'g'rofiya, adabiyot, aruz, tafsir, hadis, fikr va qiroat ilmiga oid 50 dan ortiq asar yaratdi, ko'plab she'rlar yozdi.

Mashhur tarixchi Ibn al-Qiftiy Mahmud Zamaxshariy haqida «Xudo rahmat qilg'ur az - Zamaxshariy ilmu adab, nahv va lug'at bobida o'zgalarga misol (namuna) bo'ladigan alloma edi», desa, Misr tarixchisi ibn Tag'riberdi esa Mahmud Zamaxshariy «shayx, buyuk alloma, o'z davrining yagonasi, o'z asrining eng peshvosi va imomi bo'lgan», deydi.

Buyuk imom Zamaxshariy tilshunoslik bobida ham qator asarlar yaratdiki, bu asarlar dunyo tilshunosligi fanida alohida qadrlanadi.

Mahmud az - Zamaxshariyning tilshunoslikka oid asarlari quyidagilar:

1. «Al - mufassal fi san'at il-i'rob» («Fleksiya san'ati haqida mufassal kitob»).
2. «Al - muhojat bil - masoil an - naxviya av al- axajiy an - nahviya» («Grammatik masalalarga oid jumboqlar»).
3. «Al-unmuzaj fi-n-nahvi» («Grammatik namunalar haqida»).
4. «Samiym ul-arabiya» («Arab tilining negizi»).
5. «Al-mufrad va-l-muallif fi-n-nahvi» («Grammatikada birlik va ko'plik»).
6. «Al-mufrad va-l murakkab fi-l-arabiya» («Arab tilida birlik va ko'plik»).
7. «Al-amaliy fi-n-nahvi» («Grammatik qoidalarda orfografiya»).
8. «Diyvon ut-tamoyil» («Assimilyatsiya haqida devon»)<sup>14</sup>

<sup>14</sup> A.Nurmonov. O'sha asar, 53-bet.

Arab tili grammatikasiga oid asarlar ichida Zamaxshariyning bir yarim asr davomida Makkada yaratgan «Al - mufassal» (1121) kitobi alohida o'rin tutadi. Ayni asar arab tilining morfologiyasi va sintaksisiga oid taqqiql bo'lib, u musulmon olamida mashhur bo'lgan va yuksak baholangan.

Zamaxshariyning «Al-Mufassal» asarida grammatikaga oid masalalar ma'no tarkumlari-ot, fe'l va yuklamalar orqali o'rganilgan. Asarning har bir bo'limida morfologiya va sintaksis masalalari ko'rib chiqilgan. Asar grammatika bo'limi bilan yakunlanadi.

Ushbu asarning bir qo'lyozmasi Toshkentda, O'zFAning Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab» («Adabiyot muqaddimasi» 1137) yirik asari ham bo'lib, alloma bu asarda o'z davridagi arab tilining iste'molda bo'lgan qator so'z va iboralarini jamlashga harakat qilgan, ularning etimologiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar bergan. Zamaxshariyning «Muqaddimat ul - adab» asari besh bo'limdan iborat bo'lib, unda so'zlar ism (ot), fe'l, bog'lovchi, ot o'zgarishlari (otlarning turlanishi) va fe'l o'zgarishlariga (fe'llarning turlanishiga) bo'linadi va har bir bo'lim haqida alohida fikr yuritiladi.

Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab» asari fors, chig'atoy (otzbek), mo'g'ul, turk keyinchalik esa fransuz, nemis va boshqa tillarga tarjima qilingan. Ushbu asarning qo'lyozmalari O'zFA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

Alloma «Alfoiq fi g'arib il-hadis» («Hadisdagi notanish so'zlarni o'zlashtirish») lug'atini ham yaratadi. U asarda so'z masalasiga, ma'nosini tushunish, anglash murakkab, qiyin bo'lgan so'zlarga to'xtaladi. Ayni so'z ma'nolarini sharhlaydi, tushuntiradi, ularning o'zlashishi uchun yo'l ochadi.

Zamaxshariyning «Asos ul-balog'a» («Chechanlik asoslari») asari ham bo'lib, ushbu manba, asosan, lug'atshunoslikka oiddir. Kitobda arab tilining mukammalligi haqida, so'z, so'zlarning ma'no xususiyatlari, so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanishi, ko'chma ma'nolarning paydo bo'lish sabablari, shuningdek, nutqning asosiy birligi sifatida faqat so'z emas, balki frazeologik birliklar ham olinib, ulardan nutq faoliyatida foydalanish usullari haqida atroflicha ma'lumotlar beriladi.

Alloma umrining oxirgi yillarida Makka shahrida "Al-Kashshof" asarini yaratadi. Ushbu asar Qur'oni Karim tafsiriga bag'ishlanganligi bilan alohida qadrlanadi. Asarda Qur'ondagi matnlarga-tushunilishi qiyin

bo'lgan so'z va jumalarga mukammal izoh beriladi, ular sharhlanib tushuntiriladi. Mahmud Zamaxshariy butun islom ma'naviyati va madaniyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan «Navobig' ul-kalim» («Navoboralar») asarini ham yaratdi. Manbada, asosan, hikmatlar-aforizlar qayd etilgan bo'lib, ular g'oyaviy va badiiy jihatdan mukammalligi bilan ajralib turadi. Ushbu asar matnlari insonni imon-e'tiqodga, poklik, ezigulikka, ilmi bo'lishga, yaxshilikka, halolikka-ma'naviyat ma'rifatga da'vat qiladi, ma'naviy durdonalarni qadrlashga chaqiradi.

Namunalar:

1. Quyosh nuri berkitilmaydi.  
haqiqat sha'mi so'nmaydi.
2. Ezgulik, xayrli ishlarga astoydil kirish, ularni paysalga solib, kech qilarman degan o'ylardan voz kech... tafakkur va idrok bilan ish tut.
3. Halol va pokiza kishi doimo halovatu tinchlikdadir.
4. Birovga yomonligu xiyonat qiladigan kishi esa halokatga giriftordir.
5. Insonni boylik, pul-dunyo, amal emas, balki ilm ulug'laydi.
6. Ko'pincha til bilan yetkazilgan jarohat, qilich bilan yetkazilgan jarohatdan og'irroqdir.
7. Lovullab yonayotgan olovni suv o'chirgani kabi nodon odamlar chiqayotgan alangani hakim u oqil odamlar so'ndirarlar.
8. Quyosh nurlarini berkitib bo'lmaganidek, haqiqatning chirog'ini ham so'ndirib bo'lmas.
9. Ko'p ortiqcha so'zlashuv eshituvchini ranjitar.
10. Ey bo'tam, tilingni yomon so'zlardan saqla!
11. Yoki ilmi bo'l yoki ilmga tayanib ish tutadigan bo'l, loqal ilmning tinglab eshitadigan bo'l...<sup>15</sup> va boshqalar.

### Alisher Navoiy

O'rta Osiyoning XV asrning ikkinchi yarmidagi buyuk muta-fakkin, allomasi, she'riyat sultoni, o'zbek adabiy tilining homiysi va targ'ibotchisi Alisher Navoiy (1441–1501) hazratlari tilshunoslik tarixida ham yorqin iz qoldirgan ulkan siymolardan biridir.

Alisher Navoiyning lisoniy qarashlari, asosan, «Muhokamat ul-lug'atayn» (1499) asarida o'z ifodasini topgan.

Ikki til - o'zbek va fors tillarining qiyosiy (solishtirma) tahliliga bag'ishlangan ushbu asarda Alisher Navoiy turli til oilalariga mansub

<sup>15</sup> Mahmud az-Zamaxshariy. Nuzuk ibboralar.-T.,1992

bu kabi tillarning umumiy va farqli tomonlari, belgi-xususiyatlariga e'tibol bilan qarama-qarshi tahlil qiladi, muhim ma'lumotlar beradi. Aniqrog'i, o'zbek tili haqida fikr yuritish orqali o'zbek tilining o'ziga xos jihatlari, uning hayotiy ijodda – asarlar yaratishda o'zbek tilining ham ustuvor, muhim o'rnini, shunga ko'ra, fors tili bilan bimalol raqobat qila olishi, hatto ayrim o'rinlarda, tasviriylik imkoniyatlari nuqtayi nazaridan esa undan ilgari keta olishini bayon qiladi, asoslaydi.<sup>16</sup>

U maskur asarida tillarning kelib chiqishi, til va tafakkur orasidagi munosabat, so'z ma'nosi, so'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga e'tibol beradi, so'z yasalishi, morfologik kategoriyalar, fonetikaga oid hodisalar bilan bog'liq qator hodisalar haqida chuqur fikr yuritadi, bunday hodisalarni atroflicha tahlil qiladi.

Hayotiy til va tafakkur munosabati haqida gapirar ekan, ularning munosabatlarini bog'liqligini, ya'ni, tafakkurning voqeligi, hayotiyligi til bilan bog'liqligini, til tafakkurning moddiylik shaklida, yuzaga chiqishi, uning atroflicha tahlilini va ushbu dialektik jarayon insonga xosligini bayon qiladi. Qiyoslang: (Chun alfoz va maskur mahluqotdin munosabatidir)<sup>17</sup>

Hayotiy asarda fonetik sistema haqida fikr yuritir ekan, ayni munosabatning qurilishi a'zolari bo'lgan tovushlar haqida, tovushlar-ning xususiyatlarini haqida ma'lumotlar beradi, o'zbek tili tovushlarining qo'llanilishidagi o'ziga xosliklarini alohida qayd etadi.

Ushbu fonetik o'ziga xosliklar haqida professor S.Usmonov va professor A.Nurmonovlar o'z tadqiqotlarida bir qator ma'lumotlarni keltiradilar. Masalan, tovush va harf munosabati haqida fikr yuritiladi ekan, ular bir-biriga hamma vaqt ham mos kelmasligi, bir harf bilan bir tovushni anglatish mumkinligi aytiladi. Anig'i, Navoiy eski o'zbek tili haqida unilalar sistemasiga to'xtalib, o-ö, y-y oppozitsiyasi asosida misollar keltiradi. Qiyoslang: ot (olov), ot (harakat); tyr (tuzoq), tyr (oyning to'ri); yt (yutmoq), yt (kallani o'tga tutib, tukini kuydirish). Shuningdek, birgina yoy (e) harfi bilan uchta tovush: i, cho'ziq i va e tovushlari ifodalinishi qayd etiladi.

Ushbu masalasida o'zbek va fors tillari qiyoslanar ekan, bunda o'zbek tili imkoniyatlarining kengligi, bu jihatdan o'zbek tili fors tilidan ustun ekanligi bayon qilinadi. Anig'i aro so'zini s a r o, d a r o bilan ham, k u d a bilan ham, e r u r so'zini esa hur, dur bilan ham, g' u r u r, s u r u r

<sup>16</sup> Ushbu fikr haqida: Липинский, Липинскийские взгляды Алишера Навои. В кн. История лингвистических учений. (Специальный выпуск). Л., 1981, 148-бет.

<sup>17</sup> Усмон С.Усмон. Таълими асарлар, III-том.-Т., 1998, 175-бет.

so'zlari bilan ham qofiya qilish mumkinligini, fors tilida esa bunday imkoniyat yo'q ekanligini ta'kidlaydi.<sup>18</sup>

Xullas, Alisher Navoiy tovushni, hozirgi tilshunoslik nuqtai nazaridan baholashda, fonema sifatida olib, uning eng muhim xususiyati bo'lgan ma'no farqlash qobiliyatiga ega ekanligini bayon qiladi.

Navoiy o'z ijodida so'z masalasiga alohida urg'u beradi. U so'z haqqida fikr yuritar ekan, dastavval, mutlaqo maqsadga muvofiq, so'zning ma'no quvvatiga katta e'tibor qaratadi. Chunki Navoiy g'oyalarning eng birinchi va eng qudratli poydevori, moddiy asosi so'z ekanligi – so'zning ma'no jihati ekanligi aniqdir.

Navoiy so'zni ma'no, tushuncha tashuvchi, inson g'oyalari, ruhiy dunyosini ifoda etuvchi, shunga ko'ra, o'zgalarga ta'sir qiluvchi kuchli vosita sifatida tushunadi va shunday tushuntiradi. U ona tilining leksik boyligi haqida o'tkir tilshunos sifatida qimmatli fikrlar, ma'lumotlar keltiradi, semantik-funksional jihatdan forsiy tildan ustun turuvchi qat'iy lisoniy birliklarni birma-bir sanaydi, ularni ma'no jihatdan tahlil qiladi. So'zlarning-fe'llarning nozik ma'no farqlarini, «qirralarini» qayd etadi. Turkiy tilning so'z qo'llash bobida ham o'ziga xosliklarga, ustunliklarga egaligini asoslaydi, she'riyat-baytlar orqali ishonch hosil qiladi.

Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida eski o'zbek tilining imkoniyatlarini, boyligini ko'rsatish maqsadida shu tilning o'ziga xos bo'lgan quyidagi fe'llarni keltiradi. Bular: quvormoq, quruq shamoq, usharmoq, jiyjaymoq, o'ngdaymoq, chekrimak, dumsaymoq, umunmoq, usanmoq, igirmoq, egarmoq, uxranmak, toriqmoq, aldamoq, arg'adammoq, ishanmak, iglanmak, aylanmoq, erikmak, igranmak, ovunmoq, qistamoq, qiynamoq, qo'zg'almoq, sovrilmoq, chayqalmoq, devdashiymoq, qiymanmoq, qizg'anmoq, nikamaq, saylanmoq, tanlamoq, qimir-damoq, serpmak, sirmamak, ganorgamak, sig'riqmoq, sig'inmoq, qilimoq, yolinmoq, munglanmoq, indamak, tergamak, tevramak, qing'aymoq, shig'aldamoq, singramoq, yashqamoq, isqarmoq, o'ngranmak, suxranmoq, siypamoq, qoralamoq, surkanmoq, kuymanmoq, ingramoq, tushalmoq, mung'aymoq, tanchiqamoq, quruqsamoq, bushurg'anmoq, bo'xsamoq, kirkinmak, sukadamak, bo'smoq, burmak, turmak, tamshimoq, qahamoq, sipqormoq, chicharkamak, jurkanmak, o'rtanmak, sizgurmoq, gurpashlmak, chiprutmak, jirg'amoq, bichimoq, qikzanmoq, singurmak, undalatmak, kumurmak, bikirmak, ko'ngurdamak, kinarkamak, kezarmak,

<sup>18</sup> Qar: S.Usmonov. O'sha asar, 54-bet. A.Nurmonov. O'sha asar. 87-bet.

qadamoch, chidamoq, tuzmak, qazg'anmoq, qichig'lamoq, yashamoq, yadamak, qadamoq, chiqamoq, ko'ndurmak, so'ndurmak, qashamoq<sup>21</sup> va boshqalar.

Navoiy qayd etilgan fe'llarni semantik jihatdan tahlil qiladi, morfologik-semantik metod asosida ularning ma'no umumiyliklariga, shakl belgilariga, ma'no nozikliklariga e'tibor beradi, misollar bilan qiyosiy sinonimik va sinonimik munosabatdagi so'zlarni aniqlaydi, sinonimik so'zlarning mavjudligini qayd etadi.<sup>20</sup> Masalan, omonim so'z sifatida o't, tu'z, k o' k kabi so'z-larni keltirib, ot so'zining nomi ma'nosida, hayvon ma'nosida va harakat ma'nosida qo'llanishini ko'rsatadi. Aytilganlar Navoiyning so'z masalasiga o'ta jiddiy e'tibor bilan o'tgan davrining buyuk so'zshunos-leksikolog olimi ham ko'rsatib beradi.

Navoiy ma'kur asarida morfologiya masalasiga ham to'xtaladi, so'z tuzilishiga oid ayrim fikrlarni qayd etadi.

Professor S.Usmonov va professor A.Nurmonovlarning xabar berishicha, ushbu ishda so'z yasovchi affikslar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- shi qushchi, xolvochi, kiyikchi, qo'ychi;
- vul bakovul, qarovul, yasovul, jig'ovul;
- l yasol, kabol, tunqol, sevarg'ol<sup>22</sup> va boshqalar.

Ma'lum bo'ldiki, affikslar asarda so'z yasovchi vositalar sifatida so'z tarkibida qo'llanib, yangi so'z yasash, asosan, ot yasash-shaxs otini hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Alisher Navoiy morfologiyaga oid fikrlarni bayon qilar ekan, asosiy, yirik fe'l so'z turkumi sifatida, maqsadga to'la muvofiq, fe'llarga munosabat qiladi. Fe'l birliklarning ma'no jihatdan, shakl va qo'llanishi jihatidan eski o'zbek adabiy tilining o'zigagina xos, ya'ni, forsiyda uchramaydigan xususiyatlarini, zukko tilshunos sifatida, puxta tahlil qiladi. Amiqrog'i, u fe'llarning nisbat bilan bog'liq tomonlariga alohida e'tibor berar ekan, fe'lning o'zlik, ortirma va birgalik nisbatlarini, qiyoslovchi shaklini, ko'makchi fe'l yordamida tuzilgan murakkab fe'llarni qayd etadi<sup>23</sup>.

<sup>20</sup> Usmonov. O'sha asar, 88-bet.

<sup>21</sup> Usmonov. O'sha asar, 53-bet. A.Nurmonov. O'sha asar 90-bet.

<sup>22</sup> Usmonov. O'sha asar, 90-bet.

<sup>23</sup> Usmonov. O'sha asar 54-bet. A.Nurmonov. O'sha asar 91-bet.

<sup>24</sup> Usmonov. O'sha asar, 53-bet. D.M.Nasilov. O'sha asar. 152-bet

Navoiy fe'lining orttirma nisbat shakli haqida fikr yuritarkan nisbat tushunchasi -t qo'shimchasi orqali hosil bo'lishini aytadi, misollar keltiradi. Qiyoslang: yugurt, ya shurt, chiqart boshqalar.

### Mirzo Mehdixon

Alisher Navoiyning dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan ulkan ilmiy adabiy merosini o'rganish-lisoniy yo'nalishda u yaratgan asarlarni talqin qilish-so'zlarga, so'z ma'nolariga e'tibor berish, ularni izohlash ma'naviy qamrovini, matndagi quvvatini ochib berish, o'zga tillarga tarjima qilish kabilar, XV asrdan boshlab, filologik tadqiqotlarning leksikografik ishlarning asosiy maqsadi, vazifasi bo'lib qoldi. Shunga ko'ra, ayniqsa, ushbu davrdan boshlab, ko'plab lug'atlar yaratilgan boshlandiki, bu lug'atlar ichida Eron shohi Nodirshohning kotibi, savonatarixchisi astrobodlik Nizomiddin Muhammad Hodi al Husayni va Safaviyning - Mirzo Mehdixonning (XVIII) «Sanglox» (1760) lug'ati o'zining har tomonlama mukammalligi, puxtaligi, katta salmoqqa ega bo'lgan bilan yetakchilik qiladi. Boshqacha lug'at maqolasini o'z ichiga oladigan hajmdagi manba bo'lib, u 6181ta lug'at hamma so'z turkumlaridan tashkilotgan. Fe'llar infinitiv formada qolgan hamma so'z turkumlari birlashtirilgan va bosh kelishikda keladi. So'zlar harakatlarsiz bo'lsada, amma ularning to'g'ri o'qilishi uchun fonetik qaydlar berib boriladi. Qisqacha aytganda, lug'at maqolalarining kengligi, so'z formalari lug'at maqolasi ichida qayd etilishi va ularning ma'nolarini mumkin qadar to'la va misollar bilan berish jihatidan «Sanglox» Navoiy asarlariga tuzilgan boshqa lug'atlardan beqiyos darajada ustun turadi<sup>25</sup>.

Ushbu asarning o'ziga xos yana bir jihati shundaki, ayni lug'atga «Maboni ul - lug'at, ya'ni, sarfi va nahvi lug'ati chig'atoy» nomli eski o'zbek tilining grammatikasiga oid tadqiqot ham kiritilgan.

Ma'lum bo'ldiki, Mirzo Mehdixonning «Sanglox» asarida ham leksikologiyaga, leksikografiyaga va grammatikaga oid masalalar yuzasidan keng fikr yuritiladi.

Asarning lug'at qismi, asosan Navoiy asarlaridagi, shuningdek, Lutfiy, Bobur, Husayn Mirzo, Sayyid Hasan, Buxoriy va boshqalar

<sup>24</sup> Qar: A. Nurmonov. O'sha asar, 93-bet.

<sup>25</sup> Б.Хасанов. Жавоҳир хазиналари.-Т,1989, 36-,38-,45-бетлар.

kelishgi muhimligini qiyin bo'lgan so'zlar izohiga, ularning fors tiliga nisbatan qilinishiga qaratilgandir.<sup>26</sup>

Asariga qo'shimcha kiritilgan «Maboni ul - lug'at» ikki qismdan: muqaddima va tafsil (grammatika) dan iborat.

Muqaddimada asarning yozilish sabablari beriladi. Ishning grammatikasi esa olti bo'limni o'z ichiga oladi. Ushbu bo'limlarda fe'lning turli nisbat shakllarining kelishi, fe'l zamonlari, fe'lning funktsional shakllari (sifatdosh, ravishdosh), fe'l mayllari, fe'llarning grammatika amkular olishi, olmoshlar, ularning turlari, qo'shimchalar, ko'rsatish fe'llar, so'zlar imlosi va boshqalar haqida fikr yuritiladi.<sup>27</sup>

Abu Mehdiixon o'zbek tilining morfologiyasiga to'xtalar ekan, u buni quyidagicha shaklini qayd etadi. Bular: 1. Qaratqich kelishigi (-ning). 2. Tashvish kelishigi (-ni, -n). 3. Jo'nalish kelishigi (-ka, -ga, -g'a). 4. Uchuvchi kelishigi (-du). 5. O'rin-payt kelishigi (-da).

Mehdiixon, shuningdek, egalik qo'shimchalari, sonlar-ularning turlari: jamlovchi (-ochi, -inchi), jamlovchi (-ov, -ovla, -lon) -birov, ikkov, uchovla, uchovlon, taqsim sonlar (-ar, -in) - yuzar, birin haqida, olmoshlar-kimni (man, san, biz, siz), ko'rsatish: (bu, ul, shul, o'shal, mun, anlar, qan) qo'shimchalar (uchun, ila, ilan, bilan, birla, birlan) hamda fonetik funktsiyalar (elziya-bo'yun-bo'yni, og'iz-og'zi) haqida ma'lumot beradi.

Abu Mehdiixon, yuqorida aytilganlarga ko'ra, asarini o'zbek tilining grammatika ilmiy grammatikasi deb ataydi.<sup>28</sup>

### Mustahkamlash uchun savollar: Questions for consolidation

1. Abu Nasr Forobiy kim va uning qaysi asarida lisoniy muammolar ilmiy qilinadi?

Who was Abu Nasr Farabi and in what books did he research linguistic problems?

2. Abu Rayhon Beruniy kim va uning lisoniy qarashlari qaysi asarda ilmiy qilinadi?

Who was Abu Rayhan Beruni and in what books did he research linguistic problems?

26. Forobiy. O'sha asar, 55-bet. V. Xasanov. O'sha asar 38-bet.

27. Forobiy. Grammatika staro'zbekskogo yazyka. «Maboni ul-lugat» Mir'ziy Mehdiixon. AKD.T. 1967. 6-8-betlar. V. Xasanov. O'sha asar, 106-107-betlar.

28. Forobiy. O'sha asar, 55-bet.



3. Abu Ali Ibn Sino kim va uning qaysi asarida tovush haqida yuritiladi?

Who was Abu Ali ibn Sina and in what books by him did he write about sounds?

4. Mahmud Koshg'ariy kim va uning "Devonu lug'atit turk" asariga nimaga bag'ishlangan?

Who was Mahmud Kashgari and what was his book "Devonu lug'atit turk" devoted to?

5. Mahmud Zamaxshariy kim va uning tilshunoslikka oid qanday asarlarini bilasiz?

Who was Mahmud Zamakhshari and what books by him on linguistics do you know?

6. Alisher Navoiy "Muhokamat ul - lug'atayn" asarida qaysi tillar bilan qiyosiy baho beradi?

What languages did Alihsar Navoi study in comparison in his book "Muhokamat ul - lug'atayn"?

7. Mirzo Mehdixon kim va uning leksikografiyaga oid qanday asar mavjud?

Who was Mirzo Mehdikhan and what book did he write on lexicography?

#### Asosiy tushunchalar:

##### Basic notions:

1. "Fanlar tasnifi" – tilshunoslikka oid asar.

*The Classification of Sciences* is a book devoted to Linguistics.

2. "Saydana" – dorivor moddalarning nomlariga oid asar.

*Saydana* is a book on the name of medicinal plants and substances.

3. "Asbobi hudut al huruf" – nutq tovushlari haqidagi asar.

*Asbobi hudut al huruf* is a book on speech sounds.

4. "Devonu lug'atit turk" – turkiy tillarga tegishli to'qqiz mingga yaqin so'zning lisoniy xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi asar.

*Devonu lug'atit turk* is a book which contains the information about linguistic peculiarities of about nine thousand words in Turkic languages.

5. "Al-mufassal" – arab tilining, asosan, grammatikasiga oid asar.

*Al-mufassal* is a book mainly on Arabic Grammar.

6. "Muhokamat ul-lug'atayn" – o'zbek va fors tillarining qiyosiy tadqiqiga bag'ishlangan asar.

*Alifbani al-lug'atayn* is a book dedicated to comparative study of Uzbek and Persian.

'*Langit*' - XVIII asrda, asosan, Navoiy asarlaridagi tushunilishi haqida to'g'ri so'zlar izohiga bag'ishlangan mashhur lug'at.

*Langit* is a famous dictionary compiled in the XVIII century mainly in explanation of difficult words in Navoi's works.

### Adabiyotlar:

### Bibliography:

1. *Asosiy lug'atlar* turk I, II, III. -T., 1960-1963.
2. Уваров. Грамматика староузбекского языка. Мабани ул-луг'ати Марги. Мехдиана. АКД.- Т., 1967.
3. Я. В. Ян. История лингвистических учений. - М., 1968.
4. Х. Нигматов. XI asrdagi turkiy tillarning Maхмуд Кошғарий tomonidan yaratilgan tashnifi. Ўзбек тили ва адабиёти. ж. 1969. №4.
5. Т. Усмонов. Умумий тилшунослик. -Т., 1972.
6. И. А. Копларов. История лингвистических учений.-М., 1979.
7. А. Н. Копларов, Х.Т. Нигматов. Махмуд Кашгарский о тюркских языках. История лингвистических учений, Средневековый Восток.- Т., 1980. 130-142-бетлар.
8. Ю. М. Пашков. Лингвистические взгляды Алишера Навои. Вопросы лингвистических учений. Средневековый восток. -Л., 1981.
9. История лингвистических учений. Средневековый восток. -Л., 1981.
10. В. Хасанов. Жавохир хазиналари. -Т., 1989.
11. Махмуд аз Замдхшарий. Нозик иборалар.- Т., 1992.
12. X. Хонинлов. Қирқ беш аллома ҳикояти. -Т., 1995.
13. А. Нурматов. Ўзбек тилшунослиги тарихи.- Т., 2002.

### III. YEVIROPADA UYG'ONISH DAVRIDAGI TILSHUNOSLIK

Uyg'onish davri tilshunosligi XV–XVIII asrlarni o'z ichiga oladi. Uyg'onish davrining boshlanishi bilan cherkovning obro'-e'tibori susayib, antik davrga bo'lgan e'tibor, qiziqish, uni qadrlash kuchaya bordi. Anig'i, uyg'onish davrining vakillari, ziyolilari yunon va rimliklarning boy milliy madaniyatiga murojaat qila boshlashdi.

Uyg'onish davri kapitalizmning feodalizm ustidan bo'lgan g'alabasi bilan yakunlandi. Shunga ko'ra ushbu davrda insoniylik g'oyalari, milliy o'zini anglash, san'at va adabiyotga bo'lgan qiziqish, fanga bo'lgan jiddiy qarash, e'tibor kuchaydi, o'sdi.

Yangi asr Yevropada Kolumb, Magellan, Galiley, Kopernik, Dekart, Nyuton, Leybnis, Lomonosov kabi dastlabki kashfiyotchilarni va ulkan olimlarni yuzaga chiqaradi.

Uyg'onish davrida, dastavval, dunyo tillari haqidagi ma'lumotlar ancha ko'paydi. Tilshunoslik fanining keyingi taraqqiyoti uchun muhim va zarur bo'lgan lisoniy materiallarni, faktlarni to'plash, yig'ish jarayoni amalga oshirildi.

Kapitalizmga o'tish, uning rivoji, millatlar va milliy tillarning yuzaga kelishi, milliy iftixor kabilar qator tillarning grammatikasini tuzishga, yaratishga undadi. Ayni davrda arman, fors, venger, yapon, koreys, ispan, niderland, fransuz, ingliz, polyak, chex, nemis, ukrain va boshqa tillarning grammatikasi hamda leksikasiga oid asarlar yaratildi.

Ushbu davrda lisoniy materiallarni to'plab, yig'ib borish, ularning mohiyatini tushunish, mazmunini anglash bilan birgalikda olib borildiki, natijada, til haqida e'tiborli fikrlar o'rtaqa tashlandi. Jumladan, faylasuf Bekon tildan boshqa aloqa vositasi mavjud desa, faylasuf Lokk tovush bilan tushuncha o'rtasida tabiiy bog'lanish yo'q, degan asosli fikrni ta'kidladi. Faylasuf Leybnits mantiqiy-matematik asosga qurilgan xalqaro til yaratish masalasini ko'tardi.

Yevropa olimlarining yunon va rimliklarning boy madaniy va ma'rifiy merosini egallashlari juda katta mehnat natijasida va lotin tiliga oid qator asarlarning-matnlarning nashr qilinishi hamda ularni sharhlash natijasida mumkin bo'ldi.

Antik (yoki klassik filologiya) davrining adabiy asarlarini nashr qilish va ularga lisoniy sharhlar yozishda, ayniqsa, quyidagi olimlarning xizmatlari, mehnatlari katta bo'ldi. Bular: Jyul Sezar Skaliger

(1484–1558), Robert Stefanus (1503–1559), uning o‘g‘li Genrix Stefanus (1528–1598), Gerxardt Iogann Fossiy, Sharl Dyukanj, Iogann Reyxlin, Iogann Melanxton va boshqalar.

J. Skaliger «Lotin tili asoslari haqida» (1540) asarini yaratgan bo‘lsa, R. Stefanus «Lotin tili xazinasini» (1553) tadqiqotini e‘lon qiladi. G. Stefanus esa yunon tiliga bag‘shlab, «Grek tili xazinasini» asarini chop ettirdi.

Ayni vaqtda Sharq tillarini, ayniqsa, semit tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchaydi, semit filologiyasi maydonga keldi, ya‘ni, qadimgi yahudiy, aramiy, arab, efiopiya tillari tadqiq qilindi. Qator asarlar yaratildi. I. Reyxlin qadimgi yahudiy tili grammatikasini (1506) yaratib, unda birinchi bo‘lib, «affiks» terminini qo‘lladi va bu termin XVI–XVIII asrlarda faol ishlatila boshlandi. P. de Alkam arab tili grammatikasiga oid asarlarini (1506) e‘lon qildi. Yakov Xolius va Erleniyar arab tili tadqiqi bilan shug‘ullangan bo‘lsalar, Iov Ludolf efiopiya tili yuzasidan ish olib bordi.

Ayniqsa, XVI asrda qator tillarning – nemis (1527), fransuz (1531), ingliz (1538), venger (1539), chex (1567), polyak (1568), slavyan (1596) va boshqa tillarning grammatikasiga oid asarlar maydonga keldi.

Genrix Vilgelm Ludolfning Angliyada (1696) lotin tilida tuzilgan «Rus grammatikasi» asari yaratildi. Birinchilardan bo‘lib italyan (1612) va fransuz (1694) tili lug‘atlari chop etildi.

Agar o‘rta asr va uyg‘onish davrida klassik filologiyaning g‘oyalari taraqqiy ettirilgan bo‘lsa, XVII va, ayniqsa, XVIII asr tilshunosligida tubdan o‘zgarish bo‘lib, yangi tipdagi grammatika, lug‘atlar-ko‘p tomli katta lug‘atlar maydonga keldi.

Ana shunday lug‘atlardan biri rus sayyohi akademik Pyotr Simon Pallasning «Barcha tillar va shevalarning (lahjalarning) qiyosiy lug‘ati» asaridir. 272 tilga oid to‘rt tilli bu lug‘at Peterburgda (1786-1791) nashr qilingan bo‘lib, unda ruscha so‘zlarning 272 tilga qilingan tarjimasi beriladi va qiyoslanadi. Bu lug‘at qiyosiy-tarjima lug‘at sifatida e‘lon qilinadi. Mazkur lug‘atga Osiyo, Yevropa, Afrika va Amerika tillari kiritiladi, ushbu tillarga oid materiallar beriladi.

Yana bir katta lug‘at ispaniyalik Lorenzo Gervasning «Ma‘lum xalqlar tillarining katalogi» (Madrid 1800-1804) asaridir. Ushbu lug‘at 307 tilga oid leksik va grammatik ma‘lumotlarni berishi bilan ajralib turadi.

Leksikografik tadqiqotlar yo‘nalishida ma‘lum bo‘lgan ishlardan biri nemis olimlari I.K. Adelung va I.S. Faterlarning «Mitridat yoki umumiy tilshunoslik» lug‘atidir. Ushbu lug‘at 500 ta tilni qamrab olishi, ular haqida ma‘lumotlar berishi bilan e‘tiborga loyiq bo‘lgan.

Xullas, ko'plab tillarni o'z ichiga olgan qator lug'atlarning nashri qilinishiga, ulardagi ma'lumotlarning to'liq va mukammal emasligiga qaramay, bunday ishlar tillarni taqqoslab, qiyosiy o'rganishga - qiyosiy - tarixiy tilshunoslikka zamin yaratdi.

### Por-Royal grammatikasi (Umumiy ratsional grammatika)

O'rta asrlardayoq (XVI–XVII) lisoniy hodisalarning to'g'riligi mantiqiy mezonlar asosida aniqlana boshlandi. Bu esa, o'z-o'zidan, tilning mantiqqa bo'ysundirilishiga va barcha tillar uchun umumiy qonunlar mavjudligini tan olishga majbur qilardi. Boshqacha aytganda, ushbu asrlarda lotin tilini o'rganish mantiqiy tafakkur qonun va qoidalarini bilish deb ham tushunildi. Til hodisalari mantiq asosida izohlandi. Mantiq grammatikadan ustun qo'yildi. Bu davrda barcha tillarning yagona, bitta mantiqiy asosi – bitta grammatika bo'lishi kerak, degan ta'limot yaratildi. Natijada, mantiqiy grammatika yaratish g'oyasi maydonga keldi.

Mantiqiy grammatika yaratish ta'limotining eng muhim g'oyaviy asosi bo'lib, ma'rifat asrining (XVII–XVIII) yetakchi falsafiy yo'nalishi bo'lgan ratsionalizm<sup>29</sup> maydonga chiqdi, ya'ni, aql – idrok asosida ish ko'rish, ratsionalizm tilshunoslikka ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Shunga ko'ra, har qanday tillarning grammatik kategoriyalarini mantiqiy kategoriyalarning namoyon bo'lishi, yuzaga chiqishi sifatida tushunish kuchaydi. Natijada, ratsionalizm ta'limotining talablari asosida umumiy (ratsional, falsafiy yoki mantiqiy) grammatika yaratish g'oyasi amalga oshirila boshlandi.

Parij atrofidagi Por-Royal monastirining rohib olimlari mantiqshunos Anton Arno va tilshunos Klod Lanslolar ilk bor «Umumiy ratsional grammatika» asarini fransuz tilida (1660) yaratib, Parijda nashr qildilar.

Por-Royal grammatikasi qadimgi yunon, qadimgi yahudiy, lotin va fransuz tillari materiallari asosida yaratildi. Ammo u qiyosiy yoki cho'g'ishtirma grammatika emas, balki mantiqiy-tipologik grammatika hisoblanadi. Ushbu grammatika o'z oldiga «barcha tillarga xos umumiy prinsiplarni va ularda uchraydigan farqlarning sabablarini»<sup>30</sup> aniqlash vazifasini qo'yadi.

<sup>29</sup> Ratsional (izm)- tafakkurni, abstrakt fikrlashni bilishning birdan-bir manbaya deb hisoblaydigan va ularni tajribadan ajratib qo'yadigan idealistik oqim.

<sup>30</sup> Qm: Я.В. Лоя. История лингвистических учений. -М., 1968, 33-бет. Н.А.Кондрапов. История лингвистических учений. -М., 1979, 26-бет. В.И.Кедров. Общее языкознание. - М., 1974, 15-бет.

Por-Royal grammatikasida birinchi bor grammatika bilan mantiq o'rtasidagi aloqa, bog'lanish nazariy jihatdan asoslab berildi. Agar til tafakkurni ifoda etsa, demak, til kategoriyalari tafakkur kategoriyalarining namoyon bo'lishidir. Binobarin, tilni o'rganuvchi grammatika mantiqqa asoslanishi lozim. Grammatika ratsional, mantiqli bo'lishi kerak. Mantiq barcha uchun yagona, bitta ekan, binobarin, grammatika ham umumiy va universal bo'lishi lozim. Yagona grammatika alohida tilning grammatikasi bo'lishi mumkin emas, u faqat umumiy bo'lishi mumkin, degan g'oyalar, ko'rsatmalar ilgari surildi.

Por-Royal grammatikasi ikki qismdan - fonetika va grammatikadan iborat bo'lib, olti bobdan tashkil topgan birinchi qismda tovush va harf, urq'u va bo'g'inga ajratish kabilar haqida ma'lu-motlar beriladi. Grammatikaning yigirma to'rt bobdan iborat ikkinchi qismining yigirma uch bobida esa morfologiya masalalari - ot, sifat, olmosh, fe'l, sifatdosh, ravish, bog'lovchi, undov - ularga xos xususiyatlar, kategoriyalar; faqat oxirgi yigirma to'rtinchi bobida esa sintaksis masalalari - so'z birikmasi va gap kabilar haqida fikr yuritiladi.

Mantiqiy grammatika yoxud grammatikadagi mantiqiy yo'nalish so'zsiz fikr (ma'no), fikrsiz (ma'nosiz) so'z yo'qligi tushunchasidan kelib chiqib, grammatik va mantiqiy kategoriyalarni - so'z bilan tushunchani - ularni aynan bir narsa deb biladi. Albatta, mantiqiy kategoriyalar bilan grammatik kategoriyalarning o'zaro muvofiq kelishi, teng bo'lishi mavjud hodisa. U shubha uyg'otmaydi. Ammo bu mantiqning barcha kategoriyalari tilda to'g'ridan - to'g'ri o'z aksini topishi shart degani emas (masalan, tushunchaning so'z ma'nosiga, hukm va xulosaning esa turli tipdagi gaplarga mos bo'lishi, muvofiq bo'lishi kabilar). Fransuz tilshunosi Sh.Balli to'g'ri aytganidek, «til orqali ifodalangan har bir fikr mantiqiy, psixologik va lisoniy jihatdan aniqlanadi», baholanadi. Ushbu fanlarning har biri gapni o'z nuqtayi nazaridan o'rganadi. Bu - aksioma. Aristotel to'g'ri qayd etganidek, «har bir nutq (gap-R.R.) fikr ifodalaydi, ammo hamma nutq ham o'zida hukmni tashimaydi».

Til va tafakkur o'zaro bog'liq, ammo ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, jihatlarga ega.

Har bir tilda mantiqiy tushunchalarni aks ettirmaydigan, ifodalamaydigan, ammo his - hayajon, xohish - istak - mayl ifodalovchi so'zlar bo'ladiki, bunday so'zlar mantiq tomonidan «tan olinmaydi».

Har qanday tilda bir tarkibli gaplar, gapning ikkinchi darajali bo'laklari, so'roq va undov gaplar mavjudki, bunday gaplar mantiqiy tushunchalarga zid keladi.

Mantiqiy grammatika grammatik kategoriyalarni mantiqiy kategoriyalar bilan teng holda olib, ularni aynan bir narsa sifatida qaraydi va lisoniy hodisalarni mantiq va mantiqiy kategoriya terminlari orqali tasvirlashni o'z vazifasi deb biladi.

Tafakkurning umumlisoniy shakl va qonuniyatlarini tekshiruvchi, o'rganuvchi mantiq fani inson ongining hissiy va irodaviy tomonlari bilan ham, lisoniy ifodalarning shakllari bilan ham qiziqmaydi, bu jihatlarga e'tibor bermaydi. Mantiqiy grammatikada til hodisalariga tarixiy yondashish ham mutlaqo mavjud emas.

Mantiqiy hukmda hamma vaqt ikkita bo'lak - sub'yekt va predikat mavjud bo'ladi. Lisoniy birlik bo'lgan gapda esa bitta (keldi), ikkita (bola uxladi), uchta va undan ortiq (2012 yil mustahkam oila yilidir) bo'lak bo'lishi mumkin.

Hukm umuminsoniy xarakterga ega, gap esa hamma vaqt milliy shaklda namoyon bo'ladi.

Xullas, mantiqiy (yoki falsafiy, ratsional) grammatika ayni bir mazmunning turli tillarda turli vositalar bilan ifodalanishini hisobga olmadi. Shuningdek, ushbu grammatika ifoda vositalarining qonun va kategoriyalari har xil bo'lishi mumkinligini tushunmadi. Mantiqiy grammatika tilga o'zgarmaydigan, bir xilda turuvchi hodisa sifatida qarab, ayni grammatika har doim mantiq qoidalariga bir xilda mos keladi, deb hisoblaydiki, bunda g'ayri tarixiylik mavjuddir.

Aytilgan kamchiliklarga qaramasdan Por-Royal grammatikasi o'z davri uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi, ya'ni, asar shu tipdagi qator grammatikalarning yaratilishi uchun asos bo'ldi, xizmat qildi.

O'z davrida katta shuhratga ega bo'lgan falsafiy - mantiqiy grammatika o'zigacha yaratilgan grammatikalar kabi ilmiy grammatikagacha bo'lgan grammatika sifatida baholanadi.

### **Mustahkamlash uchun savollar: Questions for Consolidation**

1. Yevropada Uyg'onish davri qaysi asrlarni o'z ichiga oladi?  
What centuries did European Renaissance include?

2. Uyg'onish davrida qaysi tillar tadqiq qilindi, qaysi sohalar bo'yicha tahlil yaratildi?

What languages were researched during the Renaissance and what works were written?

3. "Umumiy ratsional grammatika" (yoki Por-Royal grammatikasi) nima uchun mantiqiy grammatika deb yuritiladi?

Why was *Port Royal Grammar* called logic grammar?

### Asosiy tushunchalar:

#### Basic notions:

1. Por-Royal grammatikasi – mantiqni grammatikadan ustun qo'yuvchi, grammatika mantiqqa asoslanishi lozim degan fikrni ilgari suruvchi grammatika.

*Port Royal Grammar* is a grammar which advanced the idea that logic was above grammar and that it should base on logic

2. Mantiqiy grammatika – lisoniy hodisalarni, birliklarni mantiq asosida – mantiq kategoriyalari nuqtayi nazaridan o'rganuvchi grammatika.

Logic Grammar is a grammar which studies linguistic phenomena and units on the basis of the logic categories point of view.

### Adabiyotlar:

#### Bibliography:

1. Я.В.Лоя. История лингвистических учений. -М., 1968.
2. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. -Т., 1972.
3. В.И.Кодухов. Общее языкознание.- Т., 1974.
4. Т.А.Амирова, Б.А.Ольховиков, Ю.В.Рождественский. Очерки по истории лингвистики.-М.,1975.
5. Н.А.Кондрашов. История лингвистических учений. -М., 1979.

## RUS TILSHUNOSLIGI

Jahon tilshunosligi taraqqiyotida rus tilshunosligi muhim o'rinlardan birini egallaydi. Rus tilshunoslari juda ko'plab jahon tillarini puxta o'rganganligi bilan, lisoniy hodisalarni chuqur tahlil qilganliklari, tilshunoslikning ilmiy-nazariy muammolariga alohida jiddiy e'tibor berganliklari, yangi ta'limotlar, nazariyalar «ishlab chiqqanliklari», yangi



taraz-larni o'rtaga tashlaganliklari bilan ajralib turadi. Aniqrog'i, rus tilshunoslari tomonidan rus, slavyan, hind, eron, fin-ugor, turkiy, mo'g'ul, xitoy va boshqa qator tillar o'rganildi, ular yuzasidan salmoqli mukammal asarlar yaratildi.

XVI asrning oxirlarida (1596) Lavrentiy Zizaniyning slavyan grammatikasiga oid asari nashr qilindi. 1619 yilda Meletiy Smotritskiyning slavyan-rus grammatikasi nashrdan chiqdi.

XVIII asrning oxirida (1787) Rossiya Fanlar akademiyasi Simon Palasning o'z davri uchun buyuk hisoblangan «Barcha tillar va shevalarning qiyosiy lug'ati» nomli tadqiqotini chop ettirdi. Bu asarning yaratilishiga Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alarining 262 ta tili asos bo'lib xizmat qildi.

Rossiyada XIX asrning birinchi yarmida mo'g'ul tili bilan Yakov Shmidt, fin-ugor tillari bilan M.A.Kastren, xitoy tili bilan Bichurin, hind tili bilan G.V.Lebedev kabi olimlar shug'ullandilar.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida esa rus sharq-shunoslik maktabining tashkilotchilari va buyuk vakillari V.R.Rozen, V.V.Bartold, qadimgi Sharq mamlakatlari va misr tillari bo'yicha eng yirik mutaxassis B.A.Turayev, semit tillari bo'yicha P.K.Kokovsov, turkiy tillar bo'yicha N.I.Ilminskiy, N.I.Ashmarin, V.V.Radlov, P.Melioranskiy, mo'g'ul tili bo'yicha O.M.Kovalevskiy, B.Ya.Vladimirsov, arab tili bo'yicha V.F.Girgas, I.Yu.Krachkovskiy, F.E.Korsh, hind tili bo'yicha K.A.Kossovich, I.P.Minayev, eron tillari bo'yicha V.F.Miller, K.G.Zaleman, V.A.Jukovskiy, xitoy tili bo'yicha V.P.Vasilyev, P.Kafarov, V.M.Aleksyev, suriya tili bo'yicha M.Nikolskiy va boshqa taniqli olimlar ish olib bordilar.

Rus tilshunosligi fani jahon tilshunosligi yutuqlari qatoriga rus akademik Otto Byotling va nemis Rudolf Rotlar tomonidan yaratilgan 7 tomdan iborat sanskrit lug'atini tuzganligi bilan juda katta ulush qo'shdi.

1870 yilda Peterburg universitetida tilshunoslik bo'yicha birinchi bo'lib, I.A.Boduen de Kurtene, 1885 yilda Xarkov universitetida I.V.Netushil, 1895 yilda Qozon universitetida V.A.Bogoroditskiylar ma'ruzalar o'qidilar.

Rossiyaning eng buyuk tilshunoslari bo'lgan M.V.Lomonosov, A.A.Potebnya, Ivan Boduen de Kurtenelar tilshunoslik sohasida Yevropa olimlaridan ancha ilgari ketgan edilar.

## Mikhail Vasilyevich Lomonosov

Buyuk qimmatiy olim M.V.Lomonosov (1711–1765) o‘z asarlari, grammatikaga, notiqlikka va uslubshunoslikka oid tadqiqotlari bilan rus tilshunosligining mustahkam poydevorini qurib berdi. U 1755 yilda rus tilining birinchi grammatikasini – «Rossiya grammatikasi» asarini rus tilida e‘lon qildi, ya‘ni, M.V. Lomonosovgacha rus tili bo‘yicha e‘lon qilingan ishlar ayni tilda yaratilmagan edi.

M.V.Lomonosovning jonli rus tili (so‘zlashuv nutqi) asosida yaratilgan grammatikasi juda katta shuhratga ega bo‘ldi. Aniqrog‘i, ushbu bo‘lar rus tilshunosligi taraqqiyotida alohida muhim o‘rinni egalladi.

M.V.Lomonosov grammatikasi tasviriy – me‘yoriy - uslubiy grammatika bo‘lib, rus tilining dastlabki ilmiy (akademik) grammatikasi hisoblanadi. Bu grammatika faqat normativ grammatika bo‘lib qolmaganidan, ayni vaqtda, u rus tili haqida umumiy, yaxlit ma‘lumot, tushuncha beruvchi grammatika hamdir.

M.V.Lomonosov grammatika haqida shunday deydi, «Grammatikasiz notiqlik ma‘nosiz («o‘tmas»), she‘riyat to‘mtiq, falsafa asossiz, tarts yoqimsiz, huquq ishonchsizdir». <sup>31</sup>

M.V.Lomonosovning «Rossiya grammatikasi» asari olti bo‘lim-dan tashkilatdan) iborat. Bular quyidagilar: 1. So‘z haqida. 2. Orfo-epiya va orfografiya haqida. 3. Nom (ot) haqida. 4. Fe‘l haqida. 5. Ko‘makchi (yordamchi) so‘zlar haqida. 6. Sintaksis haqida.

M.V.Lomonosov so‘z haqida fikr yuritar ekan, uning insonlarga o‘z tushunchalarini ifodalash uchun, o‘zgalarga xabar yetkazish uchun xizmat qilishini to‘g‘ri ta‘kidlaydi. Haqiqatan so‘z ma‘no anglatishi bilan, narsa, predmet, voqea – hodisalar haqida xabar, tushuncha berishi bilan ijtimoiy ahamiyatga, «quvvatga» ega bo‘ladi.

U so‘z turkumlari muammosiga to‘xtalib, ularni sakkizta deb belgilaydi, ya‘ni: ot, olmosh, fe‘l, sifatdosh, ravish, predlog, bog‘lovchi, undov. Ushbu so‘z turkumlarining nutqda qanday vazifani bajarishini ham izohlaydi. Masalan, nom (ot) narsa-predmetlarni ifodalash uchun, olmosh nomlashni qisqartirish uchun, fe‘l esa harakat – holatni anglatish uchun, bog‘lovchi tushunchalarimizning o‘zaro bog‘liqligini, aloqadorligini ko‘rsatish uchun xizmat qilishini aytadi.

<sup>31</sup> M.V. Ломоносов. Сочинения. М., 1987.124-бет.

Umuman olganda, M.V.Lomonosov grammatik sistemasining markazida soʻz turkumlari haqidagi taʼlimot yotadi. Soʻz turkumlarini mantiqiy-funksional asosda, yuqorida koʻrganimizdek, asosan, ikki guruhga: mustaqil soʻzlar va yordamchi soʻzlarga ajratiladi. Mustaqil soʻzlar-ot, feʼl, sifat va sonlar boʻlib, ular obyektiv borliqni aks ettiradi. Yordamchi soʻzlar esa til birliklarining tejankorlik prinsipiga muvofiq nutqiy takronni qisqartiradi, takrordan qutqaradi. Demak, yordamchi soʻzlar, asosan, mustaqil soʻzlarni bogʻlash yoki ularni qisqartirish uchun xizmat qiladi.

M.V.Lomonosov rus ilmiy terminologiyasining boyishiga, mukammallashishiga katta hissa qoʻshdi. U rus tili asosida tushunarli, aniq, ona tili lugʻat tarkibiga asoslangan ilmiy terminologiyani ishlab chiqdiki, bunga oid terminlarning aksariyati hozirda ham oʻz kuchini yoʻqotgani yoʻq. Masalan, предложный падеж, земная ось, кислота, магнитная стрелка, закон движения, маятник, чертёж, опыт, наблюдение, северное сияние, частицы, явление va boshqalar.

M.V.Lomonosov oʻzining «Ritorikaga oid qisqacha qoʻllanma» (1748) asarida gap nazariyasi haqida atroflicha maʼlumot beradi. Shu bilan rus sintaksisining asosini yaratadi.

U «Rossiya tilidagi cherkov kitoblarining nafi haqida» asarida uch stil (uslub) haqidagi nazariyani rivojlantirdi. Olim rus adabiy tilidagi soʻzlarning maʼnosi, qoʻllanishi, faollik darajasi, qanday oʻrinlarda ishlatilishi, emotsional-ekspressiv xususiyatlari kabilarni oʻrganib, mazkur tildagi uch asosiy uslubni - yuqori, oʻrta va quyi uslublarni ajratadi.

Yuqori uslub – slavyan – rus soʻzlaridan tuzilib, bunda qahramonlik qasidalari, prozaik nutqlar tuziladi.

Oʻrta uslub – rus tilida qoʻllanadigan soʻzlardan tuzilib, unda sahna asarlari, maktublar, hajviy asarlar yoziladi.

Quyi uslub – cherkov – slavyan tilida mutlaqo uchramaydigan ruscha soʻzlardan iborat boʻlib, u orqali komediya, epigrammalar, ashulalar va prozada esa maktublar hamda ish qogʻozlari yoziladi.

Xullas, M.V.Lomonosov oʻz tadqiqotlarida fonetika, soʻz yasalishi, morfologiya va sintaksis sohalariga oid rus tili materiallarini kuzatish va umumlashtirishga asoslangan empirik metodga qatʼiy amal qiladi.

Jonli rus tiliga asoslangan M.V.Lomonosov grammatikasi juda katta shon – shuhratga ega boʻlib, A.Vostokovning «Rus grammatikasi»

asosiy bo'lgan davrda – deyarli 80 yil rus tilining asosiy, yetakchi grammatikasi vazifasini o'tadi.

**Mustahkamlash uchun savollar:  
Questions for Consolidation**

1. M.V. Lomonosov kim, uning “Rus grammatikasi” asari qanday grammatika?

Who was M.V.Lomonosov and what kind of grammar was his *Russian Grammar*?

2. M. V. Lomonosov grammatika haqida nima deydi?

What did M.V.Lomonosov say about grammar?

3. M. V. Lomonosov rus tilidagi qanday uslublarni farqladi?

What styles in Russian did M.V.Lomonosov distinguish?

**Asosiy tushunchalar:  
Basic notions:**

1. Rossiya grammatikasi – rus tilining birinchi ilmiy grammatikasi bo'lib, unda so'z, orfoepiya, orfografiya, ot, fe'l, ko'makchi va sintaksis masalalari haqida ma'lumot beriladi.

Grammar of Russia was the first Russian scientific grammar and it contained information about words, orphoepia, orthography, nouns, verbs, auxiliary words and issues of syntax.

2. Uch uslub (stil) haqidagi nazariya – yuqori, o'rta va quyi uslublar hamda ularning har biriga xos xususiyatlar haqidagi fikrlar.

Theory on three styles includes high, medium and lower styles and ideas about peculiarities of each one.

**Adabiyotlar:  
Bibliography:**

1. Я.В.Лоя. История лингвистических учений.- М., 1968.
2. В.В.Виноградов. История русских лингвистических учений.- М., 1978.
3. Н.А.Кондрашов. История лингвистических учений.- М., 1979.

## Fyodor Ivanovich Buslayev

F.I. Buslayev (1818-1897) buyuk rus filologi, rus tili va adabiyatining xalq og'zaki ijodi, qadimgi rus san'atining tadqiqotchisidir.

U 1838-yilda Moskva universitetini tugatdi. 1840-1841-yillarda chet elda bo'ldi. 1847-yildan boshlab, Moskva universitetida rus tilini yozma va og'zaki ijodiyotdan ma'ruzalar o'qidi. 1861-yilda professor keyinroq esa akademik bo'ldi.

F.I. Buslayev 1844-yilda - 26 yoshida, gimnaziyaning o'qituvchisi sifatida, "Vatan tilini o'qitish haqida" kitobini nashr qildi. Asarda ona tilini o'qitishda quruq, qotib qolgan (sxolastik) ta'limotlarga qarashlarga qarshi chiqib, "shu kungacha biz ona tilidan ta'lim berishda lotin va grek tillari grammatikasi asosida yaratilgan ishlarga asoslandi. Vaholanki, bu ishlarda, bir tomondan, lingvistik elementlar yetishmaydi, ikkinchi tomondan esa, ortiqcha narsalar, ayniqsa, mayda-chuyda qoidalar ko'p uchraydi"<sup>32</sup>.

F.I. Buslayev tilni o'qitish jarayonida o'quvchi shaxsini sodda chiqarmaslikni aytib, uning o'qib chiqqanini yoki eshitganini aniq tushunishiga, bilishiga erishish lozimligini alohida qayd etadi. Bu - haq gap. Bizningcha ham, o'quvchi, talaba o'qiganini, eshitganini tushunib turib, mantiqan - aqlan qabul qilgandagina, mohiyatiga tushunganidagina uning lisoniy dunyoqarashi, bilimi, saviyasi kengayadi, o'sib boradi, shakllanadi. O'z davrida taniqli rus tilshunosi Aleksey Aleksandrovich Shaxmatov F.I. Buslayevning ona tilini o'qitishga bag'ishlangan ushbu asarini rus tili haqidagi eng qiziqarli kitob deb, yuqori baholagan.

1858-yilda F.I. Buslayev rus grammatikasi tarixida katta ahamiyatga ega bo'lgan "Rus tili tarixiy grammatikasi tajribasi" (Rus tili tarixiy grammatikasi 1859) asarini e'lon qiladi. Mazkur grammatika materialiga ko'ra tarixiy ammo nazariy fikrlariga, xullosalariga ko'ra esa mantiqiy xarakterga egaligi bilan ajralib turadi. Olim shu asosda ushbu turkumiga quyidagicha ta'rif beradi: ot predmetlarni anglatuvchi so'z turkumidir. Gap, so'zlar orqali ifodalangan fikrdir.

F.I. Buslayev ta'limotiga ko'ra mantiqiy nuqtai nazardan gapda faqat ikkita bo'lak - ega va kesim bo'lishi mumkin, Grammatik jihatdan esa bosh bo'laklardan ikkinchi darajali bo'laklar farqlanadi. Ular bosh bo'laklarni tushuntiradi, izohlaydi va to'ldiradi, - deydi.

<sup>32</sup> Ф.И. Буслаяв. О преподавании отечественного языка. Москва 1941. 31-бет.

F. I. Buzilayev rus tilini tarixiy jihatdan o'rganish muammolariga aloqadorlikni, u tilni qiyosiy va tarixiy o'rganish o'zaro zich bog'liqligini ta'kidlaydi. U tilni faqat qiyosiy jihatdan o'rganish til qonunlari haqida qiyosiy va aniq natijalarga, ma'lumotlar berishini shuningdek, tillar o'rtasidagi taqqoslashni taqdim qilganda, u yoki bu lisoniy birlik (forma), genetik jihatidan, nima uchun aynan shunday shaklda, ko'rinishida bo'lishi kerak, qo'llanishini aniqlash mumkin, - deydi.

U rus tili tarixini o'rganishda ta'lim jarayoniga, qiyosiy grammatika muammasini yechish zarurligini aytadi. Rus tili qiyosiy grammatikasining muammasidagi, - deydi olim, rus tilining boshqa slovyan tillardan, xususan ukrain tillaridan qaysi jihati bilan farq qilish muammasini hal qiladi.

F. I. Buzilayev tilda xalqning butun hayoti – tarixi, utf-odatlari, madaniyati aks etishini, ifodalanishini to'g'ri qayd etadi.

### Aleksandr Afanasevich Potebnya

Ilmida tilshunoslikdagi psixologizm oqimining eng ko'zga ko'ringan vakili rus va ukrain filologi A. A. Potebnyadir (1835 – 1891).

A. A. Potebnya rus, ukrain va jahon tilshunosligi fanining buyuk vakili bo'lib, ilmiy va boshqa tillarining mashhur tadqiqotchisi hisoblanadi. Uning butun hayoti va ilmiy faoliyati Xarkov universiteti bilan bog'liqdir.

1860 yilda Xarkov universitetining tarix – filologiya fakultetini tugatgan A. A. Potebnya universitetda qoldiriladi va 1860 yilda «Slavyan tilshunosligi jamiyatidagi bu'zi belgilar (simvollar) haqida» mavzusidagi dissertatsiyasini yoqlaydi.

1861 yilda ushbu universitetning dotsenti unvoniga sazovor bo'ladi.

1862 yilda Afanasya arxeologiya jamiyatining haqiqiy a'zolariga o'tadi,

1863 yilda universitet professori bo'ladi va shu yili Rossiya fanlar akademiyasining muxbir a'zolariga saylanadi.

A. A. Potebnya ilmiy faoliyati davomida tilshunoslikning umumfalsafiy muammasini umumiy tilshunoslik, sintaksis, semantika, etimologiya, fonetika, dialektologiya, adabiyot nazariyasi, folklor, etnografiya va boshqa muammolar bilan shug'ullanib, qator jiddiy asarlar yaratdi.

A. A. Potebnyaning eng muhim asarlari «Fikr va til» (1862) hamda IV to'rtinchi to'rtat «Rus grammatikasidan lavhalar»dir (1874).

A. A. Potebnya ilmiy faoliyatining dastlabki davrlaridanoq keng qamrovli tilshunoslik sifatida ko'rindi. U birinchilardan bo'lib, A. Shleyxer

ta'limotiga – uning biologizmi va hind – Yevropa tillari taraqqiyotidagi ikki davri (rivojlanish va inqiroz davri) haqidagi noto'g'ri nazariyalarni qarshi chiqdi.

A.A.Potebnya tilni xalqning ijodi, mahsuli deb hisoblaydi. U o'zining obyektiv qonunlariga egaligini ta'kidlab, til hodisalarini sistemasi bilan o'zining o'zi orqali, o'zi bilan bog'lab tushuntirishga harakat qildi. Aniqrog'i, A.A.Potebnya ta'limotidagi bosh g'oya til faktlarini hodisalarini sistemada va tarixiy jarayonda o'rganish bo'ldi. U til hodisalarining izohini, sababini psixologiyadan emas, balki tilning o'zidan qidirdi. Chunki A.A.Potebnya uchun til doimiy faoliyatdir. Demak, til doimiy faoliyat, jarayon ekan, unda lisoniy hodisalarining yangiliklarning, o'zgarishlarning to'xtovsiz ravishda bo'lib turishi tabiiy mantiqiy bir holdir. Chunki til egasi bo'lgan jamiyat doimo taraqqiyotda rivojlanishda, «o'sishda»dir.

A.A.Potebnya fikricha, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi umumiylik har ikkovining ham aynan bir xalqqa, bir millatga tegishligi bilan belgilanadi.

U til va tafakkur munosabatiga to'xtalar ekan, fikrning hosil bo'lishi va o'zining ifodasini topishi, voqelikka aylanishi faqat til yordamida, til materialida yuz berishini ko'rsatadi. Shuningdek, u tilning faqat tafakkur – fikrlash jarayoni bilangina emas, balki umuman inson psixikasi bilan bog'liqligini qayd etadi.

U tillarni qiyosiy – tarixiy tekshirish bilan bevosita shug'ullanmagan bo'lsa-da, ammo ayni tadqiqot metodini yuqori baholaydi.

A.A.Potebnyaning grammatikadagi mazmun va shaklning o'zaro ta'siri va murakkab munosabatini ochib berish bilan bog'liq grammatik ta'limoti rus tilshunosligi fanining qo'lga kiritgan katta yutug'i bo'ldi.

A.A.Potebnya ta'limotining muhimligi shundaki, tildagi forma bu faqat ifodalovchigina emas, balki ifodalanuvchi hamdir. Bunda ikki turdagi: real (mustaqil – leksik R.R) va formal ma'nolar nazarda tutiladi.

A.A.Potebnya so'zning real (yoki mustaqil) ma'nosida ikki turdagi, ikki xil ma'noni – yaqindagi ma'noni va uzoqdagi ma'noni ajratadi.

Yaqindagi ma'no bu tilga oid bo'lib, izohli lug'atlarda qayd etiladigan ma'no. Anig'i, ushbu ma'no so'zlovchi uchun ham, tinglovchi uchun ham – barcha uchun umumiy, tushunarli – xalqchil bo'lgan ma'nodir, real, obyektiv ma'nodir. Shunga ko'ra, o'zaro fikr almashuvchilarda bir-birini o'zaro tushunish, anglash jarayoni yuz beradi.

... qanday ma'no esa tilga oid bo'lmay, balki muayyan mutaxassislikka ega bo'lib, mavzoni taxminologik va predmet (ensiklopedik) lug'atda qayd etilgan ma'no bilan, ma'no individual - «shaxsiy» bo'lib, xususiyligi va o'ziga xosligi bilan, barcha uchun bir xilda tushunarli bo'lmay, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

... ta'rif va tafakkur munosabati masalasi kabi, A.A.Potebnya ta'rifning bosh g'oyasi hisoblanadi, uning asarlarida markaziy o'rinni tutadi.

... har qanday so'z uch elementdan: tovushdan, tushunchadan va ma'nodan tashkil topadi. So'z tovushsiz bo'lishi mumkin emas. So'zdagi tovushlar deydi A.A.Potebnya, belgi emas, balki belgining qobig'i yoki belgining himmatidir, belgining belgisidir. So'z faqat tovushlar birligi bo'lib, qanday vaqtda u tushuncha va ma'no birligidan ham iboratdir. So'z tovushdan tashqari yana so'zning ichki formasini tashuvchi, belgining ma'noning belgisi ham mavjud. Ma'noning belgisi simbol bo'lib, so'zlarni sistemaga aylantiradiki, u fikr va ma'noni ifodalash va uzatish qobiliyatiga ega bo'ladi, ammo so'zning mazmunini hosil qilmaydi.

A.A.Potebnya so'zning haqiqiy hayoti nutqda amalga oshishini, so'zning ma'nosi esa faqat nutqda reallashishini ta'kidlaydi va so'zning nutqda har qil turlicha ma'no ifodalashini qayd etadi.

A.A.Potebnya fikricha, inson fikri mazmuniga ko'ra yo obraz yoki tashunchadir. Faqat so'z fikr taraqqiyotining vositasi, obrazni tashunchaga o'zgartirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

A.A.Potebnya so'z haqida - so'zning ichki formasi haqida fikr yuritarkan, uning uchun ichki forma, dastavval, so'zning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida har qanday so'zni tushunish uchun imkon yaratadi. Shunga ko'ra, ichki forma so'zning «etimologik ma'nosi» yoki so'zning eng yaqin etimologik ma'nosi sifatida qaraladi.

Umuman, A.A.Potebnya, har bir so'zda tashqi formani, ya'ni, qismlarga ajratiluvchi, bo'laklanuvchi tovushni va ichki formani - ma'noni farqlaydi.

Xullas, A.A.Potebnya o'zining lisoniy qarashlarida, ta'limotida tilshunoslik fanining murakkab va muhim masalalari haqida chuqur fikr yuritib, tilshunoslikdagi psixologizm oqimining vakillaridan farqli holda til va tafakkurni o'zaro bog'liq holda oladi, ularning birini ikkinchisidan ajratmaydi. Ayni vaqtda mantiqiy va lisoniy kategoriyalarning ham o'ziga xosligini ta'kidlaydi.



**Mustahkamlash uchun savollar:  
Questions for Consolidation:**

1. Feyodor Ivanovich Buslayev kim va u ona tilini o'qitishda qanday ta'limotga qarshi chiqdi?

Who was F.I. Buslaev and what did he oppose in teaching language?

2. F. I. Buslayevning qanday asarlarini bilasiz va ularda qanday g'oyalar ilgari suriladi?

What works of F.I. Buslaev's do you know and what are their main idea?

3. F. I. Buslayev tilga qanday baho beradi?

How did F.I. Buslaev assess the language?

4. Aleksandr Afanasyevich Potebnya kim va u til va tafakkur munosabatini qanday talqin qiladi?

Who was A.A.Potebnya? How did he interpret the relation between language and thinking?

5. A. A. Potebnyaning so'z haqidagi g'oyasi nimadan iborat?

What was A.A.Potebnya's idea on a word?

**Asosiy tushunchalar:  
Basic notions:**

1. Fyodor Ivanovich Buslayev - buyuk rus filologi, rus tili va adabiyoti, xalq og'zaki ijodi hamda qadimgi rus san'atining tadqiqotchisidir. u ona tilini o'qitishda sxolastik ta'limotlarga qarshi chiqadi. Olim tilni qiyosiy va tarixiy o'rganish o'zaro zich bog'liqligini, rus tili tarixini o'rganishda ta'lim jarayoniga qiyosiy grammatika fanini kiritish zarurligini aytadi. Tilde xalqning butun hayoti aks etishini ta'kidlaydi.

Fyodor Ivanovich Buslaev – famous Russian linguist, founder of the ancient Russian art and culture, the Russian language and literature. He opposed the scholastic science in teaching the mother tongue. He mentioned that learning mother tongue comparing and historical features, for learning the Russian language it is important to input the comparative grammar. He stated that the whole life of the people was reflected in the language.

2. A. A. Potebnya – psixologizm oqimining eng yirik vakili, slavyan va boltiq tillarining mashhur tadqiqotchisi. Uning lisoniy ta'limotidagi bosh g'oya til hodisalarini sistemada va tarixiy jarayonda o'rganishdir, til va

tafakkuri o'zaro bog'liq holda olishdir. U so'zda tashqi formani –  
tashqi va ichki formani – ma'noni farqlaydi.

A. A. Potebnya - one of the best representative of psychology, the  
famous researcher of Slovan and Baltic languages. His main idea in  
linguistics was to learn the language means in systematic and historical  
process, the language and mental are interconnected. He distinguished the  
external form - phonemes and internal form - meaning.

### **Adabiyotlar:**

### **Bibliography:**

1. Я.В.Лоя. История лингвистических учений. -М., 1968.
2. Хрестоматия по истории русского языкознания. - М, 1973.
3. Т.А.Амирова, Б.А.Ольховиков, Ю.В.Рождественский. Очерки  
по истории лингвистики. - М., 1975.
4. В.Виноградов. История русских лингвистических учений. - М.,  
1978.
5. И.А.Кондрашов История лингвистических учений. -М., 1979.

#### IV. KOMPARATIVISTIKA (qiyosiy – tarixiy tilshunoslik)

XVIII asrgacha til o'zgarish hodisa deb hisoblangan. Aynan mana shu asrdan boshlab, tilga bunday qarash o'zgardi, ya'ni, XVIII asrning diqqatga sazovor eng katta xizmati shundaki, u tilga o'zgaruvchi rivojlanuvchi hodisa sifatida baho berdi. Aniqrog'i, ushbu davrda Sharl de Bros, Jan-Jak Russo, Monboddo, Adam Smit, Pristli, Gerder va boshqalar tillarning tarixiy taraqqiyoti g'oyasini qo'llab, uni rivojlantirdilar.

XIX asrning boshlariga kelib, tilshunoslikka alohida fan sifatida qarash g'oyasi qat'iy tus oldi, ya'ni, XIX asrning birinchi choragida tilshunoslikda faktlarni yig'ish, ularga e'tibor berish g'oyasidan qiyosiy-tarixiy g'oyaga-nuqtayi nazarga burilish, o'tish yuz berdi. Albatta, XIX asrning boshlariga kelib, nuqtayi nazarlarning o'zgarishiga lisoniy kuzatishlar, bu kuzatishlardan kelib chiqqan muayyan jiddiy fikrlar sabab bo'ldi. Aniqrog'i, XIX asrdan ancha oldin ayrim tillar o'rtasida o'xshashlik borligi aniqlansa-da, ammo uzoq vaqtlar davomida ushbu o'xshashlikning sabablari ilmiy jihatdan yoritib berilmadi, olimlar o'xshashlik sabablarini tu-shuntirib bera olmadi. XIX asrning boshlariga kelib, turli mamlakatlardagi ayrim tilshunoslar deyarli bir vaqtda bir qancha tillar o'rtasidagi sistematik o'xshashlikni faqatgina ularning qarindoshligi bilan - bir umumiy qadimiy bobotildan kelib chiqqanligi bilan, keyinchalik esa har biri alohida, mustaqil rivojlanganligi bilangina tushuntirish mumkin, degan xulosaga kelishdi. Shuningdek, tillar o'rtasida o'xshashlik mavjudligi g'oyasining maydonga kelishida fanga tarixiy yondashish yuzaga kelganligi - til hodisalari tarixiylik jihatidan izohlana boshlanganligi bilan, tilshunoslikka romantizm g'oyalarning ta'siri, ya'ni, jonli tillarning o'tmishini o'rganishga undash g'oyasi bilan hamda sanskrit (qadimgi hind adabiy tili)<sup>33</sup> bilan yaqindan tanishish kabilar tillar o'rtasidagi o'xshashlikni ularning qarindoshligiga ko'ra izohlash mumkinligiga olib keldi. Masalan, Bengaliyada xizmat qilgan ingliz sharqshunosi va huquqshunosi Vilyam Djons (1746–1794) sanskrit tilini yunon va lotin tillariga qiyoslab, ular o'rtasida yaqinlik, qarindoshlik borligi haqidagi fikrlarni, ma'lumotlarni qat'iy aytdi.

Nemis olimi Fridrix Shlegel (1772–1829) esa o'zining mashhur «Hindlarning tili va donoligi» asarida sanskrit tilining nafaqat lug'at

<sup>33</sup> XVI asrda italyan savdogar sayyohi Flippo Sosseti Hindistonda 5 yil (1583-1588) yashashi natijasida hind tili bilan italyan tili o'rtasida o'xshashlik borligini aniqlaydi va sanskritdan namuna sifatida keltirilgan bir qancha so'zlar bilan fikrini isbotlaydi.

ta'kidida, balki grammatik munosabatida ham lotin, grek, german va fors tillarga qarindosh ekanligini, ularning kelib chiqishiga ko'ra umumiy asosga ega ekanligini qayd etadi.

Demak, tillarni qiyosiy nuqtayi nazardan tadqiq qilish, ularga ta'riylik jihatidan yondashish kabilar qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maydonga kelishiga, tilshunoslikning alohida, mustaqil fan sifatida qat'iy tan olinishiga zamin yaratdi.

Ushbu jurnyonda qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, qiyoslash tillarni o'rganishda usul, vosita sifatida, tillarga ta'riylik nuqtayi nazaridan yondashish esa tadqiqotning prinsipi (bosh g'oyasi, maqsadi) sifatida namoyon bo'ldi.

Ta'kidlash shart, qiyosiy-tarixiy metodning ochilishigina tilshunoslikning fan sifatida tan olinishiga, boshqa fanlar qatoridan mustahkam o'rin egallashiga olib keldi. Chunki mana shu metodgina til haqidagi fanga chinakam, haqiqiy ilmiylik g'oyasini berdi, ilmiylik ruhini kiritdi.

Qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi bilan tilshunoslik ham tarixiy, ham ilmiy-nazariy jihatdan mustahkam asosga ega bo'ldi.

Ushbu joizki, Mahmud Koshg'ariy, Vilyam Djons, Fridrix Shlegel kabi olimlarning ham qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishidagi xizmatlarini inkor qilib bo'lmaydi. Ular qiyosiy-tarixiy metodning ochilishiga jiddiy, chinakam yaqinlashishdi. Ammo qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishida Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakob Grimm, Aleksandr Vostokovlarning xizmatlari nihoyatda katta bo'lib, ular ijodkor (novator) tilshunoslar sifatida maydonga chiqdi.

Qiyosiy-tarixiy metod ilmiy-tekshirish usullarining muayyan sistemasi bo'lib, o'z oldiga qarindosh tillarni qiyoslash orqali o'rganib, u yoki bu tilning tarixini, undagi o'zgarishlarni, lisoniy hodisalarning mohiyatini, uning taraqqiyotidagi qonuniyatlarni ko'rsatib berish, tushuntirish vazifasini qo'yadi.

Hind-Yevropa tillarini qiyosiy-tarixiy o'rganish jarayoni to'rt davrni o'z ichiga oladi:

1. Qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishidan to yosh grammatikachilargacha bo'lgan davr (XIX asrning birinchi choragi-1870).

2. Yosh grammatikachilar davri (1870-1890).

3. Yosh grammatikachilar davridan to F. de Sossyurning «Umu-miy tilshunoslik kursi» asari va xet yozma yodgorliklarini o'qib, mazmun-g'oyasini aniqlashgacha bo'lgan davr (XIX asrning oxiri va XX asrning ikki o'n yilligi).

4. F. de Sossyur g'oyalari dan bizning davrimizgacha bo'lgan davr  
X X X

Birinchi davr, aytilganidek, qiyosiy-tarixiy metodning ochilishi bilan boshlab, yosh grammatikachilargacha bo'lgan davrni, ya'ni, taxminan 1816-1870 yillarni o'z ichiga oladi.

Ushbu davrning yetakchi, bosh yo'nalishi qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi va umumiy tilshunoslik fanining asoslanishi bo'ldi.

Birinchi davr ikkiga:

1. F. Bopp - V. Gumboldt.

2. A. Shleyxer - G. Shteyntal bosqichlariga bo'linadi.

### Birinchi bosqich

(F. Bopp - V. Gumboldt bosqichi)

F. Bopp - V. Gumboldt bosqichi XIX asrning ikkinchi o'n yilligining o'rtalaridan to'rtinchi o'n yillikning oxirlarigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Ushbu davr qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi, ochilishi va umumiy tilshunoslik fanining asoslanishi bilan xarakterlanadi.

Qiyosiy-tarixiy metodning asoschilari F. Bopp, R. Rask, Ya. Grimm hamda A. Vostokovlardir.

### Frans Bopp

Frans Bopp (1791-1867) buyuk nemis tilshunosi - sanskrit mutaxassisi, Berlin universiteti professori. U 1816 yilda «Sanskrit tilining tuslanish sistemasi va uni grek, lotin, fors va german tillaridagi tuslanish sistemasiga qiyoslash» asarini yozdi.

F. Bopp qayd etilgan tillarda mavjud grammatik shakllarni - tuslanish formalarini qiyoslash asosida ushbu tillar o'rtasidagi umumiylikni, o'xshashlikni ochib berdi. U qiyoslash metodi bilan qiyoslanayotgan tillarning dastlabki holatini, ko'rinishini tiklash mumkin, degan fikrni ilgari surdi. Shunga ko'ra, 1816 yil to'liq ma'noda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning tug'ilish-yaratilish yili deb e'tirof etiladi.

F. Boppning kashfiyoti, yangiligi nimada? Yuqorida aytilganidek, ko'pgina olimlar - V. Djons, Fr. Shlegel kabilar hind-Yevropa tillari bir bobotildan kelib chiqqan, qarindosh tillar oilasini tashkil qiladi, degan fikrni aytishgan.

F. Boppning xizmati shundaki, u qarindosh tillarning materiallari asosida sistemaga asoslangan, sistema xarakteridagi umumiy nazariyani yaratdi. U fe'llarning qo'shimchalarini qiyoslab, hayratlanarli darajaga keldi, ya'ni, ma'lum bo'ldiki, hind-Evropa tillarida nafaqat shunda o'xshash hodisalar mavjud, balki ushbu tillarda o'zaro o'xshashlikning, o'zaro muvofiqlikning butun bir sistemasi-grammatik sistemalarning umumiyligi, o'xshashligi mavjudligi aniqlandi. F. Bopp ushbu tillar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlik faqat vosita edi, xolos. Maqsad esa boshqa, ya'ni, qiyoslanayotgan tillardagi grammatik shakllarning eng qadimiy, dastlabki ko'rinishini-shaklini ochib berish jarayonida bir tilga o'xshash hodisani boshqa til faktlari yordamida yoritish, tushuntirish edi. Shu bilan ma'yan tilga oid shakllarni (so'z formalarini) boshqa tildagi shakllar (so'z formalari) orqali tushuntirish, izohlash edi. Ushbu nuqtayi nazar F. Bopp tadqiqotlarining yangiligidir. U shu bilan qiyosiy-tarixiy tadqiqotning asosini yaratdi.

F. Bopp 1833–1852 yillarda uch tomдан iborat bo'lgan «Sanskrit, asos, arman, grek, lotin, litva, eski slavyan, got va nemis tillarining qiyosiy grammatikasi» nomli asosiy asarini e'lon qildi. Bu asarda sanskrit tiliga asoslangan holda ayrim grammatik formalarning taraqqiyotini va ularning dastlabki manbalarini aniqlash mumkin, degan fikrni ilgari surdi.

F. Bopp o'z ta'limoti, asarlari bilan o'sha davrda ma'lum bo'lgan barcha hind-Evropa tillarining qarindoshligini isbotlab berishga erishdi. Ushbu bilanishlaridan hali u davrda ochilmagan, noma'lum bo'lgan xet, asar kabi tillargina chetda qoldi. F. Bopp tilshunoslikka hind-Yevropa tillari degan terminni ham olib kirdi.

U o'z tadqiqotlarida, asosan, morfologiya bilan shug'ullandi, fonetika, grammatika-gap shakllari, qo'llanishi, gap tuzilishi kabi masalalarga e'tibor bermadi.

F. Bopp tillarning qarindoshligi masalasida ham jiddiy xatolarga yo'l qo'ydi, ya'ni, u kichik Polineziya va janubiy Kavkaz tillarini ham asossiz ravishda hind-Yevropa tillariga kiritdi.

### Rasmus Rask

F. Bopp bilan deyarli bir vaqtda, ammo unga mutlaqo bog'liq bo'lmagan holda hind-Yevropa tillarining qiyosiy-tarixiy tadqiqi bilan daniyalik buyuk tilshunos prof. Rasmus Xristian Rask (1787–1832) ham shug'ullandi.

R.Rask 1811 yilda «Island tili bo'yicha qo'llanma» nomli birinchi ishini e'lon qildi. Ushbu tadqiqotidayoq F.Boppdan ham oldin grammatik ko'rsatkichlarni, ayniqsa, qo'shimchalarni qiyoslashning muhimligini aytib o'tdi. Ayni vaqtda u, F. Bopp g'oyalari to'ldirgan holda, leksik qiyoslashga ham katta ahamiyat berdi va bu jarayonda dastavval eng zaruriy tushunchalar, hodisalar va predmetlar bilan bog'langan leksikani hisobga olinishini to'g'ri ta'kidledi.

1818 yilda R.Raskning «Qadimgi shimol tili sohasidagi tadqiqot yoki island tilining kelib chiqishi» nomli asosiy asari e'lon qilindi. U tadqiqotda german, litva, slavyan, lotin va grek tillarining qarindoshligini isbotlab berdi.

Ushbu asarning 2-qismi «Frakiy tili haqida» nomi bilan 1822 yilda nashrdan chiqdi. Ishda island tilining o'rini belgilagan holda uning got tillari guruhiga va frakiy (grek va lotin) tillariga bo'lgan munosabatini o'rgandi.

R.Rask asarlarida so'zlarning o'z ma'nolarini o'zgartirishi mumkinligiga e'tibor beradi. Shuningdek, tub va o'zlashgan so'zlarning o'ziga xos xususiyatlarini qayd etadi, lisoniy hodisalarni tadqiq qilishda so'zni mukammal morfologik tahlil qilish lozimligini tavsiya qiladi.

U boltiq tillari slavyan tillari bilan ma'lum bog'liqlikka ega bo'lsa-da, ammo ayni tillar hind-Yevropa tillarining mustaqil shahobchasi, tarmog'i hisoblanadi, degan haqqoniy fikrni birinchi bo'lib ilgari suradi.

R.Rask, F.Boppdan farqli, hind-Yevropa tillarini boshqa til oilalari (masalan, kavkaz-yafetik tillari va Indoneziya tillari) bilan qorishtirmaydi. Shuningdek, u o'z tadqiqotlarida sanskrit tiliga murojaat qilmaydi.

Xullas, R.Rask tilshunoslik tarixida qiyosiy-tarixiy metodning va germanistika fanining asoschilaridan biri sifatida faxrli o'rinni egallaydi.

## Yakob Grimm

Mashhur nemis tilshunosi Yakob Grimm (1785–1863) qiyosiy-tarixiy metod yordami bilan german tillarini tadqiq qildi. Ya.Grimmning to'rt tomndan iborat «Nemis grammatikasi» asari tilshunoslik tarixida muhim o'rin tutadi. U ushbu salmoqli asarida nemis tili tarixiy grammatikasini boshqa barcha german tillari bilan qiyoslagan holda beradi.

Asar I tomining birinchi nashri 1819 yilda, mazkur tomining butunlay, tubdan o'zgargan ikkinchi nashri 1822 yilda chop etiladi. Mazkur tomndan german tillarining tarixiy fonetikasi hamda german tillaridagi

undoshlarning siljishi, «ko'chish» qonuni o'rin olgan, ya'ni, Ya.Grimm (shuningdek, Ya.Bredsdorflar kabi) undoshlarning siljishini isbotlab beradi. Masalan, hind-Yevropa tillariga oid b, d, g – german tillarida p, t, k ga; hind-yevropacha p, t, k – germancha f, th, h ga siljigan, ko'chgan, o'tgan.

Ushbu jamiyon fonetik qonunlarning tan olingan dastlabki, birinchi namunasi edi. «Nemis grammatikasi» asarining barcha tomlari 1837 yilda yakunlandi.

Ya.Grimmning «Nemis tili tarixi» asari esa 1848 yilda e'lon qilinadi. U jamiyat tarixini o'rganishda tilning asosiy, eng muhim manba ekanligini aytadi va tilni u yoki bu xalqning madaniy-tarixiy taraqqiyotining asosini deb hisoblaydi. Shunga ko'ra, Ya.Grimm «Bizning tilimiz to'ng'iz tilining tariximizdir» degan g'oyani ilgari suradi. Haqiqatan ham – shunday. Ya.Grimm ushbu asarida «Xalqlar haqida suyaklar, qurollar va madaniyatlarga qaraganda jonliroq guvoh bor. Bu tilidir», deydi.

Ya.Grimm «Nemis lug'ati» asarida (birinchi tomi 1854 yilda, oxirgi tomi 1860 yilda e'lon qilindi) nemis shoiri Lyuterdan tortib, Gyotegacha bo'lgan nemis tili leksikasini qamrab olishga, ko'rsatib berishga harakat qildi.

### Aleksandr Xristoforovich Vostokov

Taniqli rus tilshunos olimi, akademik (1841) A.Vostokov (1781–1864) tug'ma soqov bo'lib, Sankt-Peterburgdagi Rumyansev muzeyi kutubxonasiga boshchilik qilgan.

A.Vostokov slavyan tili materiallari asosida tadqiqot ishlarini olib boradi. U, aytilganidek, qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri hisoblanadi.

Olim «Slavyan tili haqida mulohazalar» (1820), «Rus grammatikasi» (1831), «Viloyat buyuk rus tili tajribasi» (1852), «Cherkov slavyan tili lug'ati» (1858–1861) kabi qator e'tiborga loyiq ishlarni yaratdi.

A.Vostokov tadqiqotlari yangi boy faktik materiallarga asoslangan bo'lib, slavyan tilining taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy metodning qat'iy qaror topishiga ham imkon yaratdi.

A.Vostokovning 1820 yilda e'lon qilgan «Slavyan tili haqida mulohazalar» maqolasi unga katta shuhrat keltirdi. Olim bu asarida slavyan filologiyasiga oid masalalarga to'xtalib, hind-Yevropa tillarining slavyan tillari oilasiga mansub rus tilining eski slavyan, polyak va serb tillariga bo'lgan munosabatini aniqlaydi, izohlaydi.

A.Vostokovning qayd etilgan maqolasi tarixiy fonetika sohasidagi dastlabki ish hisoblanadi.



A.Vostokov 1842 yilda «Rumyansev muzeyidagi rus va slavyan qo'lyozmalarining tasviri» nomli ko'p yillik mehnatining natijasini o'ziga qiladi. Ushbu tadqiqotida eski slavyan tilining shoxobchalari bo'lgan bolgar, serb, rus va janubiy rus (ukrain) tillarini izchillik bilan farqlaydi. Bu esa amaliyotda eski slavyan tilining taraqqiyoti va undagi o'zgarishlarni davrlashtirishga, ya'ni, qadimgi (IX-XIV), o'rta (XV-XVII) va yangi davrlarga bo'lishga imkon beradi.

A.Vostokov slavyan tillariga tarixiylik nuqtayi nazardan yondashishda ilk bor boshlab bergan olimdir. U tarixiy prinsipga amal qilgan holda eski slavyan tilidagi burun unilarini aniqlaydi, ayrim harflarning talaffuzini belgilaydi, so'z turkumlarining (masalan, sifat, ravishdoshlarning) paydo bo'lish vaqti bilan bog'liq ayrim fikrlarni bayon qiladi.

Xullas, Rossiyada qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar, slavyan tillari oilasiga mansub tillarni o'rganish, ayni tillarni qiyosiy-tarixiy metod asosida tadqiq qilish, ularni davrlashtirish kabilar dastavval akademik A.X.Vostokov nomi bilan bog'liqdir.

Hind-Yevropa tillarini qiyosiy-tarixiy o'rganishning birinchi davri, aytilganidek, qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi va umumiy tilshunoslik fanining asoslanishi bo'ldi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar: Questions for Consolidation:**

1. Qaysi asrdan boshlab, tilga qanday hodisa sifatida yondashildi?  
When and what kind of phenomenon language was approached as?
2. Qaysi asrdan boshlab, qaysi tillar o'rtasida o'xshashlik borligi va uning sabablari aytildi?  
When was there information about likeness of languages and their reasons?
3. Hind-Yevropa tillarini qiyosiy-tarixiy o'rganish qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?  
What periods did historical and comparative study of Indio-European languages include?
4. Birinchi davrning muhim xususiyati nimada?  
What are the peculiarities of the first period?
5. Qiyosiy-tarixiy metodning asoschilari kimlar?  
Who were the founders of a comparative-historical method?

### Asosiy tushunchalar:

#### Basic notions:

1. Komparativistika – qiyosiy-tarixiy tilshunoslik.

1. Comparativeistics is Comparative-historical Linguistics.

2. O'zaro o'xshash tillar – qarindosh tillar, tarixan bir umumiy qadimiy tildan kelib chiqqan, keyinchalik mustaqil rivojlangan tillar (masalan, sanskrit, lotin, grek, arman va fors tillari).

2. Similar languages are related languages originated from one ancient protolanguage (parent language) and later independently developed languages (for instance, sanscrit, Latin, Greek, Armenian and Persian).

3. Qiyosiy-tarixiy metod – tillarni tarixiylik prinsipi asosida o'zaro qiyoslab o'tiruvchi, ularga xos umumiy va farqli jihatlarni aniqlovchi, shu yo'l bilan ularning qarindoshligini isbotlovchi usul.

3. Comparative-historical method is a method which compares the languages on the historical principles and defines their similarities and differences and proves their relatedness in this way.

### Adabiyotlar:

#### Bibliography:

1. Хрестоматия по истории языкознания XIX-XX веков. -М., 1956.

1. Я.Д. Лоя. История лингвистических учений. - М., 1968.

1. С. Усмонов. Умумий тилшунослик. - Т., 1972.

1. П.Н. Кокухов. Общее языкознание. -М., 1974.

3. Т.А. Амирова, Б.А. Ольховиков, Ю.В. Рождественский. Очерки по истории лингвистики. - М., 1975

3. И.А. Кондрашов. История лингвистических учений. -М., 1979.

### Vilhelm Fon Gumboldt va umumiy tilshunoslik

Germaniyaning eng buyuk olimlaridan biri bo'lgan V.Gumboldt (1767-1835) har tomonlama bilim sohibi edi. U tilshunoslik, adabiyot nazariyasi, falsafa, davlat huquqi, siyosat va diplomatik faoliyat bilan shug'ullanadi. Berlin universitetining asoschisi hamda davlat arbobi hisoblanadi.

V.Gumboldtning til bilimi nihoyatda keng bo'lib, ulkan olim nafaqat hind-Yevropa tillarini bilar, balki dunyoning boshqa tillari – bask tilidan tortib, Amerikaning kichik Polineziya va mahalliy aholisining (indeyetslarning) tillari haqida ham chuqur bilimga, ma'lumotga ega edi.

V.Gumboldt asarlari, g'oyalari, konsepsiyalari bilan umumiy nazariy tilshunoslikka asos soldi. Buyuk olim tilshunoslikning, idealistik ruhda bo'lsa-da, qator eng muhim va murakkab muammolarini hal qilib berish ta'limotlar yaratdi. Shu tufayli u jahon tilshunosligining keyingi taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri bo'lgan F.Bopp uning hurmat bilan tilga olsa, G.Shteyntal, A.Shleyxer, K.Fosler, A.Pott, G.Kursius, A.Potebnya, I.A Boduen de Kurtene kabi taniqli va mashhur tilshunoslar o'zlarini uning shogirdi deb hisoblaganlar.

Agar F.Bopp umumiy, nazariy g'oyalardan, qarashlardan chetlashib, asosan, faktlar yig'ish, ularni qiyoslash, ular orasidagi munosabatlarni, bog'liqliklarni aniqlash bilan shug'ullangan bo'lsa, V.Gumboldt nazariy, falsafiy g'oyalar bilan, tilning ilmiy nazariyasini yaratish bilan mashg'ul bo'ldi. Aniqrog'i, V.Gumboldtning tilshunoslikdagi ahamiyatini, o'rnini I.Kant va Gegellarning jahon falsafasi taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri bilan qiyoslash mumkin.

V.Gumboldtning umumiy tilshunosligini til falsafasi deb aytish mumkinki, bu falsafa eng oliy lisoniy umumlashmalarni va uzoq davrlarda ham tilshunoslik rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan xulosalarni qamrab oladi.

V.Gumboldt til falsafasini tiklab, uning obro'-e'tiborini ko'tardi va ayni falsafaga butunlay yangi yo'nalish berdiki, bu yo'nalish qiyosiy-tarixiy metod bilan zich bog'langan holda, uning asosida yuzaga keldi. Aniqrog'i, V.Gumboldtgacha bo'lgan nazariyalar bo'sh, mustahkam asosga ega bo'lmagan, shunchaki, yuzaki nazariyalar edi. V.Gumboldt esa tilning ilmiy nazariyasini, til falsafasini til hodisalariga qiyosiy-tarixiy metodni qo'llash asosida qurdi, yaratdi. Natijada uning ta'limoti, lisoniy qarashlari tilshunoslik fanining taraqqiyotiga uzoq yillar davomida samarali xizmat qildi.

V.Gumboldt 1820 yilda Berlin akademiyasida «Tillar taraqqiyotining turli davrlarida ularni qiyosiy-tarixiy o'rganish haqida» degan mavzuda ma'ruza qiladi. Ushbu mavzudagi ma'ruza uning tilga oid dastlabki tadqiqoti bo'lib, muallif unda til haqida alohida, mustaqil fan yaratish zarurligi g'oyasini o'rta tashlaydi va uni asoslab beradi.

Shuningdek, olim ma'ruzasida qarindosh va qarindosh bo'lmagan tilning tipologik qiyosiy grammatikasini yaratish tarafdori bo'lib chiqadi. U o'ziga bo'lgan, ya'ni, har bir tilning o'ziga xosligini, munosabatlarni tan olmaydigan, barcha dunyo tillarini tayyor mantiqiy talqinlarga majburan kiritishga intiluvchi deduktiv umumiy grammatikasi – Por Royal grammatikasini inkor qiladi. V.Gumboldt turli tilardagi aynan bir tushunchani - fikrni ifoda etishning, yetkazishning turlicha usullarini aniqlashga intiladi.

V.Gumboldt hayotining oxirgi yillarida o'zining eng muhim uch tomli «Yava orolidagi kavi tili haqida» nomli salmoqli asari ustida ish olib buraldi. Bu asar uning vafotidan so'ng akasi A.Gumboldt tomonidan 1816–1840 yillarda nashr qilindi.

V.Gumboldtning qayd etilgan tadqiqotlarining bevosita nazariya bilan bog'liq kirish qismi nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Tilning kirish qismi «Inson tili tuzilishining har xilligi va uning inson madaniyatining ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri» deb nomlanib, turli tillarga – 1839 yilda esa rus tiliga tarjima qilinadi.

V.Gumboldt aynan mana shu asarida, ayniqsa, uning kirish qismida o'zining tilga bo'lgan nazariy – falsafiy qarashlarini mukammal bayon etadi.

U tadqiqotlarida tilga aloqa vositasi sifatida, predmetlarni anglatish vositasini bajaruvchi sifatida baho beradi. Ayni vaqtda olim tilning murakkab o'zaro qarama - qarshi xususiyatlardan iborat ko'p jihatli hodisa ekanligini qayd etadi.

V.Gumboldt tilni mukammal o'rganishda, unga xos belgi-xususiyatlarni, boshqa hodisalar bilan aloqasini, o'ziga xosligini aniqlash va ochishda antinomiya metodini, ya'ni, o'zaro zid, qarama-qarshi qo'yish usulini qo'llaydi. U ushbu usul orqali tilga xos xususiyatlarni, uning eng muhim jihatlarini birma-bir bayon etadi. Shuningdek, til nazariyasi haqidagi mukammal ta'limotlarni, g'oyalarni yaratadiki, bu ta'limot va g'oyalar nazariy tilshu-noslikning taraqqiyotida yangi-yangi qarashlarni ochishda xizmat qildi. Til va tilga yondash hodisalarning, til bilan bevosita aloqador, bog'liq jarayonlarning o'zaro dialektik munosabatda ekanligi ma'lum bo'ldi.

Xullas, V.Gumboldtning tilni o'rganish jarayonida belgilagan, qayd etilgan antinomiya – til hodisalariga dialektik ziddlik asosida yondashishi

jahon tilshunosligi - lisoniy tafakkur taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi<sup>34</sup>.

V.Gumboldt o'z asarlarida tilning so'z va grammatik qoidalarida iboratligini, til birligi bo'lgan so'zning esa tushunchani ifodalaydigan belgi, ramz ekanligini to'g'ri qayd etadi.

U har bir xalqning tilida o'sha xalqning tarixi, madaniyati va, umuman uning butun ruhiy dunyosi namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

V.Gumboldt lisoniy ta'limotining eng muhim nuqtalaridan biri til shakli (formasi) haqidagi ta'limot yoki, boshqacha aytganda, tilning ichki tuzilishi haqidagi nazariyadir.

V.Gumboldt ta'limotiga ko'ra til formadir (shakldir). U til formasining bir qancha xususiyatlarga ega ekanligini aytadi. Shulardan biri til formasining nutq tovushlaridan tashkil topishidir, ya'ni, nutq tovushlari tilning formasini hosil qilishidir. Yana biri til formasining sistema sifatida namoyon bo'lishidir, ya'ni, har bir til elementi, birligi boshqa elementga ko'ra mavjuddir, u bilan o'zaro bog'liqdir, aloqadordir. Shuningdek, til formasi ikki jihatning, ikki tomonning: moddiy va ruhiy, tashqi va ichki tomonlarning birli-gidan, bog'liqligidan iboratdir.

Tilning tashqi formasi tilning materiyasi, ashyosidir, uning tovushli sistemasidir. Aytilganidek, nutq tovushlari tilning shaklidir.

Nutq tovushlari muayyan ma'no ifodalovchi til birliklarini hosil qilishda qo'llanadigan, ishlatiladigan shakldir.

Tilning ichki formasi til strukturalarining tashkil qilinish, fikrni tilda obyektivlashtirish usulidir, xalq ruhining ifodasidir. V.Gumboldt tilning ichki formasi haqidagi ta'limotida ichki formani xalqning ruhi bilan bog'laydi, ya'ni, ichki forma xalq ruhining qandayligini ko'rsatadi hamda so'z orqali ifodalanadigan ma'nodir.

V.Gumboldt fikricha, xalqning tili uning ruhidir va xalq ruhi uning tilidir.

V.Gumboldtning ichki forma haqidagi ta'limotining xatosi shunda ediki, u tilning ichki formasini (shaklini) faqat milliy ruh bilan, xalq ruhi bilan va mutlaq g'oya bilan bog'laydi, ya'ni, u tillarning milliylik xususiyatini alohida tillarning aniq tarixiy taraqqiyotiga bog'liq shart – sharoitlar bilan, xalq tarixi bilan, tilni yaratuvchi, uni o'zida tashuvchi, undan foydalanuvchilar bilan bog'liq holda tushuntirmaydi, balki tilning ichki formasini tillarning milliylik xususiyatini mavjud bo'lmagan, yetarli darajada aniqlanmagan, o'rganilmagan ruhiy ibtidoning namoyon bo'lishi

<sup>34</sup> V.Gumboldtning til antinomiya haqidagi fikrlari "Tilning ta'rifi" bo'limida to'liq bayon qilinadi.

tilni namoyon qiladi. Aniqrog'i, V. Gumboldt nemis faylasufi I.Kant kabi fikrga ruhani alohida mavjud bo'lgan ibtido deb biladi va uni obyektiv mavjud bo'lgan moddiy tabiatga bog'liq bo'lmagan hodisa deb izohlaydi. Unga ta'limotdan kelib chiqib, u tilni ruhning butun majmuidan iborat deb, ta'riflaydi va til ruhga xos bo'lgan qonunlar asosida rivojlanadi deb, biladi. Uning fikricha, tilda xalqning ma'naviy qiyofasini aks ettiradigan ma'lum ta'limotni namoyan qilish ifodalanganadi. Boshqa tilni o'rganish bilan go'yo ta'limotni namoyan qilish ham o'zgaradi. Shu fikr asosida V. Gumboldt tilning «ichki formasi» haqidagi ta'limotini yaratadi. «Ichki forma», uning fikricha, bir tomondan, xalqning ruhi qandayligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, so'z shakllanishi, shakllanishi jarayonida ifodalanadigan ma'nodir.

V. Gumboldt nutq tovushlarini til formasi deb, so'zning nutqda namoyan qilinishidagi qiyofasini so'zning grammatik formasi deb, ta'riflaydi. Uning bu fikrlari hamda «ichki forma» haqidagi ta'limoti, ayni ta'limotning idealistik jihatlari olib tashlansa, ushbu fikrlar umumtilshunoslikda hozir ham diqqatga sazovordir.

Aytish mumkinki, XIX asr tilshunoslik tafakkuri, taraqqiyoti V.Gumboldtning lisoniy nazariyalari asosida taraqqiy qildi. Uning ta'limoti lingvistik g'oyalari XIX va XX asr tilshunosligining rivojiga jiddiy ta'sir qildi.

Xallas, F.Bopp, R.Rask, Ya.Grimm, A.Vostokovlar qiyosiy– tarixiy tilshunoslik va bu tilshunoslikning ilmiy–tadqiqot usuli bo'lgan qiyosiy–tarixiy metodga asos solgan bo'lsalar, V.Gumboldt umumiy nazariy tilshunoslik faniga, uning mustaqilligiga, til falsafasiga asos soldi.

X X X

Hind–Yevropa tilshunosligining XIX va XX asrning boshlaridagi taraqqiyot davrida Vilgelm Fon Gumboldt g'oyalarining ta'siri natijasida umum tilshunoslikda muayyan ta'limotlar, yo'nalishlar maydonga keldi. Bu ta'limotlar jahon tilshunosligida naturalizm (A.Shleyxer ta'limoti) va psixologizm (G.Shteyntal ta'limoti) va boshqa nomlar ostida namoyon bo'ldi.

### Mustahkamlash uchun savollar:

#### Questions for Consolidation:

1. Vilgelm Fon Gumboldt kim va u qanday tilshunoslikka asos soldi?  
Who was Welgelm Fon Gumbold and what linguistics did he found?

2. Vilgelm Fon Gumboldtning til haqidagi nazariy-falsafiy qarashlar qaysi asarida bayon etiladi?

When was Welgelm Fon Gumbold's theoretical and philosophical viewpoints on language described?

3. Vilgelm Fon Gumboldtning til shakli (til shaklidir) ta'limotining asosiy g'oyasi nimadan iborat?

What were Welgelm Fon Gumbold's main ideas on languages form(s)?

#### **Asosiy tushunchalar:**

##### **Basic notions:**

1. Vilgelm Fon Gumboldt – umumiy nazariy tilshunoslikka – til falsafasiga asos solgan olim.

Welgelm Fon Gumbold was a scientist who founded General Theoretical Linguistics and Language Philosophy.

2. Til formasi – tilni forma deb talqin qiluvchi, tilning formasi nutq tovushlaridan tashkil topishini qayd etuvchi ta'limot.

The form of language is a teaching which interprets the language as a form and the form of a language consists of speech sounds.

3. Ichki forma – xalq ruhi bilan bog'lanib, xalq ruhining qandayligini aks ettiradigan hamda so'z orqali ifodalanadigan ma'nodir.

The inner form is a meaningful unit connected with people's spirit and reflects peoples spirit and is expressed by means of word.

#### **Adabiyotlar:**

##### **Bibliography:**

1. Я.В.Лоя. История лингвистических учений. - М., 1968.
2. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. -Т., 1972.
3. Н.А.Кондрашов. История лингвистических учений. -М., 1973.
4. В.И.Кодухов. Общее языкознание. -М., 1974.
5. Т.А.Амирова, Б.А.Ольховиков, Ю.В.Рождественский. Очерки по истории лингвистики. - М., 1975
6. Н.А.Баскаков, А.С.Содиқов, А.А.Абдуазизов. Умумий тилшунослик - Т., 1973
7. Н.С.Кондаков. Логический словарь. - М., 1971

## Ikkinchi bosqich (A.Shleyxer – G.Shteyntal bosqichi)

Tilshunoslik taraqqiyotidagi birinchi davrning ikkinchi bosqichi Avgust Shleyxer va Geyman Shteyntal nomlari va ularning ta'limotlari bilan bog'lanib, ayni bosqich XIX asrning taxminan 50–60-yillarini o'z ichiga oladi.

### Avgust Shleyxer Naturalizm

Umumiy nazariy tilshunoslikning – til falsafasining asoschisi bo'lgan V. Gumboldt tomonidan tilning sistema sifatida talqin qilinishi, tilning organik, organik biq butunlik sifatida berilishi A. Shleyxer, F. de Bopayur, Ivan Boduen de Kurtene kabi tilshunoslarning ta'limotlariga ta'sir qildi, ularning lisoniy g'oyalarida kuzatildi.

XIX asrning o'rtalarida Yevropa tilshunosligida naturalizm<sup>35</sup> oqimi paydo bo'ldi. Ushbu oqimning mashhur vakili nemis olimi Avgust Shleyxer (1821–1863) edi.

A. Shleyxer tilshunoslikdan tashqari botanika va falsafa kabi fanlarni ham o'rgandi. U dastlab Bonn, so'ngra Praga, Iyen universitetlarining dokenti va professori sifatida ma'ruzalar o'qidi, 1858 yilda Rossiya fanlar akademiyasining muxbir a'zosi bo'ldi.

A. Shleyxer hind-Yevropa tillarining umumiy masalalari bilan shug'ullandi, Litva tilini o'rganib, jonli nutq bo'yicha tadqiqotlar olib bordi, xalq og'zaki ijodiga oid materiallar to'pladi. U, shuningdek, qiyosiy – tarixiy va tipologik yo'nalishda german, slavyan, boltiq tillari bilan ham shug'ullandi. A. Shleyxer tillarni qiyosiy o'rganishda tovushlarning qonuniy o'zgarishlariga e'tibor berishni talab qildi. U fonetikani fonologiya deb atadi va so'zda tovush, shakl hamda funksiyani farqladi.

Olim ayni vaqtda umumnazariy fikrlarni ham ilgari suradiki, bu fikrlar tilshunoslardan e'tibor bilan qabul qilindi. Ushbu fikrlar tovush qonuni, analogiya, tilning sistem xarakterga egaligi, so'zning shakli va vazifasi haqidagi g'oyalar bilan bog'lanadi. A. Shleyxerning mazkur nazariy qarashlari «Nemis tili» (1860) asarida bayon qilinadi.

A. Shleyxer hind - Yevropa tillarining bitta bobotildan kelib chiqqanligi g'oyasini ilgari surdi. U hind – Yevropa tillarining

<sup>35</sup> Naturalizm –lotincha natura "tabiat" degani



taraqqiyotini «shajara daraxti» jadvali orqali tushuntirdi, ya'ni, uning fikricha, qachonlardir hind – Yevropa bobotili mavjud bo'lgan, uning tarqalib ketishidan hozirgi hind – Yevropa tillari kelib chiqqandir.

A.Shleyxerning eng mashhur asari «Hind – german tillari qiyosiy grammatikasining kompendiumi»dir (1861). Bu asar o'tgan yarim asr davomida hind – Yevropa tillarini qiyosiy o'rganishning yakuni sifatida maydonga keldi va 15 yil ichida to'rt marta nashr qilindi.

Kompendiumda<sup>36</sup> A.Shleyxer hind – Yevropa tilini (bobotilni) qayta tiklab, uning har bir shoxobchasi qanday rivojlanishini ko'rsatmoqchi bo'ldi.

Umumiy tilshunoslikda A.Shleyxer dastavval naturalistik oqimning yo'l boshchisi, tashkilotchisi sifatida tan olinadi. Uning naturalistik falsafasi «Darvin nazariyasi va til haqidagi fan» (1863) hamda «Insonning tabiiy tarixi uchun tilning ahamiyati haqida» (1865) kabi asarlarida o'z ifodasini topgan.

A.Shleyxer naturalizmining - naturalistik falsafasining mohiyati uning tilni jonli, tabiiy organizm sifatida tushunishida ko'rinadi. U tilni jonli organizmlar kategoriyasiga kiritadi. Aniqrog'i, A.Shleyxer tilning hayoti boshqa barcha jonli organizmlar - o'simliklar, hayvonlar hayotidan jiddiy farq qilmaydi. Tillar ham ular kabi o'sib rivojlanadigan yetuk davrga, so'ngra esa o'sishning eng yuqori darajasiga yetgan nuqtasidan borgan sari uzoqlashib, qariydigan davriga ega bo'ladi, deydi.<sup>37</sup>

A.Shleyxerning tilga naturalistik qarashi – biologizmi, ayniqsa, Ch.Darvinning «Turlarning paydo bo'lishi va tabiiy tanlash» (1859) nomli eng muhim asarining e'lon qilinishi bilan yana ham kuchaydi. «Tillar, -deydi Shleyxer, - insonning xohishidan tashqari paydo bo'lgan, o'sgan va ma'lum qonunlar asosida rivojlanadigan tabiiy organizmdir. Ular o'z navbatida qariydi va o'ladi». «Tillar tovush materiyasidan tashkil topgan tabiiy organizmlardir... tillarning o'sishi ma'lum qonuniyatlar asosida yuz beradi».<sup>38</sup>

Ta'kidlash lozimki, tilga nisbatan «jonli organizm» birikmasining qo'llanishi aslida Shleyxergacha ham mavjud bo'lgan. Masalan, XVIII asr mutafakkirlari, ayniqsa, V.Gumboldt tilni to'xtovsiz o'zgarib boruvchi sistema sifatida yoki jonli organizm sifatida tushuntiradi. Ammo olim bu o'rinda tilga nisbatan organizm tushunchasini biologik ma'noda

<sup>36</sup> Kompendium –lotincha qisqartirish degani. U yoki bu fanga oid muhim, asosiy qoidalarni, tushunchalarni ixcham, lo'nda bayon etish.

<sup>37</sup> Qar: Хрестоматия по истории языкознания XIX и XX веков. - М. 1956.96-бет.

<sup>38</sup> O'sha asar, 95-бет.

... balki falsafiy ma'noda qo'llaydi, ya'ni, til o'lik mexanizm, alohida til belgilarining mexanik birlashuvi emas, balki doimo rivojlanadigan, bog'liqlikda bo'lgan sistemadir.

A. Shleyxer organizm terminini tilga bog'liq holda to'g'ri ma'noda – biologik ma'noda talqin qiladi va shu o'rinda xatoga yo'l qo'yadi. U tilning ijtimoiy ahamiyatiga yetarli e'tibor bermaydi. Haqiqatda esa prof. S. Usmonov aytganidek, «Tillar tug'ilmaydi, balki urug' tilidan qabila tilda, qabila tilidan elat (xalq) tiliga, undan esa millat tiliga tomon taraqqiy etib boradi. Bu tarixiy jarayonda ayrim urug', qabila va elat tillari boshqa tillarga aralashib, singib ketishi ham mumkin. Bunday tillarni o'lik til deb atashadi. Ammo o'lik til organizm kabi butunlay o'lmaydi, uning elementlari boshqa tilda ma'lum darajada saqlanib qoladi».<sup>39</sup> Boshqacha ayt-ganda, tillar ham paydo bo'ladi, taraqqiy qiladi va ba'zan o'z-ladi. Ammo bu «o'lim» biologik emas, balki ijtimoiy – tarixiy xarakterga ega. Til «o'ladi», qachonki shu tilda so'zlashuvchi jamiyat, xalq yo'q bo'lib ketse.

O'z davrida qator tilshunos olimlar: Madvig (1842), Maks Myuller (1861), A.A. Potebnya (1862), I. Boduen de Kurtene (1871) tilni jonli organizm deb atalishiga, tilni biologik ma'nodagi organizm bilan tenglashtirilishiga qat'iy qarshi chiqadilar va shunday fikrlarni qat'iy tanqid ostiga oladilar. Jumladan, «Til organizm emas» (Boduen), «Tilni organizm deb atash, demak, u haqda hech narsa demaslikdir» (Potebnya). «Organizm mustaqil yashaydi, so'z (til – R.R.) esa faqat inson bilan bog'liq holda uning nutq a'zosi orqali yashaydi» (Potebnya) va boshqalar.

Demak, til – tabiiy organizm emas, balki u ijtimoiy hodisa. Tillar shu tillardan foydalanuvchi jamiyat bilan, xalq bilan birga paydo bo'ladi va taraqqiy qiladi. Til yo'q bo'lishi, «o'lishi», aloqa quroli sifatida qo'llan-mashigi mumkin, agar shu tilning egasi bo'lgan jamiyat, xalq yo'q bo'lsa yoki boshqa tilga o'tsa, boshqa tilni aloqa quroli sifatida qabul qilsa. Binobarin, u til aloqa quroli sifatida o'z vazifasidan butunlay «ozod bo'ladi».

A. Shleyxer ta'limotida naturalizmdan tashqari yana tilning «hayoti» va taraqqiyotidagi ikki davr haqidagi muvaffaqiyatsiz, asossiz farazlar, g'oyalari ham bo'lgan. Aniqrog'i, A. Shleyxer til hayotida ikki davrni ajratadi: 1) taraqqiyot davri (tarixgacha bo'lgan davr) va 2) inqiroz davri (tarixiy davr), ya'ni, u tilning «hayotini», taraqqiyotini 1) tillarning rivojlanish davri va 2) tillarning inqiroz davri kabi ikki asosiy davrga bo'ladi.

<sup>39</sup> S. Usmonov. O'sha asar, 68-bet

Tillar taraqqiyotiga, ularning «hayotiga» bunday qarash aslida naturalizm ta'limotidan kelib chiqadi. Qolaversa, u V.Gumboldt kabi tillarning taraqqiyotini inson ruhi, psixikasi bilan bog'laydi: «Tarix va til bu inson ruhining birdan-bir almashtirib turadigan faoliyatidir», deydi.

Xullas, A.Shleyxerning tilning ikki davri haqidagi ta'limoti, ya'ni tilning taraqqiyoti uning inqirozi, tanazzulidir, degan g'oyasi qat'ii tilshunoslar tomonidan tanqid ostiga olindi.

A.Shleyxer, uning ayrim xato g'oyalariga qaramasdan, o'z davrining buyuk tilshunosi edi. Uning umumiy va qiyosiy – tarixiy tilshunoslik taraqqiyotidagi, tilshunoslik tarixidagi xizmatlari nihoyatda kattadir.

A.Shleyxerning lisoniy ta'limoti, asosan, haqqoniy, materialistik edi. U o'zining «Qiyosiy – lisoniy tadqiqotlar» va «Nemis tili» asarlarida til va tafakkurni dialektik munosabatda olib, tilni «talaffuz qilingan tovushlar orqali fikr ifodalash» deb ta'riflaydi. «Til bu fikrning tovush orqali ifodalanishidir», deydi. Ayni fikrlardan til va tafakkurning o'zaro bog'liqligi, «bir butunligi», ajralmas munosabatda ekanligi, shuningdek, tovushning moddiy hodisa sifatida til va nutqning materiali, moddiy asosi, moddiy «quvvati» ekanligi kabi fikrlar, xulosalar kelib chiqadiki, bu o'z davri uchun yukasak, ilg'or g'oyalar edi.

A.Shleyxerning o'z ta'limotida tilni jonli organizmga tenglash-tirish aslida tilni o'z tuzilishiga (strukturasiga) ega bo'lgan obyekt – sistema sifatida tushunishga, shunday fikrning qaror topishiga imkon beradi, tilni sistema va struktura deb tushunishga xizmat qiladi. Shuningdek, hind – Yevropa tillarining shajara daraxti sxemasining yaratilishi hamda tillarning morfologik tasnifining ishlab chiqilishi ham Shleyxer nomi bilan, uning lisoniy ta'limoti bilan bog'lanadi.

Xullas, A.Shleyxer ta'limotida, aytilganidek, xato g'oyalarning, qarashlarning mavjudligiga qaramay, u va uning izdoshlari – naturalizm yo'nalishi, naturalizm maktabi tilga tabiiy – materialistik qarashni, ta'limotni olib kirdi va tilshunoslikda til o'z tuzilishiga (strukturasiga) ega bo'lgan qismlardan iborat bir butun obyektidir – sistemadir, degan g'oyaning qat'iy qaror topishiga, tasdiqlanishiga xizmat qildi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Avgust Shleyxer kim va u qaysi ta'limotga asos soldi?  
Who was August Schlecher and what teaching did he found?

1. Naturalizm ta'limotining asosiy g'oyasi nimadan iborat?

What are the main ideas of Naturalism?

1. A. Shleyxer organizm terminini qanday ma'noda qo'lladi?

What meaning did A. Shlecher use the term *organism*?

1. A. Shleyxer til taraqqiyotida qaysi davrlarni ajratdi, bu davrlar qanday?

What periods did A. Shlecher distinguish and are they well-grounded?

### Asosiy tushunchalar:

#### Basic notions:

1. August Shleyxer – tilshunoslikda naturalizm g'oyasining asoschisi va qiyosiy-tarixiy tilshunoslikda xizmatlari juda katta bo'lgan olim.

August Shlecher was the founder of the idea of Naturalism theory and scientist who contributed much to Comparative-historical Linguistics.

2. Kompendium – hind-Yevropa tillarining taraqqiyoti qiyosiy o'rganilib, ularning qadimiy bir bobotildan kelib chiqqanligi g'oyasini ta'riflashga qaratilgan asar.

Compendium is a book directed at studying the idea that Indo-European languages developed from the ancient protolanguage in comparison.

3. Naturalizm – tilni jonli, tabiiy organizm sifatida biologik ma'noda ta'lim qiluvchi ta'limot.

Naturalism is a teaching which interprets the language as an alive, natural organism in the biological sense.

4. Shajara daraxti – hind-Yevropa tillarining taraqqiyoti, rivojlanishi daraxt ko'rinishida, shaklida berilgan chizma (rasm).

A genealogical tree is a picture in the form of a tree which shows the development of Indo-European languages.

### Adabiyotlar:

#### Bibliography:

1. Я.В.Лоя. История лингвистических учений. -М., 1968.

2. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. -Т., 1972.

3. В.И.Кодухов. Общее языкознание. -М., 1974.

4. Т.А.Амирова, Б.А.Ольховиков, Ю.В.Рождественский. Очерки по истории лингвистики. - М., 1975.

5. Н.А.Кондрашов. История лингвистических учений. -М., 1979.

## Geyman Shteyntal Psixologizm

Falsafiy tilshunoslikning asoschisi bo'lgan Vilgelm Gumboldt tomonidan tilning alohida shaxslarning ruhiy hayoti va tafakkuriga munosabati jihatidan o'rganilishi Geyman Shteyntal, Potebnya, Ivan Boduen de Kurtene kabi tilshunoslarning ta'limotlarida – umumiy tilshunoslikdagi psixologik yo'nalishda davom ettiriladi. Tilshunoslikdagi psixologik oqimning – psixologizmning eng yirik vakili, asoschi nemis nazariyotchi tilshunos olimi, Berlin universiteti professori G.Shteyntaldir (1823 – 1899). U umumiy tilshunoslik sohasida o'zini Gumboldtning shogirdi, uning g'oyalarini davom ettiruvchi deb hisoblaydi. Psixologizm sohasida esa u Iogann Gerbert (1776 – 1841) ta'limotining – assotsiativ psixologiyaning davomchisi edi. Ayni ta'limotga ko'ra narsa - hodisalar inson psixikasida o'zaro bog'liq holda bir – birlarini eslatadilar, esga tushiradilar.

Tilshunoslikdagi psixologizm oqimi naturalizmni qattiq tanqid ostiga oldi. Psixologizm naturalizmdan farqli unga zid holda tilni xudoning yoki odam ruhining aksi, ko'rinishi, ifodasi deb talqin qildi. Shunga ko'ra, til sof psixik, ruhiy hodisa sifatida bayon qilindi. Psixologistlar tilning taraqqiyotini alohida shaxslarning tafakkuridagi, ruhiyatidagi taraqqiyot bilan bog'liq deb hisobladilar.

Demak, tildagi hodisalarning asosida ijtimoiy hodisalar, ijtimoiy taraqqiyot–jamiyat taraqqiyoti emas, balki individual faoliyat, individual taraqqiyot, inson psixikasi, uning fikriy faoliyati yotadi, ular hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ana shunday g'oyalar, qarashlar bilan qurollangan psixologizm vakillari, jumladan, G.Shteyntal ta'limotidagi eng muhim g'oya nutqning individual akti insonning faoliyatidan, ijtimoiy jarayondan ajralganligidir.

G.Shteyntalning hisoniy qarashlari, ta'limoti uning quyidagi qator ishlarida bayon qilinadi. Bular: «Gumboldtning tilshunoslikka oid asarlari va Gegel falsafasi» (1848), «Tillarning tasnifi til g'oyasining taraqqiyoti sifatida» (1850), «Tilning paydo bo'lishi» (1851), «Grammatika, mantiq va psixologiya» (1855), «Til qurilishining eng muhim tiplari xarakteristikasi» (1860), «Falsafa, tarix, psixologiya va ularning o'zaro munosabati» (1863), «Psixologiya va tilshunoslikka kirish» (1871) va boshqalar.

Tilshunoslikdagi psixologik oqim vakillari tilni individual psixika faoliyatining maxsus mexanizmi, alohida inson ongidagi tasavvurlarning

...sifatida yoki xalq psixologiyasining spetsifik namoyon bo'lishi sifatida talqin qilishlarini talab qiladilar. Mazkur g'oyaning asoschisi individual psixologizm bilan bog'lanib, bunda alohida individual psixologizmning asos bo'lib hisoblanadi. Ushbu g'oyaning keyingisi esa ijtimoiy psixologizm bilan bog'lanadi. Ijtimoiy psixologizmning diqqat markazida xalq, jamiyat, millat turadi.

Axallas, tilshunoslikdagi psixologik yo'nalish naturalistik yo'nalish ta'limotiga qarshilik ko'rsatuvchi oqim sifatida, qiyosiy – tarixiy psixologizmning psixologik yo'nalishi sifatida yuzaga keldi va tilshunoslikdagi lisoniy biologizmni chetlashtirdi.

G. Shteyntal individual psixologizm vakili sifatida maydonga chiqdi.

G. Shteyntal lingvistik ta'limotining psixologik asosi bo'lib, I. Gerbertning assotsiativ psixologiyasi hisoblanadi. Assotsiativ psixologiya inson ongining barcha faoliyatini tasavvurlar munosabatiga, psixik assotsiatsiyalar, aloqalar mexanizmiga bog'laydi, so'zni esa tasavvurlar kompleksi bilan, assotsiatsiyalar bilan bog'liq deb hisoblaydi.

Insonning psixik faoliyati fikrlash jarayoni sifatida tasavvurlar assotsiatsiyasidir, aloqasidir, bog'lanishidir.

Psixologizm tilni faqat tafakkur quroli va fikrni ifodalash vositasi sifatida belgilaydi.

Til psixologik konsepsiyasining jiddiy xatosi tasavvurlar rolining oshirib yuborilishi, tushunchalar rolining esa pasaytirilishi, kamaytirilishidir. Psixologizm tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi o'ziga xosligini inkor qiladi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Geyman Shteyntal kim va u qanday ta'limotga asos soldi?  
Who was Gayaman Steintal and what teaching did he found?
2. Psixologizm ta'limotining asosiy g'oyasi nimalardan iborat?  
What are the main ideas of psychologism theory?
3. Psixologizmning naturalizmdan farqi nimada?  
What is the difference of Psychologism from Naturalism?

### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Geyman Shteyntal – tilshunoslikdagi psixologizm oqimining asoschisi, tilni psixik hodisa sifatida talqin qiluvchi nazariyotchi olim

Gayman Steintal was the founder of Psychologism trend in Linguistics and a scientist who interpreted language as a psychic phenomenon/

2. Psixologizm – tilni inson ruhining aksi, ko‘rinishi, til ruhiy hodisa deb talqin qiluvchi ta’limot.

Psychologism is a teaching which considered the language to be human being’s psychic reflection and interprets it as a spiritual phenomenon.

### **Adabiyotlar:**

#### **Bibliography:**

1. Я.В.Лоя. История лингвистических учений. -М., 1968.
2. С.Усмонов. Умумий тилшунослик -Т., 1972.
3. В.И.Кодухов. Общее языкознание. -М., 1974.
- 4.Т.А.Амирова, Б.А.Ольховиков, Ю.В.Рождественский. Очерки по истории лингвистики.- М., 1975.
5. В.Виноградов. История русских лингвистических учений.- М., 1978.
6. Н. А.Кондрашов История лингвистических учений. -М., 1979.

## V. YOSH GRAMMATIKACHILAR MAKTABI

Ikkinchi davr, qayd etilganidek, yosh grammatikachilar davri bo'lib, asosan 1870-1890-yillarni o'z ichiga oladi.

Yosh grammatikachilar maktabi, ayniqsa, ikki muammoni hal qilishda faollik ko'rsatdi. Bular: fonetik qonunlar – tovush qonuni (fizik faktor sifatida) va analogiya (psixik faktor sifatida), ya'ni fikr almashish jarayonida ruhiy (psixik) elementlarni, jihatlarni hisobga olish. Ayni vaqtda ular Shleyxerning o'zlarigacha bo'lgan tilga biologik qarashini – naturalistik falsafani inkor qilib, o'zlarining g'oyalari sistemasini o'rnatdilar. Yosh grammatikachilar, birinchi o'ringa, jonli tillar va dialektlarni o'rganish masalasini qo'ydilar.

Yosh grammatikachilar (Vilgelem Sherer, Avgust Leskin, Karl Brugman, German Ostgof va German Paul) ayniqsa, Hind-Yevropa tillari fonetik sistemasini taraqqiyotida ko'pgina kashfiyotlar qildilar. Ular tilning tarixiy jarayon ekanligini alohida to'g'ri qayd etdilar. Ammo yosh grammatikachilar nazariy yo'nalishda – tilning mohiyati, uning ijtimoiy vazifasi, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi va boshqalarda biror bir natijaga erishmadilar.

Tilshunoslikning sintaksis, leksikologiya, semasiologiya bo'limlari deyarli tadqiq qilinmadi.

Yosh grammatikachilar tillardagi o'zgarishlarga – ulardagi real-aniq jarayonlarga katta ahamiyat berishdi. Shuningdek, ular kuzatilayotgan faktlar orasidagi sabab va natija munosabatining obyektiv qonuniyatlarini ochishga harakat qildilar. Ushbu jarayonda ular asosiy diqqat e'tiborini, aytilganidek, tillardagi fonetik o'zgarishlarga tovush taraqqiyotiga qaratdilar.

Yosh grammatikachilar tadqiqotlarning eng muhim jihati – Hind-Yevropa tillarning taraqqiyot qonunlarini ochish bo'ldi. Ayniqsa, ular so'z tovush tuzilishi taraqqiyotidagi qonuniyatlarni ochishda shuhrat qozondilar.

Yosh grammatikachilar tildagi o'zgarishlarning sababini tashqi – ekstralingvistik faktorlardan emas, balki ichki – lingvistik faktorlardan qidirish lozimligini alohida qayd etdilar.

Yosh grammatikachilarning asosiy qarashlari, g'oyalari umumiy prinsiplari, ayniqsa, "Hind-Yevropa tillarining morfologik tadqiqoti" atarining G.Ostgof va K.Brugmanlar tomonidan yozilgan "Kirish"



qismida, G.Paulning “Til tarixi prinsiplari”, B.Delbryuk va K.Brugmanlarning ishlarida yaqqol aks etgan.

G.Paul, G. Ostgof, B.Delbryuk va boshqalar tilni individual psixofiziologik faoliyat jarayon sifatida talqin qilganlar.

### Leypsig maktabi

Yosh grammatikachilar yo‘nalishi, harakati, dastavval, Leypsig universiteti tilshunoslari orasida yuzaga keldi. Ushbu tilshunoslardan ayniqsa, A.Leskin (1840-1916), G.Ostgof (1847-1909), K.Brugman (1849-1919) va G. Paullar (1846-1921) alohida o‘rin tutadi.

Leypsig maktabiga xos muhim jihatlaridan biri ularning M.Latsarus va G.Shteyntallarning etnopsixologiya, aniqrog‘i xalqlar psixologiyasi ta‘limotidan keskin ajralib chiqishi, alohidalanishi bo‘ldi. G. Paulning fikricha, har qanday sof psixik o‘zaro ta‘sir individning o‘zida, individ doirasida amalga oshadi. Shunga ko‘ra, tan olish lozimki, aslida faqat individual psixologiya mavjud va unga hech qanday etnopsixologiyani xalqlar psixologiyasini qarshi qo‘yib bo‘lmaydi, - deydi.

Leypsig grammatikachilarining lisoniy qarashlari, ta‘limoti, ularning til hodisalarini talqin qilishi individual psixologizm ruhida olib borildi. Ular barcha lisoniy o‘zgarishlar, til hodisalari individning nutqiy faoliyatida amalga oshishini ta‘kidladilar.

Yosh grammatikachilar har qanday lisoniy ijod, nutqiy faoliyat hamma vaqt individual jarayon ekanligini alohida qayd etdilar.

Nutqiy faoliyatning fizik (moddiy) voqelanishlarini kuzatishning eng qulay yo‘li akustik jarayondir, akustik kuzatishdir. Shunga ko‘ra, yosh grammatikachilar o‘z tadqiqotlarida fonetikaga alohida katta e‘tibor bilan qiziqish bilan qaradilar.

Yosh grammatikachilar, birinchilardan bo‘lib, tildagi barcha tovush o‘zgarishlari o‘zining sababiga ega ekanliklarini qat‘iy aytdilar.

Yosh grammatikachilar maktabining bosh nazariyotchisi German Pauldir. Uning muhim asari “Til tarixi prinsiplari” (1880., 1920. 5-nashri, 1947. 6-nashri o‘limidan so‘ng) “Til tarixi prinsiplari” tadqiqoti bo‘lib, asarda tarixiylik prinsipi g‘oyasi yetakchilik qiladi. Umuman, G.Paulning barcha g‘oyalari, ta‘limotlari asosida tarixiylik prinsipi, tilga tarixiy yondoshuv yotadi.

G.Paulning tilga yondoshuvining asosiy prinsiplari – individualizm va psixologizmdir. Aytilganidek, u “Til real faqat individda mavjuddir”,

1. Qanday tilning mohiyatini lisoniy (nutqiy) aktlarning psixik (ruhiy) tabiatida, jarayonida ko'radi. Albatta, tafakkur haqiqattan individual, shunga ko'ra til ham tafakkur vositasi sifatida individual. Ammo til aloqa vositasi sifatida individual emas balki sotsial – ijtimoiydir.

U Paul, G Ostgof, B. Delbryuk va boshqalar tilni individual patofiziologik faoliyat, jarayon sifatida talqin qilganlar.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Yosh grammatikachilar maktabi qaysi asrda maydonga keldi va qanday muammolarni hal qildi?

When did the young grammarians appear and what kind of problems did they solve?

2. Yosh grammatikachilar ilmiy izlanishlarining eng muhim jihati nimada va bunda ular asosiy e'tiborni nimaga qaratdilar?

What was the most important features of the young grammarians' investigation and to what feature did they pay attention the most?

3. Yosh grammatikachilar tilga qanday hodisa sifatida qaradilar va ularni qanday faoliyat sifatida baholadilar?

How did young grammarians present the language and what was their assessment?

4. Leypsig maktabi vakillari qanday psixologiya tarafdori bo'ldi?

What psychology did Leipsig school representatives support?

5. Leypsig maktabi grammatikachilari til hodisalarini talqin qilishda qanday pozitsiyada turdilar?

In what position did the grammarians of Leipsig school stay toward the language means?

### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Yosh grammatikachilar - yosh grammatikachilar lingvistik oqim, yo'nalish sifatida 1870-1890-yillarda faoliyat olib bordilar. Ular, asosan, Hind-Yevropa tillarining fonetik sistemasi taraqqiyotida yangiliklar yaratdilar, tovush tuzilishi, o'zgarishiga alohida e'tibor berdilar. Yosh grammatikachilar tilning tarixiy hodisa, psixofiziologik faoliyat ekanligini alohida qayd etdilar.

Young grammarians – worked in 1870-1890 as one of the linguistic field. Mainly, they created a school of historical linguists holding that formation of the sounds, phonetic changes (sound laws) in speech. Young grammarians stated the historical process was the psychophysiological activity in linguistics.

2. Leypsig maktabi - Leypsig maktabi Leypsig universiteti qoshida – tilshunoslari orasida maydonga keldi. Ushbu maktab tilshunoslari yosh grammatikachilar nomi bilan ilmiy izlanishlar olib bordi. Mazkur maktab tilshunoslari til hodisalarini tadqiq qilishda individual psixologizm ruhida faoliyat ko'rsatdilar.

Leipzig school - was created under the Leipzig university among the linguists. The investigated the language after the name of young grammarians. The representatives of the school investigated the language systems as individual psychological means.

## VI. ROSSIYA TILSHUNOSLIK MAKTABLARI

### Moskva maktabi

XIX asrning 70-80 yillarida Moskva universiteti qoshida "Moskva lingvistik maktabi" nomini olgan tilshunoslar guruhi shakllandi. Moskva maktabida tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi tadqiqi alohida o'rin tutadi. Shuningdek, adabiy tilning shakllanish muammosiga jiddiy ahamiyat beriladi. Ayni vaqtda tilni tarixiy o'rganish masalasi avvalgi davrlardagidek muhim bo'lib qoladi, ko'pgina til hodisalari sinxron jihatdan tadqiq qilinadi.

Rus tilshunosligidagi yangi yo'nalishning – Moskva maktabining asoschisi va yetakchisi akad.F.F.Fortunatovdir (1848-1914). U XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridagi buyuk rus tilshunoslaridan biridir.

F.F.Fortunatov o'z asarlarida, birinchidan, Hind-Yevropa tillarining tadqiqotchisi, ikkinchidan, umumiy tilshunoslik muammolari bilan shug'ullanuvchi tilshunos sifatida namoyon bo'ladi. Uning Hind-Yevropa tillarining tadqiqotchisi sifatidagi faoliyati, ayniqsa, slavyan va boshqa bo'yi tillarini jiddiy o'rganishda ko'rinadi. Umumiy tilshunoslik masalalarida esa u til va jamiyat, til va tafakkur munosabati, grammatik forma tushunchasi, tillarning tipologik tasnifi masalalari bilan shug'ullanadi. U til va tafakkur orasida ikki tomonlama aloqa mavjudligini to'g'ri qayd etadi, ya'ni nafaqat til tafakkurga bog'liq, balki tafakkur ham, o'z navbatida, tilga bog'liqdir, deydi.

F.F.Fortunatov eng yirik komparativistlardan – qiyosiy-tarixiy tilshunoslik vakillaridan biri bo'lib, Hind-Yevropa tillarining qiyosiy fonetikasi va grammatikasi muammolari tadqiqiga katta hissa qo'shdi. Masalan, uning "Qiyosiy tilshunoslik", "Hind-Yevropa tillarining qiyosiy fonetikasi", "Qiyosiy morfologiya" va boshqa asarlari buning isbotidir.

Olim tilni ijtimoiy hodisa deb tushunadi va doimo til hodisalaridagi tabiiy aloqani topishga, imkon doirasida til taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchni aniqlashga harakat qiladi. U har bir til ma'lum bir jamiyatga tegishli bo'lib, uning taqdiri jamiyat taqdiri bilan yaqin, zich aloqadadir, - deydi. Aniqrog'i, u til taraqqiyotini, ya'ni undagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan, jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'laydi, jamiyatdagi o'zgarishlar tildagi o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

F.F.Fortunatov tadqiqotlaridagi muhim jihatlardan biri so'zlarning grammatik guruhi va so'z formasi ta'limotidir. Shunga ko'ra, u so'z

ta'rifiga, so'z muammosiga alohida katta ahamiyat beradi. So'zning real ma'nosini va formal ma'nosini farqlaydi. Real ma'no, uningcha, faktga obyektiv borliqqa aloqador bo'lsa, formal ma'no tilning o'ziga aloqador.

U so'zni tilning eng muhim alohida birliklaridan biri ekanligini aytib uni a) so'z birikmasidan va b) so'zning tarkibiy qismlaridan (morfe-malaridan) ajratish lozimligini qayd etadi, uning mezonlarini beradi. Olim so'zning mustaqil, alohida til birligi ekanligini uning mustaqil ma'noga egaligi bilan bog'laydi. Demak, so'zning alohida, mustaqil birlik sifatida mavjudligi bevosita uning mustaqil ma'noga va mustaqil tovush ifodasiga egaligidan kelib chiqadi. So'z tovush va ma'no birligidan, bog'liqligidan iborat til (nutq)birligidir.

F.F.Fortunatov doimo so'z formasi – bu mazkur davrdagi mazkur tilda mavjud bo'lgan jonli o'zaro munosabatlar natijasidir, deydi.

F.F.Fortunatov boshchiligidagi Moskva lingvistik maktabi jahon va rus tilshunosligida uzoq yillar davomida yetakchilik qilib keldi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Moskva tilshunoslik maktabi qachon shakllandi va uning asoschisi kim?

When was Moscow linguistic school founded and who was the founder of this school?

2. F.F.Fortunatov umumiy tilshunoslik yo'nalishida qanday muammolar bilan shug'ullandi?

What problems did F.F.Fortunatov study in general linguistics?

3. F.F.Fortunatov Hind-Yevropa tillarining qaysi sohalariga katta hissa qo'shdi?

To what features of Hind European languages did F.F.Fortunatov pay attention?

4. F.F.Fortunatov so'z, so'z ma'nosi haqida qanday fikrlarni bildirdi? What was F.F. Fortunatov's idea to word, word meaning?

#### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Moskva lingvistik maktabi – ushbu maktab XIX asrning 70-80-yillarida Moskva universiteti qoshida yuzaga keldi. Moskva maktabi tilga

umumiy hodisa sifatida qarab, uni diaxron va sinxron jihatdan tadqiq qildi. Ushbu maktabning asoschisi akad. F.F. Fortunatov.

Moscow linguistic school was formed in 70-80 years of 19-th century under Moscow university. Moscow school looked upon language as a social phenomenon and researched it diachronic and synchronous ways. The founder of this school is F.F. Fortunatov.

F.F. Fortunatov Hind-Yevropa tillari va umumiy tilshunoslik muam-molarining tadqiqotchisidir. Olim til va jamiyat, til va tafakkur, grammatik hodisa, tillar tasnifi, qiyosiy fonetika, grammatika va soʻz muammolari bilan jiddiy shugʻullandi. U til va jamiyatning oʻzaro zich bogʻliqligini soʻz tovush va maʼnodan iborat til birligi ekanligini taʼkidladi.

F.F. Fortunatov is the researcher of Indo-European languages and the problems of general linguistics. The scientist seriously engaged in the problems of language and society, language and thinking, grammatical form, classification of languages, comparative phonetics, grammar and word. He argued that language and society are closely interrelated, that the word is a language unit, consisting of sounds and meaning.

### Qozon maktabi

Qozon tilshunoslik maktabi – Moskva tilshunoslik maktabidan soʻng maydonga kelgan ikkinchi original rus maktabi sifatida XIX asrning 70-80-yillarida Qozon shahrida shakllandi. Ushbu maktab asoschisi buyuk rus-polyak tilshunosi Ivan Aleksandrovich Boduen de Kurtenedir (1845-1929). Ivan Boduen de Kurtene eng ajoyib, isteʼdodli jahon tilshunoslaridan biri boʻlib, juda katta bilimi va qiziqishlarining kuchligi bilan ajralib turadi.

Qozon maktabi, aslida, yosh grammatikachilar oqimi – maktabi doirasida yuzaga keldi. Yosh grammatikachilar oqimiga xos boʻlgan psixologizm Qozon maktabi tilshunoslari uchun ham xarakterli edi. Ammo Qozon maktabi vakillarining psixologizmi yosh grammatikachilar maktabi psixologizmidan koʻp jihatiga koʻra farqlanadi. Qozon maktabi psixologizmi – bu obyektiv-holis, betaraf psixologizm boʻlib, ijtimoiyligi bilan oʻziga xosdir. Ushbu maktab vakillari tilni psixik (ruhiy) hodisa ekanligini tan olish bilan birga, ayni vaqtda, uning sotsial – ijtimoiyligini aniq va qatʼiy taʼkidladilar.

Ivan Boduen de Kurtene shogirdlaridan tovush va harfni qatʼiy farqlash lozimligini talab qildi. U oʻz tadqiqotlarida ilk bor fonema,

morfema, sintagma, leksema, grafema, kinema kabi terminlarni qo'lladi, tilda statikani (sinxroniya) va dinamikani (diaxroniya) farqladi.

Qozon maktabi – Ivan Boduen de Kurtene Shleyxerning tilga naturalistik qarashiga – naturalizmiga qarshi chiqib, til organizm emas, uni insondan ayri holda, alohida ko'rish, tushunish mumkin emasligini ta'kidlaydi. U til odamlar orasida o'zaro muloqot, fikrlash uchun xizmat qilgandagina muhim ahamiyat kasb etishini aytadi. Shungdek, olim tilning mohiyati nutqiy faoliyatda, nutq sifatida funktsiya bajarishidadir, deydi.

Qozon tilshunosligi maktabi vakillari tilni sistem xarakterga egaligini, til sistema sifatida o'zaro bog'langan, o'zaro bir-birini talab qiluvchi, taqozo qiluvchi elementlardan, qismlardan tashkil topishini to'g'ri qayd etadi.

Qozon maktabi vakillari – Ivan Boduen de Kurtene tilshunoslik tarixida birinchi bo'lib, tovushlarning fizik va funksional xususiyatlari o'zaro mos kelmasligini, bir-biriga o'xshash bo'lmasligini aytdi va shunga ko'ra fonema (fonologiya) ta'limotini boshlab beradi. U tovush (havo va nutq a'zolari tebranishining, harakatining mahsuli sifatida) va fonema (ma'no farqlash funktsiyasiga ega bo'lgan sof lisoniy birlik, element sifatida) orasidagi farqni qayd etadi, aniqlaydi.

Qozon tilshunoslik maktabining taniqli vakillari sifatida, Ivan Boduen de Kurtenedan so'ng, N.V.Krushevskiy (1851-1887) va V.A.Bogoroditskiylarni (1837-1941) ko'rsatish mumkin.

N.V.Krushevskiyning asosiy tadqiqoti "Til haqida ocherklar" deb nomlanadi. Ushbu asarda umumiy tilshunoslikning eng muhim muammolari haqida fikr yuritiladi. U, F. de Sossyurgacha, so'z – narsalar, predmetlar belgisi, til belgilar sistemasi ekanligini ta'kidlaydi.

Olim so'zning morfologik strukturasi, so'z yasalishi va so'zlar orasidagi semantik aloqa masalalari bilan ko'p shug'ullandi.

V.A.Bogoroditskiy esa ustoz Ivan Boduen de Kurtening umum-nazariy fikrlarini davom ettirdi, rivojlantirdi. U umumiy tilshunoslik yo'nalishida tilning ijtimoiy xarakterga egaligini ta'kidladi. Shuningdek, Hind-Yevropa tillarining qiyosiy-tarixiy grammatikasi bilan shug'ullandi. Olim nafaqat Rossiyada, balki, dunyoda birinchilardan bo'lib eksperimental fonetikani boshlab berdi, turkiy tillarni (tatar va b.) tadqiq qildi. Uning asarlari: "Rus grammatikasi umumiy kursi", "Rus tili va tilshunoslik bo'yicha ocherklar", "Umumiy tilshunoslik bo'yicha ma'ruzlar" va b.

## X X X

Shunday qilib Rossiyadagi Moskva va Qozon tilshunoslik maktablari rus tilshunosligini yuqori metodologik darajaga ko'tardilar, ular tilning qator aspektlarini tadqiq qilishda yosh grammatikachilar maktabi metodologiyasidan o'zib ketdilar.

Rus tilshunosligining atoqli arboblari Ivan Aleksandrovich Boduen de Kurtene va Filipp Fyodorovich Fortunatovlar xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan buyuk olimlar edi. Buyuk tilshunoslardan biri bo'lgan Ferdinand de Sossyur Ivan Boduen de Kurtening tadqiqotlaridan xabardor bo'lgan. U "Umumiy ligvistika kursi" asarida Boduen de Kutenening ta'limotining nazariy g'oyalariidan foydalangan. F.F.Fortunatov lingvistik ta'limotining tas'iri esa ko'pgina Yevropa olimlarining konsepsiyalarida, tadqiqotlarida aniq ko'rinib turadi.

### Mustahkamlash uchun savollar:

#### Questions for Consolidation:

1. Qozon tilshunoslik maktabi qachon shakllandi va uning asoschisi kim?

When was Kazan linguistic school formed and who was its founder?

2. Qozon maktabi vakillari – Ivan Boduen de Kurtene tilga qanday hodisa sifatida baho berdilar?

How did the representative of Kazan school - Ivan Boduen de Kurtene estimate the language?

3. Ivan Boduen de Kurtene tilshunoslikda qaysi terminlarni birinchi bo'lib qo'lladi?

What terms did Ivan Boduen de Kurtene use first?

4. Qozon maktabi vakillari - Ivan Boduen de Kurtene tilning sistem xarakterga egaligini qanday tushuntiradi?

How did the representative of Kazan school - Ivan Boduen de Kurtene explain the systemic character of the language?

5. Qozon maktabi vakillari - Ivan Boduen de Kurtene tilshunoslik tarixida ilk bor tovushlarning fizik va funksional xususiyatlari haqida nima deydi va qanday ta'limotga asos soladi?

What did the representative of Kazan school - Ivan Boduen de Kurtene say about physical and functional features of sounds and what kind of doctrine did he form?



6. Qozon maktabi vakillari - Ivan Boduen de Kurtene tovush va fonema orasidagi farqni qanday tushuntiradi?

How did the representative of Kazan school - Ivan Boduen de Kurtene explain the difference between the sound and phoneme?

7. Qozon maktabining taniqli vakillaridan yana kimlarni bilasiz va ularning til, soʻz haqidagi fikrlari nimalardan iborat?

Who other famous representatives of Kazan school do you know? What are their thoughts about the language and the word?

### Asosiy tushunchalar:

#### Basic notions:

1. Qozon tilshunoslik maktabi – ushbu maktab XIX asrning 70-80-yillarida Qozon shahrida maydonga keldi. Uning asoschisi buyuk tilshunos olim Ivan Boduen de Kurtenedir. Qozon maktabi vakillari tilning psixik hodisa ekanligini tan olish bilan birga, uning ijtimoiy hodisa ekanligini ham qatʼiy taʼkidlaydilar. Ular tilga sistema sifatida qaraydilar.

Kazan linguistic school was formed in 70-80-th of 19-th century in Kazan city. Its founder is an outstanding linguist-scientist Ivan Boduen de Kurtene. The representatives of Kazan school admitted that language is a pshychical phenomenon and they also maintained that it's a social phenomenon. They estimate the language as a system.

2. Qozon maktabi vakillari - Ivan Boduen de Kurtene tilshunoslik tarixida birinchi boʻlib, tovushlarning fizik va funksional xususiyatlari oʻzaro mos kelmasligini aytadilar, tovush va fonemani farqlaydilar, fonema (fonologiya) taʼlimotiga asos soladilar.

The representative of Kazan school - Ivan Boduen de Kurtene first time in history of linguistics maintained that physical features of sounds don't agree with their functional features. They began the doctrine about phoneme (phonology).

### Adabiyotlar:

#### Bibliography:

1. Я.В.Лоя. История лингвистических учений. -М., 1968.
2. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. -Т., 1972.
3. Н.А.Кондрашов. История лингвистических учений. -М., 1973.

Т. А. Аморова, Б. А. Ольховиков, Ю. В. Рождественский. Очерки истории лингвистики. - М., 1975  
Хрестоматия по истории языкознания XIX - XX веков. - М.: 1956.

### Ferdinand de Sossyur. Sotsiologizm. Sotsiologik tilshunoslik

Tilshunoslikda XX asr boshlarigacha faollik ko'rsatgan qator lisoniy maktablarga: yosh grammatikachilar ta'limotiga, naturalizm va psixologizm ta'limotiga, yosh yo'nalishlarga, ularning qarashlari hamda g'oyalariга zid bo'lgan yangi ta'limot, inukammal bir g'oya maydonga keldi. Bu yo'nalishga tilshunoslikdagi sotsiologik ta'limot - sotsiologik maktab nomi berildi. Ayni ta'limot tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta'kidlab, uning ijtimoiy xarakterini aloqa vositasi sifatida qat'iy belgiladi.

Ushnatamiz, sotsiologik lingvistika o'z - o'zidan, bevosita paydo bo'lgani yo'q. U qadim davrdan boshlab, tilga - til va jamiyat masalalariga bog'liq turlicha qarashlarning, yondashishlarning ijobiy natijasi, obyektiv mahalliy sifatida qaror topdi.

Tilshunoslikdagi sotsiologik ta'limotning asoschilari F. de Sos-syur va Antuan Meyelardir.<sup>40</sup> Mana shu olimlar qayd etilgan yangi yo'nalishga «sotsiologik lingvistika» nomini berdilar.

### Ferdinand de Sossyur

Ferdinand de Sossyur (1857-1913) buyuk tilshunos, original nazariyotchi, til haqidagi fan taraqqiyotiga juda katta va chuqur ta'sir ko'rsatgan donishmand olim. Shuning uchun ham F. de Sos-syurni tilshunoslik olamida mashhur Frans Bopp, Vilgelm fon Gumboldt, Avgust Shleyxer, Ivan Boduen de Kurtenelar bilan bir qatorga qo'yishadi.

F. de Sossyur Shvetsariyada (Jenevada) tug'ilgan, millati fransuz - shvetsariyalik fransuz. U Jeneva, Leypsig va Berlinda ta'lim oldi.

F. de Sossyurning 20 (ba'zi manbalarda 21) yoshida e'lon qilgan mashhur asari hind - Yevropa tillarini -ulardagi unililar sistemasini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, u ayni tillar voka-lizmini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu asar «Hind - Yevropa tillaridagi dastlabki

<sup>40</sup> A. Meye (1866-1936) fransuz tilshunosi, hind-Yevropa qiyosiy-tarixiy tilshunosligining buyuk vakili, F. de Sos-syurning shogirdi. A. Meye til masalalariga oid 24 ta kitob va 540 ta maqola e'lon qilgan. Qar: Я. В. Лоя. История лингвистических учений, 208-бет.

unlilar sistemasining tadqiqi» deb nomlanib, 1879 yilda nashr qilindi. Mazkur asar hind - Yevropa tillarini o'rganishga, qiyosiy – tarixiy metod taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

F. de Sossyur ilmiy - tadqiqot ishlari bo'yicha 1880 yilda Leypsigda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi, 1881 yilda Parijga kelib, german tillari, hind - Yevropa tillarining qiyosiy grammatikasi bo'yicha ma'ruzalar o'qidi. 1891 yildan boshlab, u Jenevada professor lavozimida ilmiy - amaliy, pedagogik faoliyatini davom ettirdi.

1906 yildan boshlab, F. de Sossyur umumiy tilshunoslik kafedrasiga rahbarlik qildi. 1906 - 1911 yillarda uch marta umumiy tilshunoslik kursi bo'yicha ma'ruzalar o'qidi.

F. de Sossyur vafotidan keyin 1916 yilda uning shogirdlari Sharl Balli va Albert Seshelar o'zlari yozgan qo'lyozmalar asosida ustozlarining ma'ruzalarini to'plab, tartibga solib, kitob holida nashr qildilar. Shunday qilib, F. de Sossyurni dunyoga tanitgan, uni buyuk tilshunoslar qatoriga qo'ygan, hozirgi zamon tilshunosligining taraqqiyotiga juda katta ta'sir qilgan «Umumiy tilshunoslik kursi» fundamental asari maydonga keldi. Ayni asar 1931 yilda nemis tilida, 1933 yilda esa rus tilida nashr qilindi.

F. de Sossyur lisoniy ta'limotining muhim jihatlari quyidagilar:

1. Tilshunoslik fanining birdan - bir haqiqiy obyekti tildir. Demak, tilni psixologiya, mantiq, fiziologiya kabi fanlar nuqtayi nazaridan emas, balki bevosita tilshunoslik fani asosida tekshirish lozim.

2. Til sistemadir. Til sistem tuzilishga ega bo'lgan, sistem xarakterdagi ijtimoiy hodisadir. Demak, til hodisalari, til faktlari o'zaro dialektik bog'liq bo'lib, bir – birini talab etadigan, taqozo qiladigan belgilardir. Anig'i, til belgilari til sistemasining elementlari, birliklari sifatida bir-birini belgilaydi. Ular o'zaro mantiqiy, zaruriy munosabatga, aloqaga kirishib, bir butunlikni – til sistemasini hosil qiladi.

3. Til g'oya (fikir, ma'no) tashuvchi belgilar sistemasidir. Til belgisi (birligi, elementi) ikki tomonga: a) ifoda tomoniga (ifodalovchiga); b) mazmun tomoniga (ifodalanuvchiga) egadir. Til belgilari shartli, ixtiyoriydir. Demak, til belgilari (birliklari) moddiy (material) va ruhiy (psixik, ideal) tomonlarning, tovush va ma'noning birligidan iborat bo'lib, biri ikkinchisiz bo'lmaydi, ular o'zaro dialektik bog'liq holda, nisbiy bir butun holda ijtimoiy vazifa bajaradi, jamiyatga xizmat qiladi, fikr almashuvni – kommunikativ jarayonni ta'minlaydi.

4. F. de Sossyur tilshunoslikni ikkiga: ichki lingvistika va tashqi lingvistikaga ajratib, ularni o'zaro bir – biriga qarama – qarshi qo'yadi.

Ushbu lingvistikaga tilning sistem xarakterga egaligini, tilning tuzilishini (strukturasi) kiritadi. Tashqi lingvistikani esa tilning rivojlanish jarayonidagi, taraqqiyotidagi real shart – sha-roitni: jamiyat bilan, jamiyat tarixi, madaniyati, tarixiy voqealar, tilning jo‘g‘rofiy joylashishi, jamiyatning siyosiy qarashlari, ma‘naviy olami kabilar bilan bog‘liq holda oladi.

Demak, ichki tilshunoslik tilning sistem tabiatini, uning tuzilishini tekshirsa, tashqi tilshunoslik tilni jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda tekshiradi. Negaki jamiyatning mavjudligi tilning mavjudligini, tilning mavjudligi esa jamiyatning mavjudligini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, til va jamiyat munosabatini tekshirish tilshunoslik fanining – umumiy tilshunoslikning doimiy dolzarb muammosi bo‘lib hisoblanadi.

5. F. de Sossyur tilda ikki aspektni: sinxroniya va diaxroniyani farqladi. Sinxroniya, sinxron aspekt tilning hozirgi, real mavjud holati bo‘lsa, diaxroniya, diaxron aspekt tilning tarixiyligi, tarixiy rivojlanish holatidir. Demak, tilning muayyan vazifa bajarishdagi real holati bilan tarixiy rivojlanishdagi holati, «qiyofasi» – har biri o‘z kuchini, quvvatini saqlaydi, ularning aralashib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Boshqacha aytganda, sinxroniya – til mavjudligining, taraqqiyotining hozirgi vaqti, tilning aloqa vositasi sifatidagi xizmat qilish davri bo‘lsa, diaxroniya – tilning, til faktlarining zamon (vaqt) nuqtayi nazaridan ketma – ketligi, ya‘ni, tarixiy bosqichma - bosqichligi, etapliligidir.

Prof. Ya. V. Loya fikricha, «til sistemasi va strukturasi o‘rganishda sinxron aspektning ahamiyati kattadir. Tilshunoslik fanining eng dastlabki, bosh vazifasi sistem tabiatga ega bo‘lgan til hodisalarini zamonaviy, shu kundagi, holatini tekshirish, o‘rganishdir. Tilning shu kundagi, hozirgi sistemasi bilan tanishish uning tarixini va boshqa tillar bilan qiyosini o‘rganishdan avval bo‘lishi kerak»<sup>41</sup>. Biz ham shu fikrdamiz.

6. F. de Sossyur jamiyatning fikrni ifoda qilish sistemasini til va nutqqa ajratadi.

Til so‘zlarning jami va nutqni qurish, tuzish qoidalaridir. Nutq esa til sistemasining so‘zlashuvda yoki matnda (yozuvda) aniq berilishi, qo‘llanishidir.

F. de Sossyurning fikricha, til nutqdan quyidagi beshta belgisiga ko‘ra farqlanadi: 1. Til – ijtimoiy, nutq- individual. 2. Til – sistem, nutq – nsistem. 3. Til – potensial (imkoniyat, yashirin), nutq - real (voqelik,

<sup>41</sup> Ya. V. Loya. O‘sha asar. 138-bet.

namoyon bo'lish). 4. Til - sinxron (zamonaviy, hozirgi), nutq – diaxron (tarixiy, o'tgan). 5. Til – mohiyat, nutq – hodisa.<sup>42</sup>

Tilning sistemaliligi aksioma. Nutqchi? Nutq ham sistema.<sup>43</sup>

7. F. de Sossyur til (nutq) birliklari orasidagi munosabatni, o'zaro bog'lanishni paradigmatic va sintagmatik munosabatlarga ajratadi.

Paradigmatik munosabatda til birliklari bir paradigmaga joylashadi. Masalan, ular bir paradigmaga - so'z o'zgarishi, so'z tuslanishi paradigmasiga (qatoriga) birlashib, asosiga - umumiy ma'nosiga ko'ra bixil, qo'shimchasiga – xususiy ma'nosiga ko'ra farqli bo'ladi. Shunga ko'ra, til birliklari o'zaro muayyan sistem munosabatga kirishadi. Qiyoslang: o l a m, o l a m n i, o l a m n i n g, o l a m d a, o l a m g a, o l a m d a n...

Paradigmatik munosabat til birliklarining nutqqacha bo'lgan munosabati, imkoniyat sifatidagi til hodisasi.

Sintagmatik munosabatda esa til birliklari, masalan, so'zlarning biri ikkinchisi bilan semantik – sintaktik munosabatga kirishib, so'z birikmasini yoki gapni hosil qiladi. Qiyoslang: i s t i q l o l b a y r a m i, m a ' n a v i y a t y u l d u z l a r i, m i l l i y g ' u r u r, b i z t e r r o r i z m n i q o r a l a y m i z. Bunda til birliklari ketma – ket kelishi, gorizonta chiziqqa joylashishi bilan ajralib turadi.

Sintagmatik munosabat til birliklarining nutqdagi, nutq faoliyatidagi – fikr almashish jarayonidagi o'zaro mantiqiy, zaruriy munosabatidir, fikr ifodalash uchun xizmat qilishidir. Ushbu munosabat nutq hodisasi sifatida belgilanadi, nutq bilan o'lchanadi va boshqalar.

Xullas, XX asr tilshunoslik fanidagi keskin burilishga, ushbu fanning yuksak darajada, keng miqyosda rivojlanishiga muhim sabab tilning sistemaliligi g'oyasi hamda til va nutqni farqlash, til va nutq dialektikasi bo'ldi. Albatta, bu o'rinda F. de Sossyurning ta'limoti, xizmatlari beqiyosdir. Ta'kidlash shart, F. de Sossyurning qarashlari, g'oyalari tilshunoslik fanida nafaqat sotsiologik lingvistikaning – sotsiologizmning, balki struktural lingvistikaning – strukturalizmning ham yuzaga kelishida muhim sabablardan biri bo'ldi. Anig'i, F. de Sossyur o'zining mashhur «Umumiy tilshunoslik kursi» asarida (1916) strukturalizmning eng asosiy, bosh g'oyalari ta'kidlab o'tdi. Bular: 1. Til spetsifikasi (o'ziga xosligi), ya'ni, tilshunoslikning mutlaq tekshirish obyekti tildir. 2. Til sistemasi, ya'ni, til o'ziga xos tuzilishga, «qiyofaga» ega bo'lgan

<sup>42</sup>V.I.Koduxov. O'sha asar, 72-bet.

<sup>43</sup>Bu haqda "Til va nutq" bo'limiga qarang.

sistemadir. 3. Til formasi, ya'ni, til mohiyat emas, balki formadir. Til u yoki bu mazmunni, fikrni ifodalash vositasidir. 4. Til munosabati, yani tilning har bir holatida, ko'rinishida, qo'llanishida barcha jarayonlar til birliklarining o'zaro munosabatiga, mantiqiy bog'lanishga asoslanadi, shu munosabatga quriladi.

Nullas, F.de Sossyur ta'limotidagi ushbu muhim g'oyalar, aytilganidek, strukturalizmning keng miqyosda alohida bir yo'nalish, maktab sifatida maydonga kelishiga xizmat qildi.

### **Mustahkamlash uchun savollar: Questions for Consolidation.**

1. Ferdinand de Sossyur kim va uning qanday mashhur asari bor?  
Who was Ferdenand de Sassure and what famous works by him do you know?
2. Ferdinand de Sossyur qaysi ta'limotga asos soldi?  
What teaching did Ferdenand de Sassure found?
3. Ferdinand de Sossyur lisoniy ta'limotining muhim jihatlari nimalardan iborat?  
What main aspects did Ferdenand de Sassure's linguistic teaching include?
4. Ferdinand de Sossyur jamiyatning fikr ifodalash sistemasini nechtaga bo'ldi va ularni qanday nomladi?  
How many systems did Ferdenand de Sassure divide society's expressing ideas and how did he call them?
5. Ferdinand de Sossyur fikricha, til nutqdan qaysi jihatlariga ko'ra farqlanadi?  
What aspects differentiate the language from the speech according to Ferdenand de Sassure?

### **Asosiy tushunchalar: Basic notions:**

1. Ferdinand de Sossyur – buyuk tilshunos, shvetsariyalik fransuz, "Umumiy tilshunoslik" fundamental asarining muallifi, til sistemadir, til va nutq dialektik munosabatdadir kabi qator g'oyalarning asoschisi.  
Ferdenand de Sassure was a great linguist, French of Switerland, the author of the fundamental book *General Linguistics* and was the founder

of a number of ideas like language is a system, language and speech are dialectically interrelated, etc.

2. Til – ijtimoiy hodisa, sistema, imkoniyat, mohiyat va boshqalar.

Language is a social phenomena, possibility, essence and etc.

3. Nutq – individual, real, voqelik, hodisa va boshqalar.

Speech – individual, real, reality, event and etc.

### **Strukturalizm**

Strukturalizm – struktural lingvistika XX asrning 20-yillarining oxirrog'ida (1926) yuzaga kelib, hozirgi zamon tilshunosligining o'ziga xos yetakchi oqimlaridan, yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. Ushbu tilshunoslik til strukturasi (qurilishini) til nazariyasining asosi deb bildi.

Struktural lingvistika tilni ishoralar (belgilar) sistemasi sifatida o'rganadi va uning shartli belgilik xususiyati bilangina qiziqadi. U tildagi belgilarning munosabatlari, oppozitsiyalari yoki funksiyalariga alohida e'tibor berganidan til birliklaridan biri mavjud bo'lgani uchungina boshqasi mavjuddir deb hisoblaydi. Struktural lingvistika o'zaro munosabatlardan mustaqil ravishdagi materiyaning yoki reallikning bo'lishini inkor qiladi. Shunga ko'ra, lingvistik birliklar munosabatlar orqali belgilanishi lozimligini qayd etadi. Vaholanki, lingvistik birliklar birlamchi bo'lib, ular orasidagi munosabat shu birliklar mavjud bo'lgani uchungina mavjuddir.<sup>44</sup>

Hozirgi davrda strukturalizmning asosiy maktablari uchta bo'lib, ular Praga strukturalizmi, Amerika strukturalizmi va Kopengagen strukturalizmi nomi bilan ataladi.

### **Praga strukturalizmi (Funksional lingvistika)**

Praga strukturalizmi (1926) Chexoslovakiyaning poytaxti Praga shahrida tashkil topdi. Ayni strukturalizm umumiy tilshunoslikda funksional lingvistika nomi bilan ham yuritiladi.

Ushbu maktabning funksional tilshunoslik deb atalishi asosida til birliklarining har biri muayyan funksiyaga egaligi, ularning tilda (nutqda) muayyan vazifani bajarish g'oyasi yotadi.

<sup>44</sup> S.Usmenov. O'sha asar, 94-95-betlar.

Funksional lingvistika maktabi vakillari: V. Matezius, B. Trnka, I. Vaxek, B. Gavranek, N.S. Trubetskoy, R.O.Yakobson, S.I.Karsevskiy va boshqalar.

Praga maktabi ta'limotining asosiy g'oyalari quyidagilar:

1. Tilshunoslik – o'z obyektiga ega bo'lgan mustaqil fan.
2. Til – sistema.
3. Til – funksional sistema, ya'ni, til muayyan maqsadga yo'naltirilgan ifoda vositalari sistemasidir.
4. Fonologiya – nazariy fonologiya. Fonemaning so'z va mor-femalarni tanlash qobiliyatiga egaligi. Fonema tilning eng kichik fonologik birligi. Huroq tovushlari fonemaning moddiy simvollari, belgilari, fonemaning muqadlagi reallashishi. Demak, fonema bilan tovush farqlanadi.
5. Sinxroniya va diaxroniya. Praga strukturalistlari tilni tadqiq qilishda, asosan, sinxroniyani – sinxron metodni ilgari suradilar. Shu bilan birga ular tilning mohiyatini ochishda diaxroniyani – diaxron metodni ham hisobga oladilar, ya'ni, ular diaxroniyani inkor qilmaydilar. Demak, tilni – til hodisalarini, birliklarini tahlil qilishda sinxroniya va diaxroniya dialektik bog'liq holda olinadi.
6. Til belgisi bo'lgan so'z – mustaqil birlik. U vazifasiga, nomlanishiga ko'ra nominativ faoliyat mahsuli bo'lib, jamiyatda nominativ funksiya bajaradi.
7. Tilning morfologik sistemasi morfema bilan belgilanadi.
8. Gapning aktual bo'linishi masalasi va boshqalar.

### Amerika strukturalizmi (Deskriptiv lingvistika)

Amerika strukturalizmi XX asrning 20 – 30-yillarida ushbu mamlakat mahalliy aholisining (indeyetslarning) tilini o'rganish natijasida paydo bo'ldi.

Ushbu strukturalizm til hodisalarini, birliklarini tahlil qilish metodiga – deskriptiv (ya'ni, tasviriy) metodiga ko'ra deskriptiv tilshunoslik deb ham yuritiladi. Ayni maktabning asoschisi amerikalik mashhur etnograf, antropolog va tilshunos olim Frans Boasdir (1858 – 1942).

F.Boas Amerika mahalliy aholisi tilining tasviriy grammatikasiga bag'ishlangan asarlarida barcha tillarni tasvirlashning yagona prinsipini inkor qilishga va aniq tilning o'z mantiqi asosida, tilning «ichidan»,



induksiya (xususiy hodisalardan umumiy qoidalar yaratish) yo'li bilan tasvirlashga chaqiradi.<sup>45</sup>

F. Boas boshlab bergan tadqiqot ishlarini bir – biridan farqli yo'nalishlarda Eduard Sepir va Leonard Blumfildlar davom ettirishdi.

E. Sepir (1884 – 1939) o'z tadqiqotlarida til va madaniyat, til va tafakkur munosabati, bog'liqligi masalalari bilan keng miqyosda shug'ullandi. Shunga ko'ra, u etnolingvistikaga asos soldi.

E. Sepir va uning izdoshlari ta'limotidagi muhim g'oya shundaki, har bir tilning o'ziga xos modeli – moddiy va ideal modeli (sistemasi) bo'lib, til modeli ijtimoiy – madaniy model (sistema) bilan bog'langandir. Tilning grammatik va leksik xususiyatlari shu madaniyat uchun xos bo'lgan xatti harakatga mosdir. Masalan: navaxo tilida dunyo doim harakatda deb tushunilgani uchun predmet nomi fe'l bilan birga, harakatga qo'shib anglatiladi<sup>46</sup>.

Chikago universiteti german filologiyasining professori Leonard Blumfild (1887 – 1949) esa Frans Boasning g'oyalarini o'ziga xos boshqa yo'nalishda davom ettirdi. Anig'i, u deskriptiv tilshunoslikka asos soldi.

Deskriptiv lingvistika ayrim til birliklarining bir - biriga nisbatan joylashish tartibini yoki ularning tarqalish (distributsiya) munosabatini tasvirlovchi fandır. Mana shunday usul bilan tilni tahlil qilish deskriptiv metod deyiladi.

Deskriptiv metod matnni eng ixcham va tugal ifoda qilishni talab qiladigan tasvirlash metodidir. Deskriptiv metodning asosini distributsiya tushunchasi tashkil qiladi.

Distributsiya – bu ma'lum til birligi qo'llanishi mumkin bo'lgan va qo'llanishi mumkin bo'lmagan doiralari (kontekstlar) yig'in-disidir, ya'ni, gap qismlarining bir – biriga nisbatan joylashishi asosida til birligining o'rni, tartibi, birikishi kabi xususiyatlaridir. Til birliklarining distributsiyasi fonema uchun ma'lum fonemaning oldidan va ketidan keladigan fonemalardir, morfema uchun esa morfemadan oldin va keyin keladigan morfemalardir.<sup>47</sup>

Amerika strukturalistlari tilga belgilar sistemasi sifatida qaraydilar. Anig'i, ular tilni nutqda qo'llanuvchi tovushlar, ularning jami (kompleksi) sifatida tushunadilar. Ayni vaqtda ular tilda faqat tovushni emas, balki ma'noni ham farqlaydilar. Demak, bundan tildagi muhim narsa tovush va

<sup>45</sup> S.Usmonov. O'sha asar, 101-bet.

<sup>46</sup> Qar: N.A. Kondrashov. O'sha asar, 154-bet. S.Usmonov. O'sha asar, 102-bet.

<sup>47</sup> S.Usmonov. O'sha asar, 103-bet.

ma'no ekanligi g'oyasi kelib chiqadi. Shunga ko'ra, strukturalistlar tilning tovush jihatini ifoda, ma'no jihatini esa mazmun deb belgilaydilar. Tovush va ma'no o'zaro bog'liqlikda olinadi. Ma'lumki, tovush (fonema)ning eng muhim jihati uning ma'noni farqlash xususiyatidir.

Ma'lum bo'ldiki, Amerika strukturalistlari til belgisida - tovush va ma'no munosabati masalasida F.de Sossyurning har bir til belgisi ikki tomonga: ifodalovchi va ifodalanuvchiga, ifoda va mazmunga egaligi fikriga aslanib, uni rivojlantiradilar, hatto ular (L.Blumfild va uning izdoshlari: Ch.Priz, K.Payk, Z.Xarris va boshqalar) ushbu g'oyaga munosabati jihatidan ikki guruhga: mentalistlar va mexanistlar bo'linadilar.

Mentalistlar L.Blumfild boshchiligida til hodisalarini tahlil qilishda ma'noni (mazmuni, ifodalanuvchini) hisobga olmaslik mumkin emas, deyilur.

Mexanistlar esa L.Blumfildning shogirdi Z.Xarris boshchiligida tilni ma'noga (mazmunga) e'tibor bermagan holda to'liq tasvirlash, tahlil qilish mumkin, deyidilar.

Xullas, prof. S.Usmonov aytganidek, «Amerika deskriptivistlari, umuman olganda, muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsalar ham, bir qator g'oyalarni ilgari surganliklari bilan ma'lum bir ahamiyatga ham sazovordirlar. Masalan, fonemalarning analizi, intonatsiya, urg'u, ton, pauza kabi sohalarda, tilning fonologik modelini yaratishda, morfemalarning analizida, morfemalarning tiplarini aniqlashda ular anchagina foydali ishlar qildilar»<sup>48</sup>. Shuningdek, ularning, masalan, lisoniy tahlilning boshlang'ich vaqtida til formasiga (shakliga, tashqi tomoniga) aslanish, tasvirlashni, tahlilni dastlab shundan boshlash, muayyan tildagi qismlarga ajratishning barcha formalari va birikish turlarini mukammal va to'liq o'rganish kabi fikrlari ham e'tiborga loyiqdir.

Ayni vaqtda ularda tilning ma'no tomonini hisobga olmaslik, inson tilini hayvonlarning signallariga tenglashtirish, tilning obyektiv borliqqa bog'liq ekanligini inkor qilish kabi noto'g'ri qarashlar ham uchraydi.

### Kopengagen strukturalizmi (Glossematika)

Kopengagen strukturalizmi XX asrda – 30-yillarning boshlarida Daniyada tashkil topdi. Tilshunoslikdagi bu yo'nalish glossematika<sup>49</sup> deb ham ataladi.

<sup>48</sup> S.Usmonov. O'sha asar, 104-105-betlar.

<sup>49</sup> Glossematika-grekcha glossa – til so'zidan olingan.

Kopengagen strukturalizmining asoschisi Lui Yelmslev (1899– 1965) bo‘lib, o‘zi yaratgan maktabga 1936-yilda glossematika nomini berdi. U bilan olim tilga, til hodisalariga avvalgi tilshunosliklardan farqli yangicha nuqtayi nazardan yondashayotganligini alohida qayd etadi. Kopengagen strukturalizmining – glossematikaning nazariy asoslari

L. Yelmslevning «Umumiy grammatika prinsiplari» (1928), «Kelishik kategoriyasi» (1935, 1937), «Til va nutq» (1942) va, ayniqsa, «Lingvistik nazariya asoslari» (1943) kabi asarlarida bayon qilinadi.

Daniyalik V.Bryondal, X. Uldallar ham glossematika maktabining vakillari hisoblanadi.

Glossematiklarda til sinxron – hozirgi bir davrdagi sof munosabatlarning mavhum sistemasi sifatida beriladi. Bunda har bir aniq tilning o‘ziga xosligi, xususiyatlari inkor qilinadi. Ular «tilshunos tilning real elementlari orasidagi o‘zaro munosabatni emas, balki tildagi zamon va makon chegarasi bo‘lmagan munosabatlar strukturasinigina tekshirishi lozim, degan universal ta‘limotni yaratmoqchi bo‘ladilar. Shunday qilib, «munosabatlar lingvistikasi» biftinchi o‘ringa qo‘yilib, real tillar, ularning tovush materiyasi va ma‘no masalasi ikkilamchi hodisalar deb qaraladi».<sup>50</sup>

L. Yelmslev F.de Sossyurning til va nutq antinomiyasiga munosabat bildirar ekan, u nutqni individual jarayon (akt) sifatida tushunib, unga sxema – til sxemasi, norma – til normasi (me‘yori) va uzus – til uzusini zid qo‘yadi.

Sxema – til sxemasi o‘zining ijtimoiy amalga oshishiga va moddiy voqelashishiga bog‘liq bo‘lmagan alohida sof formadir.

Norma – til normasi (me‘yori) muayyan ijtimoiy reallashishiga ko‘ra aniqlanuvchi, ammo batafsil bayon qilinishiga bog‘liq bo‘lmagan moddiy formadir.

Uzus – til uzusi muayyan ijtimoiy jamoada qabul qilingan va kuzatilayotgan voqelikdagi faktlar bilan aniqlanuvchi malakalarning jamidir.

L. Yelmslev konkret, individual nutq aktining til uzusi bilan yaqindan zich aloqada ekanligini, uning til uzusi bilan tilning moddiy jihatini tashkil qilishini alohida qayd etadi<sup>51</sup>.

<sup>50</sup> S. Usmonov. O‘sha asar, 99-100-betlar. Qar: Ya. V. Loya. O‘sha asar, 193-194-betlar. N.A. Kondrashov. O‘sha asar, 148-bet.

<sup>51</sup> Qar: Ya. V. Loya. O‘sha asar. 193-bet; N.A. Kondrashov. O‘sha asar, 147-bet.

Glossematiklarning g'oyaviy rahbari L.Yelmslev F.de Sossyur ta'limotidagi ifodalanuvchi va ifodalovchi antinomiyaning - ushbu ponemalarni mazmun plani va ifoda plani terminlari bilan almash-tiradi.

Ifoda plani termini ostida tilning tashqi, tovush tomoni tushuniladi.

Mazmun plani termini ostida esa tilda o'z ifodasini topuvchi, ifodalanuvchi fikrlar, g'oyalar tushuniladi.

X

X

X

Xulosa shuki, strukturalizm maktablari - Praga strukturalizmi (funktsional tilshunoslik), Amerika strukturalizmi (deskriptiv tilshunoslik) va Kopengagen strukturalizmi (glossematika) bir - biridan tashkil topgan joy nomiga, tilni struktural hodisa sifatida olib, uni tashkiliga ko'ra tahlil qilishda qo'llaniladigan metodlariga, lisoniy hodisalarga qaysi nuqtayi nazardan yondashishiga ko'ra o'zaro farqlanadi.

Ayni vaqtda struktural tilshunoslik maktablari eng asosiy, eng muhim mavzularida umumiy g'oyalarga ko'ra o'zaro birlashadilar.

Bular:

1. Tilshunoslik fanining tekshirish obyekti tildir.
2. Til muayyan munosabatda bo'lgan, o'zaro bog'liq, bir - birini talab qiladigan belgilar, elementlar sistemasidir.
3. Til sinxron tadqiqot obyektidir.
4. Til alohida yaruslardan tashkil topgan strukturadir.
5. Til va nutq farqlidir.
6. Ponema - til birligi, tovush nutq birligidir va boshqalar.

### Mustahkamlash uchun savollar.

#### Questions for Consolidation.

1. Struktural tilshunoslik qachon yuzaga keldi va uning asosiy g'oyasi nimadan iborat?

When did structural linguistics appear and what are its principle ideas?

2. Praga strukturalizmi maktabining asosiy g'oyasi nimadan iborat?

What are the main ideas of the Prague School of Structuralism?

3. Amerika strukturalizmi maktabining asosiy g'oyasi nimadan iborat?

What are the main ideas of the American School of Structuralism?

4. Kopengagen strukturalizmi maktabining asosiy g'oyasi nimadan iborat?

What are the main ideas of the Copenhagen School of Structuralism?

### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Strukturalizm – hozirgi zamon tilshunosligining yetakchi oqimlaridan, yo'nalishlaridan biri.

Structuralism is one of the leading trends in Modern Linguistics.

2. Praga strukturalizmi – funksional tilshunoslik nomi bilan yuritiladi. Tilni sistema deb tushunadi, fonema bilan tovushni farqlaydi.

Prague Structuralism is known as Functional Linguistics. Language is a system and differentiates sound from phoneme.

3. Amerika strukturalizmi – deskriptiv tilshunoslik nomi bilan yuritiladi, tilga belgilar sistemasi sifatida qaraydi, tilshunoslikda tovush (ifoda) va ma'no (mazmun)ni farqlaydi.

American Structuralism is known as Descriptive Linguistics. It considers the language to be the system of signs and it differentiates sound and meaning in linguistics.

4. Kopengagen strukturalizmi – glossematika nomi bilan yuritiladi, til sinxron so'z munosabatlarning mavhum sistemasi sifatida beriladi. Bunda har bir konkret tilning o'ziga xosligi, xususiyatlari inkor etiladi.

Copenhagen Structuralism is known as Glossemantics. Language is given as pure synchronous relations abstract system. And specific features of each language are denied.

### **Adabiyotlar:**

#### **Bibliography:**

1. Я.В.Лоя. История лингвистических учений. -М., 1968.
2. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. -Т., 1972.
3. Проблемы структурной лингвистики. - М., 1973.
4. В.И.Кодухов. Общее языкознание. -М., 1974.
5. Фердинанд де Соссюр. Труды по языкознанию. -М., 1977
6. Джон Лайонз. Введение в теоретическую лингвистику. - М., 1978.
7. Н.А Кондрашов. История лингвистических учений. -М., 1979.
8. Н.А Баскаков, А.С Содиков, А.А Абдуазизов. Умумий тилшунослик. - Т., 1979.
9. Фердинанд дў Соссюр. Умумий тилшунослик курси. Таржимон И.Мирзаев. -Т., 2018.

## VII. SHO'RO DAVRI TILSHUNOSLIGI

Sho'ro davri tilshunosligi asosida yagona falsafiy ta'limot – dialektik materializm ta'limoti yotadi. Anig'ini, ushbu tilshunoslikning falsafiy asosi bo'lib dialektik materializm hisoblanadi.

Yagona falsafiy asosga qurilgan sho'ro davri tilshunosligining eng asosiy xususiyatlaridan biri bizdan tashqari va bizga bog'liq bo'lgan holda mavjud obyektiv voqelikning, undagi predmet – hodisalarning birlamchiligini, bizning ongimizda aks etishini, til orqali ifodalashini, ifodalanishini ta'kidlash va targ'ib qilish bo'ldi.

Sho'ro davri tilshunosligi tilni o'ziga xos, alohida murakkab hodisa sifatida tushuntirdi.

Tilning murakkabligi, o'ziga xosligi shundaki, u «ashyosiga» (materiyaliga, tovush va harflariga) ko'ra moddiy hodisadir. Haqiqatan, til moddiy tovushsiz o'zining jamiyatdagi eng muhim vazifasini – aloqa vositasi bo'lish funksiyasini amalga oshira olmaydi. Aniqrog'ini, til real hayotda faqat belgilar orqali – tovush materiali orqali ta'sir qilish vositiga, haqiqiy, chinakam faktga, «predmetga» aylanadi, ega bo'ladi.

Ammo til ayni vaqtda ijtimoiy hodisadir. Har bir tilning eng muhim umumiy belgisi uning ijtimoiy vazifani bajarishidir – jamiyat a'zolariga aloqa vositasi sifatida xizmat qilishidir. Demak, til aloqa vositasi sifatida aloqada bo'lish, fikr ifodalovchi xalq bilan, millat bilan bog'lanish, ajralmas bog'liqdir. Tilning taraqqiyoti xalqning taraqqiyoti bilan bog'langandir.

Demak, tilning ijtimoiy mohiyati, bir tomondan, uning jamiyatda mavjud bo'lishi va jamiyatda rivojlanishi bilan belgilansa, ikkinchi tomondan, tilning bosh vazifasi - kommunikativ funksiyasi uning ijtimoiy xarakterini bilan - tilning faqat jamiyatdagina aloqa vositasi, aloqa quroli bo'lishi bilan belgilanadi.

Sullas, til jamiyatda quyidagi qator vazifalarni bajarishda namoyon bo'ladi:

1. Til – aloqa vositasi.
2. Til – o'zgalarga ta'sir qilish vositasi.
3. Til – fikrni shakllantirish va ifodalash vositasi.
4. Til – bilish vositasi.
5. Til – insonning spetsifik xususiyatlaridan biri.
6. Til – xalq va millatning eng muhim belgilaridan biri.

7. Til – madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatni namoyon qilish va boshqalar.

Sobiq sho'ro davri tilshunosligining, ayniqsa, tilshunoslik nazariyasiga, til falsafasi bilan bog'liq masalalarini hal qilishga qaratilgan hissasi nihoyatda kattadir, beqiyosdir.

Sho'ro davri tilshunosligining ulkan vakillari: N.Yu.Mari, I.I. Meshaninov, L.V.Sherba, D.N.Ushakov, E.D.Polivanov, A.M.Peshkovskiy, I.Yu.Krachkovskiy, L.A.Bulaxovskiy, G.O.Vinokur, R.A.Hudobayev, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, A.A.Reformatskiy, A.I.Smirmitskiy, G.A.Zolotova, A.A.Leontev, O.S.Axmanova, V.M.Solnsev va boshqalardir.

Ushbu davr nazariy tilshunosligining taraqqiyotida akademik I.I. Meshaninov, L.V.Sherba, V.V.Vinogradov; professorlar A.M.Peshkovskiy, E.D.Polivanov, A.I.Smirmitskiy, A.A.Leontev, V.M.Solnsev va boshqalarning xizmatlari salmoqlikdir.

### Ivan Ivañovich Meshaninov

Akademik I.I.Meshaninov (1883–1967) tilshunos va arxeolog bo'lgan. U umumiy tilshunoslikka oid masalalarning va qadimiy yozuvga oid masalalarning tillarning tadqiqotchisidir. Olim «Yafetidologiyaga kirish» (1929), «Tilshunoslik haqidagi yangi ta'limot» (1936), «Umumiy tilshunoslik» (1940), «So'z bo'laklari va so'z turkumlari» (1945), «Fe'l» (1948) kabi asarlarining muallifidir.

Uning «So'z turkumlari va gap bo'laklari» hamda «Fe'l» kabi ikki katta asari grammatik shakllarning qiyosiy-tipologik tasviriga tadqiqot bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi. I.I.Meshaninovning ushbu asarlarini o'z davrida tilshunoslikda grammatik kategoriyalarning tipologiyasi muayyan bilan atalgan yo'nalishning boshlanishiga xizmat qildi.

U so'z turkumlarini sintaktik va morfologik ko'rsatkichlar bilan xarakterlanuvchi leksik guruhlar sifatida talqin qildi. So'z grammatikasining dastavval so'zning gapdagi sintaktik rolini belgilab berishni, so'zning gapda muayyan gap bo'lagi sifatida ishlatilishini, uning alohida formal belgilarga ega bo'lishiga olib kelishini ta'kidladi. Shunga ko'ra tadqiqotchi so'z turkumlari mohiyatan gapning morfologiyalashgan bo'laklari sifatida namoyon bo'ladi, deb tushuntirdi.

I.I.Meshaninov o'z tadqiqotlarida fe'ning shaxs, zamon, mayl, nisbat va vid kabi grammatik kategoriyalariga alohida e'tibor berdi. Fe'l va kesim

nisbat, nisbatning gap semantikasiga, fe'l semantikasiga nisbat barakat (faoliyat), holat fe'llari, ularning gapdagi o'rni, shu kabi masalalarni nazariy yo'nalishda atroficha yoritdi.

L.V.Sherbaninov o'zining oxirgi ishlarida, xususan, «Gap tuzilishi» nomida mantiq va grammatika, tushuncha kategoriyalari va til hodisalarining, gap bo'laklari va so'z turkumlarining o'zaro aloqasiga, aloqasiga asoslanuvchi sinxron tipologiya masalalariga e'tibor qildi. Uning funksional – semantik metodikasi va morfologik – tipologiyasi grammatika nazariyasi va tillarning tipologik xususiyatlarida faxrli o'rinni egallab kelmoqda.

### Lev Vladimirovich Sherba

Atopli rus tilshunos olimi L.V.Sherba (1880–1944) sho'ro davri tilshunosligining eng buyuk namoyandalaridan biri, Ivan Boduen de Martens ta'limotining davomchisi, keng qamrovli ulkan tadqiqotchidir.

L.V.Sherba Peterburg universitetining tarix – filologiya fakultetini tamomlaydi va shu universitetning qiyosiy grammatika va sanskrit kafedrasida qoldiriladi.

U 1906 yildan 1909 yilgacha chet ellarda: Germaniyada, Shimoliy Italiyada, Fransiyada, Pragada bo'ladi, chex tilini o'rganadi, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi (Italiyada), eksperimental fonetika laboratoriyasining ishlari bilan yaqindan tanishadi (Fransiyada).

Olim 1912 yilda «Sifat va miqdor jihatdan rus tilining unlilari» mavzusida magistrlik dissertatsiyasini, 1915 yilda esa «Sharqiy hujik shovasi» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. 1916 yilda Peterburg universitetining professori bo'ladi. 1924 yilda Rossiya fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, 1943 yilda esa haqiqiy a'zoligiga taylanadi.

Akademik L.V.Sherbaning ilmiy qiziqishlari keng bo'lib, u tilshunoslikning qator masalalari bo'yicha faol ish olib boradi. Bular quyidagilar: 1. Tilshunoslikning umumiy masalalari. 2. Fonetika va morfologiya. 3. Grammatika. 4. Yozuv, orfografiya, transliteratsiya va transkripsiya. 5. Chet tillarni o'qitish metodikasi. 6. Leksikografiya. 7. Fransuz tili. 8. Pushkin poeziyasining tili.

L.V.Sherbaning tilshunoslik sohasidagi asosiy ishlari quyidagilar: 1. «Sifat va miqdor jihatdan rus tili unlilari» (1912). 2. «Rus tilidagi so'z turkumlari haqida» (1928). 3. «Til hodisalarining uch aspekti va



tilshunoslikdagi tajribalar haqida» (1931). 4.«Fransuz tili fonetikasi» (1937). 5. «Hozirgi rus adabiy tili» (1939). 6. «Leksikografiya umumiy nazariyasining tajribasi» (1940). 7. «Adabiy til va uning taraqqiyot yoʻli» (1942). 8. «Tilshunoslikning navbatdagi masalalari» (1945). 9. «Oʻrta maktabda chet tillarni oʻqitish. Metodikaning umumiy masalalari» (1947). 10. «Til sistemasi va nutq faoliyati» (1974) va boshqalar.

L.V.Sherba eksperimental fonetika sohasida eng taniqli tadqiqotchi boʻlib, oʻzining fonema haqidagi nazariyasini yaratdi. Uning fonema haqidagi nazariyasiga koʻra, fonema soʻz va uning formalarni differenziatsiya qilish qobiliyatiga ega boʻlgan tovush tipi (shakli, koʻrinishi, xili)dir. Ushbu tovush xili, shakli, yaʼni, fonema umumiylik boʻlib, nutqda xususiylik sifatida namoyon boʻladi. Shuningdek, u fonologiyaning fonetika bilan zich aloqasini alohida taʼkidladi.

Muallif tadqiqotlarida fonetika va morfologiyada, sintaksis va stilistikada tajribaning muhimligini, katta ahamiyatga egaligini qayd etdi.

L.V.Sherba grammatika va leksikaning oʻzaro munosabati haqida fikr yuritir ekan, grammatika soʻz, soʻz formasi, soʻzlar guruhi va boshqa til birliklarini hosil qilish qoidalaridir, - deydi. Grammatika, L.V.Sherbaning fikricha, «vositalar repertuari boʻlib, ular yordami bilan muayyan qoidalarga koʻra tafakkurning mustaqil predmetlari oʻrtasidagi munosabatlar ifodalanadi va yangi soʻzlar hosil boʻladi». U grammatikaga fonetika, soʻz yasalishi, forma yasalishi, sintaksis hamda soʻz turkumlarini haqidagi taʼlimotni kiritadi.

L.V.Sherba leksikani esa faqat tilning qurilish materiali, «ashyosi» sifatida olib qaramaydi. Shuningdek, u, mutlaqo haqli ravishda, bizning nutqimiz, nutq faoliyati grammatika va leksika qoidalariga koʻra soʻzlardan hosil boʻlishini toʻgʻri taʼkidlaydi.

Grammatika u yoki bu soʻzning, soʻz formasining, soʻz birikmasining qanday hosil boʻlganini tushuntirib qolmasdan, balki shu bilan birga yangi soʻz va soʻz formalarini qanday hosil qilishni ham oʻrgatishi kerak, - deydi.

Olim asosiy sintaktik birlik sifatida sintagma haqidagi nazariyani ham yaratdi. Sintagmani nutq jarayonida maʼnoviy bir butunlikni ifodalovchi fonetik birlik sifatida qayd etib, uning soʻzdan, soʻz birikmasidan va hatto soʻz birikmalarining guruhidan tashkil topishini taʼkidlaydi.

L.V.Sherba tilga sistema sifatida yondashadi. U til, til hodisalarining uch aspektga (jiharga) egaligini aytib, bunga: nutq faoliyati, til materiali va til sistemasini kiritadi:

1. Nutq faoliyati (so'zlash va tushunish jarayoni). Nutq faoliyati ijtimoiy jarayondir. Bunda til belgilarining ma'no ifoda etishi faol bo'lib, bu ijtimoiy – jamiyat mahsuli hisoblanadi.

2. Til materiali. Bu biror ijtimoiy guruh yoki jamiyat a'zolari tomonidan muayyan davr bilan bog'liq barcha aytiladigan, yoziladigan va o'qiladigan lisoniy hodisalarning, birliklarning, masalan, matnlarning jamiyati hisoblanadi.

3. Til sistemasi. Til sistemasi til materiali bilan bevosita bog'lanib, til materialidan – lug'atlar va grammatikadan keltirib chiqariladi. Demak, til materiali keng ma'noda bu lug'atlar va grammatikalardir.

Til sistemasi, L.V.Sherba qayd etganidek, til materialida obyektiv mavjud bo'lgan, obyektiv «joylashgan», til materiali asosida, ta'sirida yuzaga keluvchi va «individual nutqiy sistemalarda» namoyon bo'luvchi hodisadir.

Tilshunoslikning til sistemasini o'rganishdagi asosiy vazifasi nutq birliklarini, hodisalarini umumlashtirish va ulardan til sistemasini keltirib chiqarish, ya'ni, obyektiv voqelikka mos, muvofiq bo'lgan lug'at va grammatikalarni yaratishdir. Bu lug'at va grammatikalarning o'zaro munosabati, aloqasi, ta'siri doimo tilshunoslarning diqqat markazida turishi lozim.

### Viktor Vladimirovich Vinogradov

Akademik V.V.Vinogradov (1895–1969) akademik L.V. Sherba va prof. A.A.Shaxmatovlarning shogirdi. U, dastavval, Peterburg davlat universitetining, so'ngra Moskva Davlat universitetining professori bo'ldi.

V.V.Vinogradov 1946 yildan, akademik L.V.Sherbadan keyin, sho'ro davrining eng buyuk tilshunosidir. U o'zi asos solgan rus adabiy tilining tarixchisi, tadqiqotchisidir. Olim tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid 250 dan ortiq asar yaratdi. V.V. Vinogradovning muhim tadqiqotlari quyidagilar: 1. «Uslubshunoslik vazifalari haqida» (1923). 2. «XVII – XIX asr rus adabiy tili tarixidan ocherklar» (1934). 3. «Pushkin tili» (1935). 4. «Pushkin uslubi» (1941). 5. «Rus tili. So'z haqida grammatik ta'limot» (1947). 6. «Rus tilidagi frazeologik birliklarning asosiy tiplari haqida» (1947). 7. «Rus tilidagi modallik kategoriyasi va modal so'zlar haqida» (1950). 8. «So'z birikmalarini o'rganish masalalari» (1954). 9. «Rus sintaksisini o'rganish tarixidan» (1958). 10. «Badiiy asar tili

haqida» (1960). 11. «Stilistika. Poetik nutq nazariyasi. Poetika» (1963). 12. «Rus lingvistik ta'limotlari tarixi» (1978) va boshqalar.

V.V.Vinogradovning eng mashhur tadqiqoti «Rus tili» kitobidir. Bu asar rus tili morfologiyasi bo'yicha barcha nazariyalar tahlilining xulosasidir. U morfologiyada ham, so'z yasalishi va sintaksis masalalarida ham o'z qarashlariga, g'oyalari, ta'limotiga ega bo'lgan keng qamrovli olimdir. Uning, ayniqsa, qayd etilgan «Rus tili» asari ko'pgina tillarning (shu jumladan, turkiy tillar - o'zbek tilining ham) grammatik qurilishini o'rganishda, ya'ni, gramma-tikaning obyekt, uning sistem xarakteri, so'zning grammatik birlik sifatida olinishi, so'z turkumlarining tasnifi, so'z tuzilishi, morfologiyaning sintaksis bilan o'zaro munosabati, so'z yasalishi, leksika masalalarini tadqiq qilishda jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Umuman olganda, V.V.Vinogradovning lisoniy ta'limotidagi asosiy g'oya so'z va til uslubi masalalaridir. U so'zni shakl va ma'noning (leksik va grammatik ma'nolarning) sistemasi sifatida ko'p aspektli ekanligini qayd etadi. Olim so'z yasalishining grammatika va leksikologiya bilan zich bog'langanini asoslab, so'z yasalishini alohida soha sifatida ajratib, so'z yasalishining: morfologik, morfologik – sintaktik, leksik – sintaktik va leksik – semantik kabi to'rtta usuli haqidagi ta'limotni yaratdi. V.V.Vinogradov so'zning voqelikni aks ettirishini va muayyan til leksik – semantik sistemasining tarkibiy qismi, elementi sifatida o'z ma'nosini ifoda etishini ta'kidlab, so'z leksik ma'nosining turli tiplari, xillari (masalan, nominativ – to'g'ri, bosh ma'no va b.) haqidagi nazariyani rivojlantirdi.

Uning fikricha, sintaktik nazariya o'z ichiga so'z birikmasi va uning tiplari, gap va uning tiplari, murakkab sintaktik birliklar va sintagmalar haqidagi ta'limotlarni olishi kerak. So'z birikmasi til nominativ darajasining, «bosqichining» birligi sifatida til kommunikativ darajasining asosiy birligi bo'lgan gapga zid turadi. Predikativ va modallik gapning asosiy belgilari va sintaksisning markaziy kategoriyalari sifatida qaraladi.

Til uslubi til funksional – stilistik sistemasining o'ziga xos komponenti, tarkibiy qismidir. Tilning ijtimoiy vazifasi tilning o'zaro fikr almashish, axborot berish va ta'sir qilish kabi funksiyalaridan kelib chiqadi, ushbu vazifalar bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, kundalik (odatdagi) – maishiy uslub (tilning o'zaro aloqa vazifasi), kundalik – ishchan uslub, rasmiy – hujjatli uslub, ilmiy uslub (axborot berish

vazifasi), ommabop uslub va badiiy uslub (ta'sir qilish vazifasi) kabi tillar ajratiladi.

Til stilistikasi – uslubshunosligi til uslublari bilan shug'ullanadi.

Badiiy asar stilistikasi alohida ajratiladi. Ushbu yo'nalishda tilning kommunikativ va estetik vazifalarining birligi namoyon bo'ladi, ya'ni, maishiy, kundalik nutq elementlarining san'at fakti-ga, «asariga» o'tishi, aylanishi yuz beradi, individual uslublar hosil bo'ladi. Badiiy asarlar tili haqidagi ta'limot bilimning, ilmning alohida sohasi sifatida stilistika, poetik nutq nazariyasi va poetikaning tutashish, «to'qnashish», birlashish nuqtasidir, natijasidir.

### Yevgeniy Dmitriyevich Polivanov

Ye.D.Polivanov (1890–1937) iste'dodli nazariyotchi tilshunos, yapon, xitoy va turkiy tillar bo'yicha chuqur bilim sohibi, katta mutaxassis, rus, sho'ro, G'arbiy Yevropa, uzoq Sharq va arab tilshunosliklarini ham mukammal egallagan, o'nlab tillarni bilgan buyuk olimdir.

U 1908 yilda Riga gimnaziyasini tamomlab, Peterburg universitetining tarix-filologiya fakultetidagi slavyanrus bo'limiga va bir yildan so'ng harbiylar, diplomatlar uchun mo'ljallangan Sharq praktik akademiyasining yapon tili bo'limiga kirib o'qiydi. Universitetda Ivan Boduen de Kurtene, L.V. Sherbalardan ta'lim oladi.

Ye.D.Polivanov 1912 yilda universitetni tugatib, bir vaqtning o'zida qiyosiy tilshunoslik kafedrasida hamda sharq tillari fakultetining tibet tili kafedrasida qoldiriladi va ilmiy-tadqiqot ishlariga faol kirishadi. Unga 1919 yilda professor unvoni beriladi.

Olimning asosiy g'oyalari quyidagi asarlarda o'z ifodasini topgan: 1. «Tilshunoslikka kirish va umumiy fonetikadan leksiya konspekti» (1916, qayta nashri 1923). 2. «Sharqshunoslik oliy o'quv yurtlari uchun tilshunoslikka kirish» (1928). 3. «Zamonaning adabiy tillari haqida» (1927). 4. «Bizning lingvistik qarashlarimiz tarixidagi so'nggi o'n yillik (1917-1927)ning o'ziga xos xususiyatlari» (1928). 5. «Hozirgi tilshunoslikning hozirgi muammolari doirasi» (1929). 6. «O'zbek tiliga qiyoslangan rus tili grammatikasi» (1933). 7. «O'zbek tilini o'rganishga kirish» (1925). 8. «O'zbek tilining singarmonizmlashmagan (eronlashmagan) shevalari namunalari» (1928). 9. «O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili» (1933). 10. «O'zbek tili grammatikasidan materiallar» (1935) va boshqalar.

Ye.D.Polivanov tilning ijtimoiy hodisa ekanligini, jamiyatga aloqa vositasi sifatida xizmat qilishini alohida ta'kidlaydi. U qiyosiy – tarixiy tilshunoslik tarafdori bo'lib, tadqiqotlarida qiyosiy – tarixiy metoddan unumli foydalanadi, tasviriy tadqiqot bilan tarixiy tadqiqotni birga qo'shib olib boradi.

Ye.D.Polivanovning, ayniqsa, fonologiya sohasidagi xizmatlari kattadir. U turli tillar fonologik sistemalarining tarixini o'rganish bilan ko'p shug'ullandi. Fonologik tadqiqotlar bilan bog'liq metodlarni yapon, xitoy, koreys, o'zbek, qoraqalpoq, tojik, gruzin, abxaz, dungan va boshqa tillarning tovush sistemalarini tasvirlash uchun qo'lladi.

Ye.D.Polivanov 1915–1916 yillarda fonemaning fakultativ (tengdosh yoki o'rinbosar) va kombinator (ma'lum o'rinlarda kelishi tufayli hosil bo'ladigan) variantlari o'rtasidagi o'zaro munosabatni, aloqani aniqladi, ya'ni, bir fonemaning ikki fonemaga parchalanish (divergensiya) va ikki fonemaning o'zaro bir-biriga o'xshab kelish yoki bir fonema bo'lib kelish (konvergensiya) nazariyasini yaratdi. Fonetik o'zgarish qonunlaridan biri sifatida u jarangli portlovchi undoshlarning sirg'aluvchi tovushga aylanishiga intilishi kuchli ekanini qayd etdi.

Ye.D.Polivanov morfologiyaga oid ishlarida morfemani ikki turga – leksik (o'zak) va formal (grammatik) turlarga ajratdi. Shuningdek, u frazeologiyaning leksikologiya va grammatika bilan aloqador bo'lgan, ammo alohida soha bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Ye.D.Polivanov yozuv nazariyasi va tarixini ham o'rganib, O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklarini tadqiq qildi. U nemis, fin, eston, mo'g'o'l, yoqut, xitoy va o'zbek tillarida she'r tuzilish qonuniyatlarini tahlil qildi. Masalan, o'zbek tilidagi she'ming o'ziga xos tomonlaridan biri uning qadimgi ikki qutbli urg'u bilan bog'langanligida ekanligini ko'rsatdi. U tillar orasidagi qarindoshlikni belgilashda fonetik va morfologik qurilishlardagi o'xshashlikka asoslanib, qiyosiy – tarixiy usuldan unumli foydalandi.

Ye.D.Polivanov jamoaning sheva xususiyatlarini tasvirlashda matematik statistika metodidan foydalanishni taklif qildi.

### Aleksandr Ivanovich Smirnitkiy

A.I.Smirnitkiy (1903–1954) yirik nazariyotchi tilshunos olim bo'lib, u qator tadqiqotlarida til va tafakkur munosabati, tilning obyektiv mavjudligi, til birliklarida leksik va grammatik elementlar, til va nutq

munosabati kabi masalalarni yoritdi. Ayniqsa, u «Tilning obyektiv mavjudligi» (1954) asarida til va nutq dialektik munosabatiga alohida taʼtib, bu haqda oʻziga xos yangi fikrlarni bayon qildi. Aniqrogʻi, olim ayni tadqiqotida tilni oʻzaro bogʻlangan lisoniy birliklarning yigʻindisi va ular oʻrtasidagi munosabat sifatida qayd etdi. Nutqni esa u muayyan talaffuzning aniq lisoniy mazmun bilan birlashishi, bogʻlanishi deb tushuntirdi. Til, uning fikricha, turlicha namoyon boʻluvchi barcha nutq komponentlarining – birliklarning yigʻindisidir. Agar, – deydi u, nutq oʻzaro aloqa qilish usuli boʻlsa, til oʻzaro aloqa vositasidir.

Til nutqda mavjud boʻladi. U nutq bilan oʻzaro aloqada, munosabatda, oʻzaro taʼsirida boʻlib, nutqda, nutq orqali rivojlanadi. Til, – deydi u, nutq bilan bogʻlangan, nutqqa «qamalgan» boʻlib, tilshunoslik fanining predmetidir, obyektidir.

A.I.Smirmitskiyning til va nutq haqidagi fikrlaridan uning til va nutqning dialektik munosabatini toʻgʻri tushunganini va tadqiqotlarida, lisoniy hodisalar tahlilida shu munosabatga amal qilganini koʻrish mumkin.

Olim asarlarida tilning asosiy birligiga – soʻzga, soʻz masalasiga alohida eʼtibor beradi. Soʻz, uning fikricha, ayni vaqtda ham leksik, ham grammatik birlik hisoblanadi. Soʻzning bunday koʻp jihatlilik undagi leksik va grammatik tomonlarning, xususiyatlarning oʻzaro bogʻliqligidan kelib chiqadi.

A.I.Smirmitskiy, soʻzdagi grammatik jihat – bu munosabatlarning ifodalanishi va ularning tilda koʻrsatilishi, kuzatilishidir. Grammatik hodisalar tahlilida ichki tomonni ham – munosabatlar mazmunini, shuningdek, tashqi tomonni ham, ushbu munosabatning soʻzlarning oʻzgarishidagi va birikishidagi ifodalanishini ham hisobga olish lozim, – deydi.

A.I.Smirmitskiy, asosan, ingliz tili mutaxassisi boʻlib, ayni tilga oid qator jiddiy tadqiqotlar yaratdi. Bular: 1. «Qiyosiy va tarixiy metod va til qarindoshligini aniqlash» (1955). 2.«Ingliz tili leksikasi» (1956). 3.«Ingliz tili sintaksisi» (1957). 4.«Ingliz tili morfologiyasi» (1959) va boshqalar.

### Vadim Mixaylovich Solnsev

V. M. Solnsev shoʻro davri rus tilshunosligining taniqli vakili, nazariyotchi olim. Uning qator asarlari orasida bir necha marotaba nashr

qilingan "Til sistem-struktur qurilma sifatida" (1971, 1977) nomli yirik monografik tadqiqoti alohida o'rin egallaydi.

Ushbu asar tilshunoslikning nazariy masalalariga – til nazariyasiga qaratilgan bo'lib, muallif unda tilni sistem - struktur shakllanishga ega bo'lgan ijtimoiy hodisa sifatida talqin va tadqiq qiladi.

Mazkur ishda tilning jamiyat a'zolarining moddiy aloqa vositasi ekanligi g'oyasi ilgari suriladi. Bu jarayonda tilning ikkilamchi moddiy sistema sifatida jamiyatga aloqa quroli bo'lib xizmat qilishiga alohida e'tibor beriladi, uning belgili tabiatga egaligi mukammal yoritiladi.

Muallif qayd etilgan g'oyadan – tilning sistem-struktur tuzilishidan, belgili tabiatidan, ikkilamchi moddiy butunlik xususiyatidan kelib chiqib asarda sistema, struktura, substansiya kabi murakkab ilmiy-falsafiy tushunchalarni tahlil qiladi. Sistema haqida fikr yuritar ekan uni umumiylik, butunlik sifatida olib, xususiylik sifatida sistemaning turlari: moddiy (material) sistema va ideal sistemalarga bo'ladi. Ishda ikkilamchi moddiy sistemalar semantik sistema sifatida namoyon bo'ladi, semantik jihatdan chuqur o'rganiladi.

Ishda til strukturasi ham alohida e'tibor beriladi. Struktura va substansiya muammosi tahlil qilinadi. Monografiyada nazariy tilshunoslik – sistem tilshunoslikning eng muhim, eng qiziqarli va bosh masalasi bo'lgan til va nutq dialektikasiga alohida to'xtaladi, ayni hodisalar dialektik birlikda, bog'liqlikda olinadi. Ushbu muammoni hal qilish jarayonida, mantiqan mutlaqo to'g'ri, ilmiy izchillik prinsipi asosida til va nutq birliklari masalasi ham chuqur o'rganiladi, filning asosiy birliklari bo'lgan fonema, morfema, so'z va ularning o'zaro munosabati kabi lisoniy birliklar alohida muammo sifatida tadqiq qilinadi.

Xulosa shuki, V. M. Solnsevning "Til sistem-struktur qurilma sifatida" nomli tadqiqoti jiddiy ilmiy - nazariy ish bo'lib, u umumiy tilshunoslik faniga oid mukammal manbadir.

Prof. V. M. Solnsev nafaqat tilshunoslikning nazariy masalalari – umumiy tilshunoslik muammolari bilan, balki u xususiy tilshunoslik – muayyan til tadqiqi bilan ham puxta shug'ullandi. Bu o'rinda uning Sharq tillari – xitoy va vietnam tillari haqidagi fikrlari, ishlari e'tiborga loyiqdir. 1. "Xitoy tilshunoslarining xitoy tilidagi ishlarida so'z turkumlari muammosi" (1955); 2. "Hozirgi zamon xitoy tili bo'yicha ocherklar" (1957); 3. "Vietnam tili" (1960); 4. "Xitoy tilidagi so'z va gap munosabati haqida" (1963); 5. "Morfema va so'z" (1970) 6. "Semantika muammolari" (Ilmiy maqolalar to'plami, 1974, mas'ul muharrir); 7. "Osiyo

tillarining genetik, areal va tipologik aloqalari" (1983); 8. "Oltroy xalqlari  
til umumiyligining tarixiy-madaniy aloqalari" (1986) va boshqalar.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation.**

1. Sho'ro davri tilshunosligining falsafiy asosi nimadan iborat?  
What are the philosophical principles of Soviet period Linguistics?
2. Til materialiga ko'ra qanday hodisa?  
What kind of phenomenon is a language according to the material?
3. Tilning ijtimoiy mohiyati nimadan iborat?  
What is the social essence of a language?
4. Sho'ro davri tilshunosligi tilning vazifalarini nimalarda ko'radi?  
What are the functions of a language according to the Soviet period linguistics?
5. Sho'ro davri tilshunosligining buyuk vakillari kimlar?  
Who are the great representatives of the Soviet period linguistics?
6. Sho'ro davri tilshunosligi buyuk vakillarining qanday ishlarini bilasiz?  
What works by linguists of the Soviet period linguistics do you know?

### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Dialektik falsafa – sho'ro davri tilshunosligining yagona falsafiy asosi

Dialectical philosophy is the only philosophical principle of the Soviet period linguistics.

2. Til materiyasi – tovush (harf).

Language matter (substance) is the sound (letter).

3. Til funksiyasi – kommunikativ funksiya – jamiyatda aloqa vosita-si bo'lish.

Language function is a communicative function and means of communication in the society.



**Adabiyotlar:**  
**Bibliography:**

1. Я.В.Лоя. История лингвистических учений. -М., 1968.
2. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. -Т., 1972.
3. В.В.Виноградов. История русских лингвистических учений. -М., 1978.
4. Н.А.Кондрашов. История лингвистических учений. -М., 1978

## VIII. O'ZBEK TILSHUNOSLIGI

O'zbek tilshunosligi turkiy tilshunoslik sirasida peshqadam, o'ziga xos xususiyatlarga, ta'limotlarga, ilmiy – nazariy va amaliyot bilan bog'liq jiddiy va puxta tadqiqotlarga ega bo'lgan yetakchi tilshunoslikdir.

Haqiqatan, turkiy tilshunoslikda yetakchi tilshunosliklardan biri sifatida tan olingan hozirgi o'zbek tilshunosligining mustahkam asoslarini yaratishda, tilshunoslikning deyarli barcha soha va yo'nalishlari bo'yicha jiddiy izlanishlar olib borgan, salmoqli – fundamental tadqiqotlar yaratgan va yaratib kelayotgan olimlarning:

G.O.Yunusov, A.G'ulomov, A.K.Borovkov, O.Azizov, A.N.Kononov, S.Usmonov, E.D.Polivanov, Sh.Shoabdurahmonov, H.Abdurahmonov, S.N.Ivanov, F.Kamolov, M.Mirzayev, Z.Ma'rufov, M.Anqarova, X.Komilova, S.Ibrohimov, F.Abdullayev, T.Ibrohimov, I.Basulov, Sh.Rahmatullayev, S.Mutallibov, A.Rustamov, G'.Salomov, I.Pozilov, O.Usmonov, A.Hojiyev, Q.Mahmudov, A.Shermatov, H.Mamatov, A.Aliyev, M.Sodiqova, X.Nazarova, J.Muxtorov, M.Mirtojiyev, E.Umarov, A.Safayev, A.Mahmudov, X.Doniyorov, Y.Abdullayev, E.Begmatov, I.Qo'chqortoyev, H.Abdurahmonov, A.Nayfullayev, A.Abduazizov, H.Ne'matov, Sh.Safarov, Sh.Shukurov, A.Matq'oziyev, Yo.Tojiyev, R.Qo'ng'urov, B.O'rinboyev, A.Ahmedov, H.Basulov, S.Otamirzayeva, R.Doniyorov, B.Bafoyev, N.Turniyozov, G'.Zikrillayev, A.Abdullayev, F.Ubayeva, A.Nurmonov, S.Ashirboyev, N.Mahmudov, A.Mamatov, A.Jo'rayev, O.Bozorov, A.Mamatov, M.Usmonova, I.Mirzaev, K.Nazarov, R.Sayfullayeva, H.Dadaboyev, I.Mirzaqulov, Sh.Iskandarova, A.Mamajonov, A.Berdialiyev, H.Jamolxonov, H.Shamsiddinov, S.Karimov, B.Yo'ldoshev, Q.Sodiqov, H.Mengliyev, Z.Do'simov, N.Xusanov, M.Qurbonova, M.Hakimov, I.Nafusov, Sh.Shohobiddinova, I.Yo'ldoshev, J.A.Yoqubov, Sh.Ko'chimov, A.Abdusaidov, D.Lutfullayeva, S.Muhamedova, Z.Xolmonova, Sh.Usmonova, D.Xudoyberganova, B.Abdishukurov va boshqa o'nlab kishi hamda yosh avlod tilshunoslarining xizmatlari kattadir.

### Ayub G'ulomov

Ayub G'ulomov (1914–1986) o'zbek tilshunosligining atoqli vakili bo'lib, fanimizning qator sohalari – fonetika, morfologiya, so'z yasalishi,

sintaksis va leksikografiya bo'yicha asarlar yaratgan, tilshunosligini taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan ustoz olimdir.

Ayub G'ulomov Toshkentda tug'ildi. 1936 yilda kechki pedagogika institutining til va adabiyot fakultetini tugatdi. 1940 yilda professor A.K.Borovkov rahbarligida «O'zbek tilida aniqlovchilar» mavzusida nomzodlik, 1957 yilda Moskvada «O'zbek tilida tarixiy so'z yasaliş masalalari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

Ayub G'ulomovning lisoniy qarashlari, asosan, quyidagi asarlarda o'z ifodasini topgan: 1. «O'zbek tilida aniqlovchilar» (1940). 2. «O'zbek tilida kelishiklar» (1941). 3. «O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi» (1944). 4. «O'zbek tilida urg'u» (1947). 5. «Sodda gap sintaksisi» (1948). 6. «O'zbek tilida so'z yasash usullari» (1949). 7. «Fe'l» (1954). 8. «Sodda gap» (1955). 9. «Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis» (hamkor, 1965, 2-nashri). 10. «O'zbek tili grammati-kasi» (I tom. Morfologiya, hamkor, 1975). 11. «O'zbek tili morfem lug'ati» (hamkor, 1973) va boshqalar.

Ayub G'ulomov o'tkir xotira egasi va yetuk notiq – ma'ruzachi sifatida tinglovchilarga, talabalarga lisoniy hodisalar haqida aniq, mantiqli, faktlarga boy ma'lumotlar, ilmiy-amaliy asoslangan fikrlarni bera olardi. U nazariy jihatdan ham mukammal bo'lib, til hodisalarini chuqur va puxta tahlil qila olishi va ulardan ishonarli, asosli xulosalar chiqara olishi bilan ajralib turardi. Albatta, bularning asosida, birinchi navbatda, uning til nazariyasidan keng va har tomonlama bilimga egaligi hamda nazariy yo'nalishda katta tayyorgarlik maktabini o'taganligi ko'rinib turardi. Jumladan, olim «O'zbek tilida urg'u» asarida «akademik V.V.Radlovning turkiy tillarda urg'uning semantik va grammatik funksiyaga ega emasligi haqidagi fikriga e'tiroz bildirib, urg'uning so'z ma'nolarini, grammatik holatlarni differentsiatsiya qilishdagi rolini ko'rsatadi». <sup>52</sup> Tilimizdagi urg'uning so'z va mantiq urg'usi kabi turlarga bo'linishi, ularning nutqdagi o'rni, vazifasi va boshqalar puxta yoritib beriladi.

Ayub G'ulomov morfemika masalalariga ham alohida e'tibor berib, o'zbek tilshunosligiga so'zning eng kichik ma'noli qismlarini anglatish uchun xizmat qiladigan morfemika terminini olib kirdi va u haqda ma'lumot berdi. Masalan, «Morfemika so'zning eng kichik ma'noli qismlari haqidagi ta'limotdir. Bu kichik qismlar morfemalardir. Bu morfemalar turli ko'rinishlarga ham ega bo'ladi. Masalan, i s h l a so'zidagi -la elementi h a y d a so'zida – da morfemasida kelgan (lekin h a y – h a y l a fe'lida yana

<sup>52</sup> X.Узоков. Ўзбек тилшунослари. - Т, 1972, 104-бет.

–la inida qoʻllangan), hozir ajralmaydigan u n d a soʻzida ham aslida shu –la affiksi bor (un - ovoz). Bu –la va –da koʻrinishlari umumiy tarzda morfema deyiladi. Buning har bir koʻrinishi esa morf sanaladi. Demak, morfema morflarning yigʻindisidir. Bu turli koʻrinishdagi qismlar, morflar, bir-biriga nisbatan allomorflar sanaladi»<sup>53</sup>

Oʻzbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri soʻz yasalishi masalasidir. Olim ishlarida ushbu masalaga ham alohida eʼtibor beradi va shu yoʻnalishda salmoqli monografik tadqiqotlar yaratadi. U oʻzbek tilshunosligida birinchi boʻlib, soʻz yasalishi masalasini jiddiy muammo sifatida «koʻtarib», uni fonetika, morfologiya va boshqa sohalar kabi alohida boʻlim sifatida ajratadi va yoritadi. Boshqacha aytganda, «Oʻzbek tilshunosligida soʻz yasalishi boʻlimining shakllanishi, bu boʻlimga doir atamalar tizimining izga solinishida professor Ayub Gʻulomovning shi namati katta boʻldi»<sup>54</sup>

Muallif oʻzbek tilidagi soʻz yasalishining beshta turini qayd etadi. Ular: 1. Morfologik, 2. Sintaktik, 3. Leksik. 4. Semantik. 5. Fonetik usullardir. Demak, ushbu usullardan – aytilganlardan soʻz yasalishi haqiqatan ham alohida, oʻziga xos soha ekanligi kelib chiqadi.

Ayub Gʻulomov oʻzbek tili sintaksisiga oid hodisalarni ham ilmiy asosda atroflicha oʻrganish masalasiga jiddiy yondashdi. Aniqrogʻi, sintaktik sath birliklarini Yevropa tilshunosligining yutuqlari asosida chuqur oʻrganish ham ushbu olimning nomi bilan bogʻliqdir. U «Oʻzbek tilida aniqlovchilar» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi hamda bu dissertatsiya asosida maydonga kelgan xuddi shu nomdagi risolasi, «Oʻzbek tilida soʻz tartibi», «Sodda gap» kabi ishlari bilan oʻzbek ilmiy sintaksisining poydevorini yaratdi.<sup>55</sup>

Ayniqsa, olimning hamkorlikda yaratgan «Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Sintaksis» asari shu sohadagi dastlabki darslik boʻlib, shu kungacha oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan fundamental tadqiqot hisoblanadi. Asarda sintaksis hamda soʻz birikmasi, gap, gaplarning tuzilishi va maqsadga koʻra turlari, sodda gap, gap boʻlaklari, qoʻshma gap, ularning turlari va boshqalar haqida mukammal maʼlumot beriladi. «Kitobning vazifasi, – deydi muallif, oʻzbek adabiy tili sintaksisining hozirgi holatini hamda shu hodisalarning oʻsish jarayonini koʻrsatishdir».<sup>56</sup> Haqiqatan, ishda oʻzbek

<sup>53</sup> Oʻzbek tili grammatikasi 1-tom. -T., 1975, 11-bet.

<sup>54</sup> A. Nurmonov Oʻsha asar, 197-bet.

<sup>55</sup> A. Nurmonov. Oʻsha asar, 203-204 betlar.

<sup>56</sup> A. Gulomov. M. Askarova. Hozirgi uzbek adabiy tili. 2-nashri, -T, 1965, 4-bet.

adabiy tili sintaksisining o'z davridagi holati, «qiyofasi» ilk bor ilmiy nazariy, amaliy asosida chuqur yoritib beriladi.

### Said Usmonov

Said Usmonov (1922–1972) o'zbek tilshunosligining iste'dodli nazariyotchi olimidir. U Boshqirdistonda tug'ildi, 1929 yilda oilaviy Toshkentga ko'chib keldi. 1938 yilda Toshkent pedagogika bilim yurtini tugatib, 1939 yilda Toshkent Davlat pedagogika institutining til va adabiyot fakultetiga o'qishga kirdi. 1942–1943 yillarda urushda ishtirok etdi. 1944 yilda qayd etilgan fakultetni imtiyozli diplom bilan tugatib, 1946 yilda institutning aspiranturasiga qabul qilindi.

Said Usmonov 1959 yilda prof. T.Ibrohimov rahbarligida «Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida undovlar» mavzusida nomzodlik, 1964 yilda esa «Hozirgi zamon o'zbek tilida so'zning morfologik xususiyatlari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

Olim 1965 yildan 1972 yilgacha - umrining oxirigacha umumiy tilshunoslik kafedrasining mudiri lavozimida xizmat qildi.

Said Usmonov o'zbek tilshunosligining orfografiya, leksikologiya, morfologiya, terminologiya, umumiy tilshunoslik sohalari bo'yicha mukammal asarlar yaratgan ulkan olimdir. Uning asosiy asarlari: 1. «O'zbek tilida undovlar» (1953). 2. «Undov gaplar» (1955). 3. «So'z va uning morfologik strukturasi haqida» (1957). 4. «Undalma va mime-malar» (Hozirgi zamon o'zbek tili, hamkor) (1957). 5. «O'zbek terminologiyasining ba'zi masalalari» (1968). 6. «O'zbek tili» (hamkor, 1978). 7. «Umumiy tilshunoslik» (1972) va boshqalar. O'tgan asrning 60–70-yillari o'zbek tilshunoslarining sardorlaridan biri bo'lgan Said Usmonov, ayniqsa, morfologiya, leksikologiya, terminologiya va til nazariyasi bo'yicha jiddiy va salmoqli asarlar yaratdi.

Olim murakkab va aktual bo'lgan terminologiya masalalariga to'xtalar ekan, uning «...ham ishlab chiqarish qurollari sohasidagi, ham madaniyat va fan sohasidagi har qanday yangiliklar dastavval til birliklari, to'g'rirog'i, terminlar orqali o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda terminologiya (ma'lum tildagi terminlar majmui) zamona tarixining guvohi, ko'zgasidir»,<sup>57</sup> deyishi ayni haqiqatdir.

Said Usmonovning prof. M.Mirzayev va prof. I.Rasulovlar bilan hamkorlikda yaratgan «O'zbek tili» darsligi alohida tilga olinishi lozim.

<sup>57</sup>S.Usmonov. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. -Т., 1968, 3-бет.

Chunki ushbu ish 70- yillardayoq tilshunoslarning, talabalarning zaruriy adabiyotlari xazinasidan mustahkam o'rin egalladi. Ishda leksikologiya va morfologiyaga oid qator hodisalarning tabiati, mohiyati atroflicha ochib berildi, ayni hodisalar mukammal tahlil qilindi, puxta nazariy xulosalar chiqarildi. Shunga ko'ra, asar qayta – qayta nashr qilindi.

Said Usmonov o'zining iste'dodli tilshunos ekanligini faqat xususiy tilshunoslikdagina - o'zbek tili bilan bog'liq ko'plab masalalarni asosli, ishonarli hal qilishdagina ko'rsatib qolmadi. Uning iste'dodi tilshunoslikning ancha murakkab nazariy – falsafiy masalalarini hal qilishda – shu sohada ham yaratgan bir qancha tadqiqotlarida yaqqol ko'rinib turadi. Bu o'rinda, ayniqsa, uning o'z davri uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan «Umumiy tilshunoslik» darsligi va til nazariyasi bilan bog'liq yaratgan ba'zi jiddiy maqolalari tahsinga sazovordir.

Tilshunos olimning pedagogika institutlarining filologiya fakul-teti talabalari uchun yaratgan «Umumiy tilshunoslik» asari o'zbek tilshunosligidagi eng katta voqealardan, fanimizning eng yirik yutuqlaridan biri bo'lganligini ta'kidlash shart. Chunki olim o'zbek tilshunoslaridan birinchi bo'lib, tilning ilmiy – nazariy, falsafiy sohasi bo'yicha mukammal darslik yaratdi. Darslikda jahon tilshunosligi tarixi: qadimgi, o'rta va yangi asrlar tilshunosligi, qiyosiy – tarixiy tilshunoslik masalalari, til va nutq dialektik munosabati, tilni tadqiq qilish metodlari ancha mukammal, chuqur yoritiladiki, bu asar o'z davri uchun tengi yo'q bir manba sifatida xizmat qildi va qilmoqda.

To'g'ri ta'kidlanganidek, «Keyingi o'n - o'n besh yil ichida bizda o'ndan ortiq fan doktorlari yetishib chiqdi, yuzdan ortiq tilshunoslar fan nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi. Said Usmonov bularning ichida eng talantli tilshunos olimlardan biri edi».<sup>58</sup>

Said Usmonov o'zining qisqa (atigi 50 yil), ammo sermahsul ilmiy – pedagogik faoliyati jarayonida o'nlab tilshunos olimlarga ustozlik qildi, 60 ga yaqin ilmiy – nazariy va ilmiy – metodik asarlar yaratdi. Bu asarlar istiqloq davrida ham fanimiz taraqqiyoti uchun samarali xizmat qilmoqda.

### **Shonazar Shoabdurahmonov**

Akademik Shonazar Shoabdurahmonov o'zbek shevashunosligi fanining darg'asi, yirik tilshunos olim, filologiya fanlari doktori (1963), O'zFA akademigi (1988).

<sup>58</sup> Ўзбекистон маданияти. -Т., 1973 йил, 27 март, 3-бет.

Shonazar Shoabdurahmonov 1923 yilda Toshkentda tug'ildi. 1940 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti-ning til va adabiyot fakultetiga o'qishga kirdi. 1944 yilda institutni imtiyozli diplom bilan tugatib,

O'zFA Alisher Navoiy nomli Til va adabiyot instituti aspiranturasida o'qishni davom ettirdi.

U 1949 yilda «Ravshan dostonining badiiy tili» mavzusida nomzodlik, 1963 yilda «O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Olim o'zbek tilshunosligining fonetika, orfografiya, punktuatsiya, morfologiya va dialektologiya sohalari bo'yicha qator asarlar yaratdi. Uning asosiy tadqiqotlari quyidagilar: 1. «Fonetika. O'zbek tili fonetikasiga doir ba'zi masalalar» (hamkor, 1953). 2. «Punktuatsiya qoidalari» (1953, 1954). 3. «O'zbek tilida yordamchi so'zlar» (1953). 4. «O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari» (hamkor, 1954). 5. «Hozirgi zamon o'zbek tili» (hamkor, 1957). 6. «O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari» (1962). 7. «O'zbek dialektologiyasi» (hamkor, 1978). 8. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (hamkor, 1980) va boshqalar.

Sh. Shoabdurahmonovning akademik V.V. Reshetov bilan hamkorlikda yaratgan «Fonetika. O'zbek tili fonetikasiga doir ba'zi masalalar» asarida fonema termini ilmiy muomalaga kiritildi va uning mohiyati tushuntirildi. Unli fonemalar talaffuzida: a) tilning gorizontalar harakati, b) tilning vertikal harakati; v) labning ishtiroki mavjud ekanligi, ya'ni, unli tovushlarning uchta differensial belgisi bayon qilindi va mavjud oltita unli fonema o'sha belgilarning majmuasi sifatida izohlandi. Undosh fonemalar uchta belgi asosida a) paydo bo'lish o'rni; b) paydo bo'lish usuli; v) tovush paychalarining ishtiroki belgilari asosida tavsiflandi.<sup>59</sup>

Olimning «O'zbek tilida yordamchi so'zlar» asarida yordamchi so'zlar – ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, modal so'z, undov va taqlidiy so'zlarning nutq faoliyatidagi vazifasi ochib berildi. Yordamchi so'zlarning ichki turlari, ularning mohiyati, qo'llanish xususiyatlari, ma'no imkoniyatlari, mustaqil so'zlarga bo'lgan munosabati kabilar atroflicha yoritildi.

Shonazar Shoabdurahmonovning «O'zbek adabiy tili va xalq shevalari» asari fundamental tadqiqot sifatida maydonga keldi.

<sup>59</sup> A.Nurmonov. O'sha asar. 175-bet.

## Mazluma Asqarova

Mazluma Asqarova taniqli tilshunos olim, filologiya fanlari doktori (1963), professor (1965), Rossiya Federatsiyasi ta'lim akademiyasining akademigi. M. Asqarova 1924 yilda Toshkentda tug'ildi. 1940 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirdi. 1944 yilda institutni imtiyozli diplom bilan tamomladi. 1951 yilda esa «O'zbek tilida ravishdosh» mavzusida nomzodlik, 1963 yilda esa «O'zbek tilida ergashish formalari va ergash gaplarning tiplari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. M. Asqarova o'zining ilmiy-pedagogik faoliyati davomida qator monografiya, darslik va qo'llanmalar yaratdi. Bular: 1. «O'zbek tilida ravishdosh va sifatdoshlar» (hamkor, 1953). 2. «Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar» (1960). 3. «Hozirgi zamon o'zbek tili. Sintaksis.» (hamkor, 1961). 4. «Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis.» (hamkor, 1965). 5. «O'zbek tilida ergashish formalari va ergash gaplar» (1966). 6. «O'zbek tili grammatikasi» (1-tom. Morfologiya, hamkor 1975). 7. «O'zbek tili grammatikasi.» (2-tom. Sintaksis, hamkor 1976). 8. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (hamkor, 1-qism, 1980). 9. O'rta maktablar uchun hamkorlikda yaratilgan o'ndan ortiq darslik va qo'llanmalar.

M. Asqarova, ayniqsa, sintaksis sohasining chuqur bilimdoni ekanligi, shu yo'nalishda qator jiddiy tadqiqotlar yaratganligi bilan taniqlidir.

Ta'kidlash joizki, M. Asqarovaning prof. A.G'ulomov bilan hammualliflikda yaratilgan va bir necha bor nashr qilingan "Hozirgi zamon o'zbek tili. Sintaksis" darsligi o'zining mukammalligi, lisoniy hodisalar yuqori ilmiy saviyada tahlil qilinganligi, ularning mohiyati chuqur yoritib berilganligi bilan ajralib turadi. Ishda o'zbek adabiy tili sintaksisining o'z davridagi holati har tomonlama puxta o'rganilgan.

M. Asqarovaning ilmiy ijodida qo'shma gap sintaksisining, aniqrog'i, ergashgan qo'shma gap muammosining atroflicha tadqiq etilishi alohida o'rin egallaydi.

## G'anijon Abdurahmonov

G'anijon Abdurahmonov o'zbek tilshunosligi fanining sardorlaridan biri, taniqli, yetakchi olim, filologiya fanlari doktori (1960), professor (1966), O'zFA akademigi (2001).



Gʻanijon Abdurahmonov 1925 yilda Fargʻona shahrida tugʻildi. 1942 yilda Ulugʻbek nomidagi Fargʻona davlat pedagogika institutining til va adabiyot fakultetiga oʻqishga kirdi. 1946 yilda oliy oʻquv yurtini imtiyozli diplom bilan tugatdi. 1950 yilda prof. U. Tursunov rahbarligida «Hozirgi zamon oʻzbek tilida substantivatsiya» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. 1960 yilda «Oʻzbek adabiy tilining qoʻshma gap sintaksisi asoslari» monografik tadqiqoti uchun filologiya fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovor boʻldi.

Olim Fargʻona davlat pedagogika institutidagi faoliyatini kafedra mudiri lavozimidan boshlaydi, soʻng direktor, Fargʻona, Toshkent davlat pedagogika va chet tillar institutlarining rektori, Respublika oliy va oʻrta maxsus taʼlim vaziri, Respublika atamashunoslik qoʻmitasining raisi kabi qator masʼuliyatli lavozimlarda samarali mehnat qildi.

Gʻ. Abdurahmonov oʻzbek tilshunosligining qator sohalari boʻyicha tadqiqot ishlarini olib borib, koʻplab mukammal asarlar yaratdi. Bular: 1. «Ajratilgan ikkinchi darajali boʻlaklar» (1955). 2. «Qoʻshma gap» (1957). 3. «Qoʻshma gap sintaksisi asoslari» (1958). 4. «Oʻzbek tilidan qoʻllanma» (1962). 5. «Qoʻshma gap sintaksisi» (1964). 6. «Murakkablashgan gaplar sintaksisi» (1971). 7. «Oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi» (hamkor, 1973). 8. «XI asr eski turkiy til sintaksisi boʻyicha tadqiqotlar» (1973). 9. «Tarixiy sintaksis» (1974). 10. «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» (hamkor, 1979). 11. «Qadimgi turkiy til» (hamkor, 1982). 12. «Oʻzbek xalqi va tilining shakllanishi haqida» (1999). 13. «Oʻzbek tili va adabiyoti» (hamkor, 2002) hamda maktab, litseylar uchun qator dastur, darsliklar va boshqalar. Qisqasi, olimning 170 ga yaqin ilmiy-tadqiqot ishlari chop etilgan.

Manbalardan koʻrinib turibdiki, Gʻ. Abdurahmonov hozirgi za-mon oʻzbek adabiy tili va oʻzbek tili tarixi sintaksisi boʻyicha yetakchi olimdir. Uning, ayniqsa, qoʻshma gap sintaksisi muammolari boʻyicha yaratgan fundamental tadqiqotlari tahsinga loyiqdir.

Tilshunos olim tadqiqotlarida oʻzbek tilida ajratilgan gap boʻlaklari mavjudligi haqidagi fikmi ilk bor oʻrtaga tashlaydi va asoslaydi. Gaplarning tuzilishiga koʻra turlarini anʼanaviy ikkiga emas, balki uchga boʻladi. 1. Sodda gap. 2. Murakkab gap. 3. Qoʻshma gap. Murakkab gaplar masalasiga alohida urgʻu beradi. U, ayniqsa, qoʻshma gapning bogʻlovchisiz qoʻshma gap turini alohida ajratib, materiallar asosida isbotlab beradi. Aniqrogʻi, olim ilmiy izlanishlarida qoʻshma gaplarni bogʻlovchisiz qoʻshma gaplar, bogʻlangan qoʻshma gaplar va ergash gapli

qo'shma gaplar kabi turlarga ajratadi, ularni ilmiy – nazariy va amaliy jihatdan mukammal tadqiq qiladi.

U Abdurahmonovning o'zbek tili tarixiy sintaksisi masalalariga ham alohida e'tibor berishi va shu yo'nalishda ham jiddiy tadqiqotlar yaratgani uning til tarixi masalalarida ham yetuk olim ekanligini ko'rsatadi. Hattaki, bundan, uning «Tarixiy sintaksis» qo'llanmasida o'zbek tili qo'shma gap konstruksiyalarining tarixi yoritiladi. Muallif o'zbek tili tarixiga oid yozma yodgorliklarni to'rt davrga bo'ladi: qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek tili va hozirgi zamon o'zbek adabiy tili.

Muallif ishda qo'shma gapning har uch turi: bog'lovchisiz qo'shma gaplar, bog'langan qo'shma gaplar va ergash gapli qo'shma gaplar – ularning taraqqiyoti masalasiga maxsus to'xtaladi. Shu-ningdek, olim ushbu manbada XII asrga oid «Hibatul haqoyiq»ning, XII – XIV asrga oid «O'g'uznoma» va XX asrning mashhur romanlaridan biri bo'lgan «O'tgan kunlar» asarining sintaktik tahlilini beradi.

### Shavkat Rahmatullayev

Shavkat Rahmatullayev o'zbek tilshunosligida katta salmoqqa ega bo'lgan, keng qamrovli sermahsul olim, filologiya fanlari doktori (1966), professor (1967).

Shavkat Rahmatullayev 1926 yilda Toshkentda tug'ildi. 1943–1947 yillarda hozirgi O'zMU (sobiq ToshDU)ning filologiya fakultetida o'qidi. 1952 yilda prof. M.Nasilov rahbarligida «Obrazli fe'l frazeologik birliklarining asosiy grammatik xususiyatlari» mavzusida nomzodlik, 1966 yilda «O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

Sh.Rahmatullayev o'zbek frazeologiyasining sardoridir. U ayni sohaga oid qator asarlari bilan ushbu yo'nalishning ilmiy – nazariy va amaliy poydevorini qurib berdi, uni yuksaltirdi, shakllantirdi.

Keng qamrovli olim o'zbek ilmiy tilshunosligining qator yo'nalishlari: leksikologiya, frazeologiya, semasiologiya, morfologiya, leksikografiya, etimologiya va boshqalar bo'yicha jiddiy tadqiqotlar yaratdi. Ular: 1.«Frazeologik birliklarning asosiy ma'no turlari» (1956). 2. «Frazeologiya. Hozirgi zamon o'zbek tili» (1957) 3. «Modal so'zlar. Hozirgi zamon o'zbek tili» (1957) 4. «Qo'shma so'zlarning imlo qoidalari va lug'ati» (hamkor, 1961) 5. «O'zbek tili» (hamkor, I qism, 1963.). 6. «O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati» (1964). 7. «Leksikologiya

hamda frazeologiya. Hozirgi o'zbek adabiy tili» (1965). 8. «O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari» (1966). 9. «Nutqimiz ko'rki» (1970). 10. «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» (1978). 11. «O'zbek tili anto-nimlarining izohli lug'ati» (hamkor, 1980). 12. «O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati» (1984). 13. O'zbek va rus tillarini qiyoslash (1993). 14. «O'zbek tilining imlo lug'ati» (hamkor, 1995). 15. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (hamkor, 1998). 16. «O'zbek tilining etimologik lug'ati» (2000, 2003). 17. «Hozirgi adabiy o'zbek tili» (2006) va boshqalar.

Olim frazeologiya bo'yicha nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki turkiy tilshunoslikda ham yetakchi mutaxassislardan hisoblanadi. Shuningdek, u o'zbek tilshunosligida yirik leksikograf sifatida ham tan olingan bo'lib, ayniqsa, eng murakkab va mashaqqatli ish bo'lgan izohli lug'atlar yaratishda ham peshqadam hisoblanadi.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida tilga sistema nuqtayi nazaridan yondashish, sistem – struktur jihatdan lisoniy hodisalarni tahlil qilish, dastavval, leksikologiya sohasidan boshlangan. «Natijada o'zbek tili leksikologiyasi tavsifiy bosqichdan yangi bosqichga – nazariy bosqichga, leksikani ma'lum leksik – semantik guruhlardan (LSG) tashkil topgan butunlik, leksik birliklarni muayyan ma'no elementlarining munosabatidan tashkil topgan tizim sifatida o'rganish bosqichiga ko'tarila bordi. Bu bilan o'zbek tavsifiy leksikologiyasidan sistem (nazariy) leksikologiyaga o'tila bordi. Ana shu jarayonni professor Shavkat Rahmatullayev va uning shogirdi I.Qo'chqortoyevlar boshlab berdi».<sup>60</sup>

Olimning katta xizmatlaridan yana biri shuki, u o'zbek tilshunosligida ilk bor tilimizdagi turkiy so'zlarni qamrab olgan etimologik lug'at yaratdi. Katta hajmda (31,5 b/t) tuzilgan ushbu lug'at og'ir mehnat evaziga yuzaga kelganligi mutlaq haqiqatdir. Muallif aytganidek, «O'zbek tilining etimologik lug'atini tuzishga intilganlar bo'ldi, lekin ilmiy ishlarda ayrim so'zlarga tarixiy – etimologik izoh berishdan nariga o'tilmadi. Dahrning kajraftorini qarangki, bunday lug'at tuzish mening zimmamga yuklandi».<sup>61</sup> Aytish mumkinki, Sh.Rahmatullayev o'z zimmasiga yuklatilgan vazifani sharafla bilan bajardi. O'zbek tili etimologiyasining shakllanish jarayoni dastlabki tajriba sifatida boshlab berildi.

<sup>60</sup> А. Нурмонов. О'sha asar, 186-bet.

<sup>61</sup> Ш. Раҳматуллаев. Ўзбек тилининг этимологик луғати.-Т., 2000, 3-бет.

## Miraziz Mirtojiyev

Miraziz Mirtojiyev o'zbek tilshunosligining taniqli, yetuk vakili, filologiya fanlari doktori (1990), professor (1993).

Miraziz Mirtojiyev 1927 yilda Toshkentda tug'ildi. 1953-1958 yillarda Misoniy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida ta'lim oldi. 1964 yilda leksikograf olim Z. M. Ma'ruf rahbarligida "O'zbek tilida leksik omonimlarning tarkib topishi" mavzusida nomzodlik, 1990 yilda "O'zbek tilida so'z ko'chma ma'nosi va uning manifestatsiyasi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

M. Mirtojiyev o'zbek tilshunosligining qator sohalari: fonetika, leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya, terminologiya, til tarixi va boshqa yo'nalishlarda barakali ijod qilib mukammal asarlar yaratdi. Ular: 1. «O'zbek tilida polisemiya» (1975), 2. «O'zbek tilining izohli lug'ati.» 1-2-tomlar (hamkor, 1981), 3. «Til va madaniyat» (hamkor, 1992), 4. «Hozirgi o'zbek adabiy tili. Fonetika.» (1999), 5. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (2004), 6. «O'zbek tilining izohli lug'ati» (hamkor, 2006) 7. «O'zbek tilidagi fe'l valentliklari» (2007), 8. «Gap bo'laklarida semantik-sintaktik nomutanosiblik» (2008). 9. «O'zbek tili semasiologiyasi» (2010), 10. «O'zbek tili fonetikasi» (2013), 11. «O'zbek tilida leksik omonim manbalari» (2014) va boshqalar.

Prof. M. Mirtojiyevning, ayniqsa, leksikografiya sohasidagi tadqiqotlari tahsinga loyiq. U o'zbek tilining qator izohli lug'at-larida o'ttiz besh bosma taboq hajmdagi lug'at maqolalari bilan faol ishtirok etgan. Shuningdek, elektronika, yuqori molekulyar kimyo va etimologiya sohasida tuzilgan lug'atlarda ham hamkorlik qilgan.

Olim mustaqillik davrida abituriyentlarning oliy o'quv yurtlari qabul testlariga tayyorgarliklari uchun to'qqizta qo'llanma ham nashr ettirgan.

M. Mirtojiyev hozirda "O'zbeksiton milliy ensiklopediyasi"ning o'zbek tilshunosligi yo'nalishi bo'yicha maslahatchi sifatida ham faol ish olib bormoqda.

Muallifning "O'zbek tili va tilshunosligining ildizlari" nomli nashrdan chiqish arafasida turgan jiddiy tadqiqotida o'zbek turklarining O'rta Osiyoda tarqalishini gipoteza asosida eramizdan oldingi X asrga, o'zbek tilshunosligining yuzaga kelishini esa faktlar asosida VIII asrga bog'laydi.

Olimning turkiy tub fe'llarning so'nggi tovush taraqqiyoti va nisbat kategoriyasi, shuningdek, umuman turkiy tub so'zlar haqidagi qator ilmiy

maqolalari, jahon ahamiyatiga ega turkologik hamda oltoyshunoslik konferensiyalarida qilgan ma'ruzalari ham jiddiy ishlardan biridir, uning turkolog sifatidagi faoliyatining tasdig'idir.

### Azim Hojiyev

Azim Hojiyev o'zbek tilshunosligining yirik vakillaridan biri, keng qamrovli sermahsul olim, filologiya fanlari doktori (1968), O'zFA akademigi (2001).

Azim Hojiyev 1933 yilda Toshkentda tug'ildi. 1951–1956 yillarda hozirgi O'zMU (sobiq ToshDU)ning filologiya fakultetida o'qidi. 1956 yilda shu universitetning aspiranturasiga o'qishga kirdi. 1960 yilda V.V.Reshetov rahbarligida «Hozirgi zamon o'zbek tilining hozirgi zamon fe'li» mavzusida nomzodlik, 1968 yilda esa «Edi, ekan, emish to'liqsiz fe'li» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

A.Hojiyev o'zbek tilshunosligining, asosan, leksikologiya, semasiologiya, morfologiya, so'z yasalishi, orfografiya, terminologiya va leksikografiya sohalari bo'yicha fundamental asarlar yaratdi. U fanimizda sinchkov tilshunos - fe'lishunos olim sifatida ham tanildi. Uning asosiy asarlari: 1. «Qo'shma so'zlar imlosi va lug'ati» (hamkor, 1961). 2. «O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar» (1963). 3. «O'zbek tilida ko'makchi fe'llar» (1966). 4. «To'liqsiz fe'l» (1970). 5. «Fe'l» (1973). 6. «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» (1974). 7. «O'zbek tilida forma yasalishi» (1979). 8. «Ho-zirgi o'zbek adabiy tili» (hamkor, 1980). 9. «O'zbek tilining izohli lug'ati» (hamkor, I tom, 1981). 10. «Lingvistik terminlarning izohli lug'ati» (1985). 11. «O'zbek tilida so'z yasalishi» (1987). 12. «Ho-zirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati» (hamkor, 2001). 13. «O'zbek tilining izohi lug'ati» (hamkor, 2006). «O'zbek tilida so'z yasalish tizimi» (2008) va boshqalar.

Olimning, ayniqsa, o'zbek tili morfemikasi, so'z yasalishi sohasidagi va izohli lug'atlar yaratishdagi xizmatlari tahsinga sazovordir. Muallif morfemika haqida, uning o'rganish obyekti haqida shunday deydi: «Morfemika so'zning necha morfemadan tashkil topishini o'rganmaydi, balki morfemalarning turini va har bir turiga xos xususiyatlarini o'rganadi».<sup>62</sup> Bu morfemik sath birligi bo'lgan morfemaning obyektivligini e'tirof etuvchi va ana shu obyektiv birlikni o'rganuvchi

<sup>62</sup> А.Хожиев. Сўзнинг морфологик ва сўз ясаллиш структураси. Ўзбек тили ва адабиёти. Ж. 1976. 30-31-бетлар

aholida tilshunoslik bo'limining vazifasi haqidagi haqiqiy ilmiy tahodir.<sup>63</sup>

A.Hojiyevning leksikografiya sohasidagi katta xizmatlarini ham aholida ta'kidlash lozim. Ayniqsa, uning izohli lug'atlar yaratish faoliyati «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» asari filologlar, shoiru yozuvchilar, maktab o'qituvchilari uchun qimmatli manba sifatida xizmat qilib kelmoqda. Ushbu tadqiqot o'zbek tilining haqiqatan sinonimlarga boy til ekanligini leksik sinonimlar - ularning sinonimik qatorlari orqali isbotlab beradi. Lug'atning har bir maqolasi: 1) sinonimik qatordan; 2) sinonimik qatordagi so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'noning izohidan; 3) sinonimik qatordagi har bir so'zga xos xususiyatning ta'rifidan; 4) sinonimik qator va har bir sinonimga berilgan ta'rifni tasdiqlovchi misollardan tashkil topadi.<sup>64</sup> Lug'atning muhim jihatlardan yana biri shuki, muallif sinonimik qator birliklarining o'zaro nozik, sezilar-sezilmas ma'no farqlarini ham ishonarli ko'rsatib beradi.

Olimning mustaqillik davrida hamkorlikda yaratgan «Hozirgi o'zbek tilidagi faol so'zlarning izohli lug'ati» asari ham lotin yozuvida yaratilgan muhim manbalardan - lug'atlardan hisoblanadi.

### Rahmatulla Qo'ng'urov

Rahmatulla Qo'ng'urov (1933-1994) taniqli tilshunos olim, filologiya fanlari doktori (1982), professor (1984).

Rahmatulla Qo'ng'urov 1933 yilda Jizzax viloyatida tug'ildi. 1947 yilda o'rta maktabni, 1951 yilda Jizzax pedagogika bilim yurtini, 1956 yilda SamDUni tugatdi. 1956 yildan umrining oxiri-gacha ushbu universitetning "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida xizmat qildi, 23 yil davomida mazkur kafedrani boshqardi.

Olim 1962 yilda prof U.Tursunov rahbarligida "Hozirgi o'zbek adabiy tilida tasviriy so'zlar" mavzusida nomzodlik, 1982 yilda "O'zbek tilida ot formasini yasovchi morfemalarning semantik-stilistik xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildi.

R.Qo'ng'urov asarlarining soni 300 dan ortiq bo'lib, bu manbalar tilshunoslikning deyarli barcha sohalariga, ayniqsa, stilistika, nutq madaniyati, leksikografiya, morfologiya va toponimikaga bag'ishlanganligi bilan e'tiborga loyiqdir. Bular: 1. "O'zbek tilida tasviriy so'zlar"

<sup>63</sup> A.Nurmonov. O'sha asar, 182-183-bettlar.

<sup>64</sup> A.Ходжиев. Узбек тили синонимлариянинг изохли луг'ати. -Т, 1974, 6-бет.

(1966). 2. "O'zbek tili grammatikasi" (1975) 3. "O'zbek tili stilistikasidan ocherklar" (1975). 4. "O'zbek tilining tasviriy vositalari" (1977). 5. "O'zbek tilining chappa lug'ati" (1977). 6. "O'zbek tilining morfem lug'ati" (1977). 7. "O'zbek tilida o'zgarmaydigan so'zlar. 1,2-qismlar" (1978,1980). 8. "Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari" (1980). 9. "Zulfiya poeziyasining lug'ati" (1981). 10. "O'zbek tili stilistikasi" (1983). 11. "O'zbek tilining funksional stillari" (1984). 12. "Nutq madaniyati asoslari" (1984,1985,1986). 13. "Chuvash tilining chappa lug'ati" (1987). 14. "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari" (1992). 15. "Epistolyar janrning tuzilishi va uning ayrim til xususiyatlari" (1992) va boshqalar.

R.Qo'ng'urov keng qamrovli olim sifatida Samarqand stilistika maktabining asoschisidir.

### Ernst Begmatov

Ernst Begmatov taniqli sermahsul olim, o'zbek onomastikasining - antroponimikasining asoschisi, filologiya fanlari doktori (1988), professor (1990).

Ernst Begmatov 1936 yilda Namangan viloyatida tug'ildi, yoshlik yillari janubiy Qozog'istonda o'tdi. 1955 yilda maktabni, 1959 yilda Navoiy nomidagi SamDUning filologiya fakultetini bitirdi. 1961 yildan O'zFA Til va adabiyot institutida ishlab kelmoqda.

Olim 1965 yilda Faxri Kamol rahbarligida «O'zbek tili antropo-nimikasi» mavzusida nomzodlik, 1988 yilda «Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili leksikasining o'z qatlami» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

Prof E.Begmatov o'zbek tilshunosligining leksikologiya, semasiologiya, onomastika, nutq madaniyati, uslubshunoslik va leksikografiya sohalarini bo'yicha qator salmoqli ishlar yaratdi. Bular: 1. «Nomlar va odamlar» (1966). 2. «Ismingizning ma'nosi nima» (hamkor, 1968). 3. «Kishi nomlari imlosi» (1970). 4. «O'zbek ismlari imlosi» (1972). 5. «O'zbek tilining imlo lug'ati» (hamkor, 1976). 6. «O'zbek tili leksikologiyasi» (hamkor, 1981). 7. «Adabiy norma va nutq madaniyati» (1983). 8. «Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari» (1985). 9. «O'zbek nutq madaniyati ocherklari» (hamkor, 1988). 10. «O'zbek ismlari» (1991). 11. «Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari» (hamkor, 1992). 12. «Ism chiroyi» (1994). 13. «O'zbek ismlari. 14.600 ismlar

ishini (1998) va bosh-qalar. Umuman, olimning hozirga qadar e'lon qilgan ishlarining umumiy miqori 300 ga yaqin bo'lib, ularning 8 tasi monografiya, 13 tasi risoladir.

Tilshunos olim butun hayoti davomida – lisoniy ijodida nom-shunoslik bilan – ismlar muammosi bilan jiddiy shug'ullandi. U ming-minglab ismlarni to'pladi, tartibga soldi, ismlarning etimologiyasini – ma'nosini aniqladi, izohini berdi, ularning qanday yozilishi lozimligi haqida fikrlarini bayon etdi. Ana shunday og'ir, sermashaqqat mehnat natijasida o'zbek ismlariga bag'ishlangan o'nlab yirik tadqiqotlar, yuzlab maqolalar maydonga keldi. Shunga ko'ra, olim turkiy tilshunoslikda onomastika yo'nalishida eng faxrli o'rinlardan birini haqli ravishda egallaydi.

Ernst Begmatovning o'zbek nutq madaniyati va o'zbek leksikologiyasi sohasidagi faoliyati – ushbu yo'nalishlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ham salmoqlidir.

Olim o'zbek tilshunoslari orasida insonga nom qo'yish, ism berish ma'naviyatining targ'ibotchisi, tashviqotchisi, jonkuyari sifatida ajralib turadi. U ism chiroyi haqida fikr yuritar ekan, farzandlarga ismlar to'g'ri tanlanishi, to'g'ri yozilishi lozimligini uqtirib, shunday deydi «Ism chiroyi faqatgina nomning mazmu-nidagina emas, balki uning to'g'ri shaklida hamdir. Mazmunan teran va go'zal, shaklan esa to'g'ri va ko'rkam ism chiroyli ismdir. To'g'ri yozilgan, talaffuzi oson, qulay ism – chiroyli ismdir. O'zbekiston diyorining, o'zbek xalqining buyuk orzularini, ota - onalarning o'z farzandiga bo'lgan ezgu niyatlarini, armon va tilaklarini ifoda qiluvchi ismlar chiroyli ismdir».<sup>65</sup> Bu – haq gap. Umuman, farzandlarga ism berish, nom berish – joy nomlariga alohida e'tibor, mas'uliyat bilan qarash muhim ijtimoiy - siyosiy, ma'naviy, madaniy muammodir, o'ziga xos qadriyatdir.

Gap inson ismlari haqida ketar ekan, ismshunos olimning 40 bosma taboqqa yaqin – 600 betdan ortiq katta hajmdagi salmoqli asarini aytib o'tish shart. «O'zbek ismlari» nomi bilan chop etilgan ayni muhim qo'llanma – lug'at o'z ichiga 14.600 ga yaqin ismni olib, ularning etnografik ma'nolarini izohlaydi. Asarning asosiy maqsadi o'zbek ismlarining butun boyligini bir joyga to'plab, ma'nosini izohlab berish orqali kelajak avlodga bu borada katta bir ma'naviy meros qoldirishdir.<sup>66</sup>

<sup>65</sup> E.Begmatov. Ism chiroyi. -T.,1994, 88-bet.

<sup>66</sup> E.Begmatov. O'zbek ismlari. -T.,1998, 4-bet



## Bozor O'rinboyev

Bozor O'rinboyev o'zbek tilshunosligining yetuk sarmalim olimlaridan biri, filologiya fanlari doktori (1976), professor (1979), xalqaro Antique World ilmiy akademiyasining akademigi (2003).

Bozor O'rinboyev 1936 yilda Samarqand viloyatida tug'ildi. 1950-1954 yillarda Samarqand shahrida pedagogika bilim yurtida o'qidi. 1954-1959 yillarda Alisher Navoiy nomidagi SamDUda ta'lim oldi.

Olim 1964 yil "Hozirgi o'zbek adabiy tilida vokativ kategoriya mavzusida nomzodlik, 1976 yilda esa "O'zbek so'zlashuv nutqi sintaksis masalalari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

B. O'rinboyev nafaqat ilm yo'lida, balki jamoatchi, rahbar sifatida ham barakali va samarali mehnat qildi. U maktab direktori, SamDPI va Jizzax DPI rektori, Jizzax shahri "Bilim" jamiyati raisi, Jizzax shahar kengashining deputati, SamDU ilmiy kutubxonasining bosh direktori kabi qator lavozimlarda ham faollik ko'rsatdi.

B. O'rinboyev o'zbek tilining dolzarb muammolariga oid o'nlab jiddiy tadqiqotlar yaratdi. Bular: 1. «Hozirgi o'zbek tilida vokativ kategoriya» (1972). 2. «O'zbek tili so'zlashuv nutqi sintaksisi masalalari» (1974). 3. «Синтаксический строй узбекской разговорной речи» 4. «So'zlashuv nutqi» (1979). 5. «O'zbek so'zlashuv nutqi» (1982). 6. «O'zbek adabiy tili tarixi» (hamkor, 1982). 7. «Notiqlik mahorati» (hamkor, 1984). 8. «Turkiy filologiyaga kirish» (1989). 9. «Badiiy tekstning lingvistik tahlili» (hamkor, 1990). 10. «Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi» (hamkor, 1991). 11. «Funksional uslubiyat va uning mohiyati» (1992). 12. «O'zbek adabiy tili tarixi» (hamkor, 1995). 13. «Samarqand viloyati toponimlarining izohi» (1997). 14. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (2001). 15. «Asrlardek barhayot nomlar» (2003). 16. «Tilshunoslik nazariyasi» (2004). 17. «Hozirgi o'zbek adabiy tilida sintaktik munosabatlar» (2005) va boshqalar.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, prof. B.O'rinboyev o'zbek tilining sintaksisi, til tarixi, nutq madaniyati, uslubshunoslik va toponimika sohalarida barakali ijod qilgan va ushbu sohalarining shakllanishi hamda rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shgan taniqli olimdir.

## Hamid Ne'matov

Hamid Ne'matov uchinchi avlod o'zbek tilshunoslarining sardori, ma'ruf olim, o'tkir nazariyotchi va amaliyotchi, ham diaxron, ham synchron tilshunoslikning eng yetuk vakillaridan biri, o'zbek tilshunosligining Ivan Boduen de Kurtenesidir.

Hamid Ne'matov 1941 yilda Buxoro shahrida ziyoli oilada tug'ildi. 1950-1960 yillarda maktabda o'qidi. 1961-1966 yillarda Peterburg universitetining sharq fakultetida ta'lim oldi. Ustozlari mashhur olimlar: akademik A.N.Kononov va professor S.N. Ivanovlardir.

1967-1970 yillarda Peterburg universitetining aspirantu-rasida bilim oldi. 1970 yilda akademik A.N.Kononov rahbarligida «Devoni Toshg'ariy» materiallari asosida fe'l morfologiyasi» mavzusida monografiya yozildi, 1978 yilda «Морфология восточно – тюркского языка XI – XII вв.» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1982-yilda professor unvoni berildi.

Prof. H.Ne'matov ulkan tilshunos olim sifatida o'zbek tilshunosligidagi yangiliklarga va ona tili bo'yicha ta'lim sistemasidagi, ta'lim yo'nalishidagi ishlarga rahbarlik qildi va ushbu jarayonda o'zi ham faol qatnashdi, g'oyaviy rahnamo bo'ldi.

H.Ne'matov 1991 yildan shu kungacha amalda va e'tiborda bo'lgan «O'zbek tili doimiy anjumani» (O'TDA)ning asoschisi, tashkilotchisi va raisi hamdir.

U ona tili ta'limi bo'yicha amalda bo'lgan qator konsepsiya, dastur, darslik, qo'llanma va ilmiy – nazariy ishlarning muallifidir.

H. Ne'matovning, ayniqsa, «Buxoro tilshunoslik maktabining shakllanishi va rivojida»<sup>67</sup>gi xizmatlari kattadir.

H. Ne'matov o'zbek tilshunosligida ikki muhim g'oyani ilgari surdi: 1. Til va nutqni farqlash. 2. Ilmiy izlanish va tadqiqotlarda dialektik falsafaga uning qonun va kategoriyalariga asoslanish, til va nutq hodisalarining mohiyatini (substansiyani) ochish.

Alloma o'zining butun ijodi davomida qayd etilgan ikki muhim g'oyaga amal qilmoqda, uni rivojlantirmoqda, shogirdlaridan ham talab qilmoqda. Anig'i, ushbu g'oyalarga asoslangan maktab yaratdi.

Olim nafaqat tilshunos sifatida, balki filolog, turkolog sifatida respublikada va undan tashqarida-hamdo'stlik davlatlarida, Turkiya, Rossiya va boshqalarda ham tanqididir. U islom falsafasini ham

<sup>67</sup> K. Nazarov. Исследования олим. Тухфа. –Т.. 2001, 14-бет

mukammal biluvchi va lisoniy hodisalarga asosli hamda ishonarli tatbiq qiluvchi shaxsdir.

Prof H.Ne'matov tilshunoslikning deyarli barcha sohalari bo'yicha barakali ijod qilib kelmoqda. Asarlari: 1. «Махмуд Кашгарский в тюркских языках» (hamkor). «История лингвистических учений Средневековый Восток. (1981). 2. «Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI – XII вв». (1989). 3. «O'zbek tili tarixiy fonetikasi.»( 1992). 4. «Til va nutq» (hamkor, 1993). 5. «O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari» (hamkor, 1995). 6. «Ona tili ta'limi mazmuni» (hamkor, 1995). 7.«O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari» (hamkor, 1999). 8. «Lingvistik tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari» (2006). 9. 5-9 sinflar uchun yaratilgan qator ona tili darsliklari va boshqalar. Shuningdek, «Tilshunoslik tarixiga hamda hozirgi o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalariga, ona tili ta'limi mazmuniga bag'ishlangan 300 dan ortiq ilmiy, ilmiy-metodik maqolalari»<sup>68</sup> fanimizga – uning rivojiga barakali xizmat qilmoqda. Shu o'rinda «O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari» asari haqida prof A.Nurmonovning quyidagi fikrini keltirish ayni muddao: «Hamid Ne'matov va R.Rasulovlarning «O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari» kitobining nashr qilinishi faqat o'zbek tilshunosligida emas, balki butun turkiyshunoslikda katta voqea bo'ldi».<sup>69</sup> Chunki ushbu ish turkiy tilshunoslikda – turkiy leksikologiyada ilk fundamental tadqiqot sifatida katta ahamiyatga egadir.

### Abduhamid Nurmonov

Abduhamid Nurmonov yirik o'zbek tilshunoslaridan biri, keng qamrovli, sermahsul olim, filologiya fanlari doktori (1983), professor (1984).

Abduhamid Nurmonov 1942 yilda Andijon viloyatining Baliqchi tumanida tug'ildi. 1958 yilda maktabni tugatdi. 1958–1963 yillarda Farg'ona davlat pedagogika institutida o'qidi. 1973 yilda professor M.Mirtojiyev rahbarligida «O'zbek tilida fonetik o'zgarishlardagi tejamkorlik prinsiplari» mavzusida nomzodlik, 1983 yilda «O'zbek tili sintaksisini sistem tadqiq qilish muammolari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

<sup>68</sup> Э Умаров., А.Пардася «Хамид Гуломович Ньматов». Тухфа. –Т., 2001, 20-бет

<sup>69</sup> A.Nurmonov. O'sha asar, 220-бет.

Prof A. Nurmonov o'zbek tilshunosligining fonetika – fonologiya, morfologiya, sintaksis, leksikografiya, tilshunoslik tarixi va naza-riyasi bo'yicha qator mukammal asarlar yaratgan, maktablar uchun ona tili darsliklarini nashr qildirgan yetuk olimdir. Uning asosiy asarlari: 1. «Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка» (1982). 2. «Gap haqida sintaktik nazariyalar» (1988). 3. «O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi» (hamkor, 1991). 4. «O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi» (hamkor, 1992). 5. «O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis» (hamkor, 1995). 6. «O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya» (hamkor, 2001). 7. «Tilshunoslik va tabiiy tinnlar» (2001). 8. «Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati» (hamkor, 2001). 9. «O'zbek tilshunosligi tarixi» (2002). 10. «Struktur tilshunoslik: idizlari va yo'nalishlari» (2006). 11. Lingvistik belgi nazariyasi (2008) va boshqalar.

Quyidagi etilgan manbalardan ma'lumki, olim, asosan, o'zbek tili nazariy grammatikasi – sintaksisi yo'nalishida barakali ijod qilgan, muhim tadqiqotlar yaratgan, o'z asarlari bilan ayni sohaning sifatli rivojlanishiga, sintaksisning formal – semantik yo'nalishiga, uning «o'sishiga» katta hissa qo'shgan tilshunosdir. Umuman, u o'zbek tili sintaksisini sistema sifatida tadqiq etishda faollik ko'rsatgan olimlardan biridir.

A. Nurmonovning o'zbek tilshunosligidagi katta xizmatlaridan yana biri tilshunosligimiz tarixiga oid fundamental tadqiqotning – «O'zbek tilshunosligi tarixi» nomli o'quv qo'llanmasining yara-tilishidir. Antiqrog'i, katta va og'ir mehnat evaziga yaratilgan ushbu asar o'zbek tilshunosligida muhim voqea bo'ldi. Chunki hozirgacha 9-asrdan – salifalik davridan boshlab, to shu kungacha izchillik asosida, bosqichma - bosqich, birma - bir tilshunosligimiz tarixi va taraqqiyotini sinchikovlik bilan aks ettirgan, bayon qilgan jiddiy tadqiqot yo'q edi. Muallifning so'zi bilan aytganda, «Aslida o'zbek tilshunosligi o'zining uzoq tarixiga ega. Tilshunoslik sohasida qalam tebratgan allomalarimiz o'zlarigacha bo'lgan jahon olim-larining ilmiy merosidan bahramand bo'lishlari bilan birga jahon tilshunosligining ravnaqi uchun ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

Ayniqsa, tilshunoslikning falsafiy masalalarini hal etishda, fone-ma va harf munosabatini belgilashda, lisoniy birliklarning mazmu-niy tomonini yoritishda, uzviy tahlil usulining paydo bo'lishida, alfavit va mazmuniy maydon asosidagi lug'atlar tuzish tamoyil-larining belgilanishida o'zbek tilshunoslarining xizmatlari katta.

Ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosni o'rganish, ular yaratgan olamshumul ilmiy kashfiyotlarni ro'y-rost bayon qilish imkoniyati faqat mustaqillik tufayliga vujudga keldi.

Ana shu imkoniyatdan foydalangan holda o'tmish madaniy merosimizni sinchiklab o'rganish, ajdodlarimizning dunyo tilshu-nosligiga qo'shgan xizmatlarini faxr – iftixor tuyg'usi bilan keng omma o'rtasida targ'ib va tashviq qilish har bir o'zbek ziyolisining eng shavqli-zavqli ishiga aylanmog'i lozim<sup>70</sup>. Biz ham shu fikrdamiz.

### Ravshanxo'ja Rasulov

Ravshanxo'ja Rasulov istiqlol davri o'zbek tilshunosligining taniqli vakili, sermahsul nazariyotchi olim, filologiya fanlari doktori (1989), professor (1990).

Ravshanxo'ja Rasulov 1946 yilda Toshkent shahrida tug'ildi. 1965 yilda maktabni tugatdi. 1965–1970 yillarda O'zMU (sobiq ToshDU)ning o'zbek filologiyasi fakultetida o'qidi.

U 1975 yilda «Alpomish» dostonida so'zlar orasidagi sintaktik munosabatning ifodalanishi» mavzusida nomzodlik, 1989 yil «O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning valentligi» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

R.Rasulov o'zbek tilshunosligining leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya, sintaksis, umumiy tilshunoslik, nutq madaniyati va o'zbek tili fanlari bo'yicha fundamental tadqiqotlar yaratgan olimdir.

Uning asosiy asarlari: 1. «O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari» (1989). 2. «O'zbek tili fe'llarining semantik strukturasi» (1-qism, 1990). 3. «Глаголы состояния в узбекском языке и их валентность» (1991). 4. «Leksikologiyani o'rganish» (hamkor, 1992). 5. «O'zbek tili fe'llarining semantik strukturasi» (2-qism, 1993). 6. «O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari» (hamkor, 1995). 7. «O'zbek tili tasviriy ifodalarining izohli lug'ati» (hamkor, 1997). 8. «O'zbek tili fe'llarining ma'no tuzilishi» (2001, 2005). 9. «O'zbek tili» (hamkor, 2004). 10. «Nutq madaniyati» (hamkor, 2004). 11. «O'zbek tili» (hamkor, 2005, 2006). 12. «Umumiy tilshunoslik. Tilshunoslik tarixi. 1-qism» (2005). 13. «Umumiy tilshunoslik. Tilshunoslikning nazariy masalalari. 2-qism» (2006). 14. «Nutq madaniyati va notiqlik san'ati» (hamkor, 2006). 15. «Umumiy tilshunoslik» (2010). «O'zbek tili

<sup>70</sup> A.Nurmonov. O'sha asar. 223-bet.

fe'llarining ma'no tuzilishi». 2-nashri (2010), «O'zbek diplomatik nutqi» (hamkor, 2015) va boshqalar.

Prof. Ravshanxo'ja Rasulov turkologiyada holat fe'llariga oid qator monografiyalarida ilk bor ushbu fe'llarni ilmiy - nazariy va falsafiy jihatdan mukammal o'rganib chiqdi. Mazkur fe'llarning ma'no tuzilishini komponent tahlil usuli asosida tekshirib, ularning ichki LSGlarini aniqlab, bu guruhga kiruvchi fe'llarning har birini ta'rifladi, tavsifladi. Shuningdek, ayni holat fe'llarining valentlik imkoniyatlarini ham chuqur yoritib berdi. Shunga ko'ra, o'zbek tilshunosligida sistem leksikologiyaning va sistem sintaksisning shakllanishi va keng quloch yoyishi uchun mustahkam zamin yaratdi.

Olimning ustози prof. H.Ne'matov hamkorligi va rahbarligida yaratilgan «O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari» asarida turkiy tilshunoslikda ilk bor jahon sistem – struktur tilshunosligining eng yaxshi jihatlari o'zining aniq ifodasini topdi. Shuningdek, tadqiqotda shu kungacha o'zbek leksikologiyasida erishilgan yutuqlar umumlashtirildi, chuqurlashtirildi<sup>71</sup>, bir butun holda kitobxonga taqdim etildi.

Olim nazariy-falsafiy yo'nalishdagina emas, balki amaliyot bilan bog'liq – shu kungi til siyosatining dolzarb masalalaridan biri bo'lgan davlat tilini o'rganish borasida ham asarlarga e'tibor berib kelmoqda. Aniqrog'i, hamkorlikda oliy o'quv yurtlari hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining rus guruhi talabalari uchun lotin yozuvida «O'zbek tili» darsligi va o'quv qo'llanmasi nashr qilindi.

R. Rasulovning shogirdi bilan hamkorlikda yaratgan tilimiz boyligini namoyon etuvchi parafrazalarning izohli lug'ati ham bo'lib, ushbu asar shu yo'nalishdagi dastlabki tadqiqot sifatida e'tiborga loyiqdir.

R. Rasulovning istiqloq davri o'zbek tilshunosligidagi jiddiy va muhim yutuqlaridan biri uning "Umumiy tilshunoslik" darsligidir. Oliy o'quv yurtlarining o'zbek filologiyasi fakulteti talabalari uchun nihoyatda zarur bo'lgan, yosh tilshunoslarni nazariy jihatdan tayyorlash, jahon tilshunosligi tarixidan va tadqiqot metodlaridan xabardor qilish uchun xizmat qiladigan mazkur manba juda zarur vaqtda yaratildi. Negaki, sobiq ittifoq davrida murakkab ilmiy-nazariy, falsafiy fan bo'lgan umumiy tilshunoslik bo'yicha manbalar o'zbek tilshunosligida barmoq bilan sanoqli darajada edi. Anig'i, ushbu soha o'quv adabiyotlariga bo'lgan talab, ehtiyoj juda katta edi. Shak-shubhasiz, R. Rasulov tomonidan nazariy tilshunoslik bo'yicha yaratilgan, istiqloq davri tilshunosligimizda

<sup>71</sup> Qar: A.Nurmonov. O'sha asar. 188 - bet.

dastlabki mukammal manba bo'lgan mazkur ish kelgusida shu yo'nalishda yaratiladigan qator darslik va qo'llanmalar uchun poydevo vazifasini o'tashi aniq.

### Ibodulla Mirzayev

Ibodulla Mirzayev o'zbek lingvopoetikasining sardori, tarjimon, shoir, filologiya fanlari doktori (1992), professor (1994).

I. Mirzayev 1946 yilda Surxondaryo viloyatida tug'ilgan. 1962 yilda o'rta maktabni, 1967 yilda Alisher Navoiy nomli SamDUni, 1974 yilda Peterburg universiteti aspiranturasini, 1989 yilda ushbu ilm dargohining doktoranturasini tugatdi.

O'zMUDA, SamDUda, Peterburg universitetida, MDUda, Moskva jahon tillari universitetida va Fransiyada malaka oshirish kurslarida bilimini oshirdi.

Olim 1992 yilda taniqli turkolog prof. S. N. Ivanov ilmiy maslahatchiligida "She'riy matnning lingvopoetik talqini muam-molari" (hozirgi o'zbek she'riyati asosida) mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Ushbu ish turkiy tilshunoslikda she'riy matnga - she'riy nutqqa bag'ishlangan ilk tadqiqot, birinchi tajriba sifatida she'riy qofiyalarning leksik-morfologik tarkibi tahliliga, qofiyalarning semantik shakllanishiga oidligi va ushbu hodisalarga yangicha qarash asosida yozilganligi bilan muhimdir, o'ziga xosdir.

I. Mirzayev tilshunoslikka, adabiyotshunoslikka, tarjima nazariyasiga, she'riyatga oid qator jiddiy tadqiqotlar yaratdi. Bular: 1. "Слова – реалии и вопросы художественного перевода" (1982). 2. "Prof. S. N. Ivanov. Bibliografik ko'rsatkich" (1982). 3. "Fransuzcha maqol va matallarning o'zbekcha muqobillari" (1982). 4. "Fransuzcha xos so'zlar va badiiy tarjima masalalari" (1983). 5. "Qofiyaning leksik va morfologik xususiyatlari" (1984). 6. "Лексические и морфологические средства формирования семантики рифмы" (1990). 7. "Fransuzcha – o'zbekcha lug'at" (hamkor). 8. "Gak V. G. Fransuz tilining nazariy grammatikasi" (2002). 9. "Yakobson R. Poetika masalalari" (2004). 10. "Talpinib yashadim senga, quyoshim" (2004). 11. "Ivanov S. N. Grammatik tadqiqotlarning metodologik muammolari" (2004). 12. "Lingvistik tahlil metodlari" (2006). 13. "Lotman YU. M. Poetik matn tahlili." 14. "She'r tuzilishi" (2006). 15. "E. E. Bertels. Sufizm va tasavvuf adabiyoti" (2006). 16. "Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy dostoni" (2006). 17.

"Nurlar og'ushida" (2006) Ф.дў Соссюр. Умумий тилшунослик курси (2018) va boshqalar.

I. Mirzayev akademiklar E. E Bertels, Yu. M. Lotman, L. V. Sherba, professorlar: Ivan Boduen de Kurtene, V. Kudryavsev, A. Bogoroditskiy, S. Karsevskiy, S. Ivanov, V. Gak, I. Kovtunova, Djon Layonz, L. Blumfeld, V. Gumboldt, F. de Sossyur kabi jahonga tanilgan olimlarning tadqiqotlari hamda K. Batyushkov, A. Pushkin, Yu. Lermontov, A. Blok, N. Nekrasov, S. Yesenin, A. Axmatova, M. Svetayev, Mopassan, A. Kamyu, Sh. Bodler, Apolliner, Edgar Po va boshqalarning nazm va naʼrdagi asarlarini tarjima qilib, o'zbek kitobxoniga taqdim etgan.

I. Mirzayev Markaziy Osiyoga birinchi bo'lib lingvopoetikani olib kirdi, MDH mamlakatlarida ilk bor oliy o'quv yurtlarida adabiyotshunoslik va tilshunoslikni birlashtirib, mutlaqo yangi ta'limiy yo'nalishga va filologik ilmiy tarjimaga asos solgan lisoniy qamrovi keng poliglott olimdir.

### Abdi Mamatov

Abdi Mamatov mustaqillik davrida yetishgan sermahsul izlanuvchan tilshunos olim, filologiya fanlari doktori (1991), professor (1994).

Abdi Mamatov 1947-yilda Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida tug'ildi. 1965 yilda maktab-internatni tugatdi. 1965-1970 yillarda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining chet tillar fakultetida ta'lim oldi.

U 1978 yilda Peterburg (Leningrad) davlat universitetida "Стилистические функции фразеологических единиц в современном французском языке" mavzusida nomzodlik, 1991 yilda "Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

A. Mamatovning ilmiy tadqiqotlari adabiy til normasi, nutq madaniyati masalalari, frazeologiya, stilistika, etnolingvistika va motsiolingvistika kabi sohalarga bag'ishlangan. Uning asosiy asarlari: 1. "Очерки по французской фразеологической стилистике" (1989), 2. "Til normasi va nutq madaniyatiga oid ishlarning bibliografik ko'rsatkichi" (1989, 2 qismdan iborat), 3. "Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari" (1990), 4. "Til normasi va nutq madaniyatiga doir atamalar izohi" (1990), 5. "Adabiy norma nazariyasi" 1-qism (1998), 6. "Adabiy norma nazariyasi" (adabiy norma tiplari), 2-qism (2001), 7. "Adabiy norma nazariyasi" (adabiy norma yashashining



qonuni-yatlari), 3-qism, (2002), 8. "История и теория языковой нормы" (2006) va boshqalar.

A. Mamatovning ilmiy ishlarida tilshunoslik fani uchun juda muhim quyidagi masalalar batafsil yoritilgan:

1. "Norma", "kodifikatsiya", "sistema", "uzus" tushunchalarining o'zaro bog'liqligi muammolari;
2. Til normasi tushunchasining boshqa lingvistik va gumanitar fanlar bilan aloqadorligi masalalari;
3. Adabiy til va dialektlarning o'zaro munosabati masalalari;
4. Milliy til va uning ijtimoiy, etnik muammolari;
5. Adabiy til normasi va leksik-frazeologik normadan chetga chiqishlarning tiplari, sabablari va omillari kabilardir.

Olim til normasining tabiatini izchil o'rgana borib, asosiy diqqatni tilning ijtimoiy ahamiyatiga qaratadi va til normasi ma'lum bir til jamiyatining estetik idealidir, degan xulosaga keladi. Chunki, olimning fikricha, tilning estetik va normativ aspektlari juda yaqin, chambarchas dialektik bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Uning fikricha, adabiy normaning eng asosiy mezonlari quyidagilardir: kodifikatsiyalanganlik, stabillik (turg'unlik), variantdorlik (muqobildorlik), dinamiklik (rivojlanuvchanlik), umummajburiylik, reglamentatsiya qilinganlik kabilardir.

A. Mamatov o'zbek tilshunosligida, asosan, frazeologiya muammolariga alohida e'tibor berdi. U ilmiy izlanishlarida frazeologik norma, frazeologik norma va frazeologik variant munosabati kabi jiddiy masalalarni chuqur o'rgandi, puxta tadqiq qildi.

#### Nizomiddin Mahmudov

Nizomiddin Mahmudov hozirgi o'zbek tilshunosligining yirik peshqadam vakili, sermahsul olim, filologiya fanlari doktori (1984), professor (1985).

Nizomiddin Mahmudov 1951 yilda Farg'ona viloyatining Yangiqo'rg'on tumanida tug'ildi. 1968 yilda maktabni tugatdi. 1969-1974 yillarda O'zMU (sobiq ToshDU)ning filologiya fakultetida ta'lim oldi.

U 1978 yilda prof M.Mirtojiyev rahbarligida «O'zbek tilida ellipsis» mavzusida nomzodlik, 1984 yilda «O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik - sintaktik asimmetriya» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

U Mahmudov o'zbek tilshunosligining, asosan, sintaksis, leksikologiya, leksikografiya, sotsiolingvistika, nutq madaniyati kabi yo'nalishlari bo'yicha qator tadqiqotlar yaratgan, ona tili bo'yicha ilmiy asarlar e'lon qilgan olimdir. Uning asosiy asarlari: 1. «O'zbek tilidagi so'zlar va gaplarda semantik va sintaktik asimmetriya» (1984). 2. «Yozuv tilsidan qisqacha lug'at – ma'lumotnoma» (1990). 3. «Til va ma'naviyat» (hamkor, 1992). 4. «O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi» (hamkor, 1992). 5. «Turkcha - o'zbekcha, o'zbekcha - turkcha lug'at» (hamkor, 1993). 6. «O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis» (hamkor, 1995). 7. «O'zimiz va so'zimiz» (1997). 8. «Til» (1998). 9. «Ma'rifat manzillarida» (2000). 10. «O'zbek tilida ish yuritish» (hamkor, 2001). 12. «Ona tili» (hamkor, 2004). 13. «O'qituvchi nutqi madaniyati» (2007) va boshqalar.

O'zbek tilshunosligida – sintaksisida formal – semantik yo'nalishning yetakchilaridan biri bo'lgan N. Mahmudov sotsiolingvistika sohasida ham barakali ijod qilib kelmoqda. Aniqrog'i, o'zbek filologiyasida «Mustaqillik sharofati bilan lingvistik jurnalistika deb nomlash mumkin bo'lgan alohida yo'nalish vujudga keldi». <sup>72</sup> Prof. N. Mahmudov ushbu yo'nalishning shakllanishiga va taraqqiyotiga katta hissa qo'shib kelayotgan olimdir.

U millat ko'zgusi, hayot ko'zgusi bo'lgan ona va ota tilimizning sofliги uchun, o'ziga xosligi uchun, tilimiz tabiatiga xos imkoniyatlarining, tilimiz boyligining namoyon bo'lishi uchun astoydil xizmat qilayotgan tilshunos hamdir. Uning tilimiz boyligini, qudratini madh etuvchi qator asarlari buning guvohidir.

Mustaqillik tufayli tilimiz erkinligi, ravnaqi uchun keng imkoniyatlar yuzaga kelganligini sotsiolingvistik tadqiqotlarida ta'kidlab kelayotgan olim shunday deydi «Yaqin o'tmishimizda ona so'z, demakki, millat, xalq qaddini ham qilmoq yo'lida qilingan urinishlar istiqlol sharofati bilan tarix qa'riga kirib bo'ldi. O'zimiz ham ozod bo'ldik, so'zimiz ham ozod bo'ldi. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida munavvar va muhtasham manzil sari o'z yo'lida shitob bilan bormoqda, o'zbek tili ana shunday davlatning mustaqil tili sifatida kamol topmoqda». <sup>73</sup>

<sup>72</sup> A. Nurmonov. O'sha asar, 222-bet.

<sup>73</sup> N. Mahmudov. UZIMIZ VA SO'ZIMIZ. T., 1997 3-bet.

**Mustahkamlash uchun savollar:  
Questions for Consolidation:**

1. O'zbek tilshunos olimlaridan kimlarni bilasiz?  
Who do you know from Uzbek linguists?
2. Ayub G'ulomov kim va uning qanday asarlarini bilasiz?  
Who was Ayub Gulam and what works by him do you know?
3. Said Usmonov kim va uning tilshunoslik nazariyasiga bag'ishlangan qanday asari mavjud?  
Who was Said Usmanov and what works by him do you know?
4. Shavkat Rahmatullayev kim va uning etimologiyaga oid qanday asari bor?  
Who is Shavkat Rahmatullaev and what works by him on etymology do you know?
5. Azim Hojiyev kim va uning qanday asarlarini bilasiz?  
Who was Azim Khajiev and what books by him do you know?
6. Ernst Begmatov kim va u tilshunoslikning qaysi sohasiga asos soldi?  
Who is ernst Begmatov and what field of linguistics did he found?
7. Hamid Ne'matov kim va u o'zbek tilshunosligida qanday nazariy g'oyalarni ilgari surdi?  
Who is Hamid Ne'matov what linguistic ideas did he advance in Uzbek linguistics?
8. Abduhamid Nurmonov kim va uning qanday asarlarini bilasiz?  
Who is Abduhamid Nurmonov and what books by him do you know?
9. Ravshanxo'ja Rasulov kim va uning qanday asarlarini bilasiz?<sup>74</sup>  
Who is Ravshankhuja Rasulov and what works by him do you know?

<sup>74</sup> Tadqiqotning hajm taqozosiga va olimlar haqida axborot topish muammosiga ko'ra VI bo'limga qayd etilgan tilshunoslarning barchasi haqida ma'lumot berish imkoni bo'lmadi. Shunga ko'ra, har bir avlod tilshunolaridan vakillar keltirish bilan cheklandik.

## XULOSA

Jahon tilshunosligi tarixi bir ummonki, undan imkoniyatga, talab va maqsadga ko'ra xabardor bo'lish, shu yo'nalishda bilimga ega bo'lish, undan foydalanish va tadqiqotlarda ushbu «ummonga» asoslanish har bir jiddiy tadqiqotchi uchun, tilshunos uchun sharaftir. Chunki tilshunoslik fanining kelajagi aslida tilshunoslik tarixidan, lisoniy bitmas-tuganmas xazinadan boshlanadi. Shuningdek, tilshunoslikning ilmiy-nazariy muammolarining asosi, poydevori ham mantiqan tilshunoslik tarixidadir. Ayni tarixni mukammal bilmasdan, uni tasavvur qilmasdan, uni anglamasdan turib, tilshunoslikning nazariy - falsafiy masalalari haqida fikr yuritish maqsadga mutlaqo muvofiq emasdir, diletantlikdir.

## IKKINCHI QISM

### TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI

#### Lingvistika va uning turlari

Lingvistika termini qator Yevropa mamlakatlari: ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus va boshqa tillarda faol qo'llanilib, til haqidagi fanni anglatadi. Ushbu so'zning o'zagi lingua bo'lib, til degan ma'noni beradi. Binobarin, lingvistika terminining o'zbek tilidagi muqobili, ma'nodoshi tilshunoslik bo'lib, ular o'zaro sinonimik munosabatga kirishadi.

Lingvistika yoki tilshunoslik fani o'ziga xos murakkab ijtimoiy hodisa bo'lgan aloqa qurolini – tilni sistema sifatida – bir butun obyekt sifatida tadqiq va tahlil qiladi. Ayni jarayonda u turli ko'rinishlarda, shakllarda kuzatiladi. Bu ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan tilning mohiyatidan, uni turli tomondan o'rganish, tekshirish lozimligidan va bu ilmiylik nuqtayi nazaridan mutlaqo to'g'ri ekanligidan kelib chiqadi.

Lingvistika nihoyatda qudratli ma'naviyat belgisi, millat boyligi bo'lgan tilni o'rganish jarayonida quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Dinamik lingvistika.
2. Statik lingvistika.
3. Atomistik lingvistika.
4. Struktural lingvistika.
5. Sinxron lingvistika.
6. Diaxron lingvistika.
7. Intralingvistika.
8. Ekstralingvistika.
9. Makrolingvistika.
10. Mikrolingvistika.
11. Paralingvistika.
12. Psixolingvistika.
13. Sotsiolingvistika.
14. Etnolingvistika.
15. Matematik lingvistika.
16. Lingvistik geografiya (lingvogeografiya).
17. Neyrolingvistika.
18. Kompyuter lingvistikasi.

19. Kognitiv lingvistika.

20. Pragmalingvistika.

21. Lingvokulturalogiya.

1. **Dinamik lingvistika.** Dinamik lingvistika, asosan, tilni real mavjudligida, kommunikativ jarayonda turlicha vazifalarni faol bajarishda, «taraqqiyotda», o'zgarishda tadqiq qiladi.

2. **Statik lingvistika.** Statik lingvistika til faoliyatidagi to'liq muayyan davrda bo'lgan muayyan bir davrni (bo'lakni) ajratadi va uni tasvirlaydi. Tilshunoslikning ushbu sohasi, dinamik lingvistikadan farqli, tildagi o'zgarish va o'zgarish jarayonidan mutlaqo chetlashgan, unga yaqinlashmagan holda tilning hozirgi – zamonaviy davri bilan bog'liq ma'lum bir «qotgan» qismini – holatini tekshiradi.

3. **Atomistik lingvistika.** Atomistik lingvistika diqqat-e'tiborini har bir individual til birliklarining taraqqiyotini, o'sishini alohida o'rganishga qaratadi.

4. **Struktural lingvistika.** Struktural lingvistika til sistemasidagi ichki munosabat va aloqalarni tadqiq qiladi. U til sistemasining struktural qatlamlari (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlari) orasidagi o'zaro tabiiy, zaruriy bog'liqliklarni, munosabatlarni o'rganadi.

5. **Sinxron lingvistika.** Sinxron lingvistika statik va struktural lingvistika bilan uzviy bog'liq bo'lib, tilning ma'lum bir davrdagi «qotgan», «turg'un» holatini tasvirlashga xizmat qiladi.

6. **Diaxron lingvistika.** Diaxron lingvistika dinamik va atomistik lingvistika bilan uzviy bog'liq bo'lib, tilning taraqqiyot, til birliklarining esa rivojlanish qonuniyatlari hamda natijalarini o'rganadi.

7. **Intralingvistika (ichki lingvistika).** Ichki lingvistika til birliklarining sistem aloqasini, munosabatini ekstralingvistik faktorlarga bog'liq bo'lmagan holda o'rganadi. Ichki lingvistikaning tadqiqot manbai bo'lib fonologiya, leksikologiya va grammatika hisoblanadi.

8. **Ekstralingvistika (tashqi lingvistika).** Tashqi lingvistika tilning taraqqiyoti va vazifasini ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-tarixiy, etnik, jo'g'rofiy kabi faktorlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Shunga ko'ra, ushbu lingvistika tilni ijtimoiy hodisa sifatida tekshiradi.

9. **Makrolingvistika.** Makrolingvistika tilni keng doirada, «katta hajmda» olib, uni statistik usullar asosida tadqiq qiladi. Aniqrog'i, ushbu soha tilni statistik usullar orqali tahlil qiladi.

**10. Mikrolingvistika.** Mikrolingvistika til sistemasi tarkibidagi (strukturasidagi) aloqalar, o'zaro munosabatlar va qarama-qarshiliklarni o'rganadi.

**11. Paralingvistika.** Paralingvistika bevosita nutq faoliyati bilan bog'liq bo'lib, nutq jarayonida fikr ifodalash bilan bir vaqtda yuzaga keluvchi, so'zlashuv nutqining doimiy hamrohi bo'lgan qo'l va yuz harakatlarini (imo-ishora, mimika), nutqning balandligi, ekspressiv-emotsional bo'yoq kabi qator jihatlarni o'rganuvchi sohadir.

**12. Psixolingvistika.** Psixolingvistika psixologiya va lingvistika fanlarining umumlashmasi (sintezi) sifatida nutq jarayonini mazmun nuqtayi nazaridan, kommunikativ ahamiyati, nutq aktining muayyan ijtimoiy-amaliy maqsadga yo'naltirilganligi, shunga muvofiqligi jihatidan o'rganadi. U nutqdagi – fikr ifodalashdagi shakl va mazmun birligiga alohida e'tibor beradi.

Psixolingvistika lisoniy imkoniyatlar asosida nutqiy birliklarni hosil qilish va qabul qilish, nutq jarayoni (fikr almashtirish-ifodalash va anglash)da ruhiy holatlarga, bunda sharoit (situatsiya), o'xshashlik (analogiya), farqlash (differentsiatsiya), ta'sirchanlik, so'zlovchi va tinglovchi ruhiy holati masalalariga alohida e'tibor beradi.

**13. Sotsiolingvistika.** Sotsiolingvistika sotsiologiya va lingvistika fanlarining zaruriy va mantiqiy bog'liqligidan hosil bo'lib, jamiyat va til (til va jamiyat) munosabati masalasi bilan shug'ullanadi. U tilni ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan sotsiolingvistikaning eng muhim, asosiy muammosi tilni - til tabiatini ijtimoiy hodisa sifatida tekshirish, uning jamiyatdagi, tilshunoslik fanidagi o'rni va ahamiyatini belgilashdir.

Sotsiolingvistika, asosan, til va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy hayot, taraqqiyot hodisalari, faktlari o'rtasidagi bog'liqlikni, ushbu bog'liqlikning sabablarini o'rganadi. Anig'i, mazkur soha jamiyatning yashash va rivojlanishida tildagi ijtimoiy hayot, ya'ni, tashqi-ekstralingvistik faktorlarning (omillarning) ta'siri natijasida hosil bo'lgan hodisalarni, jarayonlarni, o'zgarishlarni tahlil qilib boradi. Demak, sotsiolingvistika ijtimoiy faktorlarning tilga qanday ta'sir qilishi, til sistemasida (strukturasida) qanday namoyon bo'lishi, qanday shaklda aks etishi kabilarni tadqiq qiladi.

Ushabnamiz, sotsiolingvistika statistik ma'lumotlar, aholi ro'yxati va boshqa ma'lumotlari metodikasi bilan o'z faoliyatini kengaytirib boradi<sup>75</sup>.

**14. Etnolingvistika.** Etnolingvistika etnografiya va lingvistika bilimlarining o'zaro munosabatidan shakllanib, etnik belgi bo'lgan tilga xalq tarixiy taraqqiyotining, rivojlanishining, xalq turmush, urf-odatlarining, moddiy va ma'naviy madaniyatining ta'sirini, ularning tilda ifodalash bo'lishini o'rganadi. Etnolingvistika til va jamiyat munosabatini tadqiq qilishda etnik faktorlarning o'rni, ahamiyati, roli kabilarni aniqlaydi, etnik va lisoniy omillarning o'zaro ta'sirini, bog'liqligini aks ettiradi.

**15. Matematik lingvistika.** Matematik lingvistika tilni o'rganish va tasvirlash jarayonida matematik usullarning (masalan, statistik usul, informatsiya nazariyasi kabilarning) qo'llanish imkoniyatlarini tekshiradi.

**16. Lingvistik geografiya (lingvogeografiya).** Lingvogeografiya har bir alohida lisoniy hodisaning tarqalish chegarasini, hududini aniqlaydigan, belgilaydigan sohasi, yo'nalishi bo'lib, uning ham asosiy tadqiq obyekti dialekt hisoblanadi. Chunki dialekt tarixan tashkil topgan hududiy-territorial birlikdir. Dialekt mahalliy til birligi sifatida o'rganiladi. Lingvogeografiyada dialektlar va shevalar chegarasi butunicha, to'liq aniqlanadi, ayrim fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarning joylashish o'rni belgilanadi hamda tilning dialektal bo'linishi va dialektal tuzilishi aniqlab chiqiladi. Lingvogeografiyaning asosini makon, hudud faktori tashkil qiladi. Chunki lingvogeografiya keng territoriyaga ega bo'lishi, umumlashtirish hajmining kengligi, beqiyosligi bilan dialektologiyadan ajralib turadi.

Lingvogeografiya lingvistik atlaslar, dialektal lug'atlar, ilmiy tadqiqotlar va muayyan territoriyaga oid dialektal matnlar bilan ish ko'radi. Lingvogeografiya dialektologiya asosida, uning bazasida yuzaga kelgan. Lingvogeografiya lingvistik atlaslar, areallar, izoglossalar, til landshafti, irradiatsiya, lingvogeografik kartalar va boshqa terminlar bilan ish olib boradi.

**17. Neyrolingvistika.** Neyrolingvistika neyron va lingvistika so'zlarining o'zaro birikuvidan, qo'shilishidan hosil bo'lib, inson miyasidagi nerv hujayralarining, neyronlarning tilni-so'zlarni hosil qilishdagi vazifasini o'rganadi. Neyron nerv (asab) sistemasining asosiy

<sup>75</sup> В. А. Аврорин. Проблемы изучения функциональной стороны языка (к вопросу о предмете социолингвистики). -Л., 1975, 242-245- betlar.



qismi, tarkibiy elementi sifatida tilni-til va nutq birliklarini yaratishda xizmat qiladi, yetakchi hisoblanadi. Shunga ko'ra, neyrolingvistika inson nerv sistemasi bilan aloqa quroli-til orasidagi uzviy, doimiy, zarur munosabatni yoritadi. Shuningdek, u afatik nutqni, ya'ni, tushunilgan bo'lmaydigan, buzilgan, «kasallangan» nutqni, uning turlarini aniqlash, tasnif qilish, fiziologik nerv sistemasi, nutq faoliyati kabilar doirasida tadqiqot ishlarini olib boradi.

**18. Kompyuter lingvistikasi.** Kompyuter lingvistikasi amaliy tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, uning asosiy maqsadi tilshunoslikka oid muammolarni kompyuter vositasida, bevosita uning "rahbarligida" hal qilishdir. Aniqrog'i, kompyuter lingvistikasi tillarni o'qitish (o'rganish), muayyan fanga oid bilimlarni baholash, matnlarni tahrirlash, bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilish, statistik tadqiqotlar olib borish kabi qator jarayonlarda faol xizmat qilmoqda.

**19. Kognitiv lingvistika.** Kognitiv lingvistika tilshunoslikdagi eng yangi yo'nalishlardan biridir. Ushbu tilshunoslik kognitologiya (inson bilimni o'rganuvchi fan) va lingvistika fanlarining o'zaro zaruriy bog'lanishidan, hamkorlikda ish olib borish maqsadida yuzaga kelgan.

Ma'lumki, insondagi bilimlarning hosil bo'lishida, uning saqlanishi va o'zgaralarga berilishida tilning ahamiyati, o'rni beqiyosdir. Shunga ko'ra, manbalarda kognitiv lingvistikaning asosiy vazifasi sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

1. Insondagi bilimlarning paydo bo'lishida tilning rolini aniqlash.
2. Konseptual sistema bilan til sistemasi o'rtasidagi munosabatni aniqlash.
3. Bilimni konseptualashtirish va kategoriyalashtirish jarayonlarini tushunish.
4. Olamning lisoniy va kognitiv (konseptual) tasvirlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yechish.<sup>76</sup>

Kognitiv lingvistikaning nazariy asosida "tafakkur tilsiz bo'ladi, ammo muloqot paytida u til orqali yuzaga chiqadi, ya'ni, ifoda-lanadi" degan tezis yotadi. Kognitiv lingvistikaning eng asosiy tushunchasi "konsept" tushunchasi bo'lib, u tafakkur birligi hisoblanadi<sup>77</sup>. Konsept – lisoniy birliklar (masalan, so'z, gap, matn kabilar) orqali yuzaga chiquvchi fikrlash jarayoni hodisasi, tafakkur birligi bo'lib, u insonning bilish jarayonining natijasi (hosili)dir. Konsept bizning psixikamizda aks

<sup>76</sup> Ў.Қ. Юсупов. Когнитив лингвистика ҳақида. ЎзМУ. Аюб Ғуломов ва ўзбек тилшунос-луги масалалари. Илмий мақолалар туплами - Т. 2007. 22-бет.

<sup>77</sup> О. Қ. Юсупов. О'sha asar. o' sha bet.

... ob'ektiv borliq predmet va hodisalari haqida juda keng miqyosda ... har tomonlama ma'lumot, tushuncha, tasavvurlarni o'zida ... saqlashi, o'zgalarga yetkazishi (berishi) bilan jamiyat ... predmet va hodisalarga bo'lgan munosabatini qayd etishi ... bilan o'ziga xosdir<sup>78</sup>.

10. **Pragmalingvistika.** Pragmatik lingvistika struktur tilshunoslik ... natijalari asosida shakllangan yangi bosqichdagi fahmiy ... tadqiqotlar, izlanishlar natijasidir. U lisoniy birlikning ... vaziyatini, nutqiy faoliyatini sistema sifatida oladi. Shunga ... muayyan birlikni nutqiy faollikda, voqelanishda, nutqda namoyon ... turli nolisoniy omillar va turli sathlar bilan hamkorlikda, ular ... bog'liqlikda o'rganadi, tekshiradi.

11. **Lingvokulturalogiya.** Lingvokulturalogiya tilshunoslik, mada- ... etilshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari asosida shakllandi. ... madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini ... antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganadi.

Xullas, lingvistika fani umumiylik sifatida, qayd etilganidek, turlicha ... sohalar, sohalar orqali til sistemasini butun mohiyati, murakkabligi ... kommunikativ cheksiz imkoniyatlari bilan tadqiq qiladi. U ayni ... qator fanlar bilan o'zaro aloqada, hamkorlikda ish olib boradi, ... va jamiyat, til va tarix, til va taraqqiyot, til va tafakkur, til va nutq kabi ... murakkab masalalarning yoritilishida faol ishtirok ...

Lingvistika fani jamiyat taraqqiyotining, gullab-yashnashining eng ... eng asosiy, tengi yo'q mezonlaridan biri til - aloqa quroli ... tasdiqlash va isbotlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, u ... ona tili imkoniyatlarini-ayni bir fikmi, narsa-hodisani ... usullar bilan ifodalash yo'llarini yetkazish bilan unda ijodiy ... rivojlantirishga, ona tilida fikrlash va ona tili qurilishining ... xosligi, boshqa tillardan tubdan farq qilishi, olamni «o'zicha» aks ... bilan milliy ong, milliy dunyoqarash, milliy g'urur va ... mustahkam poydevor vazifasini o'taydi.

<sup>78</sup> Qo'sh. qar: O' Q. Yusupov. O'sha asar, 22-24-betlar.

**Mustahkamlash uchun savollar:  
Questions for Consolidation.**

1. Lingvistikaning qanday yoʻnalishlari mavjud?  
What types of linguistics do you know?
2. Struktural lingvistika qanday lingvistika?  
What is Structural Linguistics?
3. Paralingvistika qanday lingvistika?  
What is Paralinguistics?
4. Psixolingvistika qanday lingvistika?  
What is Psycholinguistics?
5. Kompyuter lingvistikasi qanday lingvistika?  
What is Computer Linguistics?
6. Sotsiolingvistika qanday lingvistika?  
What is Sociolinguistics?
7. Kognitiv lingvistika qanday lingvistika?  
What is Cognitive Linguistics?
8. Pragmalingvistika qanday lingvistika?  
What kind of linguistics is Pragmalinguistics?
9. lingvokulturalogiya qanday soha?  
What kind of field is Linguoculturology?

**Asosiy tushunchalar:  
Basic notions:**

1. Lingvistika – tilshunoslik.  
Linguistics is language studies.
2. Struktura – qurilish, tuzilish.  
Structure is the form.
3. Psixolingvistika – nutqni kommunikativ ahamiyati jihatidan oʻrganadi.  
Psycholinguistics – studies the communicative importance of the speech
4. Sotsiolingvistika – jamiyat va til munosabatini oʻrganadi.  
Sociolinguistics - study of relation between the language and society
5. lingvogeografiya – lisoniy hodisaning tarqalish hududini oʻrganadi.  
Linguogeography – studies the distribution of language means

8. Paralingvistika – nutq jarayonidagi qo‘l va yuz harakatlarini o‘rganadi.

Paralinguistics – studies the nonverbal communication in speech

9. Neyrolingvistika – inson miyasidagi neyronlarning so‘zlarni hosil qilishini o‘rganadi.

Neurolinguistics – studies the formation of words with the help of neurons in the brain

10. Kognitologiya – inson bilimini o‘rganuvchi fan.

Cognitology is a science which studies human knowledge.

11. Ekstralingvistika – tashqi lingvistika.

Extralinguistics is outer linguistics.

12. Pragmalingvistika – muayyan lisoniy birlikni nutqiy jarayonda turli ilmiy omillar va sathlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganadi.

Pragmalinguistics – studies the linguistic units in relation with speech units in various field.

13. Lingvokulturalogiya – tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o‘zaro aloqasi va ta‘sirini o‘rganadi.

Linguoculturology – studies the influence and relation of language with culture, ethnical features, national mentality

### Adabiyotlar:

### Bibliography:

1. Э.Хемп. Словарь американской лингвистической терминологии. М., 1964.

2. О.С.Ахманова. Словарь лингвистических терминов.-М., 1966.

3. Н.И.Кондаков. Логический словарь.- М., 1971.

4. Д.Э.Розенталь, М.А.Теленкова. Словарь-справочник лингвистических терминов.- М., 1976.

5. А.Хожиев. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. -Т., 1985.

6. Ў. Қ. Юсулов. Когнитив лингвистика ҳақида. ЎзМУ илмий мақолалар тўплами. -Т., 2007.

7. А.Шерматов. Лингвистик география нима?-Т., 1981.

8. Г.Тоирова. Прагмалингвистика. -Т., 2013.

9. Д.Худойберганава. Лингвокултуралогия терминларининг қисқачи изоҳли луғати. -Т., 2015

## TILNING TA'RIFLARI

Tilshunoslik fanining tadqiqot obyekti bo'lgan til jamiyat mahsuloti, jamiyat quroli sifatida o'z ta'rifiga, tavsifiga, mantiqiy izohiga ega. U tabiiy. Chunki ta'riflanishi zarur bo'lgan ushbu ijtimoiy hodisa taraqqiyot mezonini, hayot ko'zgusi sifatida, millat ruhiyati, tarix tarjimoni sifatida jamiyatga xizmat qilib kelmoqda. Demak, jamiyat va til tushunchalari o'zaro ajralmas-dialektik bog'liq bo'lib, ular mantiqan biri ikkinchisini to'ldiradi, biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydi, biri ikkinchisiga faol xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, jamiyatning mavjudligi tilning mavjudligini, tilning mavjudligi esa jamiyatning mavjudligini talab qiladi. Shunga ko'ra, jamiyat tushunchasi qay darajada o'z ta'rifiga ega bo'lsa, til tushunchasi ham shu darajada o'z ta'rifiga, tavsifiga egadir.

Xulosa shuki, tilshunoslik fanining muhim, dolzarb muammolari qatorida tilning ta'rifi masalasi bo'lishi ham zaruriydir, tabiiydir. Qolaversa, til ko'p qirrali murakkab hodisa sifatida boshqa ijtimoiy (masalan, tarix, falsafa, psixologiya kabi) va tabiiy fanlar tomonidan ham o'rganiladi, tavsiflanadi. Bundan esa mantiqiy ravishda tilning ta'rifi masalasi murakkab masalalardan biri ekanligi tushunchasi kelib chiqadi.

Tilshunoslik tarixida ham, hozirda ham tilning ta'rifi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan va qaratilmoqda. O'z-o'zidan mantiqiy savol tug'iladi. Tilshunoslik tarixida tilning ta'rifi masalasi qanday hal qilingan, uning mohiyatini ochish uchun qanday ta'riflar berilgan?

Ma'lumki, tilshunoslik tarixida qator lisoniy (lingvistik) maktablar, oqimlar, yo'nalishlar bo'lib, bular ichida, ayniqsa, hind, yunon va arab tilshunoslik maktablari alohida o'rin egallaydi. Arab tilshunoslik maktabining til masalalaridagi ulkan xizmatlari dunyo tilshunosligida tan olingan bo'lib, bunda ma'lumki, O'rta Osiyolik allomalarning kelib chiqishi eroniy xalqlardan bo'lgan Xalil ibn Ahmad, Sibavayx Albasriy, turkiylardan Mahmud Koshg'ariy, Mahmud az Zamaxshariy, Alisher Navoiy va boshqalarning xizmatlari alohida yuksak qadrlanib, e'tirof etiladi. Jumladan, til masalalariga jiddiy e'tibor bergan buyuk allomalardan biri Alisher Navoiy hazratlari tilning kishilar orasidagi aloqa ehtiyoji natijasida paydo bo'lganini, so'zlash qobiliyati insonga Alloh tomonidan berilgani, ammo so'zlarni insonning o'zi yaratgani, nutqning quroli til ekanligini alohida qayd etadi. Qiyoslang: «Til muncha sharaf bila nutqning olatidir va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa,

tilning ofatidur»<sup>79</sup> Demak, Navoiy tilning jamiyatda–kishilar o‘rtasida o‘ziga quroli sifatida xizmat qilishi g‘oyasini ilgari suradi. Binobarin, til o‘ziga qurolidir, til (so‘z) jamiyat mahsulidir, degan fikrlar-ta‘rif, tavsiflar qadim-qadim davrlarning mahsuli sifatida hozirda ham amaldadir.

Umumiy nazariy tilshunoslikning asoschisi, til ilmining buyuk bilimdoni yevropalik Vilgelm fon Gumboldt til masalalariga – tilning ta‘rifi muammosiga alohida jiddiy ahamiyat bergan. Aniqrog‘i, V.fon Gumboldt tilning mohiyatini ochishda, unga asosli ilmiy ta‘rif berishda antinomiya<sup>80</sup> metodi (usuli)dan foydalanadi. U antinomiya usuli orqali tilning mohiyatini, tabiatini ilmiy yoritib berishga harakat qiladi va bu jamiyonda til sistemasiga nisbatan bir qator antinomiyalarni qo‘llaydi.

V.fon Gumboldtning antinomiyasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Til va tafakkur antinomiyasi. Til tafakkursiz, tafakkur esa tilsiz mavjud emas. Biri ikkinchisini taqozo qiladi, talab qiladi. Boshqacha aytganda, til tafakkurni (fikrni) ifodalash uchun xizmat qiladi. Tafakkur (fikr) til orqali yuzaga chiqadi. Shunga ko‘ra, tilsiz tafakkur, tafakkursiz til yo‘q. Inson hayotida, insonning lisoniy va aqliy faoliyatida til va tafakkur alohida, yakka holda mavjud emas, ular birgalikda, o‘zaro bog‘liqlikda «yashaydi», insonga xizmat qiladi. Ayni vaqtda ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Demak, bundan til va tafakkurning dialektik muno-sabati – o‘zaro ajralmasligi, bog‘liqligi va shu bilan birga ichki zidligi, qarama - qarshiligi g‘oyasi kelib chiqadi. Bunda tilning (tovushning) moddiyligi, tafakkurning esa psixik (ruhiy) hodisaligi ma‘lum bo‘ladi.

Til va tafakkurning dialektik birligi, ajralmasligi birining ikkinchisiz mavjud emasligida, biri, tabiiy holda, ikkinchisini talab qilishida, biri ikkinchisi orqali namoyon bo‘lishida; ularning dialektik zidligi, ichki qarama-qarshiligi esa tilning moddiy, «tashqi» hodisaligida, tafakkurning esa ruhiy, «ichki» hodisaligida ko‘rinadi. Til ham, tafakkur ham muayyan bir butunlikning o‘zaro bog‘liq va ayni vaqtda o‘zaro zid, qarama-qarshi ikki tomonidir.

2. Ijtimoiylik (sotsiallik) va alohidalik (individuallik) antinomiyasi. Til bir vaqtning o‘zida ham ijtimoiy, sotsial, ham alohida, individual hodisa. Til bir vaqtning o‘zida ham yakka, alohida shaxsga, ham ko‘p shaxsga, umumga tegishli. Tilning ijtimoiyligi jamiyat bilan, shaxslar bilan – xalq

<sup>79</sup> Алшшер Навоий. Махбуб- ул кулуб. 14-том.-Т., 1998, 94-бет.

<sup>80</sup> Antinomiya lotincha anti (qarshi) va nomos (qonun) so‘zlaridan tashkil topib, qonundagi qarama-qarshilik ifodasini beradi.

mahsuli sifatida belgilansa, tilning alohidaligi bir shaxs bilan, ~~indiv~~ individ bilan – ayrim shaxs mahsuli sifatida belgilanadi.

Alohida shaxslar o'zlarigacha bo'lgan avlodlar, xalqlar tomonidan yaratilgan lisoniy mahsulotdan, "hosil"dan foydalanadi. Demak, aytilganlardan tildagi umumiylik va xususiylik dialektikasi, antinomiya voqelanadi.

3. Til va nutq antinomiya. Til muayyan sistemadir, «nutqning butunlikdir». Shuningdek, u nutqiy faoliyatning alohida aktidir (harakatidir). Boshqacha aytganda, til nutqiy faoliyatning alohida akti (harakatlar) ko'rinishidagi voqe bo'lishidir. Til ayrim nutq aktidan tashkil topadi va ayni vaqtda u nutq aktida, jonli nutqda mavjud bo'ladi, ya'ni faoliyat bo'lishidir.

Til – faoliyat, nutq – faoliyat mahsuli, tilning voqelanishi, namoyishi bo'lishidir. Demak, til faoliyati til va nutqdan tashkil topadi. Til faoliyatida til va nutq ajratiladi, farqlanadi.

Til va nutq antinomiya~~si~~ning o'ziga xosligi, yana bir muhim jihati shundaki, til – ijtimoiy, sotsial, jamoa mahsuli, nutq esa individual shaxsiy, alohida kishilarning faoliyatidir.

V.Gumboldtning til va nutq antinomiya~~si~~, ularning farqlanishi, til va nutqning dialektik munosabatda olinishi tilshunoslik taraqqiyotida qo'shilgan juda katta hissa bo'ldi.

4. Til (nutq) va nutqni tushunish antinomiya~~si~~. Til va nutq antinomiya~~si~~ga bevosita aloqador bo'lgan ushbu dialektik bog'liqlikda «birlikda» nutq va uni tushunish, aslida, til faoliyatining turli shakllarida nutqiy faoliyatning ikki tomonidir. So'zlar individ nutqidagina – nutq faoliyatidagina muayyan aniqlikka, ma'noga ega bo'ladi.

Nutq tashqi, bevosita ta'sir qiluvchi, moddiy faoliyat bo'lsa, nutqni tushunish esa ichki, ruhiy faoliyatdir.

5. Til holati va taraqqiyoti antinomiya~~si~~. Tilning statikligi (turg'unligi) va dinamikligi (harakatchanligi) antinomiya~~si~~. Til taraqqiyotining tugallanganligi va til taraqqiyotining to'xtovsizligi antinomiya~~si~~. Til tugallanish tashkil topgan va ayni vaqtda doimiy rivojlanayotgan hodisa, jarayondir. Har bir avlod tilni tayyor holda oldingi avloddan qabul qiladi. Bu jihatdan til tayyor holdagi - tashkil topishiga ko'ra tugallangan hodisadir. Shuningdek, til doimo ijodiy, taraqqiyotdagi, yangilanishdagi, «o'sishdagi», yangi-yangi birliklarning, shakllarning paydo bo'lishidagi «qaynayotgan» jarayondir.

6. Tildagi obyektivlik va subyektivlik antinomiya~~si~~. Til obyektiv, ayni vaqtda subyektivdir.

Til o'zining haqiqiy «hayotini» insonlar orasida qo'llanishidagina mavjud bo'ladi, ammo uning mavjudligi, «hayotiyligi» alohida shaxslarga bog'liq emas. U jamiyatning aloqa quroli sifatida obyektiv mavjud. Til bir vaqtning o'zida insonga ham bog'liq, ham bog'liq emas. Bir tomondan tilni an'anaga ko'ra qabul qilsa, o'zlashtirsa, uning qonun-qoidalardan foydalansa - obyektiv ravishda, ikkinchi tamondan, u o'zining faoliyatida tilning taraqqiyotiga, undagi o'zgarishlarga, ta'sirlarga ta'sir ko'rsatadi, tilni «yaratadi», yangidan «quradi». Har bir inson nutqida til birliklari, vositalari, til «ashyosi» harakatga keladi, faoliyatli - subyektiv ravishda.

7. Fikrni obyektivlashtirish va fikrni rag'batlantirish antinomi-yasi. Antinomiya antinomiya da til tinglovchi fikrini obyektivlashtiruvchi va rag'batlantiruvchi, yuzaga keltiruvchi kuch, sabab sifatida namoyon bo'ladi.

Til sub'yektda paydo bo'lgan fikrni obyektivlashtiradi, reallashtiradi, insonga yetkazadi - ta'sir qiluvchi kuchga aylantiradi. Fikrni obyektivlashtirish jarayoni fikrni o'zgalarga yetkazish imkoniyatini beradi, yaratadi. Ammo ayni vaqtda har bir nutq, har bir fikrni ifodalash sub'yektivdir. Nutqni qabul qiluvchi, idrok qiluvchi shaxs - tinglovchi fikrni go'yoki qaytadan o'zida yaratadi.

8. Til - faoliyat, harakat, o'zgarish, o'zgaruvchanlik. Ayni vaqtda til faoliyat mahsuli, turg'un, barqaror, bunyod etilgan o'zgarmaslikdir. Demak, til bir vaqtning o'zida ham faoliyat, jarayon, ham faoliyat mahsuli sifatida mavjuddir. Aslida esa - deydi V.Gumboldt «Til faoliyat mahsuli (argon) emas, balki faoliyatdir (energia)»<sup>81</sup>. Demak, til faoliyat mahsuli sifatida diaxron (tarixiy) tushuncha bo'lsa, til faoliyat sifatida sinxron (samonaviy) tushunchadir. Anig'i, til faoliyat sifatida nutqdir, nutq faoliyatidir, nutq jarayonida voqelanishdir.

Til faoliyat mahsuli sifatida asrlardan asrlarga o'tib boruvchi, jamiyat taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlovchi taraqqiyot mezonidir, muayyan tarixiy norma (me'yor)dir.

Xullas, ushbu antinomiya asosini hozirgi tilshunoslikda talqin olayotgan til va nutqning o'zaro munosabati, til va nutq dialektikasi tashkil qiladi.

81. В. Гумбольдт. О различиях строения человеческих языков и его влияние на духовное развитие человеческого рода. Хронология по истории языкознания XIX - XX веков. - М., 1956 73-бел.



Xulosa shuki, V.fon Gumboldt tilni doimiy taraqqiyotda, rivojlanishda, o'zgarishda oladi va undagi o'zgarishlarni, taraqqiyotni, rivojlanishni bevosita, mutlaqo haqli ravishda, jamiyat bilan bog'liq holda ta'riflaydi. Shunga ko'ra, Gumboldt har bir xalqning tilida shu xalqning tarixini, madaniyatini, ma'naviyatini, umuman, uning butun ma'naviy-rubiy dunyosining namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

Tilshunoslik tarixida V.fon Gumboldt, Ivan Boduen de Kurtenel bilan bir qatorda turuvchi ulkan tilshunoslardan yana biri shvetsariyalik fransuz Ferdinand de Sossyurdir. U ham til ta'rifni masalasiga alohida e'tibor bergan:

1. F.de Sossyur ta'rificha, tilshunoslik fanining yagona va haqiqiy predmeti til bo'lib, u aloqa quroli vazifasini bajardi.

2. F.de Sossyur til mohiyat (substansiya) emas, balki shakldir (formadir), degan o'ziga xos ta'rifni o'rtaq tashlaydi. Bu bilan u tilni mazmun, mohiyat (substansiya) bilan qorishtirmaslik, undan farqlash lozimligini, til u yoki bu mazmunni (fikrni) ifodalash shakli (formasi), vositasi ekanligini nazarda tutadi.

3. F.de Sossyur o'z qarashlarida tilning sistem xarakterga egaligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Shunga ko'ra, u til belgilar sistemasidir<sup>82</sup>, degan ta'rifni ham beradi.

Til belgilari, F. de Sossyur fikricha, shartli, ixtiyoriy, erkin bo'lib, ikki tomonga-ifodalovchiga (ifoda planiga) va ifodalanuvchiga (mazmun planiga) egadir.

4. F. de Sossyur ikki jihatni: sinxron va diaxron aspektlarni farqlab, asosiy e'tiborni sinxron aspektga qaratadi. Buni u so'zlovchilar, fikr almashuvchilar uchun haqiqiy reallik tilning sinxron-hozirgi, real vaziyatda aloqa quroli sifatida xizmat qilishidir, deydi<sup>83</sup>. Haqiqatan, tilshunoslikning dastlabki, eng muhim bosh vazifasi til sistemasining – til hodisalarining hozirgi, zamonaviy holatini o'rganishdir. Albatta, ayni fikr til tarixini, tilning tarixiy taraqqiyotini o'rganish zarurligini inkor qilmaydi, inkor qilishi ham mutlaqo mumkin emas. Negaki, tilning tarixi aslida jamiyat tarixi bilan, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Jamiyat tarixi esa til tarixidir.

5. F.de Sossyur xalqning ifoda imkoniyatlari sistemasini ikkiga: til va nutqqa ajratadi. Til so'zlarning jami va nutqni qurish, tuzish qoidalaridir.

<sup>82</sup> Qar: Фердинанд де Соссюр. Курс общей лингвистики (извлечения). Хрестоматия по истории языкознания XIX-XX веков.-М., 1956, 336-337-вефяг Ф де. Соссюр. Труды по языкознанию.-М., 1977,101-бет.

<sup>83</sup> Qar : Ф де Соссюр. Труды по языкознанию,120-бет.

Nutq esa til sistemasining so'zlashuvdagi, fikr almashuvdagi yoki matndagi aniq ifodasi, namoyon bo'lishi, voqeligidir.

F.de Sossyur fikricha, til va nutq o'rtasida mutlaq qarama-qarshilik mavjud bo'lib, shunga ko'ra, til lingvistikasi va nutq lingvistikasi<sup>84</sup> kabi ikkita fan bo'lishi kerak. Albatta, bu mubolag'a bo'lib, tilshunoslik fani til va nutqni dialektik munosabatda, bog'liqlikda o'rganadi.

Aulida til va nutq o'rtasida o'zaro yaqin, zich aloqa mavjud, ya'ni, til nutq asosida tashkil topadi, «o'sadi», boyidi va nutqda yuzaga chiqadi. Til bir vaqtning o'zida ham asos, ham nutq mahsuli. Tilning taraqqiyoti, rivoji nutqda ma'lum bo'ladi, yuz beradi. Jonli nutq tilning mavjudlik shakli, holati va taraqqiyotidir, yashashidir. Til – ijtimoiy, nutq – individual.

Nullas, F.de Sossyur ta'limotidagi asosiy g'oya til va nutq dixotomiyasi bo'lib, bu dixotomiya nafaqat diaxron tilshunoslik, balki hozirgi-sinxron tilshunoslikning – jahon tilshunosligi fanining eng muhim, eng dolzarb, eng murakkab muammolaridan biri hisoblanadi.

Aytish shart, til nihoyatda murakkab va ko'p tarmoqli, ko'p qirrali hodisa bo'lganligiga va uning qaysi jihatlari ajratilishi, yoritilishi lozimligiga ko'ra u turli nuqtayi nazardan ta'riflanadi, tavsiflanadi. Boshqacha aytganda:

1. Vazifa nuqtayi nazaridan til kishilarning o'zaro fikr almashish vositasi, shuningdek, fikrni shakllantirish, ifodalash va o'zgalarga yetkazish qurolidir.

2. Tuzilishi, tashkil topishi nuqtayi nazaridan til muayyan birliklarning jami va ulardan foydalanish, ularni o'zaro mantiqiy aloqaga kiritish qoidalaridir.

3. Mavjudligi nuqtayi nazaridan til ijtimoiy hodisa, ijtimoiy mahsulot sifatida qayd etiladi.

4. Semiotika nuqtayi nazaridan til belgilar sistemasi bo'lib, moddiy birliklardan – fonemalardan tashkil topadi. Ushbu fonemalarning barqaror birikishlari o'zidan tashqaridagi muayyan predmet-hodisani (nimanidir) anglatish, bildirish xususiyatiga ega bo'ladi.

5. Informatsiya nazariyasiga ko'ra, til kod bo'lib, uning yordamida, u orqali semantik informatsiya (axborot, xabar, ma'lumot) kodlashtiriladi, muayyan shartli belgilarga «joylashtiriladi» va boshqalar.

Tilga turli nuqtayi nazardan berilgan ta'riflar ichida, shak-shubhasiz, til jamiyatning-jamiyat a'zolarining eng muhim va eng asosiy aloqa

<sup>84</sup> Qar: F.de Sossyur. O'sha asar, 56-58-betlar.

vositasidir, quolidir, degan ta'rif yetakchilik qiladi. Chunki ushbu ta'rifdan ikkita eng muhim g'oya kelib chiqadiki, ayni g'oya tilning butun mohiyatini, jamiyatdagi o'rni, jamiyat taraqqiyotidagi qudratini, quvvatini, moddiy hodisa sifatidagi ahamiyati kabilarni qamrab oladi. Bu g'oyalar:

1. Til o'zaro aloqaning, fikr almashishning eng muhim, eng asosiy, eng ta'sirchan vositasidir.

2. Til o'zaro aloqaning insonlar-jamiyat bilangina bog'liq shakli ko'rinishidir.

Ma'lumki, tilning jamiyatda aloqa quroli vazifasini bajarishi uning kommunikativ vazifasini tashkil qiladi. Tilning muayyan xabar, darak ifodalab, ta'sir qilishi esa uning ekspressiv vazifasi hisoblanadi. Ekspressiv vazifa muayyan xabar ifodalash va tinglovchiga yetkazish kabi informativ vazifani hamda his-hayajon, hissiyot (emotsiya) ifodalashi kabi emotiv vazifani ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, til biron istak, xohish bildirish vazifasini-volyuntativ funksiyani ham bajaradi. Tilning xabar, sezgi, his-hayajon, xohish-istak ifodalashi va ularni tinglovchilarga «berishi», yetkazishi - bular birgalikda, tilning ekspressiv jihatini-vazifasini tashkil qiladi. Ayni vaqtda til millatlararo aloqa vositasi, tajriba va bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazish quroli ham bo'lib, bu jarayonlar tilning akkumulyativ<sup>85</sup> vazifasi hisoblanadi. Tilning ushbu vazifasi, ayni vaqtda, uning gnoseologik (bilish jarayoni) funksiyasi deb ham yuritiladi.

Xullas, til jamiyatning aloqa quroli sifatida nutq tovushlaridan, ularning o'zaro bog'lanishidan hosil bo'ladigan so'zlardan, grammatik vositalardan va ulardan maqsadga muvofiq foydalanish qoidalaridan tashkil topgan ijtimoiy-tarixiy, madaniy va mantiqiy sistemadir, ma'naviyat belgisidir.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Navoiy tilga qanday ta'rif beradi?

How did Navoi define a language?

2. V. f. Gumboldt tilga ta'rif berishda qanday usuldan foydalanadi?

What method was used by V.F.Gumboldt while defining a language?

3. Qanday antinomialarni bilasiz?

What antinomies do you know?

<sup>85</sup> Akkumulyativ-lotincha to'plash, yig'ish demakdir.

4. F. de Sossyur tilga qanday ta'rif beradi?  
How did F. de Sossyur define a language?
5. F. de Sossyur ta'limotidagi asosiy g'oya nimadan iborat?  
What are principle ideas in F.de Sossyur's teaching?
6. Tilga berilgan ta'riflar ichida eng asosiy, yetakchi ta'rif qaysi?  
Which definition of a language is considered to be the basic one?

### Asosiy tushunchalar:

#### Basic notions:

1. Tilning ta'rifi – tilning tavsifi, izohi, talqini.  
Definition of a language is interpretation of a language.
2. Antinomiya – o'zaro zidlik va bog'liqlik, aloqadorlik.  
Antinomy is interrelation, intercontradiction.
3. Sotsial – ijtimoiy.  
Social is public.
4. Individual – alohida, shaxsiy.  
Individual is separate, personal.
5. Tafakkur – ruhiy-aqliy jarayon, fikrlash, o'ylash.  
Thinking is psychological and mental process.
6. Emotsiya – his-hayajon.  
Emotion-is feelings.

### Adabiyotlar:

#### Bibliography:

1. Хрестоматия по истории языкознания XIX-XX веков. – М., 1956.
2. В.А.Звегинцев. История языкознания XIX – XX веков в очерках и извлечениях. Ч. I – М., 1954; ч II. – М., 1960.
3. Я.В.Лоя. История лингвистических учений. – М., 1968.
4. Н.С.Кондаков Логический словарь. – М., 1971.
5. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. –Т., 1972.
6. Г.А.Амирова, Б.А.Ольховиков, Ю.В.Рождественский. Очерки по истории лингвистики. - М., 1975.
7. Ф.де Соссюр. Труды по языкознанию. – М., 1977.
8. Н.А. Баскаков, А.С. Содиков, А.А. Абдуазизов. Умумий тилшунослик. – Т., 1979.

## TIL VA NUTQ

Til va nutq dialektikasi nazariy tilshunoslikning, shuningdek, amaliy tilshunoslikning hamda falsafa, tarix, psixologiya, mantiq kabi fanlarning ham muhim va murakkab muammolaridan biridir.

XX asr tilshunosligining – sistem tilshunoslikning bosh, asosiy mezonlari til va nutq munosabati, til va nutq hodisalarini, birliklarini farqlash bo‘ldi<sup>86</sup>.

Ushbu muammo tarixiga nazar tashlasak, prof H.Ne‘matovning ma‘lumot berishicha, til va nutq hodisalarini o‘zaro farqlash dastlab VII–IX asrlarda shakllangan arab tilshunosligining til o‘rganish usullarida<sup>87</sup> ko‘rish mumkin. Prof.A.Nurmonovning tadqiqotida esa temuriylar davri o‘zbek tilshunosligining sardori bo‘lgan Alisher Navoiy asarlarida til va nutq hodisalarini farqlangani, alloma shu masalaga alohida e‘tibor bergani qayd etiladi.<sup>88</sup>

Til va nutq muammosi umumiy nazariy tilshunoslikning asoschisi bo‘lgan Vilgelm fon Gumboldtning tildagi energiya (harakat, jarayon, kuch) va ergon (mahsulot), tilshunoslikdagi psixologizm oqimining asoschisi G.Shteyntalning tildagi «barqaror mohiyat» va «harakatdagi kuchlar», buyuk nazariyotchi va amaliyotchi tilshunos Ivan Boduen de Kurtenening «tildagi barqarorlik va o‘zgaruvchanlik» haqidagi ta‘limotlarida ham beriladi<sup>89</sup>.

Ta‘kidlash shart, til va nutq dialektik munosabati o‘zining dastlabki haqiqiy, mukammal ilmiy - nazariy yechimini tilshunoslik fanida keskin burilish yasagan buyuk tilshunos olim Ferdinand de Sossyur asarlarida topdi.

Demak, til va nutq masalasi nafaqat sistem tilshunoslikning, umuman, jahon tilshunosligi fanining hamma davrlaridagi - ham diaxron, ham sinxron bosqichlaridagi eng jiddiy nazariy muammo bo‘lgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Negaki, tilshunoslikning ushbu o‘ta murakkab va o‘ta dolzarb muammosisiz nafaqat nazariy-umumiy tilshunoslikning, balki xususiy-amaliy tilshunoslikning ham qator eng muhim, asosiy masalalarini to‘liq, mukammal va obyektiv hal qilib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, til va nutq dialektikasi jahon tilshunosligi fanining doimiy muammo-laridan biri sifatida qolaveradi.

<sup>86</sup> Qar: X.Ne‘matov, P.Rasulov *Ўзбек тили систем лексикологияси асослари*. –Т.,1995, 3-29-бетлар

<sup>87</sup> Qar: X.Ne‘matov, O.Bozorov. *Тил ва нутқ*. –Т., 1993, 7-бет.

<sup>88</sup> Qar: A.Nurmonov. *O‘sha asar*, 73-80-бетлар.

<sup>89</sup> Qar: H.Ne‘matov, O.Bozorov. *O‘sha asar*, 7-бет.

Sovet davri tilshunosligida, ayniqsa, 60-yillardan boshlab, til va nutq masalasiga alohida e'tibor berila boshladi. Aniqrog'i, F. de Sossyur tomonidan xalqning aloqa qilish, fikr ifodalash vositasining til va nutq deb berilishi, bularning bir-biridan farqlanishi olimlar o'rtasida fikrlar qarama-qarshiligini tug'dirdi.

Bir qator olimlar til va nutq o'zaro farqlanmaydi, aslida farqlanmaydigan bitta obyekt mavjuddir, til va nutq bir narsa,<sup>90</sup> desa, boshqa bir qator olimlar til va nutqni farqlash, albatta, kerak, bular farqlanadi,<sup>91</sup> degan g'oyani ilgari suradi.

Xullas, hozirda til va nutqni, til va nutq hodisalarini, birliklarini farqlash umumtilshunoslikda, shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham mustahkam o'rin egalladi.

Til va nutq dialektikasida til o'ziga xos murakkab tuzilishga (strukturaga) ega bo'lgan bir butun sistema sifatida faoliyat ko'rsatadi. Demak, F. de Sossyur mutlaqo to'g'ri ta'kidlaganidek, til sistemadir.<sup>92</sup>

Til sistemasining bir-biri bilan uzviy bog'langan tovush tomoni, lug'at tarkibi, grammatik qurilishi mavjud bo'lib, ular birgalikda bir butunlikni, sistemani tashkil qiladi. Tilning sistem xarakteri aslida qayd etilgan sathlar, qatlamlar (yaruslar) bilan belgilanadi, asoslanadi. Ayni vaqtda ushbu sathlarning har biri o'ziga xos sistemaichki sistema bo'lib, til sistemasining tarkibiga kiradi. Demak, til sistemalar sistemasi - supersistema, makrosistema sifatida jamiyatga xizmat qiladi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi, ijtimoiy - amaliy vazifa bajaradi.

Tilning ijtimoiy mohiyati jamiyatda aloqa-aralashuv quroli bo'lishida ko'rinadi. Shunga ko'ra, prof. S. Usmonov «Insonlar orasidagi munosabat uchun xizmat qiladigan narsa, albatta, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Chunki bunday munosabat, aloqa kollektiv ichida-jamiyatda voqe bo'ladi»<sup>93</sup>, deydi.

Tilning material mohiyati haqida fikr yuritilganda, tilni belgilar sistemasi yoki semiotik sistema deb qarash hozirda tilshunos olimlar tomonidan to'liq qabul qilingan. Masalan, prof. V.M. Solnsev «Til tipik semiotik yoki belgilar sistemasidir...»<sup>94</sup> desa, tilshunos B.V. Kosovskiy «til o'zining material mohiyatiga ko'ra belgilar sistemasini yoki semiotik sistemani hosil qiladi»,<sup>95</sup> deb alohida qayd etadi.

<sup>90</sup> Qar: V.M. Myrkin. Различные толкования соотношения: язык-речь //Иностранные языки в школе. 1970. №1

<sup>91</sup> Qar: Б.В. Беляев. Психологические основы усвоения лексики иностранного языка. -М., 1964, 8- bet.

<sup>92</sup> Ф. Де Соссюр. Труды по языкознанию. 120-бет.

<sup>93</sup> С. Усмонов. Тил назариясининг баъзи бир масалалари. Ўзбек тили ва адабиёти. Ж. 1970. №2

<sup>94</sup> В. М. Солнцев. Знаковость языка и... теория познания. М., 1969, 212-бет.

<sup>95</sup> Б.В. Косовский. Общее языкознание. -Минск, 1969. 37-бет.

Xullas, til supersistema-sistemalar sistemasi sifatida jamiyat uchun tarixan mukammal yaratilgan, barchaga birday xizmat qiladigan va barcha uchun umumiy bo'lgan, asosan, fikr ifodalash, fikrni "moddiy" qilish uchun ishlatiladigan alohida so'zlar, gaplar - nutq birliklaridagi ifoda vositalaridan, ularning o'zaro mantiqiy bog'lanishi uchun, nutqni qurish uchun xizmat qiladigan qonun-qoidalardan tashkil topadi.<sup>96</sup>

Til o'zining jamiyatdagi kommunikativ (informativ, ekspressiv, emotiv, volyuntativ va b.) vazifasini qanday ko'rishda, qanday «qiyofada», qanday shaklda amalga oshiradi?

Ijtimoiy-psixik jarayon bo'lgan til o'zining jamiyatdagi kommunikativ, umuman, har qanday vazifasini nutq shaklida, nutq ko'rinishida, nutq orqali amalga oshiradi. Nutq til sistemasining so'zlashuv, fikr almashuv jarayonidagi yoki yozuvdagi-matndagi muayyan ifodasidir, ko'rinishidir, holatidir. Shunga ko'ra, S.Usmonov «Til qachon ma'lum funksiyani bajarishi mumkin? Til nutq sifatida namoyon bo'lgandagina ma'lum funksiyani bajarishi mumkin»,<sup>97</sup> deydi.

Miyamizda (ongimizda) obyektiv olamning ta'siri tufayli hosil bo'lgan tushunchalar, tasavvurlar, turli xil fikrlar, demak, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan til (nutq) orqali voqelanadi. Yana ham aniqrog'i, har qanday fikrni ifodalash, boshqalar bilan aloqada bo'lish, faqat til materiali orqali amalga oshadigan real, jonli nutq jarayonida sodir bo'ladi. Til aloqa quroli, insonlar orasidagi munosabat vositasi deb baholanganida til materialiga asoslangan... nutq ko'zda tutiladi<sup>98</sup>.

Ichki – psixik jarayon, tashqi-moddiy voqelikka o'tar ekan, aylanar ekan, bu o'tish-jarayon faqat nutq asosida, ya'ni, hamma vaqt til materialiga suyanadigan nutq orqali amalga oshadi. Nutq uchun esa asos (baza) vazifasini til boyligi, til materiali o'taydi.

Til materialini S.Usmonov ikkiga bo'ladi:

1. Psixik material. Bu-so'z, morfema va fonemalarning xotiradagi obrazi (qiyofasi).

2. Moddiy material. Bu-nutq yaratish chog'ida belgili tovush qobig'iga ega bo'lgan, aniq talaffuz qilinayotgan so'zlar, morfemalar va tovushlar<sup>99</sup>.

<sup>96</sup> Qo'sh qar: Ya. V.Loya. O'sha asar. 139-bet. H.Ne'matov. O.Bozorov. O'sha asar, 8-bet.

<sup>97</sup> S.Usmonov. O'sha maqola.

<sup>98</sup> С.Усмонов. Умумий тилпунослик. -Т.,1972, 144-бет. Yana qar: Б.А.Серебрянников. О материалистическом подходе к явлениям языка.-М., 1983.

<sup>99</sup> S.Usmonov. O'sha asar, 140-bet.

Demak, real jonli nutqning real til birliklaridan tashkil topishi isbot qilib qilmaydigan haqiqatdir. Qiyoslang. *Bizning davrimiz bozor iqtisodiyatiga o'tish davridir*, gapi real nutq bo'lib, u tovush materiyasiga aylangan real til birliklaridan tashkil topadi. Aniqrog'i, ushbu gap: *bu ming davr, i, miz, bozor, iqtisod, i, yot, i, ga, o't, ish, davr, i, dir* kabi nutq til birliklaridan-so'z (leksema) va affiksial morfemalardan tarkib topgan. Binobarin, mazkur gapni qayd etilgan til birliklariga-so'z (leksema) va affiksial morfemalarga ajratish, aslida, uni real til birliklariga ajratishdir. «Ammo ajratishdan hosil bo'lgan har bir element o'sha nutq tuzish ketganidan keyin o'z material qobig'ini yo'qotib, ma'lum obrazlar sifatida doimiy ravishda xotirada saqlanadi. Xotiradagi bu elementlar endi moddiy hodisa bo'lmay, psixik hodisadir. Psixik hodisadan esa lozim bo'lganida nutq a'zolarining faoliyati tufayli yana moddiy hodisa hosil qilish mumkin»<sup>100</sup>.

Ma'lum bo'ldiki, psixik hodisa bilan real nutq orasidagi oraliq hodisa xotiradagi real til elementlarining, til birliklarining nutq tuzish vaqtida talaffuz orqali ro'yobga chiqariladigan real ekvivalentlaridir.

Demak, xotiradagi til elementlarining obrazlari nutq faoliyati vaqtida real til elementlariga aylanadi. Zotan, real elementlar aslida birlamchi bo'lib, ularning ongdagi (xotiradagi) obrazlari ikkilamchidir va ular real elementlar tufayli hosil bo'ladi.<sup>101</sup>

Til «tashqi» jihatdan ham moddiy, ham psixik hodisa. Uning moddiyligi-tovush materiyasi bo'lsa, psixik hodisaligi xotirada saqlanish xususiyatidir. Tilning ijtimoiy vazifasi moddiylikda ko'rinadi. Tildagi moddiylik so'z, so'z birikmasi va morfemalarning tovush materiyasiga o'ralganligida namoyon bo'ladi. Xuddi shu xususiyat tildan ijtimoiy maqsadda foydalanish imkoniyatini beradi.<sup>102</sup>

Ma'lum bo'ldiki, tildan fikr almashuv-kommunikatsiya maqsadida foydalanish jarayoni nutqdir. Hozirgi vaqtda nutqning til materiali orqali aloqa qilish jarayoni ekanligi tajriba yo'li bilan ham isbotlangan. Masalan, psixolog V.A.Artemov «Eksperimental – fonetik va eksperimental – psixologik tadqiqotlar nutqning til orqali aloqa qilish jarayoni ekanligiga bizni ishontirmoqda. Hozirda ko'pchilik ... psixologlar, metodist va tilshunoslar ushbu fikrga kelishgan»<sup>103</sup>. Demak, til nutq orqali, nutq esa til materiali orqali amalga oshadi.

<sup>100</sup> S.Usmenov. O'sha asar, o'sha bet.

<sup>101</sup> S.Usmenov. O'sha asar, o'sha bet.

<sup>102</sup> S.Usmenov. O'sha asar, 142-bet.

<sup>103</sup> V.A.Artemov. Психология обучения иностранным языкам. -М., 1969, 19-бет.



Akademik I.P.Pavlov tomonidan ikkilamchi signallar sistemasi deb nom olgan tilning nutq bilan chambarchas bog'liqligini yana shundan ham bilish mumkinki, har bir til tarixiy taraqqiyot davomida, odamlarning nutq vositasi bilan aloqa bog'lash jarayonida vujudga keladi.

Til va nutq o'rtasidagi bog'liqlik, o'zaro aloqadorlik yana quyidagilardan ham ma'lum bo'ladi. Til nutq asosida tashkil topadi va nutq orqali reallashadi. Til bir vaqtning o'zida ham asos, ham nutq mahsuli. Til aloqa uchun material bersa, nutq shu materialdan fikr shakllantirishdir.<sup>104</sup> F. de Sossyur aytganidek, til bizga nutq tushunarli bo'lishi uchun zarur bo'lsa, nutq esa tilning taraqqiyoti, yashashi, shakllanishi uchun zarur. Tarixiy jihatdan nutq faktlari tildan oldin keladi.<sup>105</sup>

Shu o'rinda prof. B.A.Serebrennikovning fikrini ham keltirish maqsadga to'la muvofiqdir. U ta'kidlaganidek «...til nutq jarayonida foydalaniladi. Har bir nutq faoliyatida til elementlari ishtirok etadi. Agar til sistem xarakterga ega bo'lsa, nutq ham, til elementlari asosida namoyon bo'lgandan keyin, sistem xarakterga ega bo'ladi<sup>106</sup>».

Bizningcha ham, nutq sistemadir, sistem xarakterga egadir. Ammo u tilga nisbatan ikkinchi darajali sistema bo'lib, til sistemasiga asoslanadi, undan imkoniyat sifatida foydalanadi. Til sistemasi asosida nutqiy sistema, nutq faoliyati, fikrni ifodalash sistemasi yuzaga keladi. Shuningdek, nutq (nutqiy faoliyat) fikrni ifodalash jarayoni ekan, ayni jarayonda ishtirok etuvchi birliklar o'zaro mantiqiy, zaruriy munosabatga kirishib, bir butunlikni-sistemani, masalan, nutqni, gapni hosil qiladi. Qolaversa, nutqdagi – fikr ifodalash jarayonidagi so'z ham, so'z birikmasi ham, gap ham, matn ham o'ziga xos mikro va makrosistemalardir.

Tilning yashashi, mavjudligi, taraqqiyoti nutq orqali bo'ladi. Masalan, men o'z nutqimda o'zbek tilidan foydalanib gapiryapman, demak, bu o'zbek tilining mavjudligi, uning yashayotganligidir. Demak, tilning har bir aniq ko'rinishi real nutqdir, nutq faoliyatidir.<sup>107</sup>

Jonli nutq yoki real nutq bu tilning mavjudligi, uning faol harakatidir.

Til inson xotirasida mavjud lisoniy (lingvistik) birliklardan va qoidalardan iborat xazinadir<sup>108</sup>. Nutq esa ushbu birliklarning muayyan

<sup>104</sup> С.Усмонов. Ҳозирги ўзбек тилида сўзнинг морфологик тузилиши. Низомий номидаги ТДПИ нинг илмий асарлари.42-том. Т.,1963. 87-бет.

<sup>105</sup> F. de Sossyur. O'sha asar, 57-бет.

<sup>106</sup> B. A. Serebrennikov. O'sha asar.

<sup>107</sup> Qar: Т.П.Ломтев. Язык и речь. Вестник МГУ.1964.№4. 68-бет.

<sup>108</sup> XXI asr o'zbek tilshunosligida, til va nutq dialektikasida, tilning lison deb ataluvchi qismi, ko'rinishi ajratilib, nutqdan farqli holda lisonning inson xotirasida mavjud til birliklari va ulardan foydalanish qoidalaridan iboratligi ta'kidlanmoqda. Qar: Sh. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili T.2006.4-бет.

soʻzlar asosidagi faol harakati, muayyan ijtimoiy vazifa bajarishi, yaʼni, nutq jamiyondir, amaliyotdir.

Til ham, nutq ham ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy xarakterga ega boʻlgan til va nutq biri ikkinchisi orqali amalga oshadi, yaʼni, til nutq orqali, nutq esa til orqali voqelanadi, namoyon boʻladi.

Til va nutq oʻzaro aloqador, bir-biri bilan bogʻliq, biri ikkinchisiz mavjud boʻlmaydigan, ammo bir-biridan farqli boʻlgan ijtimoiy hodisalardir. Demak, til va nutq oʻzaro bogʻliq boʻlgani bilan aynan bir til narsa emas. Psixolog P.I.Ivanov: «Biz biror kishiga: siz qaysi tilda (yoki tillarda) gaplashasiz deb savol berganimizda, biz shu kishining nutqi, gapi bilan uning oʻz nutqida qanday til (yoki tillar) dan foydalanishini aniq bilamiz»<sup>109</sup>, deydi.

Har bir kishining oʻz nutqi bor va nutqida bir yoki bir necha tildan foydalanib gapiradi. Shu bilan birgalikda har bir kishining nutqi uning yoshiga, bilimiga, umumiy maʼnaviy-madaniy saviyasiga qarab, oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻladi. Bundan esa nutqning individual hodisa ekanligi kelib chiqadi. Lekin biz yuqorida til ham, nutq ham ijtimoiy hodisa degan edik. Gap shundaki, nutq haqiqatan ham individual. Nutq individual oʻzining bajarilishiga, sodir boʻlishiga koʻra, yaʼni, u individ, alohida kishi tomonidan amalga oshadi. Ammo oʻzining vazifasiga koʻra esa nutq ijtimoiydir.

Demak, nutq – individual deganda, uning individ – alohida shaxs tomonidan amalga oshirilishi, bajarilishi koʻzda tutilsa, nutq – ijtimoiy deganda, uning ahamiyati, vazifasi, ommaviyligi tushuniladi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan tilni ham maʼlum maʼnoda individual deyish mumkin. Chunki til material (elementlari, birliklari) psixikada, xotiramizda mavjud. Shuning uchun ham S.Usmonov: «Til elementlari jamiyat aʼzolarining xotirasida... mavjud»<sup>110</sup>, deydi.

Demak, til individual nutq shaklida faoliyat koʻrsatadi. Til va nutq ham ijtimoiy, ham individual. Tildagi ijtimoiylik nutq orqali namoyon boʻladi. «Tildagi ijtimoiylik yashirin, ichki hodisa boʻlsa, nutqdagi ijtimoiylik tashqi, real hodisadir»<sup>111</sup>.

Til mavhumdir, nutq esa aniqdir, yaʼni, nutqni eshitamiz, akustik qabul qilamiz va koʻramiz (matnda). Nutq doimo aniq boʻlib, muayyan oʻrinda (joyda) va muayyan vaqtda yuz beradi. Nutq soʻzlovchining,

<sup>109</sup> П.И.Иванов Умумий психология –Т.1967, 294-бет.

<sup>110</sup> К.Usmonov. Oʻsha maqola.

<sup>111</sup> К.Usmonov. Oʻsha maqola.

tinglovchining va predmetning – fikr yuritilayotgan predmetning mavjud bo'lishini talab qiladi.<sup>112</sup>

Nutq akti – hamma vaqt ijodiy akt. Chunki har bir kishi o'z fikrini muayyan so'z, nutq orqali ifodalayotganida o'zining bilimiga, lug'at xazinasiga, hayot tajribasi va madaniy saviyasiga suyanadi.

Nutq – harakatchan, dinamik, jonli bo'lsa, til – statik, stabildir.<sup>113</sup>

Nutq – alohida shaxsga, individga bog'liq. Til esa alohida shaxsga, individga bog'liq emas.

Tilning ijodkori, yaratuvchisi xalq. A.A.Potebnya aytganidek, til xalqning mahsulidir. Nutqning esa ijodkori individdir, insondir.

Nutq baland va past, tez yoki sekin, uzun yoki qisqa, mimikali yoki mimikasiz, qo'l harakati bilan (jest) yoki qo'l harakatisiz, aniq yoki noaniq bo'lishi mumkin, tilga esa bunday ta'rif-tavsif to'g'ri kelmaydi.

Nutq ham monologik, ham dialogik bo'la oladi. Til esa monologik ham, dialogik ham bo'la olmaydi.

Til – aloqa quroli, nutq – aloqa usuli.

Til – imkoniyat, nutq – voqelik, ta'sirchanlik.

Til – umumiylik, nutq – xususiylik, alohidalik.

Nutq kelib chiqishiga ko'ra birlamchi, ya'ni, oldin nutq – nutq tovushlari paydo bo'lgan, til esa ikkilamchi, nutq asosida shakllangan.

Til esa ikkilamchi, nutq asosida shakllangan, tashkil topgan.

Til g'oya, fikr bermaydi, nutq esa g'oya, fikr beradi.

Til tahlil qilish yo'li orqali, nutq esa qabul qilish va tushunish orqali bilinadi.

Tilning hayoti uzoq, xalqning hayoti bilan bog'liq, nutqning hayoti esa qisqa, ya'ni, aytilgan vaqtdagina mavjud.

Tilning alohida vazifasi bo'lgan nutq psixologiya, tilshunoslik (uslubshunoslik, nutq madaniyati va b.), fiziologiya (nutq apparatining tuzilishini o'rganadi), informatsiya nazariyasi va boshqa fanlar tomonidan tekshiriladi.

Til – tilshunoslik, falsafa, mantiq, tarix, semiotika va boshqa fanlar tomonidan o'rganiladi.

Demak, jonli nutq, nutq faoliyati tilning mavjudlik va taraqqiy qilish shaklidir. Tilni nutq faoliyatida-nutqda kuzatganimizdagina uning ijtimoiy-amaliy vazifa bajarish mexanizmini ochib berish mumkin. Nutq faoliyatidagina til va nutqning o'zaro ta'siri, bog'liqligi, aloqasi amalga oshadi.

<sup>112</sup> С.Трубейкой Основы фонологии. –М., 1960, 7-бет.

<sup>113</sup> В.А.Звегинцев. Теоретическая и прикладная лингвистика. –М., 1968, 105-бет.

Til va nutq orasidagi dialektik munosabat shundaki, nutq faoliyati natijasida nutq shakllanadi. Nutq esa til birliklaridan tuziladi va til birliklariga ajralib ketadi. Til birliklari yana nutq faoliyati – faolligi uchun yaratiladi.

Til inson xotirasida mavjud lisoniy birliklar va qoidalardan iborat tizim. Nutq esa ushbu tizimni boyituvchi, harakatga keltiruvchi, uning kuch-quvvatini, qudratini, qanday imkoniyatlarga egaligini ko'rsatuvchi, namoyon qiluvchi voqelikdir, jarayondir.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Sistem tilshunoslikning bosh mezoni nima?

What is basic norm of System Linguistics?

2. Til sistemami?

What is a language system?

3. Tilning ijtimoiy mohiyati nimada ko'rinadi?

When is seen the social essence of a language?

4. Tilning moddiyligi nimada ko'rinadi?

How do we know that language is a substance?

5. Tilning jamiyatdagi vazifasi qanday ko'rinishda amalga oshadi?

How is language function in the society carried out?

6. Nutq sistemami?

What is a speech system?

7. Nutqning o'ziga xosliklari nimalarda ko'rinadi?

How can we find specific feature of a language?

8. Til va nutq dialektik munosabatini qanday tushunasiz?

How do you understand the relation of language and speech?

### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Til – imkoniyat sifatida aloqa-aralashuv, fikr almashuv quroli.

Language as a possibility is communication, as a tool of opinion exchange.

2. Nutq – voqelik, jarayon sifatida aloqa, fikr almashuv usuli.

Speech is a way of opinion exchange and a process of communication, reality.

3. Sistem tilshunoslik – tilni sistema sifatida o‘rganuvchi tilshunoslik.  
System Linguistics is linguistics studying the language as a system.
4. Dialektika – qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni.  
Dialectics is the study of reasoning or argumentative methodology, a contravertional method and the law of struggling.
5. Sistema – o‘zaro zaruriy bog‘langan qismlardan iborat butunlik.  
System is a wholeness which consists of parts and their interrelation.
6. Semiotika – belgilar nazariyasi haqidagi fan.  
Semiotics is a science on the sign theory.
7. Kommunikatsiya – aloqa.  
Communication is an act of communicating.

**Adabiyotlar:  
Bibliography:**

1. Я.В.Лоя. История лингвистических учений. – М., 1968.
2. Б.В.Косовский. Общее языкознание. – Минск, 1969.
3. С.Усмонов. Тил назариясининг баъзи бир масалалари. Ўзбек тили ва адабиёти ж. 1970. №2.
4. В.М.Солнцев. Язык как системно-структурное образование. – М., 1971.
5. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. – Т., 1972.
6. Ф. де Соссюр. Труды по языкознанию. – М., 1977.
7. А.Т.Хроленко. Общее языкознание. – М., 1981.
8. Ҳ.Неъматов. О.Бозоров. Тил ва нутқ. – Т., 1993.
9. Ҳ.Неъматов. Р.Расулов. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т., 1995.
10. Р. Расулов. Умумий тилшунослик. 1-қисм. (Тилшунослик тарихи). – Т., 2005.
11. Ф.дў Соссюр. Умумий тилшунослик курси. – Т., 2018.

**SUBSTANSIYA VA FORMA**

Dialektik falsafa o‘z qonun va kategoriyalari bilan obyektiv voqelikni ilmiy bilish jarayonida birdan-bir metodologik asos bo‘lib hisoblanadi. Shunga ko‘ra, deyarli barcha fanlar dialektikaning qonun va kategoriyalariga suyanadi, undan quvvat oladi, unga asoslanadi. Bu esa dunyoni bilish jarayonining obyektivligini, haqqoniyligini ta‘minlaydi.

Dialektik kategoriyalar obyektiv voqelikka – tabiat va jamiyatga bog'liq bo'lgan predmet, narsa, hodisa va jarayonlarni, ular harakatining umumiy qonuniyatlarini, o'zaro aloqadorligi, tuzilishi, rivojlanishi, belgi, xususiyatlari kabilarni aks ettiradi. Demak, substansiya<sup>114</sup> va forma<sup>115</sup> dialektik falsafaning eng faol kategoriyalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Substansiya, ya'ni, mohiyat keng ma'nodagi predmetlarni – predmetlarning eng muhim ichki jihatlarini, xususiyatlarini, ularda sodir bo'layotgan jarayonlarni qayd etadi.

Substansiyaning ajralmas zid jufti bo'lgan forma, ya'ni, shakl (yoki hodisa) predmetlarni – predmetlarning ko'rinishini, bevosita ko'zga tashlanib turgan tashqi tomonini aks ettiradi. Anig'i, shakl (hodisa) muayyan mohiyatning muayyan qiyofasini, turli ko'rinishlarda ta'sir qiluvchi, namoyon bo'luvchi va shunga ko'ra, ajralib turuvchi jihatini ifodalaydi.

Mohiyat va shakl (hodisa) o'zaro bog'liq bo'lib, predmetlarning ichki va tashqi tomonini xarakterlaydi. Mohiyat – ichki, yashirin, shakl (hodisa) esa tashqi, realdir. U mohiyatning moddiy ko'rinishi, qobig'idir.

Mohiyat hodisalardagi – bir turdagi predmetlardagi umumiylik bo'lsa (masalan, barcha hikoyalarning, soatlarning, qalamlarning mohiyati bitta, umumiy), hodisa xususiylikdir, yagonalikdir (masalan, umumiylik bo'lgan mohiyat turlicha shaklga, ko'rinishga, hajmga ega bo'lgan yagonani, alohidani aks ettiradi. Qiyoslang: soat, kalit, bulut, suv)

Hodisa dinamikroq, o'zgaruvchanroq, mohiyat esa statikroq, o'zgarmasroq, doimiyroqdir.

Falsafiy jihatdan mohiyat hodisani belgilaydi, uning mag'zi, asosi bo'lib, u hodisani, predmetni predmet qiluvchi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan mohiyatning mohiyatini ta'minlovchi hisoblanadi.

Shakl (hodisa) predmetning mavjud bo'lish usuli, mohiyatning elementlarini bir butunlikka bog'laydigan narsadir. Forma predmetning borligini, nima ekanligini ko'rsatib turadi.

Mohiyat predmetning belgi va xususiyatlarida kuzatiladi. U predmetning ichki jihatdan qandayligini ifodalaydi.

Falsafadagi mohiyat va hodisa dialektikasi tilshunoslikda – til va nutqda, til va nutq birliklarida (elementlarida) shakl va mazmun munosabatida kuzatiladi, ifodalanadi. Binobarin, falsafadagi mohiyat va

<sup>114</sup>Substansiya-lotinchda mohiyat demakdir.

<sup>115</sup>Forma-lotinchda shakl demakdir.

hodisa munosabati til faktlarida shakl va mazmun munosabatining falsafiy asosi – metodologik asosi bo‘lib, ayni muammo tilshunoslikda XIX asrning boshlarida o‘rtaga tashlandi.

Til va nutq muammosidan bizga ma‘lumki, ushbu ijtimoiy-psixik, ijtimoiy – individual hodisalar o‘zaro bog‘langan, o‘zaro munosabatdagi jarayonlardir. Aytmoqchimizki, til va nutqqa ham shakl va mazmun kategoriyasi bevosita xos bo‘lib, u lisoniy hodisalar, birliklar tahlilida, tadqiqida faol qo‘llaniladi.

Tilshunoslikda – til sistemasida shakl, odatda, lisoniy birliklarning moddiy tomoni, tashqi – ifodalovchi tovush tomoni bilan; mazmun esa til birliklarining ichki tomoni, ma‘nosi, ifodalanuvchi tomoni bilan bog‘lanadi.

Til va nutq birliklarining shakli va mazmuni o‘rtasidagi bog‘lanish shartli – ijtimoiy xarakterga ega bo‘ladi. Chunki bunday bog‘lanishlar jamiyat tomonidan tayyor holda olinadi. Aniqrog‘i, jamiyat a‘zolari til birliklari orasida qayd etilgan bog‘lanishlarni avlodlardan tayyor holda qabul qiladi, o‘rganadi. Ularni qanday holda olgan bo‘lsalar, shunday holda ishlatadi, qo‘llaydi, aks holda jamiyat uni qabul qilmaydi va unga tushunmaydi. Qiyoslang: (i) harfini «i» sifatida talaffuz etish, (-) bu belgini – ayrish alohida, buni (x) ko‘paytirish belgisi, ushbu raqamlarni (1, 10, 100, 1000, 1000000) bir, o‘n, yuz, ming, bir million deb tushunish vaqtidagi shakl va mazmun bog‘lanishi ijtimoiy (shartli) bog‘lanish hisoblanadi. Demak, bunday bog‘lanishlar, munosabatlar jamiyat tomonidan – avlodlardan shu holda qabul qilingan. Shunga ko‘ra, jamiyat a‘zolari ushbu bog‘lanishlarni, aloqalarni shu holatda oladi, o‘rganadi va qo‘llaydi. Demak, keyingi avlod ularni qanday qabul qilgan bo‘lsalar, xuddi shunday ishlatadi, aks holda uni qabul qilmaydi ham, tushunmaydi ham.<sup>116</sup> Shunday bog‘lanish dialektik bog‘lanish, munosabat bo‘lib, u ijtimoiy (shartli) bog‘lanish sifatida mavjuddir.

Til sistemasida til va nutq, til va nutq birliklari shakl va mazmun munosabatiga ko‘ra alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Til va nutq birliklari bo‘lgan tovush, fonema, morfema, leksema, so‘z, so‘z birikmasi, gap, matn va boshqalar zaruran shakl va mazmun munosabatini o‘zida tashiydi, aks ettiradi.

Muayyan birlik bo‘lgan tovush – fonema shakl va mazmun nuqtayi nazaridan boshqalaridan farqli o‘ziga xoslikka ega, ya‘ni, tovush – nutq tovushlari, fonemalar alohida, ayrim – ayrim olinganda shakl (forma)

<sup>116</sup> Qar: H.Ne‘matov, R.Rasulov. O‘sha asar, 31-bet.

bo'lmaydi.<sup>117</sup> Aytmoqchimizki, so'zlarning tashqi tomonini, shaklini ifodalovchi alohida – alohida tovushlar o'zicha, yakka holda tilning asosiy materiali, moddiy birligi, materiyasi hisoblanadi.<sup>118</sup> Ayni vaqtda, xullash lozimki, til sistemasida tovush tomon muhimligi, asosiyligi bilan ajralib turadi. Chunki tovush bo'lmasa muayyan birlik, masalan, so'z (so'z shakli) mavjud bo'lmaydi, «yaratilmaydi». So'z o'zining tovush asosi tufayli nutqda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi. Tovush tomoni tinglovchi uchun moddiy hodisaga, «borliqqa», voqelikka aylantiradi.<sup>119</sup>

Til (nutq) birligi bo'lgan so'zda – leksemada esa shakl va mazmun munosabati tovushga nisbatan boshqacha – mukammal, aniq, to'liq ifodalalanadi. So'z (leksema) shaklga ham, mazmunga ham – har ikki jihatga ega bo'lgan lisoniy birliklar – til va nutq birliklari sifatida muayyan mikrosistemani hosil qiladi. Demak, so'z-leksema shakl va mazmundan iborat belgidir, birlikdir.

Sistem tilshunoslikda leksemaning (til birligining) shakl tomoni (tashqi-moddiy tomoni) nomema, leksemaning mazmun tomoni (ma'nosi, signifikati, ichki tomoni) esa semema terminlari bilan ataladi.<sup>120</sup>

Xullash, so'z-leksema muayyan mazmunning, ma'noning, seme-maning shakli, formasidir. Shuningdek, morfemalar (o'zak va affikslar) ham muayyan ma'noni, mazmunni ifodalash shakli (formasi) hisoblanadi. Hunda o'zak morfema leksik ma'noning, affiks morfema esa grammatik ma'noning formasi, ifodalovchisi bo'lib keladi. Demak, morfemalar ham shakl va mazmun munosabatini o'zida tashiydi.

Nutq birliklari bo'lgan so'z birikmasi, gap va matnlar ham shakl va mazmun munosabatini o'zida mukammal aks ettirishiga ko'ra fikr ifodalashda – fikr almashish jarayonida faol birliklar hisoblanadi.

Demak, muayyan ma'no, tushuncha ifodalovchi til (nutq) birliklarining moddiy-tovush tomoni shaklni (formani) hosil qilsa, muayyan ma'no, tushunchalar til (nutq) birliklarining mazmunini, shaklning (formaning) ichki tomonini, mohiyatini tashkil qiladi.

<sup>117</sup> Nutq tovushlari ayrim holda tilning-lisoniy birliklarning shakli (formasi) bo'lmasa ham psixikada-xotiradagi tovush obrazlariga nisbatan shakldir (formadir).

<sup>118</sup> Qar: S.Usmonov. O'sha asar, 154-bet.

<sup>119</sup> Qar: S.Usmonov. O'sha asar, 155-bet.

<sup>120</sup> Qar: H.Ne'matov. R.Rasulov. O'sha asar, 54-bet.



**Mustahkamlash uchun savollar:  
Questions for Consolidation:**

1. Substansiya nima?  
What is a substance?
2. Forma nima?  
What is a phoneme?
3. Tilda (nutqda) shakl (forma) nimani anglatadi?  
What does the form in language mean?
4. Tilda (nutqda) mazmun (mohiyat, substansiya) nimani anglatadi?  
What does the content in language mean?
5. Til va nutq birliklariga shakl va mazmun xosmi?  
Do the form and the content peculiar to the language units and speech units?

**Asosiy tushunchalar:  
Basic notions:**

1. Substansiya – mohiyat.  
Substance is an essence.
2. Forma – shakl.  
Form is the of expressing.
3. Shakl – lisoniy birliklarning tovush (tashqi) tomoni.  
The form is sound aspect of the linguistic units.
4. Mazmun – lisoniy birliklarning ma'no (ichki) tomoni.  
The content is the content aspect of the linguistic units.

**Adabiyotlar:  
Bibliography:**

1. Н.И.Кондаков. Логический словарь. – М., 1971.
2. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. – Т., 1972.
3. Философиядан қисқача луғат. – Т., 1973.
4. Ҳ.Неъматов, Р.Расулов. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т., 1995.

## SISTEMA VA STRUKTURA

Nazariy tilshunoslikning muhim va murakkab muammolaridan bo'lgan sistema hamda struktura munosabatida sistema butunlik – bir butun, yaxlit obyekt sifatida qabul qilinadi. Struktura esa sistemaning – butunlikning tarkibiy qismi bo'lgan, sistemani sistema qiluvchi bir-biri bilan zaruriy bog'langan elementlar, bo'laklarning o'zaro bog'lanish tartibi, chizmasi sifatida voqelanadi. Boshqacha aytganda, sistema (yunoncha) elementlardan – qismlardan, bo'laklardan iborat butunlik bo'lsa, struktura (yunoncha) o'zaro bog'liqlik, ichki aloqa-tuzilish, qurilish demakdir. Struktura sistemani – bir butun obyektни tashkil qilgan elementlar, qismlar orasidagi ichki aloqa, munosabatlardir. Anig'i, sistema – butunlik, struktura– qismlilik. Sistema – umumiylik, struktura – xususiylik. Sistema elementlar aloqasining, bog'liqligining tugallangan nuqtasi, yaxlitligi. Struktura – elementlar aloqasining boshlang'ich nuqtasi, ularning dastlabki qator ichki bog'lanishi, munosabati. Sistema sintetik, struktura analitik tushunchalardir.

Sistema elementlari orasidagi munosabatlarning jami uning – sistemaning strukturasi hosil qiladi.

Demak, sistema va struktura terminlari sinonim tushunchalar bo'lmay, har biri o'ziga xos xususiyatlariga, jihatlariga ko'ra o'zaro farqlanadi, nisbiy mustaqil hisoblanadi. Sistema va struktura o'zaro dialektik bog'liq bo'lgan falsafiy kategoriyadir.

Sistema va struktura munosabatida bir butun obyekt va shu obyektning tuzilishini ta'minlovchi, uning tarkibi (atributi) bo'lgan elementlar, qismlar aniq, obyektiv namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, har bir sistema unda elementlar, qismlar mavjudligiga va ajralishiga ko'ra alohida hisoblanadi. Anig'i, alohidalik har qanday sistemaning eng muhim xususiyatidir.<sup>121</sup>

*Qiyoslang, quyosh sistemasi, o'simliklar sistemasi, tirik organizmlar sistemasi, transport sistemasi, ta'lim sistemasi, tarbiya sistemasi va boshqalar.*

Sistema muayyan butunlik, obyekt sifatida elementlarni, qism-larni, bo'laklarni va ularning o'zaro aloqasini o'z tarkibiga olsa, struktura ayni obyektning, butunlikning ichki tuzilishi, tartibi, tashkil topishi sifatida farqlanadi.

<sup>121</sup> Qar: В.М.Солдцев. Язык как системно-структурное образование. 11-бет.

Prof. V.M.Solnsev: 1) elementlar, qismlar va ularning o'zaro aloqalar kateqoriyani – sistemani yoki bir butunlik sifatidagi obyektini tashkil qiladi; 2) ichki aloqalarning jami, yig'indisi kateqoriyani – sistemani butunlikning atributi sifatida strukturani hosil qiladi,<sup>122</sup> deydi. Demak, sistema elementlari, qismlari va sistema strukturasi birgalikda sistemani yuzaga keltiradi.

Xullas, sistema va struktura tushunchalari, aytilganidek, o'zaro bog'liq bo'lib, har biri o'ziga xos tomonlari, jihatlari va xususiyatlari bilan mustaqil bo'ladi, nisbatan ajralib turadi.

Sistema va struktura tushunchalari tabiat va jamiyat bilan bog'liq jarayonlarga, predmet va hodisalarga xosligi, keng qamrovliligi, murakkabligi, obyektiv borliqni ilmiy-nazariy, falsafiy o'rganish hamda tushunishda yetakchilik qilishi bilan fan olamida qudratli kateqoriya sifatida xizmat qiladi.

Obyektiv borliq sistemalardan iborat ekan, ayni sistemalarni mohiyatan ikki asosiy turga, guruhga ajratish mumkin: a) material sistemalar; b) ideal sistemalar.

Material (moddiy) sistemalar o'zaro munosabatdagi muayyan material elementlardan iborat sistemadir. Material sistemalar belgi va xususiyatlariga ko'ra cheksiz, turlichadir. Chunki bu sistemani hosil qiluvchi elementlar va ayni elementlar orasidagi aloqa va munosabatlari cheksiz, turli-tumandir.

Moddiy sistema sifatida, masalan, toshni, binoni, daraxtni olish mumkin. Toshda elementlar – molekulalar moddani shu modda asosiy kimyoviy xususiyatlariga ega bo'lgan eng kichik zarrasi; molekula o'zaro kimyoviy bog'langan bir xil yoki turlicha atomlardan iborat bo'ladi (atom kimyoviy elementning eng mayda zarrasi). Atom yadrodan va elektronlardan tuzilgan murakkab sistema bo'lib, atom yadrosining o'zi esa proton va neytronlardan iborat va ular orasida aloqalar (molekulyar aloqalar) mavjud.

Har qanday materialdan tayyorlangan inshoot, qurilma, imorat, binoni material sistema deb hisoblash mumkin. Chunki u o'zaro aloqada, o'zaro bog'liq bo'lgan qismlardan, bo'laklardan tashkil topadi.

Har qanday jonli organizmni material sistema deb hisoblash mumkin.

<sup>122</sup> V.M.Solnsev. O'sha asar, 26-het.

Shundaydek, odamlarning tartibga solingan qo'shilmalari-harbiy mashina, bo'linma-razvedka bo'linmasi, o'qchi bo'linma, sport bo'linmasi<sup>123</sup> va boshqalar ham o'ziga xos moddiy sistemadir.

Tarkibiy qismlarga ajraluvchi, tartibga solingan har qanday obyekt material sistema sifatida olinishi mumkin.

Sistemani tashkil qilgan moddiy elementlarning yig'indisi shu sistemaning moddiy asosini (substansiyasini) hosil qiladi. Boshqacha aytganda, material sistemaning moddiy asosi (substansiyasi) sistemaning elementlaridan iborat bo'ladi. Shunga ko'ra, material sistemaning elementlari haqida gapirganda, muayyan ma'noda, uning substansiyasini substansiya haqida gapirganda esa uning (material sistemaning) elementlarini nazarda tutish mumkin. Ammo substansiya va element tushunchalari bir xil emas.<sup>124</sup>

Material sistemalar birlamchi material sistemalar deb nomlanadi. Ular kishilar faoliyatiga ko'ra (masalan, mashina, bino) yoki ularning faoliyatsiz-faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda (masalan, yulduzlar sistemasi, yer sistemasi) paydo bo'ladi.

Material sistemalardan farqli ideal sistemalar ham mavjud. Ular shunday sistemalarki, bu sistemalarning qismlari, elementlari ideal hodisalardir, ya'ni, o'zaro muayyan munosabatlar bilan bog'langan muayyan g'oya, tushuncha yoki fikrlardir.

Ideal sistema sifatida u yoki bu asar g'oyalari sistemasini, u yoki bu fan tushunchalari sistemasini olish mumkin.

Ideal sistemalar material sistemalardan farqli holda hamma vaqt kishilarning faoliyatiga, anig'i, ularning fikriy faoliyatiga ko'ra yuzaga keladi. Ular muayyan (biror) moddiy substansiyadan-asosdan tashqarida mavjud bo'lmaydi.

Ideal sistemalar material substansiya, ya'ni, insonning miya a'zosi-miyaning fikrlashi orqali hosil bo'ladi va material substansiyada (har qanday materiyada) mustahkamlanadi, «qotiriladi».

Ideal sistema (tushuncha yoki g'oyalar sistemasi) axborot (informatsiya)- semantik informatsiyaning ko'rinishlaridan, turlaridan biri bo'lgan sistemadir. U biror boshqa material substansiyada (uni o'zida tashuvchida) mustahkamlanadi.

Demak, aytilgan fikrlardan ma'lum bo'ldiki, ideal sistemalarni o'zida saqlovchi yoki tashuvchi maxsus, alohida material sistemalar mavjud.

<sup>123</sup> V. M. Solnsev. O'sha asar, 13-bet.

<sup>124</sup> V. M. Solnsev. O'sha asar, 14-bet.

Ushbu material sistemalar nima? Ular nimalardan tashkil topadi? degan mantiqiy savol tug'iladi.

Bunday sistemalar, anig'ini, material sistemalar ikkilamchi material sistemalar deb nomlanib, ular semantik informatsiyani (g'oyalarni tushunchalar sistemasini) o'zida mustahkamlash, saqlash, qayd etish va ifodalash vositasi sifatida faqat inson faoliyati tufayli yuzaga keladi. Ularni ikkilamchi material sistemalar tushuncha yoki g'oyalarni bir insondan boshqasiga yetkazish, berish, kishilarning o'zaro fikr almashish vositasi sifatida yuzaga keladi. Bunday sistemalar belgilar sistemasi yoki semiotik sistemalar deb yuritiladi. Til ana shunday sistemaga–belgilar sistemasi yoki semiotik sistemaga kiradi.

Ikkilamchi material sistemalarning elementlari (birliklari) belgi sifatida, ya'ni, moddiy elementlar sifatida o'zicha emas, balki o'zidan tashqaridagi biron narsa-predmetni ifoda etishiga, anglatishiga ko'ra ahamiyatga ega bo'ladi. Bu barcha ikkilamchi moddiy sistemalarning umumiy xususiyati bo'lib, shunga ko'ra, ular semiotik birliklar yoki belgilar deb yuritiladi.

Demak, ikkilamchi material sistemalarning material substansiyasi biror ideal sistemani o'zida qayd etish, «aks ettirish», mustahkamlash vazifasini bajaradi. Bu mustahkamlash kishilar faoliyati orqali amalga oshirib, sistemaning alohidaligiga (diskretligiga) ko'ra shunday yuz beradi.

Jamiyat muayyan tushuncha yoki g'oyalarni sistemasini (semantik informatsiya sistemasini) o'zida saqlash va ifodalash vazifasiga ega ikkilamchi moddiy (material) sistemalardan – moddiy elementlardan ijtimoiy – amaliy maqsadlar uchun faol foydalanadi.

Ikkilamchi material sistemalar muayyan xususiyatlarga, jihatlar-ga ega bo'lib, bu xususiyatlar, aytilganidek, ularning – ushbu material sistemalarning substansial tabiatiga xos bo'lmaydi, ularda bevosita, mohiyatan mavjud bo'lmaydi. Masalan, qizil rang o'zicha man qilish, ko'k rang o'zicha ruxsat berish xabarini ifodalaydi. Ularga ko'cha harakatlarini boshqarish signallar sistemasining man etish va ruxsat berish axboroti yuklatilgan, shunday vazifa berilgan, «buyurilgan».

Ideal sistemaning biror ko'rinishiga, xiliga (obyektiga) ikkilamchi material sistemaning biror obyektini muvofiq keladi: yurishga ruxsat axborotiga (ideal sistemaga) ko'k rang material obyektini; o'rin, chiqish axborotiga – g a, - d a n; ko'plik informatsiyasiga – lar kabi moddiy–til birliklari to'g'ri keladi.

Ikkilamchi moddiy sistemalar moddiy asosining (substansiyasining) ikkilamchi vazifasi g'oya, fikr, tushuncha ifodalashdan iboratdir. Ikkilamchi material sistemalar material substansiyasining ikkinchi eng muhim vazifali ideal sistemalar (tushuncha, g'oya, fikrlar) elementlarini o'zaro differentsiatsiya qilishda, farqlashda ko'rinadi.<sup>125</sup>

Tilda ham xuddi shunday. Masalan, *bilan* so'zining tilda ko'makchi yoki bog'lovchi sifatida qo'llanishi uning fizik, substansial xususiyatiga bog'liq emas, uning mohiyatidan kelib chiqmaydi: *olma bilan anor*. Balki bunday xususiyat (ko'makchi, bog'lovchi bo'lish) unga yuklatilgan, aytilib «qo'yilgan» va bu xususiyat ijtimoiy amaliyot orqali mustahkamlangan.

I.P. Pavlov ta'limoti bo'yicha inson obyektiv borliqni ikki xil yo'l bilan qabul qiladi: 1) predmet - hodisalarning kishi sezish (eshitish, ko'rish, ta'm bilish) a'zolariga bevosita ta'siri orqali – birinchi signallar sistemasi va 2) so'zlarning ta'siri orqali – ikkinchi signallar sistemasi.

Birinchi signallar sistemasi insonlarga ham, hayvonlarga ham tegishli bo'lsa, ikkinchi signallar sistemasi faqat insonga xosdir. Demak, til ikkilamchi belgilar sistemasi sifatida jamiyatga xizmat qiladi.

Xullas, til o'ziga xos strukturaga (tuzilishga) ega bir butun sistemadir. Til o'zaro uzviy bog'liq va bir-birini taqozo etadigan moddiy birliklarning yig'indisidan tashkil topgan, o'ziga xos qurilishga ega bo'lgan murakkab sistemadir.

Til sistemasini tashkil etgan lisoniy birliklar, ularning o'zaro munosabati, bir-biri bilan bog'lanish qonun-qoidalari tilning strukturasi tashkil etadi.

Til sistemasi strukturasi ko'ra juda murakkabligi, ko'p sathligi (tarusligi) bilan ajralib turadi. Tilning bir-biri bilan uzviy bog'liq fonetik tomoni, leksikasi, morfologik va sintaktik qurilishi-struktura qatlamlari bo'lib, bular birgalikda, dialektik bog'liqlikda «yashay-di», bir butunlikni tashkil qiladi, til sistemasini tuzib, uning mavjudligini (obyektivligini) ta'minlaydi.

Tilning har bir birligi, elementi butunlikning qismi sifatida sistema tarkibiga kiradi. U til sistemasining boshqa birliklari va elementlari bilan bevosita yoki bivosita til kategoriyalari orqali bog'langan bo'ladi.

Til sistemasi tuzilishiga ko'ra ham, vazifasiga - qo'llanishi va rivojlanishiga ko'ra ham murakkab hamda ko'p tarmoqlidir.<sup>126</sup>

<sup>125</sup> V.M. Solnsev. O'sha asar, 19-bet.

<sup>126</sup> Qar: В.И. Козлов. Общее языкознание, 133-bet.

Til sistemasining har bir sathi: fonetik, leksik, grammatik yaruslar o'ziga xos sistema bo'lib, ular ham muayyan qismlardan, struktural elementlardan – moddiy birliklardan tashkil topadi, muayyan ijtimoiy vazifa bajaradi. Demak, aytilganlarga ko'ra tilni sistemalar sistemasi deb aytish mantiqan to'g'ridir. Til sistemasi sathlariga - ichki sistemalariga nisbatan makrosistema bo'lsa, uning ichki yaruslari-sathlari unga nisbatan mikrosistema sifatida namoyon bo'ladi.

Xullas, falsafiy ma'noda har qanday makrosistemaning ichki qurilishi, tashkil topishi mikrosistemalardan iborat bo'ladi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Sistema nima?  
What is a system?
2. Struktura nima?  
What is a structure?
3. Sistema va struktura orasidagi dialektik munosabatni qanday tushunasiz?  
How do you understand the relations between a system and a structure?
4. Moddiy sistema nima?  
What is a material structure?
5. Ma'naviy sistema nima?  
What is spiritual system?
6. Til sistemami yoki strukturami?  
Is language a system or a structure?

### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Sistema – qismlardan iborat butunlik, bir butun, yaxlit obyekt, umumiylik.  
System is a wholeness which consists of parts, a whole object, commonness.
2. Struktura – sistemani tashkil qilgan qismlar (bo'laklar) va ularning ichki aloqasi, bog'lanish tartibi; tuzilishi, qurilishi; xususiylik.

Structure consists of parts which make a system and their inner relation, the order of relations, structure and individuality.

3. Material sistema – moddiy sistema, o‘zaro bog‘langan muayyan moddiy komponentlardan, bo‘laklardan iborat sistema; tarkibiy qismlarga qaratiluvchi bir butun obyekt (masalan, inshoot, daraxt, mashina, bino).

Material system is a substance system which consists of interrelated substance components and can be divided into components and a whole object (for instance, building, tree, car, effice, etc)

4. Ideal sistema – tushunchalar, g‘oyalar sistemasi; ideal sistemaning qismlari: g‘oyalar, tushunchalar, fikrlardir (masalan, muayyan asar g‘oyalari, biror fan tushunchalari).

Ideal system is a system of notions and ideas (for instance, ideas of certain works, notions of certain subjects).

5. Ikkilamchi material sistema – belgilar sistemasi, semiotik sistema, ya‘ni, til.

Subsidiary (secondary) material system is a system of signs, a semiotic system, i.e a language.

#### Adabiyotlar:

#### Bibliography:

1. О.С.Ахманова. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966
2. Б.И.Косовский. Общее языкознание. – Минск, 1969.
3. В.М.Солнцев. Язык как системно-структурное образование. – М., 1971
4. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. – Т., 1971
5. Н.И. Кондаков. Логический словарь. – М., 1971.
6. Общее языкознание. Внутренняя структура языка. – М., 1972.
7. В.И.Кодухов. Общего языкознания. - М., 1974.
8. Ю.С.Степанов. Основы общего языкознания. - М., 1975.
9. Д.Э. Розенталь, М.А.Теленкова. Словарь справочник лингвистических терминов. – М., 1976
10. А.Г.Хроленко. Общее языкознание. – М., 1981.
11. Р.Расулов. Умумий тилшунослик. – Т., 2010.



## TILNI INFORMATSIYA NAZARIYASIGA KO'RA KOD BILAN TENGLASHTIRISH

Informatsiya nazariyasi matematika fanining nisbatan mustaqil alohida ahamiyatga ega bo'lgan tarmog'i, sohasi sifatida mavjud statistika<sup>127</sup> fani bilan bog'lanib, aloqa sistemalari orqali informatsiyani uzatish jarayonini o'rganadi. Aniqrog'i, informatsiya nazariyasi (informatika) informatsiyani uzatish va saqlashning mazmun tomonini eina balki uning statistik qurilishi bilan shug'ullanadi, qiziqadi, ya'ni, informatsiya nazariyasi axborot matnini statistik struktura sifatida o'rganadi.

Statistik struktura axborotdagi signal (simvol) va signallarni birlashuvining voqelanish chastotasi – soni, miqdori sifatida tushuniladi.

Signalning ko'p marta takrorlanishida signal orqali uzatiladigan axborotning miqdorini aniqlash juda muhimdir.

Demak, informatsiya nazariyasi muayyan axborotdagi ma'lumotlarni ushbu ma'lumotlarning tabiatiga – mazmuniga bog'liq bo'lmagan holda miqdorini o'lchash (tekshirish) yo'llarini, usullarini ishlab chiqadi. Shunga ko'ra, informatsiya nazariyasining muhim va asosiy xulosalari tilshunoslikda ham o'z ifodasini topadi.

Informatsiya nazariyasi ma'lumotlarni o'rganish jarayonida maxsus terminlardan – tushunchalardan foydalanadi. Bular quyidagilar:

1. Kod – axborotni yozib olish vositasi (usuli).
2. Matn (tekst) – muayyan axborotni berish, uzatish jarayonidagi belgilarning (til birliklarining, simvollarning) izchilligi, ketma - ket kelishi.
3. Kanal – axborot beriluvchi, uzatiluvchi muhit, sharoit.

Tilni informatsiya nazariyasiga ko'ra yuqorida qayd etilgan uchta tushunchalardan qaysi biri bilan tenglashtirish, qaysi biri bilan «baholash» mumkin?

Tilni kod bilan tenglashtirish, kod bilan parallel qo'yish mumkin. Chunki kod, aytilganidek, axborotni yozib olish usuli, vositalaridan biridir. Demak, til – tilning har bir belgisi (til birliklari) kod sifatida muayyan axborot tashiydi, uzatadi, yetkazadi. Binobarin, ayni vaqtda, ushbu axborotni hisoblab chiqish, statistik ma'lumot to'plash mumkin.

Xullas, til informatsiya nazariyasiga ko'ra kod sifatida namoyon bo'ladi. Til orqali fikr almashish jarayonida ifodalanadigan, beriladigan axborotlarni statistik tahlil qilish, ma'lumot to'plash zarur va muhimdir.

<sup>127</sup>Statistika- kishilik jamiyati va xalq xo'jaligi taraqqiyotidagi son jihatdan bo'ladigan o'zgarishlarni sifat tomoni bilan bog'liq holda ilmiy va amaliy o'rganadigan fan.

## SEMIOTIKA

Semiotika (yoki semiologiya)<sup>128</sup> belgilar sistemasini haqidagi fan bo'lib, u belgilar sistemasiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni, jihatlarni o'rganadi. Semiotika belgilar nazariyasi haqidagi ta'limot sifatida belgilarni, belgilar sistemasiga kiruvchi hodisalarni, ularning tabiati, mohiyati, turlari, ko'rinishlari, amal qilishi kabilarni tekshiradi.

Semiotika, aytilganidek, belgilar nazariyasi haqidagi ta'limot bo'lib, muayyan yo'nalishi sifatida tilshunoslik va semiotikaning o'zaro bog'lanadigan aloqaga, munosabatga kirishishidan tilshunoslik fanining lingvosemiotika deb ataluvchi sohasi shakllandi. Demak, til ikkilamchi belgilar sistemasini sifatida semiotikaning – lingvosemiotikaning tekshirish obyekti hisoblanadi, ya'ni, lingvosemiotika tilning belgi tabiatiga xosligini, informatsiya uzatuvchi til birliklarining xususiyatlarini tadqiq qiladi.

Ma'lumki, til – til (nutq) birliklari (leksema, so'z, so'z birikmasi, gap va boshqalar) muayyan belgilar sifatida ma'no, tushuncha, fikr ifodalaydi. Ular ma'no, tushuncha, fikr kabilarning simvoli (ramzi) yoki belgisi bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra, Ferdinand de Sossyur til g'oya, fikr ifoda etuvchi belgilar sistemasidir, deydi.

Semiotikaning tekshirish obyekti jamiyat tomonidan faol qo'llaniladigan belgilar sistemasini bo'lib, ular inson paydo bo'libdiki, jamiyatga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, belgilar sistemasini ham jamiyat kabi qadimiydir. Demak, belgilar sistemasini jamiyat bilan birga paydo bo'lib, jamiyat bilan birga "qadam tashlaydi". Chunki ular inson faoliyati tufayliga hosil bo'ladi; shu faoliyat orqali harakatga keladi, muayyan vazifa bajaradi, inson faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ma'lum bo'ldiki, semiotika belgilar haqidagi, belgilar nazariyasi haqidagi keng qamrovli nazariy – falsafiy fan bo'lib, tilni belgilardan iborat butunlik sifatida o'rganadi. Chunki til birliklari, tilning tarkibini tashkil qiluvchi struktural elementlar – morfema, so'z, so'z birikmasi, gap, matn va boshqalar muayyan informatsiyani berish, yetkazish – ijtimoiy vazifani bajarish uchun xizmat qiluvchi belgilar sistemasini sifatida tadqiq qilinadi. Shunga ko'ra, til jamiyatda mavjud bo'lgan boshqa belgilar bilan umumiylikka, o'xshashlikka ega bo'ladi. Shunga ko'ra, til

<sup>128</sup> Semiotika – grekcha semion, semiologiya – grekcha sema va logos so'zlaridan iborat bo'lib, belgi va ta'limot, tushuncha demakdir.

semiotika fanining – lingvosemiotikaning tadqiq qilish, o'rganish obyektiga aylanadi.

Tilning tabiatini, mohiyatini, jamiyatdagi o'rni va rolini bilish uchun faqat u yoki bu til bilan qiyoslashning o'zigina yetarli bo'lmaydi. Aniqrog'i, tilni-til sistemasi tarkibidagi turlicha birliklarni, belgi deb olingan elementlarni boshqa belgilar - nolisoniy belgilar sistemasi bilan ham, jamiyatga faol xizmat qilayotgan ramzlar (znaklar) bilan ham qiyoslash lozim. Bu, shak-shubhasiz, tilning tabiatini mukammal yoritishda katta xizmat qiladi.

Mashhur tilshunos olim Ferdinand de Sossyur Vilgelm fon Gumbolt, Filipp Fedorovich Fortunatov, Vasiliy Alekseyevich Bogoroditskiylar kabi tilni g'oya, fikr ifodalovchi belgilar sistemasi sifatida qayd etib semiotika faniga asos soldi. U mazkur fanni semiotika yoki semiologiya deb atadi.

Semiotikada ikki turdagi, ikki tipdagi belgilar farqlanadi, ya'ni tabiiy belgilar (yoki belgilar - priznaklar) va sun'iy belgilar (yoki belgilar - informatorlar).

Tabiiy belgilar (priznaklar) aslida belgi hisoblanmaydi. Ular u yoki bu narsa, predmet va hodisalarning muayyan bo'lagi, tarkibiy qismi bo'lib keladi. Masalan, darsga kirish yoki darsdan chiqish haqida xabar beruvchi qo'ng'iroq, poyezdning kelayotganligi yoki harakati – yurishi boshlanayotganligi haqida darak beruvchi ovoz – gudok, yomg'ir yog'ishidan xabar beruvchi to'plangan bulutlar, shamollning esayotganidan darak beruvchi daraxt uchlarining qimirlashi, qordagi oyoq izi va boshqalar. Demak, ushbu tabiiy belgilar – alomatlar inson ongida - xotirasida muayyan tasavvurlarni hosil qiladi, "uyg'otadi".

Sun'iy belgilar shartli belgilar bo'lib, haqiqiy belgilar hisoblanadi. Ular tabiiy belgilardan – alomatlardan farqli muayyan xabarni – informatsiyani to'plash, saqlash va yetkazish uchun, predmet va hodisalarni, tushuncha va hukmlarni tasavvur qilish, o'rnini bosish uchun xizmat qiladi. Demak, bunday hollarda ayni belgilar, tabiiy belgilardan – alomatlardan farqli muayyan predmet, hodisa, tushunchalar o'rnida ishlatilsada, ammo ularning tarkibiy qismi, bo'lagi bo'la olmaydi. Shunga ko'ra, bunday belgilar shartli belgilar hisoblanadi.

Shartli belgilarning eng muhim xususiyati, bosh vazifasi axborotni berish uchun, axborotni olish uchun – kishilar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib xizmat qilishdir. Demak, aytilganlarga ko'ra shartli belgilarni kommunikativ yoki informative belgilar deb aytish mumkin bo'ladi.

jamiyatda qo'llanuvchi kommunikativ – informative belgilar – signallar, simvollar, belgilar – til belgilaridir.

Ushbu informative belgilar – shartli belgilar ichida haqiqiy belgi – kommunikativ belgi til belgisi – til birligi hisoblanadi. Boshqa belgilar esa til belgisi darajasidagi kommunikativ belgi bo'la olmaydi. Shu sababli ular alohida, ko'makchi belgilar hisoblanadi, muayyan vaziyatdagina xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Qiyoslang: temir yo'l signali, trevoga signali, olovchi signali, tinchlik simvoli (kabutar), do'stlik simvoli (qo'l berish).

Demak, simvollarda signallarda farqli obrazlilik bo'ladi, muayyan g'oya aniq ifodalanadi, situatsiyadan - vaziyatlilikdan holi bo'ladi.

Shartli belgilardan – belgilarning belgisi bo'lgan til belgisi, signal va simvollardan farqli, kommunikativ va informativ belgilarning eng asosiysi, eng muhimi bo'lib, ikki tomonlama birlik hisoblanadi. U qabul qilinish va uzatishda mustahkamlangan informatsiyani tashish qobiliyatiga egadir.

So'z, so'z birikmasi, gap kabi nutq birliklari kommunikativ va informative belgilarning eng asosiysi hisoblanadi. Ular nominativ va predikativ vazifani bajaradi, tilni tafakkur bilan, jamiyat bilan bog'laydi.

Kommunikativ belgi obyektiv borliqdagi muayyan narsa-predmet, hodisa haqida muayyan xabar, ma'lumot beradi, ya'ni, u jamiyatda xabar berish vositasi, usuli sifatida ko'rsatiladi. Boshqacha aytganda, kommunikativ belgining asosiy xususiyati uning nimanidir anglatishida, nimanidir ifodalashida, muayyan ma'no bilan bog'lanishidadir.

Kommunikativ belgi moddiy hodisa, moddiy birlik sifatida u yoki bu ma'no bilan bog'lanadi. Demak, har bir til belgisi ikki tomonning bog'lanishidan, munosabatidan iborat bo'ladi. Til belgisi moddiy va ma'noviy tomonlarning bog'liqligidan, birligidan tashkil topadi.

Demak, kommunikativ belgi – til belgisi material va ideal tomonlarning – ikki jihatning munosabatidan tashkil topib, jamiyatda ijtimoiy xabar – informatsiya tashish uchun xizmat qiladi. Til belgisining psixik – ideal tomoni obyektiv voqelikni – predmetlar, hodisalar dunyosini inson ongida aks ettirishining ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.<sup>129</sup>

Xullas, aytilganlardan ma'lum bo'ldiki, jamiyatda belgilarning turli xillari, turlari bo'lib, ularning har biri, masalan, belgi – priznaklar (alomatlar), belgi – signallar (ishoralar), belgi – simvollar (ramzlar) va til belgilari - muayyan vazifani, o'ziga xos va mos vazifani bajaradi.

So'z asosiy belgi bo'lib, u tushunchaning vakili, ifodalovchisi, uning simvolidir.

<sup>129</sup> Ф.М.Березин, Б.Н.Головин. Общее языкознание. –М., 1979, 119-,120-бетлар.

Soʻz alohida belgi boʻlib, u faqat predmetnigina emas, balki tushunchaning ham oʻrinbosaridir.

Soʻz oʻzining yetakchi, bosh vazifasini, asosan, gap tarkibida amalga oshiradi. Demak, gap ham asosiy kommunikativ belgi, nutq birligi hisoblanadi.

Xullas, til belgilar sistemasi boʻlib, uning belgilari leksema, soʻz, soʻz birligini, gap kabi birliklar va ularning turlicha bogʻlanishidan tuziladigan konstruksiyalar lisoniy belgilar sifatida voqelanadi, jamiyatda muayyan ijtimoiy vazifa bajarish uchun xizmat qiladi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Informatsiya nazariyasi qanday nazariya?  
What kind of information is information theory?
2. Kod nima?  
What is a code?
3. Matn nima?  
What is a text?
4. Kanal nima?  
What is a channel?
5. Informatsiya nazariyasiga koʻra til nima?  
What is a language according to information theory?
6. Semiotika qanday fan?  
What is Semiotics?
7. Tabiiy belgilar qanday belgilar?  
What are natural signs?
8. Sunʼiy belgilar qanday belgilar?  
What are artificial signs?

#### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Informatsiya nazariyasi – biror xabardagi maʼlumotlarning miqdorini oʻlchash, aniqlash usullarini belgilaydi.

Information theory defines the ways of measuring of news in the given information.

2. Kod – xabarni yozib olish vositasi.

Code is a means of writing information.

1. Matn – xabarni berish jarayonidagi til birliklarining (belgilarning) jama-ketligi.

Text is the way of giving language units (signs) in sequence

2. Kanal – xabarni beruvchi muhit, sharoit.

Channel is a condition in which information is transmitted.

3. Semiotika – tabiiy va sun'iy (shartli) belgilarni o'rganuvchi fan; belgilar nazariyasi haqidagi ta'limot.

Semiotics is a science which studies natural and artificial signs and its teaching of sign theory.

6. Tabiiy belgilar – tabiat va jamiyatdagi muayyan predmet yoki hodisaning tarkibiy qismi, bo'lagi, alomati - xususiyati (masalan, qo'ng'iroq, gudok, bulut, iz).

Natural signs are the components of certain object or phenomenon in the nature and in the society (for instance, bell, siren, cloud, etc.).

7. Sun'iy belgilar – shartli belgilar, kommunikativ (informativ) belgilar; xabarni berish, olish, saqlash uchun, jamiyatda aloqa vositasi bo'lish uchun xizmat qiladigan belgilar; til belgilari (birliklari).

Artificial signs are conditional signs, communicative signs, they are signs (language units) for transmission of information, getting and preserving of information, it serves as a means of communication.

#### **Adabiyotlar:**

#### **Bibliography:**

1. В.М.Солнцев. Язык как системно-структурное образование. – М., 1971.

2. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. – Т., 1972.

3. В.И.Кодухов. Общее языкознание. – М., 1974.

4. Ф.М.Березин, Б.Н. Головин. Общее языкознание. – М., 1979.

5. Ҳ.Неъматов, Р.Расулов. Ўзбек тили систем лексикологияси неослари. - Т., 1995

#### **TILNING IKKI JIHATI: IFODA VA MAZMUN JIHATLARI**

Til sistemalar sistemasi – o'ta murakkab sistema sifatida jamiyatda ijtimoiy-amaliy vazifa bajarar ekan, ushbu jarayonda til sistemasining struktural birliklari, qurilish «a'zolari» faol harakatga keladi. Til

sistemasining elementlari, birliklari bo'lgan fonema, morfema, so'z va so'z kabilar o'zicha, alohida, yakka holda emas, balki o'zaro bog'liq holda o'zaro munosabatda, mantiqiy uyushgan-bog'langan holda obyektif, barorlik predmet, voqea - hodisalari haqida muayyan xabar beradi. Demak, mazkur birliklar o'zaro zaruriy, mantiqiy aloqaga kirishib, til sistemasini shakllantiradi, uning obyektivligini, bir butunligini ta'minlaydi, tilning ijtimoiy vazifa bajarishi uchun imkoniyat beradi, shart - sharoit yaratadi.

Ushbu jarayonda tilning yuqorida qayd etilgan birliklarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan, nisbiy mustaqilligi bilan, umumiy va farqli jihatlari bilan ajralib turadi.

Til sistemasi struktural birliklarining eng dastlabki o'ziga xosligi, muhim jihati nimada ko'rinadi?

Til sistemasining asosiy birliklari bo'lgan fonema, morfema va so'zlarning ijtimoiy vazifa bajarishidagi eng muhim jihati ularning ikki tomonga egaligida ko'rinadi. Ushbu birliklar ifoda va mazmun jihatiga egaligi bilan, shu nuqtayi nazardan umumiy hamda farqli xususiyatlari bilan o'zaro ajralib turadi, farqlanadi.

Umuman olganda, til birliklariga ifoda va mazmun jihati nuqtayi nazaridan qarash ilmiylik prinsipiga to'la muvofiq keladi, tilning jamiyatda kommunikativ vazifa bajarish mohiyatini, xususiyatini ochib beradi.

Eslatamiz, tabiatda ham, jamiyatda ham mavjud har bir narsa, hodisa – falsafiy ma'nodagi predmet shakl (tashqi) va mazmun (ichki) tomonlariga ko'ra baholanadi, muayyan ahamiyatga ega bo'ladi, turli fanlar nuqtayi nazaridan tadqiq qilinadi.

Tilning eng kichik birligi bo'lgan tovush (fonema) shakl hamda mazmun jihatiga ko'ra o'ziga xos bo'lib, morfema va so'zlardan farqlanadi. Tovush (fonema), qayd etilgan xususiyati nuqtayi nazaridan, faqat bir tomonga – ifoda tomoniga egadek ko'rinadi. U morfema va so'z kabi muayyan ma'no, tushuncha – mazmun bilan bog'lanmaydi, ma'no ifodalamaydi. Shu nuqtayi nazardan tovush (fonema) bir tomonlama birlikka o'xshaydi. Ammo tovush (fonema) faqat ifoda jihatiga, moddiylik xususiyatiga egaligidan tashqari, ayni vaqtda, u dastavval til birliklarining tashqi – ifoda jihatini tashkil qiladi va ularni shaklan – tovush tizimiga ko'ra farqlaydi. Shunga ko'ra, til birliklarining ma'nosi o'zgaradi, o'zaro farqlanadi. Demak, tovushlarning (fonemalarning) ma'no farqlash xususiyati aslida til birliklarining ifoda jihatlarini farqlashdan, ajratishdan kelib chiqadi. Aytilganlarga ko'ra, tovush

(leksema) tilning ma'no farqlash xususiyatiga, qiymatiga ega bo'lgan minimal birlik hisoblanadi.

Demak, tovush (fonema) muayyan ma'noga ega bo'lmagan, ammo, bir vaqtda, muayyan ma'noga ega til birliklarining (morfema va leksema) differenziatsiyasi uchun, ularni o'zaro farqlash uchun xizmat qiladi. Shunga ko'ra, tovush (fonema) ijtimoiy vazifa bajaruvchi til (nutq) birliklari - so'z va morfemalar nuqtayi nazaridan u ham jamiyatda ijtimoiy vazifa bajaradi.

Demak, til birligi bo'lgan tovush (fonema) kommunikativ jarayonda ijtimoiy vazifa bajarishiga, tilning eng asosiy – birlamchi qurilish material, moddiy ashyosi ekanligiga, so'z hosil qilish, so'z yasash, ma'no farqlash kabi ijtimoiy – lisoniy xususiyatlarga egaligiga ko'ra alohida baholanadi. Aytilganlarga ko'ra, tovush (fonema) til birligi sifatida tilshunoslikning alohida sohasi bo'lgan fonemalar haqidagi bilimotning – fonologiyaning tadqiq va tahlil obyekti hisoblanadi.

Sistemalar sistemasi bo'lgan tilning minimal qurilish birligi bo'lgan tovush (fonema) asosida hosil bo'luvchi morfema va so'z ifoda va mazmun, tovush va ma'no, tashqi va ichki, material va ideal jihatiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Aytmoqchimizki, tilning har ikkala birligi ham ikki tomonga – ifoda va mazmun jihatlariga egaligi bilan xarakterlanadi, umumiylikka ega bo'ladi. Ular qayd etilgan ikki jihatiga ko'ra belgi – til belgisi, til (nutq) birligi sifatida qayd etiladi.

Til birligi bo'lgan morfema ifoda (moddiy) va mazmun (ruhiy) jihatlarining bir butunligidan iborat bo'lib, tilning muayyan ma'noga ega eng kichik birligi hisoblanadi. Aytilganlarga ko'ra, u muayyan belgi – ramz hisoblanadi. Shunday qilib, morfema tovush va ma'no kabi ikki muhim jihatga egaligi bilan xarakterlanadi.<sup>130</sup>

Muayyan birlik bo'lgan so'z (leksema) ikki tomonga ega belgi sifatida tovush va ma'no, ifoda va mazmun jihatlarining dialektik bog'liqligidan iborat bo'lib, nominativ birlik holatida ijtimoiy vazifa bajardi. So'z (leksema) muayyan birliklar ichida ham shaklan, ham mazmunan – sifat jihatdan mukammal bo'lib, tilning ijtimoiy vazifa bajarishida semantik – funksional yetakchilik qiladi, qudratli vosita hisoblanadi.

Til sistemasida so'zning tashqi tomonini tovush, ichki – mazmun tomonini esa uning ma'nosi tashkil etadi. Tovush va ma'no orasidagi bog'lanish shartli (semiotik) bog'lanishni hosil qiladi. Demak, so'z tovush va ma'no jihatlaridan, tomonlaridan iborat o'ziga xos butunlikdir (mikrosistemadir).

<sup>130</sup>Fonema va morfema haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun "Til va nutq birliklari" bo'limiga qarang.



Soʻzning ifoda jihati uning tashqi – tovushlari boʻlib, bunda soʻzning belgisi sifatida uning tovush tomoni xizmat qiladi. Soʻz ifoda jihatiga eʼtibor qaratilganida, soʻzni formal shakllantiruvchi, uni moddiy birlik sifatida sezgi aʼzolarimizga taʼsir qilishini taʼminlovchi tovushlar nazarda tutiladi.

Soʻzning mazmun jihati uning ichki, maʼno tomoni (leksik maʼno, leksik tushuncha, ramziy axborot, signifikat, designat, semema) boʻlib, u obyektiv borliq elementlarining kishi ongida aks etishi, ayni elementlarga xos xususiyatlarning umumlashuvi natijasida yuzaga keladigan ideal (psixik) strukturadir. Demak, maʼno inʼikos kategoriyasidir.

Maʼno obyektiv borliq elementi yoki ushbu elementlar guruhi-hining kishi ongidagi shartli ramzi (belgisi, ishorasi) emas, balki bu element (yoki elementlar guruhining) kishi ongida mavhumlik kasb etgan obraz, umumlashgan inʼikosi hisoblanadi.

Soʻzning ifoda jihati – tovush tomoni obyektiv borliq elementi haqidagi xabarining – soʻz mazmun tomonining, maʼnoning (tushunchaning) ramzi, koʻrsatkichi boʻlib voqelanadi.

Soʻzning mazmun tomonini bʼzicha biron shaxsga maʼlum qilish mumkin boʻlmaganligi uchun uning tovush jihati, ramzi talaffuz qilinadi. Bu ramz (belgi) tinglovchi ongida tegishli tushuncha, tasavvur uygʻotadi.

Demak, til sistemasida ramziy munosabat tovush va maʼno orasidagi shartli bogʻlanish tarzida yuzaga chiqadi. Maʼnoda aks etadigan aniq narsa yoki hodisa tasavvuri (denotat) ikkinchi planda boʻladi. Denotat soʻz maʼnosi emas, balki soʻz yordamida koʻrsatiladigan, nomlanadigan, ataladigan hodisadir. Maʼno esa, qayd etilganidek, obyektiv borliq elementlariga xos boʻlgan xususiyatlarning inson ongida mavhumlik kasb etishi, umumlashuvi natijasida shakllanishidir.

Soʻzda tovush ifodalovchi (ramz, belgi) boʻlsa, maʼno ifodalanuvchi boʻladi.

Soʻz mazmun planida ikki hodisa farqlanadi: leksik maʼno (signifikat) va denotat.

Nutqda soʻz denotatning (obyektiv borliq elementining) lingvistik (lisoniy) vakili vazifasini bajaradi.

Demak, soʻz ikki: moddiy va ruhiy (maʼnoviy) jihatlarining bogʻliqligidan, diaxron – sinxron zaruriy, «tabiiy» aloqasidan iborat boʻlib, ayni bogʻliqlikning bir tomonini soʻzning ifoda jihati, ikkinchi tomonini esa uning maʼno jihati tashkil etadi.

Soʻzdan yirik soʻz birikmalari va gaplar ham ifoda va mazmun planlariga ega boʻlib, ularning mazkur ikki jihati koʻproq grammatika va

semantika ning aloqasi doirasida qaraladi. Ushbu nutq birliklari ham shu doirada ifola va mazmun jihatiga ega so'zlarning birikuvidan, o'zaro bog'lanishdan yuzaga keladi. Shu sababli ularni o'rganish, ularni hosil qilgan so'zlarni o'rganishdan, ilmiy tadqiq qilishdan boshlanadi<sup>131</sup>.

Quyidagidek qilib:

1. So'z tovush va ma'no, ifoda va mazmun tomonlarining dialektik bog'lanishidan iborat bo'lgan nominativ birlikdir.

2. Til sistemasida so'zning tovush tomoni ramz, mazmun tomoni esa so'zning ma'nosini tashkil etadi. Bu elementlar orasidagi bog'lanish shartli (semiotik) bog'lanish hisoblanadi.

3. So'zning mazmun (ma'no) tomoni obyektiv borliq elementlarining bishi ongida aks etishi, ushbu elementlarga xos xususiyatlarning umumlashuvi natijasida yuzaga keladigan ideal (psixik) strukturadir.

4. So'z mazmun planida ikki hodisa: leksik ma'no (semema, signifikat) va denotat farqlanadi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Tilning qanday jihatlari mavjud?

What aspects are there in the language?

2. Tilning ifoda jihati deganda nimani tushunasiz?

What do you understand by means of expressing of a language?

3. Tilning mazmun jihati deganda nimani tushunasiz?

What do you understand by the content of a language?

4. Til jihatlari qaysi lisoniy birliklar bilan bog'lanadi?

What language units are used to express language aspects?

#### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Til jihatlari – lisoniy birliklarning ifoda va mazmun tomonlarini o'z ichiga oladi.

Language aspects include the expression and content aspects of language units.

2. Ifoda jihati – lisoniy birliklarning tashqi – tovush tomoni bilan belgilanadi.

<sup>131</sup> So'z haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun "Til va nutq birliklari" bo'limiga qarang.

Expression plan is outer side of the linguistic units and defined by sounds.

3. Mazmun jihati – lisoniy birliklarning ichki – ma'no tomoni bilan aniqlanadi.

Content plan is inner, meaning, aspect of the linguistic (linguistic) units.

### Adabiyotlar: Bibliography:

1. В.М. Солнцев. Язык как системно – структурное образование – М., 1971.
2. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. – Т., 1972.
3. Р.Расулов. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. -Т., 1989.
4. Ҳ.Незматов, Р.Расулов. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. -Т., 1995.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Т., 2006.

## TIL VA NUTQ BIRLIKLARI

Til va nutq o'zaro dialektik bog'liq bo'lib, ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixik hamda ijtimoiy-individual hodisalar sifatida jami-yatga tengi yo'q aloqa quroli va aloqa usuli bo'lib xizmat qiladi.<sup>132</sup> Shunday ekan, til va nutq jarayoni qanday amalga oshadi? Qanday birliklar bilan «ish ko'radi»? Umuman, til va nutq birliklariga qanday birliklar kiradi-yu ularga xos xususiyatlar nimalardan iborat? Ular orasidagi o'zaro munosabat, bog'liqlik qanday kechadi?

Hozirda tilshunoslikda, xususan, o'zbek tilshunosligida til va nutqning asosiy birliklari sifatida fonema, morfema, leksema, model va tovush, so'z (so'z formasi), so'z birikmasi, gap hamda matn kabilar qayd etiladi. Aniqrog'i, til birliklariga: fonema, morfema, leksema va modellar; nutq birliklariga: tovush, so'z (so'z formasi), so'z birikmasi, gap, matn va boshqalar kiritiladi.

Til va nutq o'zaro bog'liq ekan, bundan o'z-o'zidan - mantiqiy ravishda til va nutq birliklarining ham o'zaro bog'liqligi, o'zaro «ajralmas» aloqada ekanligi tushunchasi kelib chiqadi. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas.

<sup>132</sup> Bu haqda qo'shimcha ma'lumot olish uchun "Til va nutq" bo'limiga qarang.

Shuqaki, til va nutqning bog'liqligi, jamiyatdagi vazifasi ular birliklarining faolligi, faolligi sababli yuz beradi. Til va nutqning o'zaro munosabati asosida ular birliklarining o'zaro bog'liqligidan, munosabatidan kelib chiqadi. Til va nutq jamiyatdagi o'z «operatsiyalarini», ta'sir qilish quvvatini muayyan birliklari orqali amalga oshiradi.

Aslida til birliklari muammosini hal qilish nutq birliklarisiz, nutq birliklari muammosini hal qilish esa til birliklarisiz amalga oshmaydi. Uning dialektik bog'liqligi, munosabati ham shunda. Boshqacha aytganda, nutq birliklari nutqda til birliklaridan hosil bo'ladi, ya'ni, nutq birliklari asosida til birliklari mavjud bo'ladi. Til birliklari nutq birliklari uchun moddiy asos vazifasini o'taydi. Nutq birliklari (tovush, so'z, so'z birligmasi, gap kabilar) aslida tilning - til birliklarining harakatdagi ko'rinishi, faolligidir.

Til va nutq dialektikasi quyidagi birliklar orqali namoyon bo'ladi.

### Fonema

Til birligi bo'lgan fonema fonologik sath obyektini sifatida muayyan jihatlari bilan boshqa til birliklaridan ajralib turadi, nisbiy mustaqillikka ega bo'ladi.

Fonema tilning boshqa birliklariga nisbatan, aytilganidek, eng kichik (minimal) birligi bo'lib, til sistemasida (strukturasida) eng katta (maksimal) vazifa bajaradi. Boshqacha aytganda, fonema hajm taqozosiga ko'ra minimal, ammo vazifasiga, «amaliga», til strukturasida tutgan mavqeiga ko'ra tengi yo'q maksimal birlik hisoblanadi. Aniqrog'i, fonema moddiy birlik-tovush sifatida tilni ham, uning qator birliklarini, shuningdek, nutq birliklarini ham «yaratadi», «yasaydi», ya'ni, u ushbu birliklarning moddiy ashyosi, qurilish materiali hisoblanadiki, fonemalarsiz-tovushlarsiz na til (nutq), na uning birliklari mavjud bo'ladi, muayyan vazifa bajaradi.

Demak, til birligi muammosini yoritish mantiqan fonemasiz (tovushsiz) uning xususiyatlarini aniqlamasdan amalga oshmaydi, to'liq, mukammal bo'lmaydi. Bu – aksioma. Shunday ekan, fonemaning o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi? Bular:

1. Fonema - (tovush) tilning eng kichik qurilish materiali, moddiy birligi bo'lib, ta'sir qilish, sezgi uyg'otish quvvatiga ega.

2. Til va nutq birliklari-morfema, leksema, so'z kabilar asosida fonema (tovush) yotadi. Fonema ushbu birliklarning tovush qiyofasini tashkil qiladi.

3. Fonema morfema va soʻzlarni tovush jihatidan farqlaydi. Qiyoslang: *bot-bor-bir-ki-r*; *gul-kul-kel-kim* va boshqalar. Shunga koʻra, mazkur soʻz maʼnolarida oʻzgarish, farqlanish yuz beradi. Boshqacha aytganda, fonema muayyan birliklarning mazmuni (maʼno) jihati bilan bogʻlanadi. Demak, fonema til (nutq) birliklarini tashkil qilishiga, ularni tovush jihatidan farqlashiga, mazmun jihatiga taʼsir qilishiga koʻra ijtimoiy vazifa bajaradi, ijtimoiy birlik hisoblanadi.

4. Fonema faqat bir tomonlama birlik–ifoda tomoniga ega. U til birligi sifatida muayyan belgi hisoblanmaydi.<sup>133</sup>

5. Fonema soʻzlovchilarning xotirasida oʻzining tipik farqlovchi belgilari yigʻindisi zaminida shakllangan maxsus ideal «akustik nazorat» yoki «tovush obrazi» sifatida saqlanadi. Fonemaning farqlovchi belgilari esa artikulyatsion (nutq aʼzolarining avtomatlashib yoki standartlashib qolgan tipik harakati, holati haqidagi tasavvur) va akustik (fonema aloqador boʻlgan tovush tipiga xos talaffuz sifati: oʻziga xos balandligi, kuchi, tembri, choʻziq – qisqaligi kabi) belgilar haqidagi tasavvurlar asosida qaror topadi.<sup>134</sup>

6. Fonema inson nutq aʼzolari yordamida hosil qilinadigan tovush tiplarining andozalari boʻlib, ular psixik – akustik obrazlar «galereyasi», qatori sifatida bizning xotiramizda saqlanadi. Soʻzlovchilar ushbu psixik – akustik obrazlar asosida nutq aʼzolarini harakatga keltiradi va natijada fonemalarning nutqiy koʻrinishlarini (tovushlarni) hosil etadi.<sup>135</sup>

7. Fonema invariant sifatida namoyon boʻladi, yaʼni, u til birligi sifatida umumiylik hisoblanadi, nutqdan tashqaridagi–nutqqacha boʻlgan – reallashmagan birlik boʻladi, «nofunksional» holat.

8. Fonemaning nutqdagi – soʻz (soʻz formasi), soʻz birikmalari tarkibidagi koʻrinishi, qurshov tovushlari taʼsirida paydo boʻlgan qiyofasi uning variantidir. Demak, bunda fonemaning variantlari maʼno farqlamaydi. Chunki ular bir fonemaning turli soʻz tarkibida namoyon boʻlishi, qoʻllanishi hisoblanadi. Qiyoslang: *uyim, tun, turmush, yugur, urgʻu, quruvchi* va boshqalar. Ushbu soʻzlardagi u bir fonemaning – u fonemasining - invariantning turlicha variantlari, xususiyliklari boʻlib qayd etiladi.

Aytilganlardan maʼlum boʻldiki, tilning eng kichik qurilish materiali sifatida fonemalarning eng muhim, bosh vazifasi – fonologik xususiyati

<sup>133</sup> Qar: V.M. Solnsev. Oʻsha asar. 114-, 115-betlar.

<sup>134</sup> H.Neʼmatov, O.Bozorov. Oʻsha asar, 12-bet.

<sup>135</sup> H.Neʼmatov, O.Bozorov. Oʻsha asar, 13-bet.

fonema, leksema, soʻz kabi maʼno ifoda-lovchi birliklarni hosil qilish – tovush tomonini shakllantirish hamda oʻrni bilan tovush jihatini oʻzgartirish kabi ijtimoiy vazifalarni bajarishdir.

### Morfema

Til birligi boʻlgan morfema morfologik birlik sifatida oʻzining moddiy tarkibi, qurilish materiali boʻlgan fonemadan – tovushdan farqlanadi.

Dialektik falsafaning umumiylik va xususiylik kategoriyasi nuqtayi nazaridan morfema ham, fonema ham til birliklari sifatida umumiylikka ega. Ayni vaqtda xususiylik umumiylikning voqe-olanishi, umumiylikning muayyan vaziyatda aniq namoyon boʻlishi ekan, morfemaning umumiylikdan xususiylikka oʻtishi, fonemadan farq qilishi, oʻziga eʼtiboli nimada? degan haqli savol tugʻiladi.

Dalolatimiz, morfema termini tilshunoslikka Ivan Boduen de Kurtene tomonidan kiritilgan boʻlib, soʻzning eng kichik maʼnoli qismini ifodalash uchun qoʻllangan.<sup>136</sup> Demak, ushbu fikrdan morfemaning muayyan maʼnoga egaligi, maʼno ifodalash tushunchasi kelib chiqadi. Aynan mana shu nuqtada morfema fonemadan farq qiladi. Shuningdek, morfema maʼnoga ega boʻlishiga koʻra tilning eng kichik maʼnoli birligi hisoblanadi. Bu oʻrinda morfemaning tilning eng kichik maʼnoli birligi ekanligi maʼno ifodalash mezonidan kelib chiqadi. Demak, fonema til birligi sifatida hajm taqozosiga koʻra eng kichik birlik boʻlsa, morfema til birligi sifatida maʼno ifodalash xususiyatiga koʻra eng kichik birlik hisoblanadi, yaʼni, morfema maʼnoli birlikning eng soʻnggi, oxirgi chegarasi hisoblanadi. Shunga koʻra, u boshqa maʼnoli qismlarga ajralmaydi. Qiyoslang: kitoblar: *kitob+lar*; temirchi: *temir+chi*; mustaqillik: *mustaqil+lik*; yurtim: *yurt+im* kabi soʻzlardagi umumiylik xususiyatiga ega boʻlgan –lar, –chi, –lik, –im kabilar.

Maʼlum boʻldiki, morfemalar, qayd etilganidek, shakl va mazmun, moddiy va maʼnoviy, tashqi va ichki tomonlarning oʻzaro bogʻliqligidan, bir butunligidan iborat ikki jihatli til birligidir.

Morfema bilan bevosita bogʻliq boʻlgan, muayyan vazifa bajaruvchi morf (morfa) va allomorf (allomorfa) tushunchalari – terminlari ham mavjud.

Morf (morfa) nutq jarayonida qoʻllanayotgan soʻzning – soʻz shaklining (formasining) tarkibida ishtirok etayotgan morfemaning

<sup>136</sup>V. M. Solnsev. Oʻsha asar. 246-bet.

«qiyofasi», varianti, ko'rinishidir. Morf bevosita muayyan so'z bilan so'z shaklida qo'llanishi, voqelanishi bilan, uning tarkibiy qismi ekanligi bilan xarakterlanadi. Qiyoslang: *tonggi, kechki; tomga, yotoqqa*. Demak, qayd etilgan so'z formalarida qo'llanayotgan -gi, -ga, -ka, -qa morflarning jami bir morfemani tashkil qiladi, ya'ni, -gi, -ga, -ka, -qa bitta morfema; -ga, -ka, -qa esa bitta morfema hisoblanadi. Ammo vaqtda ushbu morfalar biri ikkinchisiga nisbatan allomorf(a) morfemaning varianti – so'z shakli tarkibidagi ko'rinishi hisoblanadi.

Ma'lum bo'ldiki, allomorf(a) morfemaning varianti bo'lib, alohida morf(a) sifatida o'ziga mos, muvofiq keladigan so'z shakli tarkibidagi ishtirok etadi. Allomorf sifatida kuzatiladigan har bir morf(a)ning qo'llanish imkoniyati chegaralangan bo'lib, u faqat o'zi uchun qo'llanilgan bo'lgan sharoitda yuzaga chiqadi, tanlab qo'shiladi. Morfning allomorfning biri o'rnida ikkinchisi ishlatilmaydi. Qiyoslang: *tonggi - tongki, kechki - kechg'i*. Bunga fonetik vaziyat, fonetik shakl va semantika yo'l qo'ymaydi. Demak, allomorf qo'llanadigan so'z formalari qanday qabul qilingan bo'lsa, shunday shaklda namoyon bo'ladi.

Xullas:

1. Morfema - fonema bilan til birligi sifatida umumiylikka ega.
2. Morfema - tilning muayyan ma'noli birligi sifatida fonemadan tashkil topadi, o'ziga xoslikka, xususiylikka ega bo'ladi.
3. Morfemalar ifoda va mazmun tomonlarining birligidan tashkil topadi.
4. Morfema - so'z kabi nutqiy – sintaktik mustaqillikka ega emas. U nutqdagi leksema, so'z (so'z formasi) tarkibida funksional qism sifatida qo'llanadi.
5. Morfema - so'z formasi tarkibida morf va allomorf kabi ko'rinishlarda – variantlarda ham namoyon bo'ladi.

### Leksema

Til birligi bo'lgan leksema fonema va morfema kabi til birliklaridan, umumiylikdan til va nutq dialektikasida o'ziga xos voqelanishi, muayyan belgi-xususiyatlari bilan ajralib turadi. Uning o'ziga xosligi shundaki, u ham til birligi, ham nutq birligi bo'la olishi, shunga ko'ra, murakkabligi bilan xarakterlanadi.

Ushbu lisoniy hodisa til birligi sifatida leksema-umumiy bo'lsa, ammo nutq birligi sifatida esa u so'zdir, xususiydir. (Bu haqda «So'z» bo'limiga qarang).

Leksemaning til birligi sifatidagi o'ziga xosligi nimada?

Leksema til birligi sifatida o'zaro uzviy bog'liq ikki tomonning birligidan, bir butunligidan iboratdir. «Bu butunlikning bir tomonini leksemaning fonematik – akustik strukturasi (nomema), ikkinchi tomonini esa ideal birlik – ma'lum tushuncha zaminida shakllangan ma'no (vazifa) – semema tashkil etadi».<sup>137</sup>

Demak, leksema ham morfema kabi ikki tomonning: tovush va ma'noning, ifoda va mazmunning o'zaro bog'liqligidan, bir butunligidan tashkil topadi.

Til birligi bo'lgan leksemaning tashqi-ifoda tomoniga uning shakli, tovush jibati – nomema kirsam, leksemaning semema, ma'no – mazmun tomoniga denotatlar – narsa, hodisa, harakat, holat, belgi – keng ma'nodagi muayyan predmetlar kiradi. Demak, leksema ularni–keng ma'nodagi muayyan predmetlarni nomlaydi. Boshqacha aytganda, ob'ektiv olamda (daraxt) deb nomlanuvchi qattiq tanali o'simlik turlari (denotatlar) mavjud. Bu denotatlar bizning ongimizda daraxt tushunchasini shakllantirgan. O'z navbatida (daraxt) tushunchasi esa (daraxt) leksemasining ma'nosiga asos bo'lgan, bu ma'noning o'z navbatida (d), (a), (r), (a), (x), (t) fonemalar tizmasi (kompleksi) bilan tarixiy – ijtimoiy bog'lanishi til birligini yuzaga keltirgan. Albatta, (daraxt) tushunchasi (daraxt) leksemasining ma'nosi bilan aynan teng emas, lekin u bilan aloqada, munosabatdadir.

Til birligi bo'lgan leksemaning mazmun tomoni semema ham leksemaning tashkil etuvchi tomoni (tovush substansiyasi) kabi tarkibiy qismlardan iborat. Masalan, (*aka*) va (*uka*), (*opa*) va (*singil*) leksemalarining ma'no komponentlarini – semalarini olib ko'raylik:

(*aka*) – qon-qarindosh, bevosita, bir avlod, erkak, katta.

(*uka*) – qon-qarindosh, bevosita, bir avlod, erkak, kichik.

(*opa*) – qon-qarindosh, bevosita, bir avlod, ayol, katta.

(*singil*) – qon-qarindosh, bevosita, bir avlod, ayol, kichik.

Ko'rinib turibdiki, bu leksemalar ma'nosida o'zaro o'xshash, farqlanuvchi va takrorlanuvchi qismlarni – semalarni ko'rish mumkin. Bu semalar o'zaro birikib, yangi butunlikni, sememani – leksemaning ichki tomonini hosil qilgan»<sup>138</sup>.

Leksemaning eng muhim, yetakchi xususiyati uning jamiyat a'zolari uchun tayyorligi, naqdligi, umumiy va yaxlitligidir. Qiyos-lang: *vatan*,

<sup>137</sup> H.Ne'matov, O.Bozorov. O'sha asar, 14 –bet; A.A. Леонтьев. Слово в речевой деятельности. - М., 1965, 9-бет.

<sup>138</sup> H.Ne'matov, O.Bozorov. O'sha asar, 16-бет.



zamon, ish, dunyo, rasm, kitob, oq, kuch, shamol, o'n, yuz, ol, ko'k  
minglab tayyor birliklar voqelikdagi muayyan narsa, belgi, miqdor, harf  
holat, xususiyatlarni nomlab, atab, ifodalab keladi<sup>139</sup>. Demak, leksema  
nutq faoliyatida o'zlariga grammatik qo'shimachalarni, umumiyligi  
ma'noli turlicha affiksial morfemalarni birlashtirib, so'z formasi shakli  
nutq birligiga aylanadi, nutq birligi hisoblanadi. Qiyoslang: *Bog'mu*  
*gullar o'sadi* gapida bog', gul, o's leksemalari muayyan affiksial mor-  
femalarni olib, turlicha vazifalarni bajarib kelmoqda<sup>140</sup>.

Prof. Sh.Rahmatullayev ta'kidlaganidek, «leksema-asosiy, birlamchi  
til birligi bo'lib, til qurilishining lug'at boyligiga mansub, shunga ko'ra  
lug'at birligi, leksik birlik deb ham yuritiladi».<sup>141</sup>

Leksema umumiyliги aslida til umumiyligidan kelib chiqadi. Chunki  
til nutqqa nisbatan umumiy bo'lib, uning birliklari ham o'z-o'zidan  
muntazam umumiylik sifatida voqelanadi.

Xullas,

1. Leksema - til birligi sifatida tayyorligi, yaxlitligi va jamiyat a'zolari  
uchun umumiyliги, ular xotirasida mavjudligi bilan o'ziga xos.

2. Leksema - ifoda va mazmun tomonlarning bog'liqligidan, bu  
butunlikdan tashkil topib, muayyan predmetlarni atash, nomlash  
vazifasini bajaradi.

3. Leksema - fikr almashish jarayonida so'z birikmasi va gap kabi nutq  
birliklari uchun material vazifasini o'taydi.

4. Leksema - nutq faoliyatida so'z (so'z formasi) sifatida voqelanib,  
nutq birligi bo'lish imkoniga ega bo'ladi. U til sistemasining leksik birligi,  
lug'at boyligi hisoblanadi.

5. Leksemaning til birligi sifatidagi umumiyliги til umumiyligidan  
kelib chiqadi. Chunki til va nutq dialektikasida til umumiy, nutq esa  
xususiy hisoblanadi.

## Model

Til birligi bo'lgan modellar muayyan qolip, lisoniy (lingvistik)  
formula, tayyor qurilma, andaza sifatida tilga xosligi bilan ajralib turadi.

Ushbu modellar – qoliplar asosida leksemalar birikadi, leksemalar va  
morfemalar birikadi, so'z formalari, so'z birikmalari, gap kabi nutq  
birliklari hosil bo'ladi. Anig'i, «til birligi hisoblanadigan modellarga,

<sup>139</sup> Qar: H.Ne'matov, R.Rasulov. O'sha asar, 38-bet.

<sup>140</sup> H.Ne'matov, R.Rasulov. O'sha asar, o'sha bet.

<sup>141</sup> Sh. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili, 22-bet.

...soʻz yasalishi, soʻz birikmasi va gap qurilishiga oid boʻlgan qoliplar, chizmalar kiradi».<sup>142</sup>

Demak, til birligi boʻlgan modellar turlicha boʻlib, ular asosida yuzaga kelgan til (nutq) birliklarining mazmun jihati ham turlicha boʻladi. Demak, soʻz birikmalari modellari leksik-semantik bosqichdagi nominatsiyadan sintaktik-kommunikativ bosqichdagi nominatsiyani oʻziga keltiradi. Oʻz navbatida gap modeli esa birlamchi sintaktik-kommunikativ nominatsiyani, yaʼni, maʼlum voqea yoki vaziyatning asoslab olinishini hosil qiladi. Masalan, [[ot]+ [sifat]] gap modeli maʼlum subyekt yoki predmetning biror vaziyat bilan bogʻliq situativ holatga ega holati haqidagi fikrni anglatishga xizmat qiladi. Qiyoslang: *Yul qattil, Osmon tiniq, Choʻl katta* kabi. Demak, modellar - qoliplar til birliklarining oʻzaro birikish yoʻli, usulidir.

Nullus, til sistemasi fonema, morfema, leksema va model kabi tilning sistem xarakterdagi ichki turlicha yaruslariga (sathlariga) oid boʻlgan tabiiy - psixik birlik sifatida xotirada yashovchi oʻzaro dialektik bogʻlangan til birliklaridan tashkil topadi.

Til imkoniyat, nutq esa voqelik-ushbu imkoniyatning namoyon boʻlishi ekan, til imkoniyati til birliklari orqali mavjud ekan, demak, imkoniyat sifatida mavjud boʻlgan til birliklari nutqda - nutq birligi sifatida voqelanadi, namoyon boʻladi. Negaki, voqelik imkoniyatning voqelanishi, moddiy «qiyofasi»dir. Shunga koʻra, nutq birliklari boʻlgan tovush, soʻz (soʻz formasi), soʻz birikmasi va gap kabi hodisalarning oʻziga xosligi, muhim jihatlari nimada? degan savolning tugʻilishi tabiiydir.

## Tovush

Tilning eng kichik (minimal) birligi fonema ekan, demak, nutqning eng kichik (minimal) birligi tovush hisoblanadi. Negaki, tovush fonemaning nutqdagi aniq namoyon boʻlishi, muayyan koʻrinishi, harakatidir.

Fonema fonologik birlik sifatida fonetik birlik boʻlgan tovush bilan uzviy aloqada - munosabatda boʻladi. Bu mutlaqo tabiiy va mantiqiydir.

Nutq birligi boʻlgan tovushlar xususiylik sifatida tilning ashyosi, moddiy materiali boʻlib, fizik, akustik, fiziologik hamda lingvistik (lisoniy) kabi qator belgilarga egaligi bilan oʻziga xosdir. Anigʻi, tovushning talaffuzi, taʼsir qilishi, sezgi uygʻotishi, balandligi, kuchi,

<sup>142</sup> H.Neʼmatov, O.Bozorov Oʻsha asar, 18-bet.

tembri, cho'ziqligi, aniqligi kabi qator xususiyatlari borki, fonetikaning fizik – akustik, anatomik – fiziologik, perseptiv va lingvistik – funksional aspektlari deb qaraladi.<sup>143</sup>

Tovushning til sistemasidagi eng muhim xususiyati uning til birliklarining: morfema, leksema, so'z (so'z formasi) kabilarning moddiy qiyofasini, ifoda tomonini, shaklini qurishdir, shakllantirishdir. Demak, tovush til sistemasining eng asosiy, eng dastlabki qurilish materialidir. Moddiy asosidir. Boshqacha aytganda, masalan, so'zning moddiy tomonini uning tovush qobig'ini tashkil qiladi. Tovush qobig'i esa muayyan nazariy predmet, xususiyat bilan bog'lanib, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi.<sup>144</sup>

Tovush o'zi yaratgan, «qurgan» so'zni tovush jihatdan farqlash, demak, ma'no jihatdan farqlash, fonetik-semantik differentsiatsiya qilish uchun xizmat qilsa, u fonema – til birligining ko'rinishi, voqelanish sifatida baholanadi.

Har bir tovush til birligi – fonema bo'lish qobiliyatiga ega. Qiyoslang: *bor-bol; bor-bir; bor-tor* va *boshqalar*. Shuningdek, har bir fonema nutq birligi – tovush bo'lish imkoniyatiga ega. Qiyoslang: *u – tun, tush, tutuz, tur; o-ol, ot, osh, oy, ona, ota* va boshqalar.

Demak, fonemaning tovushga, tovushning fonemaga o'tishi mantiqiy – zaruriy jarayon bo'lib, til va nutq dialektikasining fonema va tovush orqali voqelanishidir.

Fonema va tovush nisbiy butunlik, nisbiy yaxlitlik sifatida til va nutqda, aytilganidek, ijtimoiy vazifa bajaradi.

Fikrimizcha, tarixiy – etimologik jihatdan tovush birlamchi. Chunki u talaffuz qilinish va eshutilish jarayoni bilan bog'liq, ya'ni, dastlab nutq – nutq tovushlari paydo bo'lgan, nutq yuzaga kelgan. Tovushning fonema sifatida baholanishi esa ikkilamchi bo'lib, jamiyat taraqqiyotining – til (nutq) taraqqiyotining muayyan davrida, keyingi bosqichlarida yuzaga kelgan, «yaratilgan».

Xullas, tovush nutq birligi sifatida nutqiy faoliyatni, nutqiy jarayonni ta'minlovchi moddiy birlikdir.

Shunday qilib,

1. Tovush – nutq birligi, fonemaning nutqdagi voqelanishi, harakati, uning moddiy asosi.

2. Tovush – xususiylik sifatida fizik, akustik, fiziologik va lisoniy (lingvistik) belgilarga ega.

<sup>143</sup>Qar: Ю.С. Степанов. Основы общего языкознания. –М., 1975, 63-71-бетлар. Х.А. Жамолхо-нов. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. –Т., 2004, 22-30-бетлар.

<sup>144</sup> S. Usmonov. O'sha asar, 127-bet.

1. Tovush – til (nutq) birliklarining (morfema, leksema, soʻzlarning) ifodasi qobigʻi, ifoda tomoni sifatida muayyan predmet bilan bogʻlanadi.

2. Tovush – fonemaning voqelanishi sifatida muayyan birliklarni ifodalashda semantik jihatdan farqlaydi, ijtimoiy vazifa bajaradi, ijtimoiy kommunikatsiyaga ega boʻladi.

3. Har bir tovush fonema boʻlish qobiliyatiga ega. Tovush fonemaga, leksema tovushga oʻtib turadi.

4. Tovush – tarixiy-etimologik – kelib chiqishi, paydo boʻlishi jihatidan birlamchi, fonema-ikkilamchi.

### Soʻz

Nutq birligi boʻlgan soʻz (soʻz formasi) nutq faoliyati bilan bevosita bogʻlanadi, nutq jarayonida voqelanadi. Shunga koʻra, u nutq birligi, nutq shakli hisoblanadi. Aslida soʻz (soʻz formasi) nutq birligi boʻlgan tovushdan – tovush kompleksidan iborat ijtimoiy belgidir. Soʻz (soʻz formasi) real birlik, xususiylik, aniqlik sifatida mavjud boʻladi. Qisqacha aytganda, «Leksema – til birligi tayyor va turlicha funktsioniyalar majmuasi boʻlsa, soʻz uning voqelanishi, roʻyobga chiqishi, aniq shakl, mazmun va vazifa kashf etgan moddiy koʻrinishidir. Har bir leksema nutqda muayyan soʻz sifatida namoyon boʻladi».<sup>145</sup> Demak, leksema va soʻz umumiylik va xususiylik dialektikasi bilan bogʻlangan boʻlib, soʻz xususiylik sifatida umumiylikning – leksemaning amaldagi koʻrinishi, harakati, muayyan vazifa bajarishidir.

Shunday qilib, til birliklari boʻlgan leksemalarning «... nutqda voqelanagan aniq shakl, mazmun va vazifaga ega koʻrinishiga soʻz deyiladi».<sup>146</sup>

Xulosa shuki, leksema va soʻz munosabati aslida til va nutq bogʻliqligining, oʻzaro aloqadorligining muayyan birliklardagi aniq koʻrinishi, tasdigʻidir.

Nutq birligi boʻlgan soʻz, aytilganidek, tovushdan tashkil topgan ijtimoiy - individual belgi boʻlib, shunga koʻra, u moddiyligi bilan – dastavval tovush tomoni (perseptiv vazifasi) bilan ajralib turadi.

Soʻzning nutq faoliyatidagi asosiy vazifasi atama-nominativ vazifa boʻlib, u obyektiv borliqdagi turlicha muayyan narsa-predmetlar, voqea-hodisalar, harakat-holatlar, belgi-xususiyatlar bilan bogʻlanadi, ularni ifoda etadi, anglatadi, ular haqida muayyan maʼno, tushuncha beradi.

<sup>145</sup> H.Neʼmatov, R.Rasulov.Oʻsha asar, 47-bet.

<sup>146</sup> H.Neʼmatov, R.Rasulov.Oʻsha asar,oʻsha bet.

Ayni vaqtda soʻz jamiyat aʼzolari xotirasida muhrlanib, ular tomonidan bir xilda qabul qilinadi, bir xilda tushuniladi. U gapda, matnda qabul etilib, kuzatishda beriladi.

Maʼlum boʻldiki, soʻz tovush tomoniga (perseptiv vazifasi), atama xususiyatiga (nominativ vazifasi) hamda maʼno, tushuncha ifodalash (signifikativ vazifasi) koʻra nutq birligi sifatida mu-kammalligi, fonema (tovush) va morfema kabi til birliklarini oʻz tarkibiga olish kommunikativ jarayonda yetakchilik qilishi bilan ajralib turadi, muayyan sanaladi.

Shuningdek, soʻz tovush va maʼnoga ega boʻlishidan, oʻz tarkibidagi fonema va morfema kabi alohida til birliklarini olishidan tashqari, gapning vazifasi boʻlgan fikr ifodalashni ham bajaradi. Soʻz gap boʻlinmay kela oladi. Soʻzga xos bu xususiyat, ayniqsa, feʼllarda kuzatiladi. Qiyoslang: *keldi – u keldi, mudradim – men mudradim, borsang – men borsang, yozdik – biz yozdik* va boshqalar. Demak, nutq birligi boʻlgan soʻzda nutqning boshqa birligi boʻlgan gapni ham koʻrish mumkin.

Soʻz har qanday soʻz birligimasi, gap va matn kabi sintaktik butunliklarning asosi, birlamchi material sanaladi. Fikr almashib jarayoni aslida soʻzlardan, ularning semantik-sintaktik bogʻlanishidan valentlik munosabatiga kirishuvidan sodir boʻladi. Shunga koʻra, soʻz oʻzining asosiy nominativ vazifasini nutq jarayonida bajaradi. Shu jarayonda u maʼno aniqligiga, pozitsion mustaqillikka ega boʻladi, muayyan sintaktik vazifada namoyon boʻladi.

Demak, soʻz semantik-morfologik jihatdan shakllanganligi bilan sintaktik birlik boʻlish imkoniga egaligi bilan oʻziga xosdir<sup>147</sup>.

Xullas:

1. Soʻz - nutq jarayonida voqelanishiga koʻra nutq birligi hisoblanadi.
2. Soʻz - leksemaning–til birligining nutqda muayyan shakl va mazmunda namoyon boʻlishidir, amaldagi harakati, nutqiy koʻrinishi.
3. Soʻz va leksema oʻzaro umumiylik va xususiylik dialektikasi bilan bogʻlangan boʻlib, soʻz xususiylik sifatida voqelanadi. Soʻz xususiyligi nutq xususiyligining mantiqiy davomidir.
4. Soʻz va leksema munosabati asosida til va nutq munosabati bogʻliqligi yotadi.
5. Soʻz - perseptiv, nominativ va signifikativ vazifalariga koʻra ajralib turadi.

<sup>147</sup> Soʻz haqida "Tilning ikki jihati: ifoda va mazmun jihatlari" boʻlimiga qarang.

U soʻz nutqda gapning vazifasi boʻlgan fikr ifodalashni ham bajaradi. U gap boʻlib kela oladi.

U soʻz oʻzaro bogʻliq boʻlgan fonetik, grammatik va semantik birlikning jami.

### Soʻz birikmasi

Nutq birligi boʻlgan soʻz birikmasi nutqiy hosila sifatida til va nutq birliklarining – leksema va soʻzlarning nutq faoliyatida erkin birikuvidan, maʼnoliq – maʼnoviy munosabatga kirishuvidan yuzaga keladi. Aniqrogʻi, soʻz birikmasining oʻziga xosligi, yaratilishiga koʻra eng muhim jihati shundaki, u nutq jarayonida «yetishtiriladi», hosil boʻladi, shakl birlikka aylanadi.

Soʻz birikmasi mustaqil maʼnoli soʻzlarning (leksemalarning) oʻzaro bogʻlanishidan yuzaga kelib, gap bilan soʻz orasidagi oraliq nutqiy birlik – nutq mahsuli sifatida baholanadi. U gap uchun qurilish materiali boʻlib yaratiladi. Ayni vaqtda soʻz birikmasi soʻzga nisbatan ham shaklan – uniploran, ham mazmunan–sifat jihatdan boyligi, kengligi, mukammalligi va aniqligi bilan ustun turadi.

Maʼlum boʻldiki, soʻz birikmasining yaratilishida soʻzlar xizmat qiladi, gaplarning yaratilishida esa soʻz birikmalari xizmat qiladi.

Soʻz birikmasi muayyan mazmun jihatiga ega boʻlib, ushbu mazmun jihatli birikma tarkibidagi soʻzlarning maʼnolariga asoslanadi. Soʻz birikmasi semantikasi soʻz semantikasiga koʻra aniqroq, chuqurroq, muakkabroq va toʻlaroq boʻladi. Negaki, u bir nechta soʻz maʼnosining oʻzaro «qorishuvidan», ichki munosabatidan, zanjirli bogʻlanishidan yuzaga keladi.

Soʻz birikmasi ham, aslida soʻz kabi, atash vazifasini – nominativ vazifasini bajaradi. Anigʻi, soʻz birikmasidagi atash vazifasi bir nechta soʻzlarning (leksemalarning) oʻzaro erkin sintaktik aloqaga, munosabatga kirishuviga koʻra amalga oshadi. «Erkin sintaktik aloqa deganda esa soʻzlarning muvaqqat, faqat nutq ehtiyoji va zaruriy atash vazifasini bajarish uchun tobe – hokim munosabatlariga kirishishi tushuniladi».<sup>148</sup> Qiyoslang: *hayot – yoshlar hayoti; davlat – buyuk davlat; takoya – hikoyani oʻqimoq; sovuq – qorning sovugʻi; gapirmoq – tez gapirmoq; olmoq – qoʻl bilan olmoq; kirmoq – uyga kirmoq; imtihon – imtihondan oʻtmoq va boshqalar.*

<sup>148</sup> Х. Исламатов, Р. Сайфуллаева, М. Курбонова. Узбек тили структурал синтаксиси асослари. -Т., 1999, 19-бет.

Soʻz birikmasi ham, aytilganidek, ifoda va mazmun, moddiy va maʼnaviy jihatlarga egaligiga koʻra morfema, leksema va soʻz kabi birlik (nutq) birliklari bilan umumiylikni hosil qiladi.

Soʻz birikmasining oʻziga xosligi yana shundaki, u sintaktik birlik sifatida soʻzdan farq qilsa, boshqa sintaktik birlik boʻlgan gap bilan umumiylikka ega boʻladi. Ammo bu umumiylik asosida muayyan xususiyliklar, farqli jihatlari yotadi, yaʼni, soʻz birikmasi fikrni ifodalamaydi. Shunga koʻra, u gapga xos fikriy tugallik intonatsiyasiga ega emas. Soʻz birikmasini tashkil qilgan aʼzolar, aytilganidek, toʻliq hokim munosabatida boʻlib, hokim soʻz qaysi soʻz turkumiga tegishli boʻlsa, u shu turkum nomi bilan ataladi. Demak, soʻz birikmasining nomlanishida morfologik belgi-hokim soʻz tegishli boʻlgan turkum asos hisoblanadi. Qiyoslang:

1. Oʻtli birikmalar: *baland bino, hashamatli saroy, sport zali, turon kurashi.*

2. Feʼlli birikmalar: *chiroqni yoqmoq, soatni taqmoq, qoʻl bilan olmoq, tez oʻqimoq.*

3. Sifatli birikmalar: *otdan baland, uydan kichik, temirdan qattiq, loydan yumshoq.*

4. Ravishli birikmalar: *pehshindan keyin, oʻqdan tez, bolalardan koʻp.*

5. Sonli birikmalar: *oʻquvchilarning biri, oʻndan toʻqqizi, uchdan ikki.*

6. Olmoshli birikmalar: *tadbirkorlarning barchasi, daraxtlarning hammasi, oʻyinchilarning uchovi.*

7. Modal soʻzli birikmalar: *uyda bor, qoʻlimda yoʻq.*

Soʻz birikmalari hokim komponentiga koʻra oʻzaro farqlani-shidan, muayyan nomga ega boʻlishidan tashqari tuzilishiga koʻra ham – tarkibida nechta mustaqil soʻz (leksema) qatnashishiga koʻra ham tavsiflanadi: soʻz birikmasi tuzilishiga koʻra sodda – ikki mustaqil soʻzdan va murakkab – uch va undan ortiq mustaqil soʻzdan tarkib topadi. Demak, soʻz birikmalarini sodda va murakkab birikmalarga boʻlishda nutq birligi tarkibidagi mustaqil soʻzlarning miqdori asos boʻlib xizmat qiladi. Qiyoslang: *mustaqillik ramzi, istiqlol gʻoyasi, Prezidentimiz tabrigi, tunning yarmi, togʻdan baland, ruhiyatiga tegishli, fiziologik jarayon, kunduzgi boʻlim talabalari, imtihon sessiyasi yakunlari, oraliq nazorat savollari, minglab tomoshabin sigʻadigan bino, hikoyani tezlik bilan qiziqarli yozmoq, Vatanimiz chegaralarini mardonavor qoʻriqlayotgan yoshlar; mustaqillik yillari hashamatli qurilgan sport zali va boshqalar.*

Shunday qilib, nutq birligi bo'lgan so'z birikmasi nutqiy faoliyat mahallasi sifatida aslida-mohiyatan tarkibidagi so'zlardan, ularning ma'no muvofiqligini asosida o'zaro birikuvidan-valentlik munosabatiga kirishuvidan keladi. Bunda so'zlarning o'zaro birikib, so'z birikmasini (yoki gapni) hosil qilishi asosida so'zlarning valentlik imkoniyati--so'z valentligi yotadi.

So'z birikmasi tarkibidagi muayyan so'z - hokim so'z o'z ma'nosini ochish, xususiylashtirish uchun muayyan boshqa bir so'zni - tobe so'zni talab etadi, ushbu so'z bilan birikadi - valentlik aloqasiga, munosabatiga kirishadi. Demak, valentlik so'zning xususiyati bo'lib, so'zning o'z ma'nosi asosida boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatga birlashuvini amalga oshirishdir. Boshqacha aytganda, valentlik nazariyasida muayyan so'zning bir yoki bir nechta so'zni o'ziga biriktirish-so'z birikmasini hosil qilish xususiyatlari umumlashtiriladi.

Shunday qilib, so'zlarning birikib, so'z birikmasini hosil qilishi, dastavval, birikma tarkibidagi so'zlarning ma'no imkoniyatiga ko'ra amalga oshadi.

So'zlar orasidagi semantik munosabat esa bevosita sintaktik munosabatni yuzaga keltiradi, birikma konstruksiyasi tuziladi.

So'z birikmasi ham fonetik, leksik-grammatik va semantik jihatlarning birligidan tashkil topadi.

Xullas:

1. So'z birikmasi - nutq mahsuli, nutq birligi.
2. So'z birikmasi - birdan ortiq mustaqil ma'noli so'zlarning o'zaro birikuvidan tashkil topib, nisbatan aniq ma'no ifodalaydi, nutqda nominativ vazifa bajaradi.
3. So'z birikmasi komponentlari o'zaro tobe-hokim munosabatida bo'ladi.
4. So'z birikmasi hokim komponentining qaysi so'z turkumiga tegishligiga ko'ra turlicha nomlanadi (o'sha turkum nomi bilan ataladi).
5. So'z birikmalari - tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab birikmalarga bo'linadi.
6. So'z birikmasi asosida so'z valentligi--so'zning valentlik imkoniyati yotadi.



## Gap

Gap ifoda va mazmun jihatlariga ega nominativ (alohida olinganda) va kommunikativ (matn ichida berilganda) birlik sifatida morfema, leksema, soʻz va soʻz birikmasi kabi til hamda nutq birliklari bilan umumiylikni hosil qiladi. Ammo gap nutq “vakili” sifatida qayd etilgan lisoniy birliklardan farqli jamiyatda kommunikativ vazifa bajaradi, kommunikatsiya akti birligi hisoblanadi. Til aloqa quroli boʻlish vazifasini gap, orqali amalga oshiradi. Chunki gap fikr ifodalash vositasi sifatida faqat oʻziga xosligi bilan, semantik-grammatik, prosodemik shakllanganligi bilan boshqa lisoniy birliklardan ajralib turadi. Anigʻi, gap fikr ifodalash – axborot (xabar) berish va axborot (xabar) olish birligidir. Yuqorida qayd etilgan boshqa barcha birliklar gap uchun qurilish materiali boʻlib xizmat qiladi.

Gap mazmun jihatida obyektiv borliq aniq holda emas, balki umumlashtirilgan holda ifodalanadi. Shuningdek, gap mazmunida obyektiv borliqdan tashqari kishining mazkur borliqqa boʻlgan munosabati – modallik-kommunikativ modallik ham mavjud boʻladi<sup>149</sup>.

Modallik esa predikativlikning muayyan koʻrinishi, tarkibiy qismi sifatida voqelanadi. Boshqacha aytganda, gapning grammatik asosini predikativlik – muayyan narsa-predmetning muayyan belgi-xususiyatini tasdiqlash yoki inkor qilish tashkil qiladi.

Xullas, gap predikativlik ifodasiga ega boʻlib, bu uning grammatik belgisi sifatida zamon, shaxs, modallik, mayl kabi grammatik sistemalarni-kategoriyalarni oʻz ichiga oladi. Ayni vaqtda gapning predikativlikka ega boʻlishining oʻzi bu birlikning oʻziga xos fonetik shakllanishini ham taqozo qiladi: predikativlik mavjud boʻlgan joyda, albatta, intonatsion shakllanish ham boʻladi. Chunki intonatsiya gapning tashqi shaklidir. U gapning boshlanish va tugash chegaralarini koʻrsatadi, jumladan, delimitativ (chegaralash, ajratish) funksiyani bajaradi. Kishilarning oʻzaro aloqa qilishlari gap orqali amalga oshirilgani uchun intonatsiya ham predikativlik kabi kommunikativ vazifani bajaruvchi vosita boʻlib, u gapning uchinchi muhim belgisidir.

Shunday qilib, gap obyektiv borliqni kishining unga munosabati orqali ifodalaydigan leksik-grammatik va intonatsion butunlikdan iborat boʻlgan alohida nutqiy formadir,<sup>150</sup> nutq faoliyatidir. Qiyoslang: *Oʻzbekiston* –

<sup>149</sup> S.Usmonov. Oʻsha asar, 171-bet.

<sup>150</sup> S.Usmonov. Oʻsha asar, 172-bet.

*Kelajagi buyuk davlat.* Ushbu gapda tasdiq, munosabat, intonatsion tugallik mavjud. Demak, gapni gap qiluvchi muhim jihatlar predikativlik va intonatsiyadir.

Gap nutq birligi-sintaktik birlik sifatida ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko'ra muayyan turlarga ajraladi. Gap mazmun tomoni orqali darak (*Vatan go'zal va tabiiy moddalarga boy*), so'roq (*Terrorizmni qoralamagan xalq bormi dunyoda?*), buyruq (*Bugungi ishni ertaga qoldirma*) kabi xabarlar oqchalanadi. Ushbu jarayonlar gap mantiqiy tomonining asosini tashkil qiladi.

Gaplar tuzilishga ko'ra sodda (*Men keldim*) va qo'shma (*Tun chekindi, kun boshlandi*) gaplarga bo'linadi.

Xullas:

1. Gap - ifoda va mazmun jihatlariga ega nutq birligi.
2. Gap - kommunikativ jarayon – fikr ifodalash birligi bo'lib, semantik, grammatik va prosodemik shakllangan.
3. Gapning grammatik asosini predikativlik tashkil qiladi.
4. Gap - intonatsion shakllanganligi bilan ham o'ziga xos.
5. Gap ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko'ra, muayyan turlarga ajraladi.
6. Til birligi sifatida gap qurilish modellari (qoliplar) nutqda nominativ birliklar va grammatik vositalar bilan to'ldiriladi.

### Matn

Matn semantik va sintaktik tuzilishiga ko'ra eng yirik va eng murakkab nutq birligidir. Matn - umumiylik, butunlik, mavhumlik va murakkablik sifatida qator gaplarning – xususiyliklarining, qismliklarning, konkretliklarning ketma-ketligi, ularning mantiqiy-mazmuniy bog'liqlikda biri ketidan ikkinchisining joylashishidir, faolligidir. Matn og'zaki va yozma ko'rinishlarga ega. Qiyoslang: Mening ko'p gullarim ochilmay xazon bo'ldi, hazratim. Mening bir qanotim Ahmad Tanbalning olovida kuydi - yu, ikkinchi qanotimni Shayboniyxon kuydirdi. Ilohim, endi siz shu mash'um olovlarning orasida qolmang (P.Qodirov).

Umumiy xulosa shuki, til va nutq birliklari tilni-kommunikativ jarayonni harakatlantiruvchi, moddiy asos bilan ta'minlovchi, ijtimoiy-amaliy vazifa bajarishi uchun xizmat qiluvchi kuchdir, vositalardir.

**Mustahkamlash uchun savollar:  
Questions for Consolidation:**

1. Til va nutq birliklari qanday birliklar?  
What units are language and speech units?
2. Fonema nima?  
What is phoneme?
3. Morfema nima?  
What is morpheme?
4. Leksema nima?  
What is lexeme?
5. Model nima?  
What is a model?
6. Tovush nima?  
What is a sound?
7. Soʻz nima?  
What is a word?
8. Soʻz birikmasi nima?  
What is a word combination?
9. Gap nima?  
What is a sentence?
10. Matn nima?  
What is the text?

**Asosiy tushunchalar:  
Basic notions:**

1. Til birliklari – nutq (nutq birliklari) uchun imkoniyat, moddiy asos vazifasini oʻtaydi, nutqda nutq birligi sifatida voqelanadi.

Language (linguistic units) serve a material basis for using possibility of speech (speech units) and acts as a speech unit in speech.

2. Fonema – tilning faqat ifoda tomonga ega minimal qurilmasi, ashyosi boʻlib, lisoniy birliklarni hosil qiladi, oʻrni bilan ularning tovush jihatini (maʼnosini) farqlaydi.

Phoneme is a minimal unit which is responsible for the expression aspect of the language and forms linguistic units, and differentiates, when it is needed, their sound (meaning) aspect.

3. Morfema – ifoda va mazmun jihatiga ega sintaktik (nutqiy) nomustaqil birlik.

Morpheme is a dependent syntactical unit which has both expression and content aspects.

4. Leksema – ifoda va mazmun jihatiga ega, atash vazifasini bajaruvchi, jamiyat a'zolari uchun tayyor va umumiy bo'lgan nutq birligi (so'z) bo'lish imkonidagi tilning eng muhim, asosiy birligi.

Lexeme is a unit which has both expression and content aspects and has a nominative function it is a general and ready-made speech unit for the society to use/ The most important unit of a language.

5. Model – so'z yasalishiga, so'z qurilishi va gap qurilishiga oid qolip (andaza) lar. Bular asosida lisoniy birliklar o'zaro birikib, nominativ va kommunikativ birliklarni hosil qiladi.

Model is patterns related to forming a word and a sentence. By the help of which language units are combined to form nominative and communicative units.

6. Nutq birliklari – nutqda til birliklaridan hosil bo'lib, tilning – til birliklarining harakatdagi ko'rinishi, faolligidir, voqelikdir, muayyan kommunikativ vazifa bajarishidir.

Speech units are formed by the help of language units and fulfil certain function of language units.

7. Tovush – nutq birligi, fonemaning nutqdagi voqelanishi, ko'rinishi bo'lib, muayyan birliklarni fonetik-semantik jihatdan farqlaydi, ularning moddiy asosi hisoblanadi.

Sound is a speech unit, realization of phonemes in the speech and differentiates certain units from phonetic and semantic points of view and considered to be their material basis.

8. So'z - nominativ vazifa bajaruvchi nutq birligi, leksemaning nutqdagi ko'rinishi, muayyan shakl va mazmunda namoyon bo'lishidir.

Word is a speech unit which performs a nominative function, it is the appearance of lexeme in the speech and has certain form and content.

9. So'z birikmasi – murakkab tushuncha ifodalovchi nutq birligi bo'lib, mustaqil so'zlarning birikuvidan, valentlik xususiyatidan tashkil topadi, birikma komponentlari hokim - tobe munosabatida bo'ladi.

Word combination is a speech unit which expresses a complex notion and it comprises the combination of words, collocations and their components.

10. Gap – fikr ifodalovchi nutq birligi bo'lib, semantik, grammatik va prosodemik shakllangan, predikativlik ifodasiga ega intonatsion butunlikdir.

Sentence is a speech unit which expresses opinion and it is formed semantically, grammatically and prosodically and an intonation unit which has predicative character.

11. Matn semantik va sintaktik tuzilishiga ko'ra eng yirik va eng murakkab nutq birligidir.

According to the semantic and syntactic structure the text is the largest and the most complicated unit of the speech.

#### Adabiyotlar:

#### Bibliography:

1. В.М.Солнцев. Язык как системно-структурное образование. – М., 1971.
2. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. –Т., 1972.
3. Ю.С.Степанов. Основы общего языкознания. – М., 1975.
4. Н.А. Баскаков, А.С.Содиқов, А.А.Абдуазизов. Умумий тилшунослик – Т., 1979
5. Р.Расулов. Лексико-семантические группы глаголов состояния и их валентность.– Т., 1991.
6. Ҳ.Неъматов, О.Бозоров. Тил ва нутқ. – Т., 1993.
7. М.Қ. Абузалова. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик курилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. Номзодлик диссертацияси автореферати.-Т., 1994.
8. Ҳ.Неъматов, Р.Расулов. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т., 1995.
9. Р.Расулов.Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. – Т., 2005.
10. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Т., 2006.
11. М.Йўлдошев. Бадий матн лингвопоэтикаси.- Т., Фан. 2007.
12. D.Xudoyberganova. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Т.,Fan. 2013.

### III. SISTEMASI. PARADIGMATIKA VA SINTAGMATIKA

Til bilan omil material sistema sifatida ideal sistemalarning, ya'ni, tushunchalar, fikrlar, tushunchalarning «moddiylashishi», voqelanishi uchun asos qilibadi.

Til sistemasi – bu lisoniy (lingvistik) birliklar va ularning jamiyat atrofida – kommunikativ jarayonga mos holda o'zaro bog'lanishi, mantiqiy munosabatga kirishishi uchun xizmat qiladigan muayyan qatorda tashkil topadigan, imkoniyatdir.

Til sistemasi tarkibidagi moddiy – kommunikativ birliklar muayyan qatorda asosida o'zaro zaruriy aloqaga, munosabatga kirishadilar, asosiy guruhlarini (paradigmalarni) tuzadilar, nutq birliklarini – birliklarini yaratadilar. Bu aloqa, munosabatlar mutlaqo mantiqiy, obyektiv, ijtimoiy bo'lib, ikki yo'nalishda – paradigmatic va sintagmatic bog'lanishlarda kuzatiladi, reallashadi, ushbu aspektlarda tadqiq va tahlil qilinadi, o'rganiladi. Anig'i, til birliklari orasidagi bog'lanish, aloqa paradigmatic va sintagmatic munosabatni hosil qiladi. Demak, til sistemasi tarkibidagi birliklarning asosiy munosabatlari paradigmatic va sintagmatic munosabatlar hisoblanadi. Til sistemasi faoliyati, amaliyoti, tarqalishi, mavjudligi aynan mana shu paradigmatic va sintagmatic munosabatlar asosida yuz beradi. Shunga ko'ra, til sistemasi bilan bog'lanish – tabiiy bog'liq paradigmatic – paradigmatic munosabat va sintagmatic – sintagmatic munosabat kabi tushunchalarni aniqlash, ularning til sistemasidagi mavqeini, ahamiyatini, o'rnini belgilash nazariy tilshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Eslatamiz, paradigmatic, paradigmatic munosabat (assosiativ aloqa) va sintagmatic, sintagmatic munosabat tushunchalari Fer-dinand de Saussure tomonidan tilshunoslik nazariyasiga kiritilgan.

Paradigmatic til birliklarini til sistemasining elementlari sifatida, struktural birliklarning jami sifatida tekshirish aspektidir.<sup>151</sup> Aytmoqchimizki, paradigmaticada til sistemasining struktural birliklari muayyan paradigmatalarga birlashib, o'zaro bir-biri bilan taqqoslanishiga, qiyoslanishiga ko'ra xarakterlanadi. Demak, paradigmatic ayni vaqtda paradigmalar sistemasidir. Paradigmalar sistemasi esa, aytilganidek, til birliklariga, aniqrog'i, ularning umumiy va xususiy ma'nolariga ko'ra – ular asosida tashkil topadi, ya'ni, paradigmalar o'zaro mantiqiy munosabatga kirishgan qator til birliklarining umumiy ma'nolariga ko'ra

<sup>151</sup> O.S. Axmanova. Словарь лингвистических терминов. –М., 1960, 310-bet.

birlashib, xususiy ma'nolariga ko'ra esa farqlanadi. Masalan, kelishik bilan turlanishi hamda grammatik son va epalik paradigmasi, fe'llarning shaxs-sonda tuslanish paradigmasi va b. Qiyoslang:

I	II
1. <i>Vatan</i>	1. <i>Oldim</i>
2. <i>Vatanning,-im</i>	2. <i>Olding</i>
3. <i>Vatanni,-ing</i>	3. <i>Oldi</i>
4. <i>Vatanga,-i</i>	4. <i>Oldik</i>
5. <i>Vatandan,-imiz</i>	5. <i>Oldingiz</i>
6. <i>Vatanda,-ingiz,-lari.</i>	6. <i>Oldi(lar)</i>

Demak, paradigma hosil qilgan ayni birliklar tekshirib ma'nosiga ko'ra bir xil, grammatik (xususiy) ma'nosiga ko'ra farqlanishi bilan o'ziga xosdir. Shuningdek, paradigmalar ko'pincha tik (vertikal) joylashishi bilan ham ajralib turadi.

Ma'lum bo'ldiki, muayyan paradigmaga birlashuvchi til birliklari o'zaro munosabati paradigmatik munosabat sifatida namoyon bo'ladi.

Paradigmatik munosabat bir paradigma birliklari doirasidagi munosabatdir, ichki jarayondir.

Til va nutq dixotomiyasiga ko'ra paradigmatika paradigmatik munosabat tushunchasi til bilan – til imkoniyati bilan bog'lanadi. Paradigmatik munosabat birliklari ham aslida imkoniyat sifatida nutq birliklarida voqelanadi, muayyanlashadi, nutq uchun ashyo material vazifasini o'taydi, nutqqacha bo'lgan jarayon hisoblanadi. Shunga ko'ra, ular sintagmatik munosabatlardan farqlanadi, ular bevosita ruhiy – fikriy ta'sir qilish quvvatiga – kommunikativ imkoniga ega bo'lmaydi, umumiylik sifatida mavjud bo'ladi.

Paradigmatik munosabat tushunchasi keng bo'lib, til birliklarining, masalan, so'zlarning muayyan bog'lanishlarini ifodalovchi (bo'kmoq, ivimoq; ozmoq, oriqlamoq, o'zgartirarmoq, shalvaymoq, shalviarmoq), tematik guruhlar (*sub, arb, kumil, bo'lib, dengiz, okean*), (*shimol, janub, sharq, g'arb*), (*tepalik, bahar, cho'qqi*); so'z turkumlari (*ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravishi, keng-tor, kun-tun, qattiq-yumshoq, oq-qora, yaxshi-yomon, shirin, yosh-qari*) kabilarni ham o'z ichiga oladi.

Demak, paradigmatik munosabatlar lisoniy birliklarning o'zaro umumiy belgi-xususiyatlariga ko'ra bog'langan, birlashgan paradigmatik munosabatdir.

1.2.2.2. Til va nutq birliklari orasidagi o'xshashlikka va farqlanishga

Paradigmatik munosabat til birliklarining nutqqacha bo'lgan munosabat sifatida til hodisasi bo'lib, tilshunoslikda assotsiativ munosabat nomi bilan ham yuritiladi.

Paradigmatik (assotsiativ) munosabatni tashkil qiluvchi til birliklari (munosabat) chegaralanmagan, nisbatan noaniq, davomiydir. Paradigmatik munosabatdagi birliklar o'zaro tobe - hokimlik munosabatida bo'lmaydi, kirisha olmaydi. Chunki ular muayyan umumiy bog'langan bog'langan alohida teng huquqli mustaqil birliklar sifatida paradigmatik munosabatni hosil qiladi.

Paradigmatik munosabat til birliklarining nutqqacha-nutq munosabati bo'lgan munosabati, aytilganidek, imkoniyat sifatidagi til hodisasi. Til va nutq dialektikasi nuqtayi nazaridan paradigmatik munosabat umumiylik, sabab, imkoniyat sifatidagi til hodisasi hisoblanadi.

Paradigmatik munosabat bilan bog'liq bo'lgan munosabat - paradigmatik munosabat esa til va nutq dixoto-miyasiga bog'langan qavat biri bilan bog'lanadi?

Paradigmatik munosabat o'z mavjudligi va amaliy qudratini, ijtimoiy harakatini ta'minlash uchun, eng asosiy munosabatlarga ko'ra amalga oshirar ekan, o'zining berilishi mutlaqo mantiqiydir.

Paradigmatik munosabat til sistemasining birliklari va qoidalari-paradigmatik munosabat birliklari - paradigma a'zolari til hodisasi sifatida o'zining ta'sir kuchini, harakatini, ijtimoiy-harakatini va faoliyatini-kommunikativ vazifasini sintagmatikada-paradigmatik munosabatda namoyon qiladi, ko'rsatadi. Chunki paradigmatik munosabat birliklari ijtimoiy amaliyot natijasi, fakti, hodisasi sifatida sintagmatik munosabat orqaligina-til birliklarining paradigmatik munosabatiga kirishuvi-semantik-sintaktik bog'lanishiga ko'ra amalga oshiradi. Demak, sintagmatika, sintagmatik munosabat nutq bilan, paradigmatik munosabat bilan bog'lanadi, nutq hodisasi, nutq fakti hisoblanadi.

Paradigmatik munosabat til va nutq faoliyati kommunikativ faoliyatdir, fikr almashish hodisasi. Til sistemasining, paradigmatik munosabat birliklarining paradigmatik munosabat faoliyati, harakatidir.

1.2.2.2.2. Til va nutq birliklari orasidagi o'xshashlikka va farqlanishga munosabat munosabat olimi Lai Yelmslev tomonidan paradigmatik munosabat termini bilan ta'riflangan. Ular tomonidan paradigmatik munosabatni ta'riflashda tilshunoslik nazaridavida til birliklarining paradigmatik munosabati dizyuktiv munosabat sifatida ta'riflangan.



Nutq hodisasi, nutq fakti bo'lgan sintagmatika, sintagmatik munosabat tushunchalari o'ziga xos xususiyatlari, muayyan «shaxsiy» jihatlari bilan ajralib turadi. Aniqrog'i, sintagmatika til sistemasi birliklarining nutq faoliyatida muayyan tartibda, ketma-ketlikda joylashishi, o'zaro mantiqiy munosabatga kirishishidir.

Ma'lum bo'ldiki, til sistemasi birliklarining faollashishi, nutqning aniq birligiga aylanishi sintagmatika, sintagmatik munosabat tufayli yuz beradi. Bundan mantiqiy ravishda paradigmakaning sintagmatika bilan bog'liqligi kelib chiqadi. Aytish mumkinki, sintagmatika paradigmakaning mavjudlik va namoyon bo'lish shaklidir.

Sintagmatika til birliklarining nutq jarayonida o'zaro bog'langan holda qo'llanishini tekshiradi.

Demak, lisoniy birliklarning – masalan, so'zlarning nutq faoliyatida ketma-ket kelishi, muayyan tartibda joylashishi sintagmatika sifatida namoyon bo'ladi.

Sintagmatikada lisoniy birliklar orasidagi munosabatlar aniqligi va izchilligi bilan ajralib turadi. Qiyoslang: *Men istiqloq tufayli gullab yashnayotgan Vatanning farzandiman.* Ko'rinib turibdiki, nutq faoliyatida muayyan «yotiq chiziqqa» joylashib, muayyan tartibda, mantiqiy ketma-ketlikda kelgan birliklar orasidagi munosabatlar sintagmatik munosabatni hosil qiladi. Sintagmatik munosabatlar doimo yaqqol ta'sir qilishi – insonda lisoniy sezgi uyg'otishi bilan ham o'ziga xosdir.

Sintagmatik munosabatlar nutq faoliyatidagi birliklar aloqasi, munosabati sifatida, paradigmatic munosabat birliklaridan farqli, bir guruh birliklari orasida ham, shuningdek, turli guruh birliklari orasida ham mavjud bo'lishi mumkin. Qiyoslang: *Bugun ustoz va shogirdlar kuni.* Ushbu birliklardan (so'zlardan) har biri o'zi tegishli bo'lgan guruhning (paradigmatikaning) vakili hisoblanadi. Demak, sintagmatikadagi munosabatlar muayyan birliklar (so'zlar) munosabati sifatida emas, balki guruhlar-sinflar (paradigmalar sistemasi) munosabati sifatida namoyon bo'ladi.

Aytish mumkinki, nutq birliklari–nutqiy hosilalar sintagmatik munosabatlarning namoyon bo'lishidir. Shuningdek, nutq birliklari muayyan sinflar, guruhlar (paradigmalar) orasidagi munosabatlarning voqelanishidir.

Shunday qilib, sintagmatik munosabat til birliklarining nutqdagi – fikr almashish jarayonidagi o'zaro mantiqiy, zaruriy munosabatidir, fikr ifodalash uchun xizmat qilishidir. Shunga ko'ra, ushbu munosabat nutq hodisasi sifatida belgilanadi, nutq bilan o'lchanadi.<sup>133</sup>

<sup>133</sup> P.Расулов. Умумий тилшунослик. I-қисм. 84-бет.

Sintagmatik munosabat lisoniy birliklar, masalan, soʻzlarning biri ikkinchisi bilan semantik-sintaktik munosabatga kirishib, soʻz birikmasini yoki gapni hosil qilishidir. Qiyoslang: *milliy iftixor, Vatan mustaqilligi, maʼnaviyat allomalari, Oʻzbekiston mustaqil diyor, yoshlarni sportga jalb qilish zarur*. Bunda lisoniy birliklar muayyan tartibda, ketma-ketlikda kelib, horizontal chiziqqa joylashishi bilan ajralib turadi.<sup>154</sup>

Eslatamiz, sintagmatikada-sintagmatik munosabatda ishtirok etuvchi har bir lisoniy birlik oʻzining muayyan oʻrniga (pozitsiyasiga) ega boʻladi. Shu jihatdan u tavsiflanishi bilan ham ajralib turadi. Muayyan pozitsiyadagi birlik ayni vaqtda muayyan nutqiy vazifaga egaligi bilan ham muhimdir. Nutq jarayonidagi lisoniy birlikning oʻrni (pozitsiyasi) ayni vaqtda uning nutqdagi nisbiy joylashishidir. Qiyoslang: *14-yanvar Vatan himoyachilari kuni. Vatan mustaqilligini mustahkamlash har birimizning vijdoniy burchimizdir*. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, qatʼiy xulosa shuki, sintagmatik munosabatlar tilning bosh vazifasini-kommu-nikativ vazifasini taʼminlaydi.

Sintagmatik munosabatlarning reallashishiga koʻra til birliklaridan «xborot tashuvchi gaplar – nutq birliklari, nutqiy «asarlar», hosilalar shakllanadi, hosil boʻladi.

Demak, sintagmatik munosabatlar shunday munosabatlarki, ularga koʻra til aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi, yaʼni, tilning kommunikativ vazifasi sintagmatik munosabatda namoyon boʻladi va shu munosabatga tayanadi.<sup>155</sup>

Xullas, paradigmatic va sintagmatik munosabatlar oʻzaro dialektik bogʻliqlikda, bir butun, yaxlit holda sistemalar umumiyliigi, jami sifatida tilning aloqa quroli boʻlib xizmat qilishini, ijtimoiy-amaliy faoliyatini taʼminlaydi.

Shunday qilib:

1. Til sistemasi lisoniy birliklar va qoidalar xazinasini boʻlib, ular paradigmatic va sintagmatik aspektlarda oʻrganiladi.

2. Paradigmatika paradigmalar sistemasidir. Paradigmalar sis-temasi til birliklarining umumiy va xususiy maʼnolariga koʻra tashkil topadi.

3. Paradigmalar sistemasini til birliklarining oʻzaro ichki munosabati - paradigmatic munosabatdir.

4. Paradigmatika – paradigmatic munosabat til bilan – til imkoniyati bilan bogʻlanadi. Ushbu munosabat til birliklarining nutqqacha-nutq faoliyatigacha boʻlgan munosabati–til faktidir.

<sup>154</sup> R.Rasulov. Oʻsha asar. oʻsha bet.

<sup>155</sup> Hozirda tilshunoslik nazariyasida til birliklarining sintagmatik munosabati konyuktiv munosabat deb atalmoqda.

5. Sintagmatika til sistemasi birliklarining nutqda muayyan tartibda ketma-ketlikda joylashish, kelish jarayoni bilan bog'lanadi.

6. Nutq faoliyatida o'zaro mantiqiy aloqaga kirishgan birliklar orasidagi munosabat sintagmatik munosabatdir. Nutq birliklari – nutqiy hosilalar sintagmatik munosabatning voqelanishidir.

7. Sintagmatik munosabat tilning kommunikativ vazifasini namoyon qiladi. Sintagmatik munosabatga ko'ra til aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi.

8. Sintagmatik munosabat nutq bilan, nutq faoliyati bilan bog'lanadi, nutq fakti hisoblanadi.

9. Sintagmatikada – sintagmatik munosabatda ishtirok etayotgan birliklarning har biri o'zining muayyan o'rniga (pozitsiyasiga) ega.

10. Paradigmatik va sintagmatik munosabatlar, til va nutq kabi, o'zaro dialektik bog'liq bo'lib, tilning jamiyatda aloqa quroli sifatida xizmat qilishini, ijtimoiy-amaliy faolligini ta'minlaydi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Til sistemasi nima?

What is a language system?

2. Paradigmatika nima?

What is paradigmatics?

3. Sintagmatika nima?

What is syntagmatics?

4. Paradigmatik munosabat nima?

What are paradigmatic relations?

5. Sintagmatik munosabat nima?

What are syntagmatic relations?

#### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Til sistemasi – lisoniy birliklar va ularning kommunikativ jarayonga mos holda o'zaro bog'lanib, mantiqiy-ma'naviy munosabatda bo'lishi uchun xizmat qiladigan muayyan qoidalardir.

Language systems – language units and their relationship with the communicative process, system of rules for serving logical relation

2. Paradigmatika – paradigmalar sistemasi bo‘lib, til birliklarining umumiy va xususiy ma’nolariga asoslanadi, til bilan bog‘lanadi, til faktidir.

Paradigmatics – system of paradigms, based on the general and specific features of language units, related with language, is the fact of language.

3. Paradigmatik munosabat – bir paradigma birliklari orasidagi munosabat bo‘lib, ushbu birliklar o‘zaro o‘xshash, umumiy belgi-xususiyatlariga ko‘ra bog‘lanadi, til birliklarining nutqqacha bo‘lgan munosabati hisoblanadi.

A paradigmatic relation - is a relation that holds between elements of the same category, elements that can be substituted for each other or that have the same peculiarities. This is especially evident in a classical grammatical paradigm which presents a productive series of forms each consisting of a syntagmatic connection of two elements: one common for the whole of the series, the other specific for every individual form in the series.

4. Sintagmatika – til birliklarining nutqda mantiqiy ketma-ketlikda kelishi, muayyan tartibda joylashishi, nutq faktidir.

Syntagmatics - is immediate linear relations between units in a segmental sequence, fact of the speech.

5. Sintagmatik munosabat–nutq faoliyatida–fikir ifodalashda o‘zaro semantik–sintaktik aloqaga kirishgan linsoniy birliklar orasidagi munosabat, fikr ifodalash jarayonidir.

Syntagmatic relation – is immediate linear relations between units in a segmental sequence. The combination of two words or word-groups one of which is modified by the other forms a unit which is referred to as a syntactic syntagma.

#### **Adabiyotlar:**

#### **Bibliography:**

1. О.С.Ахманова. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966.
2. В.М. Солнцев. Язык как системно-структурное образование. – М., 1971.
3. В.И.Кодухов. Общее языкознание. – М., 1974.
4. Ю.С.Степанов. Основы общего языкознания. - М., 1975.
5. Д.Э.Розенталь, М.А.Теленкова. Словарь-справочник лингвистических терминов. – М., 1976.
6. Ф.М.Березин, Б.Н.Головин. Общее языкознание. – М., 1979.

7. Р.Расулов Умумий тилшунослик (тилшунослик тарихи) I қисм. – Т., 2005.

## ТИПОЛОГИЯ

Типология<sup>156</sup> тилшunoslikning muayyan sohasi sifatida tillarni tipologik klassifikatsiya qilish jarayoni bilan shug'ullanadi. Tipologiya tillarning tipologik tasnifining muhim qonun-qoidalari va usullarini tekshiradi. Shuningdek, tipologiya lisoniy birliklarni biron umumiy belgisi asosida tasnif qilish jarayonini ham bajaradi.<sup>157</sup>

Ma'lum bo'ldiki, tipologiya, bir tomondan, tillarni tasnif qilishning umumiy nazariyalari, qonun-qoidalari va usullarini o'z ichiga olsa, ikkinchi tomondan, u til sistemasi birliklarini umumiy belgisi, xususiyati asosida tasnif qilish bilan shug'ullanadi.

XIX asrda tezlik bilan rivojlanish bosqichiga o'tgan tipologiyaning muhim xususiyati shundaki, u turli tillar–qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar doirasida ish ko'radi. Ushbu tillarni o'zaro qiyosiy o'rganadi. Shu jarayonda tipologiya qiyoslanayotgan tillarning tuzilishidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlaydi, izohlaydi.

Qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarning mavjudligi, ushbu tomonlarning yuzaga kelish sabablarini o'rganishga va tushunishga bo'lgan intilish tilshu-noslikda alohida soha, yo'nalish bo'lgan lingvistik tipologiyaning (tipologik lingvistikaning) maydonga kelishiga sabab bo'ldi.

Lingvistik tipologiya tillarning qarindosh yoki qarindosh emasligidan qat'iy nazar, ularning tuzilishi jihatidan yaqinlik, bog'liqlik darajasini tekshiradi, mavjud materiallar asosida muayyan hodisaning mohiyatini, tabiatini aniqlaydi.

Lingvistik tipologiya (tipologik lingvistika) tillarni o'zaro qiyosiy tadqiq qilish jarayonida tillar uchun umumiy bo'lgan hodisalarga alohida e'tibor beradi, ushbu umumiyliklarni aniqlaydi.

Eslatamiz, dunyo tillarining deyarli barchasida uchraydigan, barchasi uchun xos bo'lgan umumiy xususiyatlar universalisa deb yuritiladi. Demak, universalisalar qiyos qilinayotgan qator tillar tuzilishiga xos lisoniy hodisalar, birliklar bilan belgilanadi. Masalan, so'zlarning bir va ko'p ma'noliligi, zamon kategoriyasi, omonimlar, so'z turkumlari, unli va

<sup>156</sup> Tipologiya. gr. finos-shakl, namuna, logos-ta'limot.

<sup>157</sup> Qar: O.S.Axmanova. O'sha lug'at, 476-bet. D.Э.Розенталя, М.А.Телецкова. Словарь – справочник лингвистических терминов –М., 1976, 487-bet.

undosh tovushlar, terminlar, sinonimlar, urg'u, harakat va holat fe'llari kabilar.

Ma'lum bo'ldiki, qayd etilgan ushbu lisoniy hodisalar uni-versaliyalar sifatida o'nlab, yuzlab tillarga tegishli ekanligi bilan ajralib turadi.

Ayni vaqtda qiyos obyekti bo'lgan tillarning faqat o'zigagina xos – xosiyatli jihatlari – hodisalari borki, bular ham tillarni tipologik tadqiq qilish jarayonida-lingvistik tipologiyada aniqlanadi. Masalan, o'zbek tiliga xos o', q, g', h kabi unli va undosh tovushlar, urg'uning tilimizda, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushishi (*istiqlol, tadbirkor, yoshlar*), rus tilida esa urg'uning so'z boshida, o'rtasida va oxirida ham kelishi. Shuningdek, rus tilida urg'uning so'z yasash vazifasiga ham egaligi, ya'ni, urg'u pozitsiyasining o'zgarishi bilan so'z ma'nosining ham o'zgarishi yuz beradi. Masalan, *мыка (un)- мыка (azob); замоk (qal'a, qo'rg'on)- замоk (qutq)*.

Rus tiliga xos *ы, щ, ц* kabi undoshlar, shuningdek, o'zbek tilida mavjud bo'lmagan, ammo rus tiliga xos *rod* va *vid* kategoriyalari kabilar.

Demak, lingvistik tipologiya tillar o'rtasidagi umumiy jihatlargagina emas, balki farqli, o'ziga xos tomonlarga ham alohida e'tibor beradi.

Lingvistik tipologiya qiyoslanayotgan tillar tahlili va tadqiqida o'z vazifasini, faoliyatini dialektik falsafaning metodologik asos bo'lib xizmat qiluvchi muhim kategoriyalaridan biri umumiylik va xususiylik kategoriyasiga ko'ra ish olib boradi. Shu jarayonda tillarning sistem – struktur tabiatiga xos yalpi jihatlari, alohidaliklar (maxsusliklar) aniqlanadi, tavsiflanadi.

Xullas, umumiy tilshunoslikning muhim bir sohasi bo'lgan lingvistik tipologiya – tillar tipologiyasi turlicha tuzilishga ega bo'lgan, turlicha til oilalariga mansub tillarning tipologik xususiyatlarini hamda mazkur tillarning paydo bo'lishini, ularning taraqqiyotini aniqlashga, belgilashga xizmat qiladi ulur haqida qator asosli, ishonchli, haqqoniy ma'lumotlar beradi.

### Mustahkamlash uchun savollar: Questions for Consolidation:

1. Tipologiya nima?  
What is typology?
2. Lingvistik tipologiya nima?  
What is linguistic typology?
3. Universaliya nima?  
What are universals?

### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Tipologiya – tillarni klassifikatsiya qilish bilan bog‘liq qonun qoidalar va usullarni o‘rganadi. Shuningdek, til birliklarini umumiy belgisi asosida tasnif qiladi.

Typology studies the rules of classification of languages and methods. It classifies the language according to their language signs.

2. Lingvistik tipologiya – turli til oilalariga mansub tillarni o‘zaro qiyosiy tadqiq qiladi, ularning umumiy va farqli jihatlariga alohida e‘tibor beradi.

Linguistic typology – studies the language that belong to different language family to show the differences and similarities between the languages?

3. Universaliya – dunyo tillarining barchasida uchraydigan, barchasi uchun xos umumiy xususiyatlar, belgilar, jihatlar.

Universals are general peculiarities belonging to all the language of the world.

### **Adabiyotlar:**

#### **Bibliography:**

1. Исследование по структурной типологии. – М., 1963.
2. О.С.Ахманова Словарь лингвистических терминов. – М., 1966.
3. Д.Э.Розенталь, М.А.Теленкова. Словарь – справочник лингвистических терминов. – М., 1976.
4. Н.А.Баскаков, А.С.Содиқов, А.А.Абдуазизов. Умумий тилшунослик. – Т., 1979.

## XULOSA

Til sistemasi tabiatiga, vazifasi va strukturasi ko'ra murakkab ilmiy-tarixiy, ijtimoiy - psixik hodisa bo'lib, jamiyatga tengi yo'q aloqa xizmat sifatida xizmat qiladi. Til jamiyat taraqqiyotining ramzi, mezon, ko'rsatki sifatida faollik ko'rsatadi.

Til ilmiy-nazariy tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'nlab ko'rinishlarda qator fanlar bilan hamkorlikda ish olib boradi. Bu jarayonda, ayniqsa, til va jamiyat, til va tarix, til va taraqqiyot, til va tafakkur, til va ma'naviyat, til sistemasi, til va nutq kabi murakkab siyosiy-falsafiy, ilmiy masalalar borki, ular nazariy tilshunoslikning, umuman, jahon tilshunosligi fanining doimiy diqqat markazida turadi, turli fan vakillarining bevosita o'rganish, tadqiq qilish obyekti hisoblanadi.

Umumtilshunoslikda tilni nazariy va amaliy jihatdan o'rganishda tilning sistem tuzilishga-egaligi, til va nutqning dialektik munosabati, til va nutq birliklarining tilni aloqa quroli sifatida harakatga keltirishi kabi qator muammolar borki, ular umuman tilshunoslik fanining – ham nazariy, ham amaliy tilshunoslikning eng muhim, eng asosiy, eng dolzarb mavzularidan hisoblanadi.

Aytilganlarga ko'ra, ushbu qismda nazariy tilshunoslikning ayrim muhim va murakkab muammolari haqida fikr yuritdik, ularning muayyan jihatlari u yoki bu darajada yoritdik.

Shak-shubhasiz, o'zbek tilshunosligida ham, rus tilshunosligi kabi, fanimizning ushbu murakkab ilmiy - nazariy, falsafiy sohasi bo'lgan umumiy tilshunoslik bo'yicha o'nlab ishlar maydonga keladi. Bu – davr talabi.



## UCHINCHI QISM

### TILSHUNOSLIKNING TADQIQ METODLARI

#### Metod haqida

Har bir fan kabi tilshunoslik fani ham tarixiy taraqqiyoti davomida lisoniy hodisalarni o'rganishda, tadqiqot obyektini (manbaini) ilmiy tahlil qilib, uning ichki «sirlarini», muayyan jihatlarini ochishda, tabiatini, tarkibini aniqlashda, ilmiy xulosalar chiqarishda muayyan metodlar asosida ish olib boradi. Bu – mutlaqo tabiiy. Chunki metod tadqiqot manbaining (obyektining) biror jihatini, tomonini (qismini, bo'lagini) o'rganish, aniqlash, bilish usulidir. Boshqacha aytganda, tabiat va jamiyat hodisalarining, jarayonlarining mohiyatini bilish, ularning o'ziga xosliklarini, jihatlarini, belgi-xususiyatlarini aniqlash va ular haqida obyektiv ilmiy-falsafiy g'oyalarni, umumlashmalar chiqarish faqat muayyan tadqiqot metodlari faolligida, ularni qo'llash orqali amalga oshadi. Demak, metod fanning mavjudligi, uning ajralmas tarkibiy qismi, mantiqiy bo'lagi (komponenti) bo'lgan ilmiylik degan tushunchaga xizmat qiladi. U fan ilmiyligini, fan taraqqiyotini ta'minlaydi, fanning ijtimoiy ongning qudratli bir qismi, turi ekanligini asoslaydi, unga xizmat qiladi.

Aytish mumkinki, har bir fan muayyan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishda, ta'limotlar yaratishda bevosita asos bo'lib xizmat qiluvchi qator faktlar, hodisalarga ega bo'lishidan tashqari u ushbu faktlarni tadqiq va tahlil qiluvchi metodlarga ham ega bo'lishi shart. Demak, har bir fanning mavjudligi, xulosalari, faolligi uning tadqiqot objekti (manbai), tadqiqot maqsadi va, ayni vaqtda, tadqiqot metodlari bilan belgilanadi, o'lchanadi. Shunday ekan, fandagi ilmiylik prinsipi uchun xizmat qiladigan metod nima? Metod termini nimani anglatadi? nimani ifoda etadi? degan savolning tug'ilishi mantiqiydir, tabiiydir.

Metod etimologik jihatdan grekcha methodos so'zidan olingan bo'lib, "tadqiqot", "o'rganish" degan ma'noni anglatadi.

Metod bilish nazariyasiga ko'ra voqelikka yondashish – tabiat, jamiyat va fikrlash jarayonini – tafakkurni bilish usulidir. Binobarin, metod ushbu falsafiy ma'noda obyektiv voqelikning har qanday hodisa va jarayonlarini bilish,

...tanitish va talqin qilish yo'lidir. Ayni vaqtda metod umumiy – falsafiy ma'noda qo'llanishdan tashqari u tor (xususiy) ma'noda ham qo'llanish imkoniyatiga ega. Bu holda u muayyan fanga oidligi bilan, ayni metodning tadqiqot obyekti (manbaini) tahlil qilish bilan muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, metod maxsus, xususiy, sohaviy metod sifatida turlicha fanlarda turlicha bo'lishi bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, metod umumiy va xususiy, falsafiy va sohaviy ko'rinishlarga ega bo'lganligi bilan xarakterlanadi.

Xullas, metod mohiyatan falsafiy va fanga oid «qurob» sifatida mavjudligi bilan o'zaro dialektik munosabatda, bog'liqlikda bo'ladi.

Falsafiy metod barcha fanlarga xosligi, barcha fanlar uchun umumiylik bilan nisbiy mustaqillikka, alohidalikka ega bo'lib, u dialektik metod nomi bilan yuritiladi. Mazkur metod muayyan fanning ilmiy-tadqiqot metodidan farqli o'zining keng qamrovligi, barcha fanlar doirasida ish olib borishi bilan alohida muhim ahamiyatga egadir. Prof. H. Ne'matov ta'kidlaganidek, "...dialektik bilish tadqiqat manbai mohiyatiga bosqichma-bosqich uzluksiz chuqurlasha borish, soddaroq (oddiyroq) mohiyatdan murakkabrog'iga qarab siljish demakdir"<sup>158</sup>. Shuningdek, ayni metodning qayd etilgan muhim, asosiy jihatlari qatorida metodning ilmiy izchillik prinsipiga qat'iy amal qilish g'oyasi ham turadi. Aytilganlarga ko'ra, dialektik metod jamiki fanlar uchun metodologiya-metodologik asos vazifasini o'taydi. Boshqacha aytganda, umumfalsafiy metod – dialektik metod maxsus ilmiy metodlarga, ya'ni, turli fanlarga oid metodlarga ta'sir qiluvchi umumiy ta'limot bo'lgani uchun uni metodologiya, ya'ni, ilmiy tadqiqot usuli bo'lgan metodlar haqidagi ta'limot deb yuritadilar<sup>159</sup>.

Ammo hozirgi kunda (davrda) metodologiya, ilmiy tadqiqot metodologiyasi ma'lum bir fanda qo'llaniladigan xilma-xil metodlar, tahlil usullari haqidagi ta'limot emas, balki tadqiqotchining tadqiqot manbaini, obyekti qanday tushunishi va unga qanday yondashishi, tadqiqotdan qanday maqsadni ko'zlashi, boshqacha aytganda tadqiqotchining dunyoqarashi nazarda tutiladi<sup>160</sup>. Aniq aytadigan bo'lsak, metodologiya, birinchidan, tadqiqotchining o'z tadqiqot manbai haqida qay turdagi bilimlarni hosil qilishga intilishi, bilishning qaysi turi bilan shug'ullanishidir. Ma'lumki, falsafada narsa - o'rganish obyekti haqida tadqiqotchi ikki turdagi bilimlar hosil qilishi mumkin:

<sup>158</sup> H. Ne'matov. Ilmiy tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari. - Buxoro, 2006, 119-bet

<sup>159</sup> С. Усмонов. Умумий тилшунослик, 176-bet.

<sup>160</sup> Qar: H. Ne'matov. O'sha asar. 68-bet.

- a) fahmiy (hissiy, empirik...) bilimlar;
- b) idrokiy (aqliy, mantiqiy, nazariy, teoretik...) bilimlar.

Har bir turdagi bilimni hosil qilish yoʻl, vosita va usullari ham maqsadlari ham boshqa-boshqadir.

Ikkinchidan, tadqiqotchining tadqiq manbai-narsaga qanday usul bilan yondashishidir. Falsafada narsaga yondashishning ikki usuli bor. Ular:

- a) metafizik (nominalistik) yondashuv;
- b) dialektik yondashuv.

Metafizik yondashuvning ham, dialektik yondashuvning ham (narsani metafizik yoki dialektik tushunish va talqin etishning) oʻz tamoyillari bor. Tadqiqotchi ilmiy tadqiq jarayonida shu tamoyillarga tayanib tadqiqot olib boradi.

Uchinchidan, tadqiqotchining materialistik yoki idealistik (ruhoni) nuqtayi nazarda turishi va shu nuqtayi nazardan turib ilmiy tadqiqni olib borishidir.<sup>161</sup>

Eslatamiz, har bir metod - xoh u falsafiy (umumiy) metod boʻlsin, xoh u fanga oid (xususiy) metod boʻlsin, har birining ish olib borish, ish yuritish metodikasi, tadqiqot manbaini, obyektini (predmetini) tekshirish usuli boʻladi. Demak, ilmiy-tadqiqot metodidan muayyan ish olib borish metodikasi farqlanadi. Boshqacha aytganda, metod voqelikni, obyektini (predmetni), hodisayu jarayonlarni - haqiqatni bilish, aniqlash yoʻli boʻlsa, metodika shu yoʻlni ochish va qurish qurolidir. Metodika olimning amaliy ravishda ishlash sistemasi boʻlib, u faktlarni toʻplash, oʻrganish, umumlashtirish usullarini nazarda tutadi<sup>162</sup>. Boshqacha aytganda, metodika til va nutq birliklarini umumlashtirish, tahlil qilish, tasnif qilish, kartalashtirish, amalda sinab koʻrish yoʻllari bilan maqsadga yetishdir<sup>163</sup>.

Tilshunoslik fani ham oʻzining qator ilmiy-tadqiqot metodlariga ega boʻlib, bu tilning oʻta murakkab ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixik, ijtimoiy-individual, ijtimoiy-fiziologik hodisa ekanligidan kelib chiqadi. Shunga koʻra, tilni tadqiq qiluvchi lisoniy tadqiqot metodlari ham turli-tumanligi bilan ajralib turadi.

Ayni vaqtda metodlar qanday, qanaqa metod boʻlishidan, qachon yaratilgan yoki qachon yaratilishidan, miqdoriy belgilaridan, tuzilishidan qatʼiy nazar ularning barchasi bir maqsadga (strategiyaga), yaʼni, lisoniy hodisalarning mohiyatini, yashirin imkoniyatlarini, "sirlarini" ochish,

<sup>161</sup> H.Nematov.O'sha asar, 68-69-bet

<sup>162</sup> S.Usmonov.O'sha asar, o'sha bet

<sup>163</sup> А.Шерматов. Б.Чориев. «Умумий тилшунослик» курсидан мустақил ишлар.Т.,1989,70-бет.

aniqlash, topish va shu asosda ilmiy - nazariy, falsafiy xulosalar chiqarishga qaratilgan. Lisoniy tadqiqot metodlari obyektning xarakteridan, tadqiqot maqsadi va tilshunos tomonidan tanlangan tadqiqot aspektidan kelib chiqqan holda nafaqat turlicha bo'ladi, balki, vazifasiga ko'ra, lisoniy materialning tadqiq qilish jihatiga qarab, o'zgarib turadi. Masalan, tanishish tillardan matnlarni «ochish»da qo'llanuvchi alohida metodlar, til tovushlarining fonetik xususiyatlarini o'rganuvchi maxsus metodlar, dala amaliyotida til materiallarini yig'uvchi metodlar, lisoniy sosiologik (lingvosotsiologik) metodlar va boshqalar. Demak, tilning har bir jihatini, tomonlarini, xususiyatlarini uning butun murakkabligi bilan tekshirishda turlicha metodlarning bo'lishi, faollik ko'rsatishi mutlaqo tabiiy, nafaqat tabiiy, balki mutlaqo zaruriy, qonuniy holdir.

Shu o'rinda prof. H. Ne'matovning quyidagi fikrini keltirishni lozim topdik: "...tadqiq metodlari ham fan tarixida bir-birini almashtirib turadi. Bir metod asosida ochilgan qonuniyatlar boshqa bir metoddan aniqlangan hukmlarni rad va inkor etgan hollarda ham bunday inkorni to'g'ri - dialektik tushunmoq lozim - bu qat'iy, mutlaq inkor emas, balki nisbiy, dialektik inkor - inkorning inkori, narsa mohiyatiga chuqurlasha borishning bir bosqichidir xolos.

Buni bir oddiy hayotiy misol bilan tushuntirishga intilaman. Tilning turli qirralari haqida turli usullar (metodlar) bilan hosil qilingan bilimlar va ochilgan qonuniyatlar bir katta binoning old, orqa, yon, ust tomonlaridan olingan suratlari bilan qiyoslanishi mumkin. Bu fotosuratlar bir-biriga mutlaqo o'xshamasa-da, ularning barchasi bitta zotda - bir binoning shaklida birlashadi; bu fotosuratlar bir-birini to'ldirib, bino shakli haqida bilimlarimizning mukammal bo'lishiga xizmat qiladi. Binoning to'rt tomonidan suratini chizgan olimlarning birortasi ham xato yoki noto'g'ri ish qilmagan. Xatoga binoning bir tomonidan olingan tasvirini (tilning bir qirradi haqida ma'lum bir metod bilan o'rganiladigan qonuniyatni) binoning o'zi bilan tenglashtirishdadir - kim bunga yo'l qo'ygan bo'lsa, albatta, xato qilgan bo'ladi"<sup>164</sup>.

Tilshunoslik fanida mavjud - amaldagi metodlar ikkita:

1. Diaxron tadqiq metodlari.
2. Sinxron tadqiq metodlari.

<sup>164</sup> H. Ne'matov . O'sha asar, 119-bet.

**Mustahkamlash uchun savollar:  
Questions for Consolidation:**

1. Metod nima?  
What is a method?
2. Metodning qanday turlari mavjud?  
What kind of methods are there?
3. Metodika nima?  
What is methodics?
4. Metodologiya nima?  
What is methodology?
5. Metodlar nechtaga bo'linadi?  
How many methods can be distinguished?

**Asosiy tushunchalar:  
Basic notions:**

1. Metod – obyektiv borliq predmet hodisalarini – tadqiqot manbaini ilmiy tahlil qilib, o'rganib, uning mohiyatini, tabiati va tarkibini aniqlash, muayyan jihatlarini, o'ziga xos xususiyatlarini topish, ochish va ular haqida ilmiy xulosalar, umumlashmalar chiqarishdir.

Method analyses objects and phenomena of objective reality, its essence and its parts, finds peculiarities and draw scientific conclusions and generalizes the results obtained.

2. Metodika – tadqiqotchining tadqiqot obyektini tekshirish usuli, individual ish olib borish usuli, faktlarni yig'ish, tahlil qilib, umumlashtirish jarayonidir.

Methodics is a process used for examining the object of investigation, the way of carrying out an individual way of research. Collecting facts and generalization.

3. Metodologiya – tadqiqotchining maqsadi bilan bog'lanib, tadqiqot manbaini qanday tushunishi va unga qanday metod bilan yondashishi – shu asosda obyekt yuzasidan muayyan nazariy yoki amaliy, mantiqiy (ichki) yoki tavsifiy (shakliy, tashqi) bilimlarni hosil qilishidir.

Methodology is connected with the aim of researcher and it shows the ways and methods of investigation, approaches and on the basis of it formation of theoretical, practical, logic and formal knowledge.

## I. Diaxron tadqiq metodlari

Diaxron tadqiq metodlari miqdoran chegaralangan bo'lib, ular tarixan shakllanib topganligi, ya'ni, qo'llanishiga ko'ra uzoq davrlarga borib e'tibolga ega bo'lib, uzoq tarixga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu metodlar jahon tilshunosligi amaliyotida ko'p asrlardan beri tillar tabiatini, tarkibini o'rganishda, tadqiq va tahlil qilishda faol xizmat qilganligi va jahon tilshunosi olimlari tomonidan to'la tan olinganligi sababli ular an'anaviy<sup>165</sup>, ya'ni, traditsion metodlar deb ham yuritiladi.

Xalosa shuki, diaxron metodlarda vaqt, zamon belgisi – ularning tarixan o'tinishda yuzaga kelganligi tushunchasi mezon vazifasini o'taydi. Aynan mana shu jihatiga ko'ra biz ularni diaxron – tarixiy (an'anaviy emas) metodlar deb nomladik.

Diaxron tadqiq metodlariga, asosan, quyidagilar kiradi:

1. Tasviriy metod.
2. O'liyosiy – tarixiy metod.
3. Chog' ishtirish metodi.
4. Tipologik metod.

### 1. Tasviriy metod

Jahon tilshunosligi fanining eng tarixiy, eng qadimiy va eng dastlabki asosiy, yetakchi metodi tasviriy metod hisoblanadi. Ushbu metod asosida qadimgi arab, yunon, hind, xitoy va rim kabi tillarga oid asarlar – grammatikalar yaratilgan bo'lib, ular tasviriy xarakterga egaligi bilan ajralib turadi.

Uldizlari XIX asrning oxirlari XX asrning boshlarida shakllangan Moskva (formal) lingvistik maktabiga (buyuk namoyandalari Filipp Fortunatov, Aleksey Shaxmatov, Aleksey Peshkovskiy, Viktor Vinogradov) borib taqalgan, Nikolay Dimitriyev, Nikolay Baskakov, Yevgeniy Polivanov, Aleksandr Borovkov, Andrey Kononovlar tomonidan turkiy tilshunoslikka olib kirilgan tasviriy metod XX asrning 40-yillaridan boshlab deyarli hozirgacha o'zbek tilshunosligida darslik va qo'llanmalar yaratishda faoliyat ko'rsatmoqda<sup>166</sup>.

Tasviriy metodning asosiy vazifasi shundaki, u muayyan sinxron aspektga tegishli lisoniy birliklarni, hodisalarni tasvirlash, tavsiflash

<sup>165</sup> An'anaviy (traditsion) metodlar tushunchasiga bo'lgan munosabat haqida qarang. H. Ne'matov . O'sha asar, 121-

<sup>166</sup> H. Ne'matov . O'sha asar, 122-bet.

jarayonida ularni tahlil qilib boradi, tildagi vazifasini, o'rinini, qo'llanishini, tuzilishini, o'ziga xosliklarini aniqlaydi, umumlashtirish xulosalar chiqaradi.

Masalan, mazkur metod asosida u yoki bu tilning tovush sistemasi, aniqrog'i, tovushlarning talaffuz xususiyatlari, morfemalar tarkibi, tuzilishi, grammatik kategoriyalar, leksik birliklar, ularning shakli va ma'nolari so'z birikmasi va gap turlari – ularning tuzilishi, mazmuniy jihatlarini, faolligi kabilar tadqiq va tahlil qilinadi.

Tasviriy metod asosida turlicha tillarga oid tasviriy grammatiklik, lug'atlar-ta'lim sistemasi uchun nihoyatda zarur bo'lgan o'quv adabiyotlari-qo'llanmalar va darsliklar yaratilmoqda, monografik xarakterdagi ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmoqda.

Ayni vaqtda tasviriy metodning muayyan kamchiliklari ham bo'lib, bu uning "atomizmi", ya'ni, atomistik xususiyatga egaligidir. Bu holda muayyan tilga oid aniqlangan va tasvirlangan hodisa (fakt) alohida olinishi, o'zicha o'rganilishi, boshqa hodisalar (faktlar) bilan bog'lanmasligi tushuniladi. Vaholanki, tahlil qilinayotgan lisoniy birlik yoki hodisa boshqa yondash birliklar, hodisalar bilan bog'liq holda, o'zaro munosabatda olinganida, tadqiq qilinganida o'rganilayotgan hodisaning tabiati, mohiyati yana ham aniq namoyon bo'lardi, uning o'ziga xosliklari ko'proq, yaqqolroq voqelanadi, yuzaga chiqadi. Demak, bu holda tahlil qilinayotgan hodisa haqidagi ilmiy axborot, ma'lumot, nazariy umumlashma, xulosalar yana ham chuqurroq va yana ham batafsilroq bo'ladi.

Hozirda til hodisalari tadqiqida tasviriy metoddan foydalanish jarayonida lisoniy tajriba (eksperiment) larni qo'llash orqali ushbu metod chuqurlashib, takomillashib bormoqda. Bunda tajriba o'ziga xos kuzatish jarayoni, usuli, yo'li sifatida xizmat qilmoqda.

Tasviriy metod o'z faoliyati davomida lisoniy hodisalarni tadqiq qilish jarayonida o'z tarkibidagi muayyan usullardan – «ichki metodlardan» foydalanadi. Aytish mumkinki, bunday holda tasviriy metod umumiylik sifatida, muayyan usullar (ichki metodlar) esa xususiylik sifatida voqelanadi.

Tasviriy metod tarkibidagi «ichki metodlardan» biri kuzatish usulidir. Bu jarayonda mo'ljalga olingan lisoniy obyektlar, masalan, fonema, morfema, leksema, so'z, so'z birikmasi, gap, matn kabilarning tildagi xususiyatlari – vazifasi, qo'llanishi, tuzilishi, ahamiyati kabilar aniqlanadi. Ko'pincha ularning har biri alohida olinib, har birining o'ziga

hokimlari, jihatlari o'rganiladi. Demak, kuzatish jarayoni tasviriy metod hodiyatidagi dastlabki zaruriy bosqich sifatida xizmat qiladi. Shunga ko'ra, ushbu bosqich – kuzatish jarayoni tadqiqotchidan til bilimining belgi, mukammal bo'lishini talab qiladi. Bu esa o'z navbatida o'rganilayotgan hodisalar haqidagi fikrlarning, xulosalarning ilmiyligi, ustaligi, obyektivligini ta'minlaydi.

Tasviriy metodning navbatdagi usullaridan (ichki metod-laridan) yana biri qiyoslashdir. Bu holda qiyoslash usuli orqali birdan ortiq faktlar, ya'ni, yangi aniqlangan faktlar ma'lum bo'lgan faktlar bilan o'zaro qiyoslanadi, muayyan ilmiy xulosalar chiqariladi. Demak, qiyoslashda lisoniy hodisalarning birdan ortiq bo'lishi muhim hisoblanadi. Masalan, belishik qo'shimchalarining, sifat darajalarining, fe'l zamonlarining, gap tuzilishi va ma'no turlarining o'zaro qiyoslanishi kabilar.

Tasviriy metodning sifat jihatdan o'zgacha rivojlangan usullaridan «ichki metodlaridan» yana biri taksonomik usul (metod)dir. Taksonomik metod asosida tillar, til faktlari, hodisalari ilmiylik prinsipi muqtabi nazaridan o'rganiladi, tasnif qilinadi, bir va bir qancha tillardagi o'xshash, umumiy hodisalar qiyoslanadi. Ushbu metodning asosiy vazifasi til (yoki tillar) sistemasini tasvirlashdir. Shunga ko'ra, u tasviriy metoddan, o'z asosidan – umumiylikdan, farq qiladi. Ma'lumki, tasviriy metod lisoniy hodisalarni muayyan sinxron holatda olib, o'rganib, tahlil qilib, ularning xususiyatlarini aniqlaydi. Taksonomik metod esa, aytilganidek, asosan, til sistemasini tasvirlash uchun xizmat qiladi. Taksonomik metod manbalarda struktural metod sifatida baholanadi, beriladi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Nima uchun diaxron tadqiq metodlari deyiladi?  
Why do we use diachronous methods?
2. Diaxron tadqiq metodlariga qanday metodlar kiradi?  
What dischronic methods do you know?
3. Tasviriy metod qanday metod?  
What is a descriptive method?
4. Tasviriy metod o'z tarkibiga qanday usullarni oladi?  
What ways does descriptive method include?



**Asosiy tushunchalar:**  
**Basic notions:**

1. Diaxron tadqiq metodi – tarixiy metod bo‘lib, tarixan tashkil topganligi bilan, qo‘llanishiga ko‘ra uzoq o‘tmish bilan bog‘lanishga ko‘ra o‘ziga xosdir, ularda vaqt, zamon belgisi mezon vazifasini o‘taydi.  
Method of diachronic research is a historical method and it is connected with the past time and tense plays an important role in it.
2. Tasviriy metod – lisoniy birliklarni sinxron nuqtayi nazardan tekshiradi, o‘rganadi. Ularning tildagi vazifasi, tuzilishi, qo‘llanish kabilarni aniqlaydi, tavsiflaydi, ilmiy bayonini, “sharhini” beradi.  
Descriptive method studies linguistic units from synchronous point of view/ It defines their functions, structures, usage and it comments from scientific point of view.

**2. Qiyosiy – tarixiy metod**

Qiyosiy – tarixiy metod lingvistik metodlarning eng faoli, eng asosiysi, eng ko‘p xizmat qiladigani sifatida jahon tilshunosligi tarixida alohida ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.  
Ushbu metod XIX asrning boshlarida – birinchi choragida sanskrit (qadimgi hind adabiy tili)da yaratilgan yozma manbalar tilini (yozma nutqni) o‘rganish, uni Yevropa tillariga qiyoslash, ular orasida umumiylik-o‘xshashlik borligini aniqlash natijasida yuzaga keldi.  
Qiyosiy – tarixiy metod asoschilari: Frans Bopp (1791-1867); Rasmus Rask (1787-1832); Yakob Grimm (1785-1863); Aleksandr Vostokov (1781-1864)lardir.  
Qiyosiy – tarixiy metod asoschilari - o‘z asarlarida mazkur metoddan faol foydalangan ushbu olimlar hind va qator Yevropa tillari tarixan bitta asos, umumiy tildan – bobo tildan (prayazikdan) ajralib chiqqan, ushbu tilning bo‘linishi, turli tomonlarga tarqalishi natijasida yuzaga kelgan, shakllangan degan g‘oyani ilgari suradilar. Demak, ushbu tillar, ya‘ni, hind (sanskrit) va qator (Yevropa, masalan, grek) tillari orasida oilaviy munosabatlarga o‘xshash qarindoshlik aloqalari mavjud bo‘lib, tillararo o‘xshashlik shu qarindoshlik aloqalarining natijasi ekanligi tabiiy holdir<sup>167</sup>. Xullas, qiyosiy-tarixiy metod asoschilari mazkur

<sup>167</sup> Qur. H. Ne‘matov. O‘sha asar, 127-bet.

bitta bobo tildan paydo bo‘lgan, kelib chiqqan tillarni, demak, qarindoshlik munosabatidagi tillarning hodisalarini, birliklarini – vaqt va qo‘shimchalarni, ularning shakllarini, qiyofasini tiklashga xizmat qilishni ta’kidladilar. Bunda qiyosiy – tarixiy metod orqali qarindosh tillarga, masalan, qadimgi hind (sanskrit) va yunon tillariga oid yozma materiallardagi til materiallari, aniqrog‘i, dastlab so‘zlarning talaffuzi hamda ma‘nosi qanday bo‘lganligi aniqlanar, shundan so‘ng ular qiyoslanar edi. Natijada tahlil qilinayotgan so‘zning eng qadimgi shakli (etimologik shakli) – tashqi tomoni (qiyofasi) hamda ichki tomoni – ma‘nosi (etimologik ma‘nosi) haqida ma‘lumot berilar edi. Masalan, Fr. Bopp qadimgi hind – Yevropa tillarida fe‘llarining tuslanishini (paradigmasini) taqqoslab, qiyoslab o‘rganishi natijasida bu tillarning qarindosh ekanligini isbotlab berdi. Hind – Yevropa tillarida fleksiyaning yuzaga kelish tarixini o‘rganib, tilshunoslikda «agglutinatsiya» nazariyasini yaratdi.

Ya. Grimm esa qiyosiy-tarixiy metod orqali german tillari bilan hind-Yevropa tillarining tovush sistemasi o‘rtasida o‘xshashlik borligini aniqlab, «Grimm qonuni»ni yaratdi. Bu qonunga binoan hind-Yevropa tillaridagi jarangsiz portlovchi [p, f, k] tovushlariga german tillaridagi jarangsiz sirg‘aluvchi [f, q, h] tovushlari mos keladi. Hind –Yevropa tillaridagi jarangli portlovchi [b, q, g] tovushlari german tillaridagi [p, t, k] jarangsiz portlovchi tovushlarga mosdir<sup>168</sup>.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, quyidagi muhim xulosaga kelish mumkin: 1. O‘zaro qarindosh tillar orasida tovush mos kelish qat‘iy qonunlari mavjud bo‘lib, bu qonundan har bir mustasno (chekinish – R. R.), albatta, sharhlanishi lozim. 2. Tillarning o‘zaro qarindoshligi mana shu tovush mos kelish qonunlari va tillararo umumiy qadimiy o‘zaklar (asoslar – R. R.) asosida belgilanadi<sup>169</sup>.

Demak, qiyoslash uchun faktlar faqat qarindosh tillardan – genetik tenglikka ega bo‘lgan tillardagina olinadi. Masalan: ruscha *цветок*, polyakcha *k w i a t o k* «gul»; forsha *nov (nov)*, ruscha *новый*, nemischa *neu*, inglizcha *new* «yangi», grekcha *πατερ, πατρος*, lotincha *pater*, sanskritcha *pitari*, nemischa *vater*, forsha *padar*, ruscha *папа*, hindcha *bobo* «ota» demakdir<sup>170</sup>.

<sup>168</sup> P.M. Венцкович, А.Я. Шайкевич. История языкознания. Ч.1.-М., 1978.

N.A. Baskakov, A.S. Sodiqov, A.A. Abdurazizov. O‘sha asar, 120-bet.

<sup>169</sup> H. Ne‘matov. O‘sha asar, 127-bet.

<sup>170</sup> Qur. S. Usmonov. O‘sha asar, 178-bet.

Ma'lum bo'ldiki, qiyosiy-tarixiy metod asosida tadqiqot ishlari olib borilganda,

- 1) ikki va undan ortiq tilda mavjud bir-biriga o'xshash hodisalar qiyos qilinadi;
- 2) qiyoslash orqali ayni jarayongacha ma'lum bo'lmagan lisoniy birliklarning (masalan, morfema va so'zlarning) tarixiy qiyofasini qayta tiklashga erishiladi<sup>171</sup>.

Qiyosiy – tarixiy metodning qo'llanishi natijasida uning bajarilishi, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan to'rtta turi vujudga keldi: a) qiyoslash uchun material to'plash; b) qator qiyoslanadigan birliklarni belgilash va ularni aynan bir narsa deb hisoblash; v) fonetik o'zgarishlarning nisbiy xronologiyasini belgilash; g) arxetip rekonstruksiyasini aniqlash (so'z va morfemalarning eng qadimgi shakli va ma'nolarini tiklash)<sup>172</sup>.

Eslatamiz, qiyosiy – tarixiy metod asosida odatda o'zaro qarindoshlik munosabatida bo'lgan tillarning qiyosiy fonetikasi va qiyosiy morfologiyasi

yaratiladi. So'z yasash masalalari ham bu metod asosida tahlil qilinishi mumkin. Ammo qiyosiy leksikologiya, semantika va sintaksis sohalarida qiyosiy-tarixiy metod kam mahsul bo'ladi<sup>173</sup>.

Xullas, qiyosiy – tarixiy metod, asosan, hind-Yevropa tillariga nisbatan qo'llanishi bilan va u Hindistondan – Yevropagacha bo'lgan tillarni qiyoslash va eng qadimgi shakllarini tiklash uchun xizmat qiladigan qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning – komparativistikaning jahon tilshunosligi tarixida mustahkam o'rin egallashida poydevor vazifasini o'tadi.

Shu o'rinda umumlashtiruvchi muhim xulosa sifatida H. Ne'matovning quyidagi fikrini keltiramiz: “Yevropa fanida Yevropada haqiqiy ilmiy tilshunoslik shu metodning shakllanish va rivojlanishi bilan bog'liq deb sanaladi. Bu bejiz emas – tilshunoslikning barcha zamonaviy yo'nalishlari shu metodning u yoki bu ko'rinishda o'zgartirish asosida shakllangan va rivojlangan. Jumladan, struk-turalizm asoschilari deb sanaladigan Ferdinand de Sossyur va Ivan Boduen de Kurtene shu yo'nalishning yosh grammatiklar tarmog'idan etishib chiqqanlar. Filipp Fortunatov nomi bilan bog'liq bo'lgan formal tahlil yo'nalishi ham o'z maqsadini shu tilshunoslik namoyandalaridan oladi.

<sup>171</sup> Qar: S.Usmonov. O'sha asar, 177-bet.

<sup>172</sup> Qar: Общее языковедение. М., 1973, 81-bet.

<sup>173</sup> S.Usmonov. O'sha asar, o'sha bet.

Turkiyshunoslikda V. V. Radlov maktabi nomini olgan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bu metodning yosh grammatiklar yo'nalishi asosiy tushunchalari bilan ish ko'rgan<sup>174</sup>.

**Mustahkamlash uchun savollar:  
Questions for Consolidation:**

1. Qiyosiy-tarixiy metod qanday metod?  
What kind of method is comparative historical method?
2. Qiyosiy-tarixiy metod asoschilari kimlar va ular qanday g'oyani ilgari surdilar?  
Who are the founders of comparative-historical method and their main idea?
3. Qiyosiy-tarixiy metod asosida qanday munosabatdagi tillar o'rganiladi va qanday natijalarga erishiladi?  
What languages can be studied on the basis on comparative-historical method and what are their results?
4. Qiyosiy-tarixiy metod qaysi tilshunoslikning yaratilishi va shakllanishida poydevor vazifasini o'tadi?  
What is the function of comparative-historical method as the formation of linguistics?

**Asosiy tushunchalar:  
Basic notions:**

1. Qiyosiy-tarixiy metod – o'zaro qarindoshlik munosabatidagi tillarning birliklarini, asosan, tovush, qo'shimcha va so'zlarni tarixiy jihatdan qiyoslash natijasida ularning dastlabki shaklini, qiyofasini, ma'nosini tiklaydi, ular orasidagi o'xshashlikni aniqlaydi.

Comparative-historical method restores initial form, appearance and meaning of related languages on basis of comparison of their units, mainly sounds, suffixes and words on historical aspect.

2. Sanskrit – qadimgi hind adabiy tili.

Sanscrit is an ancient literary Indian language.

3. Bobo til – qarindosh tillarning kelib chiqishida asos bo'lgan til, ushbu tillarning barchasi uchun umumiy til (prayaziyk).

<sup>174</sup> H. Ne'matov. O'sha asar, 128-bet.

Protolanguage played as a foundation in the origin of related languages and general language for all related languages.

4. Komparativistika – qiyosiy-tarixiy tilshunoslik.

Comparativistics is Comparative-historical Linguistics.

### 3. Chog'ishtirish metodi

Chog'ishtirish metodi ikki va undan ortiq qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tillarni – til hodisalarini o'zaro qiyoslash usulidir. Ushbu xususiyatga ko'ra mazkur metod faqat qarindosh tillarni taqqoslab qiyoslab o'rganadigan qiyosiy-tarixiy metoddan farq qiladi. Shuningdek bir qancha tillarga oid chog'ishtirilayotgan, taqqoslanayotgan lisoniy hodisalarni tasvirlashda, tavsiflashda, tillararo o'xshash (analogik) hodisalardagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlashda, qiyosiy-tarixiy metoddan farqli, ayni tillarning – chog'ishtirilayotgan tillarning tarixiga, ularning kelib chiqishiga – genetik jihatariga, taraqqiyotiga e'tibor bermaydi, ularga asoslanmaydi.

Chog'ishtirish metodi qayd etilgan o'ziga xos jihatariga, tomonlariga ko'ra u muayyan bir til tabiatiga, tuzilishiga, tarkibiga xos xususiyatlarini tavsiflash uchun xizmat qiladigan tasviriy metoddan ham farq qiladi.

Tillarni chog'ishtirish metodi asosida o'rganish natijasida ularning fonetik va leksikografik xususiyatlari, tomonlari atroflicha yoritiladi, ma'lum bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, qiyosga asos bo'lgan tillarning tuzilishini, ichki tomonlarini chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Chog'ishtirish metodi, ayniqsa, chet tillarni o'rganishda ham keng qo'llaniladi. Demak, mazkur metod nafaqat nazariy fikrlarni, qoidalarni belgilash uchun, balki amaliy maqsadlar uchun ham faol xizmat qiladi. Shuningdek, «bir tildan boshqa tilga tarjima qilish texnikasi va nazariyasi uchun ham chog'ishtirish metodi asosida olib borilgan ilmiy tadqiqot xulosalari katta ahamiyat kasb etadi».<sup>175</sup> Eslatamiz, XVII-XVIII asrlardayoq tillarni chog'ishtirish orqali o'rganish ikki tilli lug'atlarning, barcha tillar uchun umumiy grammatikalarning yaratilishiga olib keladi.

Demak, tillarni o'zaro chog'ishtirish, taqqoslash har bir tildagi o'rganilayotgan hodisalarning nafaqat spetsifik jihatarini, o'ziga xosliklarini, balki ularning umumlisoniy yoki individual lisoniy jihatarini aniq yoritib berish imkonini beradi.<sup>176</sup>

<sup>175</sup> S. Usmonov. O'sha asar, 181-bet.

<sup>176</sup> V.I.Koduxov O'sha asar, 273-bet.

Shuningdek, chog'ishtirish (yoki qiyosiy - chog'ishtirish) metodining asosiy usullari tasviriy-tavsifiy jihatlarini, yo'nalishlari quyidagilar bilan belgilanadi: 1. So'zlarning turli-tuman qo'shimchalar bilan munosabatlari tavsiflash, so'z va qo'shimchalarni farqlash. 2. Sheva va vosita yaqin bo'lgan tillar orasida tovush almashinuvlari va mosliklarini tavsiflash. 3. Qat'iy belgilangan adabiy til me'yorlarini ishlab chiqarish va ularga rioya qilish va o'rgatish metodikasini shakllantirish. 4. Adabiy diniy til, talaffuz, imlo bilan shevalar va boshqa tillar orasidagi farqlarni ilg'ay olish va chog'ishtirma – bir tilda ifodalangan ma'no yoki vositani boshqa tilda qanday usul va vosita bilan berilishi mumkinligini taqqoslash ustida izlanishlar olib borish. 5. Bir tilli (izohli) va ko'p tilli tarjima lug'atlari tuzish<sup>177</sup>.

Shuningdek, prof. H. Ne'matovning ma'lumot berishicha, arab tilshunosligi yutuqlari va an'analarida ta'lim olgan Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamahshariy, Abu Hayyon, Ibn Muhanna kabi turkiyshunolar ham asarlarida shu tahlil usulidan foydalanishgan, shu asosda turkiy tillar tavsiflarini berishgan.

X-XIV asrlarda arab (islom) tilshunosligi doirasida shakllangan va rivojlangan eronshunoslik va mo'g'ulshunoslikda ham yetakchi tadqiqot usuli qiyosiy-chog'ishtirma metod edi.

XIX-XX asrlarda turkiy xalqlar va ularning tillari rus davlati va tili bilan yaqin munosabatlarga kirishgach, turkiy va rus tillarini qiyosiy-chog'ishtirma o'rganish jarayonida bu metod zamonaviy (o'z davri) tahlil va tavsif talablari bilan mukammallashtirildi va sovet chog'ishtirma tilshunosligida ma'lum bir taraqqiyot bosqichini belgiladi – 1930-70-yillarda rus tilshunosligida rus va muayyan turkiy tillarni, milliy turkiyzabon tilshunosliklarda (o'zbek, tatar, boshqird, qozoq, ozarbayjon, chuvash v.h. tilshunosliklarida) milliy turkiy tillar va rus tili qurilishini chog'ishtirma o'rganish yo'nalishlari rivojlandi...<sup>178</sup>

### Mustahkamlash uchun savollar: Questions for Consolidation:

1. Chog'ishtirish metodi qanday metod?  
What is a method of comparison?
2. Chog'ishtirish metodining qiyosiy-tarixiy metoddan farqi nimada?

<sup>177</sup> H.Ne'matov O'sha asar . 124-bet.

<sup>178</sup> H.Ne'matov O'sha asar , 125-bet.

What is the difference between comparative and comparative historical method?

3. Chog'ishtirish metodining tasviriy metoddan farqi nimada?

What is the difference between comparative and descriptive method?

#### **Asosiy tushunchalar:**

##### **Basic notions:**

1. Chog'ishtirish metodi – ikki va undan ortiq qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tillarni o'zaro qiyoslab, chog'ishtirib o'rganadi.

Comparative method studies two or more related or not-related languages in comparison.

2. Taqqoslamoq – o'zaro solishtirmoq, taqqos qilmoq.

Comparison is comparing.

#### **4. Tarixiy - qiyosiy metod**

Tarixiy - qiyosiy metod qiyosiy - tarixiy metod kabi lingvistik metodlar guruhiga tegishli bo'lib, unda tarixiylik prinsipi yetakchilik qiladi. Aynan mana shu xususiyatiga, ya'ni, tarixiylik jihatining birinchi o'rinda turishiga - qiyoslash jarayonida yetakchilik qilishiga ko'ra mazkur metod qiyosiy- tarixiy metoddan nisbatan farq qiladi. Aslida har ikki metod ham tarixiylik va qiyoslash prinsipiga qat'iy amal qiladi, shu yo'nalishda tadqiqot ishlarini olib boradi. Chunki har ikki metodning mavjudligi, faoliyati, o'ziga xosligi, alohida metodlar sifatida tan olinishi va boshqa o'nlab metodlardan farq qilishi, ahamiyati til sistemasiga (strukturasiga), lisoniy hodisalar tadqiqiga tarixiylik va qiyosiylik (yoki qiyosiylik va tarixiylik) nuqtayi nazaridan yondashish, murojaat qilish bilan o'lchanadi. Shunga ko'ra ayrim manbalarda ushbu metodlar orasiga chegara qo'yilmaydi, aynan bir metod sifatida tushuntiriladi<sup>179</sup>.

Tarixiy - qiyosiy metod qiyosiy-tarixiy metod asosida, uning negizida paydo bo'lib, u ayrim, alohida tillar hamda qarindosh tillar tarixini, ularning tarixan kelib chiqishini o'rganadi, lisoniy birliklarning o'tmish shaklini, ko'rinishini, qiyofasini tiklaydi.

Tarixiy-qiyosiy metod muayyan tilning tarixiy taraqqiyotini o'rganadi, uning ichki va tashqi qonuniyatlarini ochish maqsadida ishlatiladi. Ushbu metodning prinsipi-nuqtayi nazari (bosh maqsadi) bir

<sup>179</sup> Qar. O.S. Axmanova. O'sha lug'at, 186.-450-betlar.

ni aniqlashlari, soʻz va konstruksiyalari orasidagi tarixiy umumiylikni, oʻxshashlikni aniqlashdir, shuningdek, ular orasidagi tarixiy farqlarni belgilashdir. Demak, ushbu jarayonda tahlil ishlari tarixiylik asosida amalga oshadi, lisoniy birliklarga tarixan yondashgan holda ular qiyoslanadi, natijada oʻxshash va farqli jihatlar maʼlum boʻladi. Masalan, toki oʻzbek tili tarixiga oid ozoq, adaq, ayoq soʻzlarida z, d, yo tovushlarining - harflarining oʻzaro tarixiy munosabati, tarixiy aloqasi aniqlanadi.

Elatamiz, tarixiy-qiyosiy metod bir til va bir necha tillarni qarindosh tillarni oʻrgansa, qiyosiy-tarixiy metod esa bir nechta tillarni qarindosh tillarni qiyosiy oʻrganadi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Tarixiy-qiyosiy metod qanday metod?

What is comparative-historical method?

2. Tarixiy-qiyosiy metodning qiyosiy-tarixiy metoddan farqi nimada?

What is the difference between historical-comparative and comparative-historical method?

3. Tarixiy-qiyosiy metodning bosh maqsadi nima?

What is the objective of comparative-historical method?

### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Tarixiy-qiyosiy metod – bir tilni yoki bir necha qarindosh tillarni, ularga tegishli birliklarni, hodisalarni tarixiylik prinsipi asosida qiyoslaydi, ular orasidagi tarixiy umumiylikni, oʻxshashlikni va farqlarni aniqlaydi.

Historical-comparative method compares one or more related languages and unites and phenomena connected on the basis of historical principles and defines their historical common features and differences.

2. Tarixiylik – muayyan predmet - hodisani muayyan tarixiy sharoitdan kelib chiqqan holda tekshirish prinsipi.

Historical character is a principle to examine certain object and phenomena in the historical condition.

## 5. Tipologik metod

Tipologik metod turli qarindosh (o'zaro genetik bog'liq) va qarindosh bo'lmagan (o'zaro genetik bog'lanmagan) til oilalariga tegishli bo'lgan tillarni qiyoslash asosida o'rganadi. Ushbu xususiyatiga ko'ra mazkur metod faqat bir til sistemasiga, ya'ni, qarindosh tillar oilasiga kiruvchi tillarni qiyosiy tadqiq qiluvchi, «baholovchi» qiyosiy-tarixiy metoddan farq qiladi.

Tipologik metod qiyosiy-tarixiy metod bilan hamkorlikda ish olib boradi, uni to'ldiradi, chuqurlashtiradi.

Tipologik metod chet tillarni ona tiliga qiyoslab o'rganish jarayonida ushbu tillardagi fonetik, leksik-grammatik va uslubiy (stilistik) xususiyatlarini aniqlaydi va ilmiy xulosalar chiqaradi.

Tipologik metodning mohiyati shundan iboratki, bunda tillar genetik jihatdan qaysi til oilalariga mansubligidan qat'iy nazar ular o'z strukturalaridagi o'xshash va farqli jihatlariga ko'ra qiyoslanadi, ya'ni, o'rganilayotgan, qiyosga olingan tillarning struktur – qurilish xususiyatlari aniqlanadi, muayyan xulosalar chiqariladi.

«Tipologik metodning paydo bo'lish sababi shundaki, barcha tillar tashqi jihatdan farqli bo'lsada, ammo ichki tuzilishiga ko'ra o'xshashdir, ya'ni, ular tuzilishi (strukturasini) asosida aynan bir xil prinsip yotadi»<sup>180</sup>.

Tillarni tipologik o'rganish maqsadini belgilashda bir qancha yondashuvlar, qarashlar mavjud. Bular quyidagilar:

1. Klassifikatsion (tasnifiy) yondashuv.
2. Xarakterologik yondashuv.
3. Belgili (priznakoviy) yondashuv.
4. Ichki sistem yondashuv.

### Klassifikatsion (tasnifiy) yondashuv

Tillarni tipologik o'rganish jarayonidagi klassifikatsion, ya'ni, tasnifiy yondashuvning mohiyati shundan iboratki, bunda dunyodagi barcha tillar qaysidir jihatiga, biron belgisiga ko'ra til oilalariga (guruhlariga) ajraladi. Natijada tillarning morfologik tasnifi paydo bo'ladi.

Morfologik tasnif, o'z nomidan kelib chiqqan holda, tillarning morfologik xususiyatlarini - o'zak va qo'shimchalarni o'zaro zid olgan holda qiyoslab o'rganadi. Shunga ko'ra til tiplari hosil bo'ladi. Qiyoslang;

<sup>180</sup> А.Т.Хроленко. Общее языкознание. М.1981, 82-бет.



absolyutivativ tillar (masalan, o'zbek tili – har bir grammatik ma'no alohida affiks bilan ifodalanadi: *talaba-lar* (ko'plik)-*ga*(yo'nalish), flektiv tillar (masalan, rus tili-birdan ortiq grammatik ma'no bir affiks bilan ifodalanadi: *Эти книги подарим* gapida *эти книги* so'zlaridagi *i* affiksi ikki grammatik ma'noni: tushum kelishigini va ko'plikni anglatadi).

### **Xarakterologik yondashuv**

Tillarga xarakterologik yondashuv natijasida har bir tilning o'ziga xos, muhim (xarakterli) xususiyatlari, jihatlari ma'lum bo'ladi. Ushbu xususiyatlari, tomonlari orqali tilga baho beriladi.

### **Belgili yondashuv**

Tillarga muayyan belgilariga ko'ra yondashuv natijasida alohida til hodisalari va sathlari (yaruslari)ning tipologiyasi yaratiladi. Masalan, fonetik tipologiya, leksik tipologiya, morfologik tipologiya, sintaktik tipologiya va boshqalar.

### **Ichki sistem yondashuv**

Tillarga ichki sistem yondashuv natijasida muayyan tildagi alohida hodisalar (masalan, fonetik, leksik, morfologik va b.) orasidagi o'zaro munosabatlar, bog'liqliklar tadqiq qilinadi. Bunda muayyan tilda qanday hodisalar, birliklar, elementlar namoyon bo'ladi-yu qanday hodisalar voq'lanmaydi, qanday hodisalarning, elementlarning mavjudligini boshqarishni inkor qiladi, yuzaga keltirmaydi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Tipologik metod qanday metod?  
What is a typological method?
2. Tipologik metodning qiyosiy-tarixiy metoddan farqi nimada?  
What is the difference between typological and comparative-historical method?
3. Tillarni tipologik o'rganishda qanday yondashuvlar mavjud?  
What trend exist in studying languages typologically?

## Asosiy tushunchalar:

### Basic notions:

1. Tipologik metod – o‘zaro qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillar struktur jihatdan qiyosiy o‘rganilib, ular tuzilishiga xos xususiyatlar umumiy va farqli tomonlar aniqlanadi.

Typological method studies related and non-related languages structurally and defines similarities and differences between them.

2. Klassifikatsion yondashuv – tillarga tasnifiy yondashuv – morfologik tasnif sifatida o‘zak va qo‘shimchalar o‘zaro zid holda qiyoslab o‘rganiladi.

Classification approach studies approaching to language from classification point of view as a morphological classification in opposition and comparison.

3. Xarakterologik yondashuv – bunda qiyoslanayotgan har bir tilning o‘ziga – tuzilishiga xos muhim xarakterli xususiyatlar ma’lum bo‘ladi, aniqlanadi.

Characterological approach defines every compared language and its characteristic properties that peculiar to its structure.

4. Belgili yondashuv – tillarga muayyan belgi-xususiyatlar (masalan, fonetik, morfologik va boshqalar) jihatidan yondashuv bo‘lib, bunda til sathlari tipologiyasi (fonetik tipologiya, leksik tipologiya kabilar) ham kuzatiladi.

Defining approach is studying the languages depending on signs and peculiarities (for instance, phonetic, morphological and others) and in this case language levels (phonetic typology, lexical typology and others) are also observed.

5. Ichki sistem yondashuv – bu holda muayyan tildagi muayyan hodisalar (fonetik, leksik va boshqalar) orasidagi o‘zaro munosabatlar, aloqalar o‘rganiladi.

Intersystem approach studies interrelation between certain languages certain phenomena (phonetic, lexical, and others).

## II. Sinxron tadqiq metodlari

Sinxron tadqiq metodlari sifat jihatdan chuqur va murakkabligi bilan, miqdor jihatdan esa ko‘pligi, turli-tumanligi, «o‘sib borayotganligi» bilan ajralib turadi. Ular zamonaviylik xususiyatiga ko‘ra alohida ahamiyat kasb etadi.

Sinxron tadqiq metodlarining ko'payib, «o'sib» borishi, zamonaviylik xususiyati tilning jamiyatga bevosita bog'liqligidan, uning jamiyat tomonidan – tabiiy va ijtimoiy fan vakillari tomonidan keng miqyosda, shafqat bilan o'rganilib borilayotganligidan kelib chiqadi. Demak, zamonaviy tadqiqot metodlarining ko'payib borishi tabiiy, zaruriy tarqalish sifatida maqsadga to'la muvofiqdir.

Elatuniz, sinxron tadqiq metodlari diaxron tadqiq metodlariga nisbatan olinganda, paydo bo'lishiga, yaratilishiga ko'ra vaqt jihatdan farqliligi bilan, zamonaviy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu metodlar diaxron tadqiq metodlari kabi yaratilishiga ko'ra uzoq tarixga, uzoq davrlardan beri amaliy qo'llanishga ega emasligi bilan, shunga ko'ra, sinxron tadqiq metodlari deb yuritilishi jihatidan alohida katta ahamiyat tashkil qiladi va fanimizda alohida ahamiyat kasb etadi.

Demak, sinxron tadqiq metodlari tilshunoslikda vaqt jihatdan keyingi davrlarda, masalan, XX– XXI asrlarda shakllanganligi bilan, amaliyotga faol xizmat qilayotganligi bilan, davr nuqtayi nazaridan farqliligi, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Aytilganlarga ko'ra, biz ularni sinxron tadqiq metodlari deb nomlab, vaqt tushunchasi mezoniga ko'ra ularni diaxron - tarixiy metodlardan farqladik, ularga zidladik.

Sinxron tadqiq metodlari quyidagilar:

1. Distributiv tahlil metodi.
2. Statistik tahlil metodi.
3. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodi.
4. Transformatsion tahlil metodi
5. Komponent tahlil metodi.
6. Valentlik tahlil metodi.
7. Eksperimental – fonetik tahlil metodi.
8. Avtomatik tahlil metodi

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Sinxron tadqiq metodlari qanday metodlar?  
What kind of method is synchronous research method?
2. Sinxron tadqiq metodlarining diaxron tadqiqot metodlaridan farqi nimada?  
What is the difference between synchronous research method and diachronic method?

3. Qanday sinxron tadqiq metodlarini bilasiz?  
What synchronous research methods do you know?

### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notion:**

Sinxron tadqiq metodlari – hozirgi metodlar bo‘lib, vaqt jihatidan yuzaga kelishiga (qo‘llanishiga) ko‘ra nisbatan yangiligi, shu zamonaga xosligi bilan ajralib turadi. Ushbu metodlar XX-XXI asrlar maxsus sifatida amaliyotga xizmat qilmoqda.

Synchronous research method is one of the modern methods and it is comparative a new method. It appeared as a method in the XX-XXI centuries and it serves for practice.

### **1. Distributiv tahlil metodi**

XX asrning 20-yillarida jahon tilshunosligi maydonida paydo bo‘lgan struktural lingvistika hozirgi zamon tilshunosligining yetakchi, muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u til strukturasi til nazariyasining asosi deb hisoblaydi<sup>181</sup>. Bir qator struktural oqimlar: Amerika, Praga va Kopengagen struktural maktablari ichida Amerika strukturalizmi jahon tilshunosligida tan olingan bo‘lib, u deskriptiv, ya‘ni, tasviriy metodiga ko‘ra deskriptiv tilshunoslik deb ham yuritiladi.

Deskriptiv tilshunoslik muayyan til birliklarining o‘zaro, bir-biriga nisbatan joylashish tabiatini yoki ularning tarqalish (distributsiya) munosabatini tasvirlovchi fandır. Mazkur usul bilan tilni tahlil qilish deskriptiv metod deyiladi.

Deskriptiv metod matnni eng ixcham va tugal ifoda qilishni talab qiladigan tasvirlash metodidir. Deskriptiv metodning asosini distributsiya-distributiv tahlil tashkil qiladi<sup>182</sup>.

Distributiv tahlil muayyan til birliklari bilan bevosita bog‘liq holda amalga oshadi. Ushbu jarayonda fonema, morfema, leksema, so‘z, so‘z birikmasi va gap kabi lisoniy birliklarning distributsiyasi-joylashish o‘rni (pozitsiyasi), tartibi, oldinma – keyin kelishi, qo‘llanish imkoniyatlari aniqlanadi. Ayni vaqtda ushbu lisoniy birliklarning o‘zaro muayyan aloqaga – semantik – sintaktik munosabatga kirishuvi, bog‘lanishi-

<sup>181</sup> Qar: P. Rasulov. Umumiy tilshunoslik, 1-qiism, 85-bet.

<sup>182</sup> Qar: R. Rasulov. O‘sha asar, 87-bet.

belgilari ham o'rganiladi. Boshqacha aytganda, til birliklarining distributsiyasi fonema uchun ma'lum fonemaning oldidan va ketidan keladigan fonemalardir, morfema uchun esa morfemadan oldin va keyin keladigan morfemalardir<sup>183</sup>.

Nullus, distributiv tahlil metodi distributiv tahlil orqali, birin-chidan, nutq oqimidagi muayyan lisoniy birliklar chegaralanadi, aniqlanadi, ikkinchidan, ushbu birliklarning joylashish o'rni, qaysi pozitsiyada belgilanishi belgilanadi, uchinchidan, til birliklarining o'zaro bog'lanish imkoniyatlariga, birikishiga alohida e'tibor beriladi.

Distributiv tahlil metodi fonologiya, morfologiya va sintaksisda keng qo'llaniladi. Shuningdek, u leksik sathga nisbatan ham ishlatilmoqda. Demak, fonologiyada fonemalar, morfologiyada morfemalar, sintaksisda esa sintaktik birliklar: so'z birikmalari va gaplar aniqlanadi va ularning (har birining) bir-biriga o'zaro munosabati o'rganiladi. Ma'lum bo'ldiki, lisoniy birliklarning distributsiyasi muayyan til (yoki nutq) birligining boshqa birliklar bilan birikish usullari, qo'llanish doirasi, joylashish o'rni kabilardan iboratdir.

Distributiv tahlil metodining asosiy xususiyati shundaki, tilshunos til elementlarini (birliklarini), ularning distributsiyasini aniqlashda til elementlarining joylashish o'rni, qo'llanish pozitsiyasiga qarab ish olib boradi<sup>184</sup>.

Distributsiya har bir lisoniy birlik uchrashi, qo'llanishi mumkin bo'lgan barcha qurshovlarning (kontekstlarning) jami sifatida tushuniladi<sup>185</sup>.

### **Mustahkamlash uchun savollar: Questions for Consolidation:**

1. Distributiv tahlil metodi qanday metod?  
What is a distributive analysis method?
2. Deskriptiv tilshunoslik qanday tilshunoslik?  
What is Descriptive Linguistics?
3. Deskriptiv metod qanday metod?  
What is a descriptive method?

<sup>183</sup> S. Usmonov, O'sha asar. 103-bet.

<sup>184</sup> N.A. Baskakov, A.S. Sodiqov, A.S. Abduazizov, O'sha asar. 124-bet.

<sup>185</sup> Qar: В. А. Лисидский. Филологические методы и лингвистические приёмы исследования. Воронеж. 1973. 54-бет

### **Asosiy tushunchalar: Basic notion:**

1. Distributiv tahlil metodi – bunda nutq faoliyatidagi muayyan lisoniy birliklar (fonema, morfema, soʻz, soʻz birikmasi va boshqalar) aniqlanib, ularning joylashish oʻrni, oldinma-keyin kelishi belgilanadi. Shuningdek, til (nutq) birliklarining oʻzaro bogʻlanishi - semantik sintaktik munosabatga kirishuviga ham alohida eʼtibor beriladi.

Method of Descriptive Analysis defines certain linguistic units (phoneme, morpheme, word, word combination and others) and determines their places, their interrelation, and pays much attention to its semantic and syntactic relations.

2. Deskriptiv tilshunoslik – lisoniy birliklarning oʻzaro, bir-biriga nisbatan joylashishini, nutqda ularning qoʻllanish, tarqalish imkoniyatini oʻrganuvchi fandır.

Descriptive Linguistics studies relations of linguistic units with each other in speech, their usage, and distribution.

3. Distributsiya – lisoniy birliklarning nutqda qoʻllanish doirasi, joylashish oʻrni, boshqa birliklar bilan oʻzaro birikish imkoniyati ularning uchrashi mumkin boʻlgan jamiki qurshov.

Distribution is the usage of linguistic units in speech, place and their interrelation with other units and its surroundings.

### **2. Statistika tahlil metodi**

Statistik tahlil metodi jahon tilshunosligi amaliyotida eng faol ishlatiladigan metodlardan biri boʻlib, lisoniy birliklarning-til va nutq birliklarining takror va takror qoʻllanilishini, tez-tez ishlatilish darajasini, chastotasini, tarqalish doirasini belgilaydi. Boshqacha aytganda, ushbu metod lisoniy birliklarning, masalan, tovush, boʻgʻin, qoʻshimcha, soʻz, soʻz birikmasi, gap kabilarning ishlatilish miqdorini, arifmetik sonni aniqlash uchun xizmat qiladi. Demak, lisoniy hodisalar, birliklar nafaqat sifat beligisiga, balki miqdoriy belgiga egaligi bilan ham ajralib turadi.

Maʼlum boʻldiki, statistik tahlil metodi lisoniy birliklarning nutq faoliyatidagi, asosan, matndagi qoʻllanish miqdorini, baʼzan zarur hollarda esa fikr almashish jarayonidagi tarqalish chegarasini ham tadqiq qiladi, oʻrganadi.

Nullas, statistik tahlil metodi til sathlarining deyarli barchasiga: morfologik-fonologik, leksik, morfologik va sintaktik yaruslariga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Statistik tahlil metodi, ayniqsa, leksikologiya sohasida keng ishlatilmoqda. Ushbu jarayonda statistik tahlil natijasida qo'lga kiritilgan statistik ma'lumotlar orqali u yoki bu tildagi ishlatilishiga ko'ra eng faol va eng nofaol so'zlar aniqlanmoqda, so'zlarning me'yoriy va me'yoriy bo'lmagan qo'llanishi belgilanmoqda, uzual qo'llanishning okkazional-uzatqiy qo'llanishdan miqdoriy farqi ko'rsatilmoqda.

Leksik birliklarni-muayyan til leksemasini statistik tahlil metodi asosida o'rganish, ayniqsa, chastotali lug'atlar yaratishda juda qo'l kelmoqda. Bunday lug'atlar nazariy va amaliy tilshunoslik uchun qimmatli ma'lumotlar beradi, ushbu tilshunosliklarning tadqiqot ishlarini olib borishida ishonchli usul hisoblanadi.

Chastotali lug'atlar so'zlarning nutqda qo'llanish miqdori, foizi haqida ma'lumot beradi (masalan, I.A.Kissenning «Словарь наиболее употребительных слов современного узбекского литературного языка» lug'ati. T., 1972. B. Bafoyev va S. Rizayevlarning leksikaga – so'zlar chastotasiga oid ishlari va boshqalar).

Chastotali lug'atlar, ayniqsa, biron tilni o'rganish jarayonida, birinchi navbatda, eng zarur bo'lgan so'zlarni – minimum so'zlarni aniqlashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Statistik tahlil metodi muayyan tilda uning birliklari: fonema, morfema, leksema, so'z formalari kabilarning qanday taqsimlanishini, ushbu birliklarning o'zaro qanday bog'lanishini, birikuvini, eng faol qo'llanishga egaligini ham aniqlaydi, qayd etadi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for consolidation:**

1. Statistik tahlil metodi qanday metod?

What is syntactical analysis method?

2. Leksikani statistik tahlil metodi orqali o'rganish qanday lug'atlar yaratishda faol xizmat qilmoqda?

What kind of dictionaries can be compiled on the basis of using lexical statistic method?

## Asosiy tushunchalar:

### Basic notions:

1. Statistik tahlil metodi – lisoniy birliklarning (tovush, bo‘g‘in, so‘z birikmasi, gap kabilarning) nutqda ishlatilish miqdorini (sonini) qo‘llanish chastotasini o‘rganadi.

Method of statistic analysis studies the amount and frequency of using linguistic units (sound, syllable, word, word combination, sentence) in speech..

2. Chastotali lug‘atlar – so‘zlarning qo‘llanish miqdorini, foizini aniqlaydi. Bu jarayonda, ayniqsa, eng zarur bo‘lgan so‘zlarni belgilashga alohida e‘tibor beriladi.

Frequency dictionaries define the amount of word usage and percentage. Special attention is paid to words necessary to use in this case.

### 3. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodi

Struktural tilshunoslikning tadqiqot metodlaridan biri bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish usulidir. Ushbu metodning o‘ziga xosligi shundaki, u bevosita nutq faoliyati-nutq birliklari bilan bog‘liq holda funksional ahamiyatga egadir. Aniqrog‘i, mazkur metod so‘z birikmasi va gap kabi nutq birliklari faoliyatini, ularning tashkil topishini, ushbu jarayonda xizmat qiluvchi lisoniy hodisalarni, ya‘ni, so‘z birikmasi va gap kabi konstruksiyalarning qurilishida, shakllanishida bevosita xizmat qiluvchi birliklarni, ularning mohiyatini, ahamiyatini o‘rganadi, tahlil qiladi. Demak, ushbu jarayonda nutqni (so‘z birikmasi, gap, matn kabilarni) hosil qiluvchilarni aniqlash, belgilash, «topish» faoliyati amalga oshadi. Aytilganlarga ko‘ra, mazkur metod bevosita tashkil etuvchilarga ajratish yoki ajratib tahlil qilish metodi nomi bilan yuritiladi. Demak, bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodining yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, u bevosita sintaktik sath birliklari bilan shug‘ullanadi va shunga ko‘ra distributiv tahlil metodidan farq qiladi.

Aytish mumkinki, bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodi so‘z birikmasi va gaplarning sintaktik tuzilishini, ularning qanday qismlardan tuzilganini, ular orasidagi munosabatni aniqlaydi yoki aniqlashga xizmat qiladi, yordam beradi.

Eslatamiz, mazkur metod gapni-gap bo‘laklarini nisbatan aniq chegaralash, ajratish va gap strukturasiidagi sintaktik aloqa, munosabat



holatini aniqlashtirish, oydinlashtirish vositasi, metodi sifatida tilshunoslik nazariyasi va amaliyotiga kirib keldi.

Ma'lum bo'ldiki, bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodi orqali gap tarkibidagi birliklarning sintaktik munosabati belgilanadi. Bunday munosabat tilshunoslik fanida – sintaksisda hokim-tobelik (yoki tobe - hokimlik) munosabati deb yuritiladi. Bunda soʻz birikmasi yoki gapni bevosita tashkil etuvchilar, birinchidan, juftlik holatida boʻladi, ikkinchidan, ular tobe-hokim pozitsiyasida keladi, yaʼni, juftlik aʼzolaridan biri hokim, biri tobe hisoblanadi. Demak, soʻz birikmasi, gap, matn kabilar lisoniy birliklarning oʻzaro bir-biri bilan semantik-sintaktik munosabatga kirishuvidan, aniqrogʻi, ayni birliklarning zaruran ichki bogʻlanishi-shidan-biri ikkinchisiga tobelanishidan, tobelik prinsipidan yuzaga keladi. Qiyoslang: *mustaqillik bayrami, bunyodkorlik ishlari, muomala madaniyati, kitobni sevmogʻ; bolalar tarbiyasi umumxalq ishi, inson salomatligi uning oʻz qoʻlida, Vatanimiz qiyofasi yildan-yilga oʻzgarib bormoqda, mustaqillikni mustahkamlash har birimizning vijdonan bajaradigan ishimizdir.*

Ma'lum bo'ldiki, soʻz birikmasi va gapni bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodi gapning sintaktik strukturasi va dinamikasini oʻrganishda katta yordam beradi<sup>186</sup>. Ayni vaqtda ushbu metod muayyan kamchiliklarga ham ega boʻlib, bunda grammatik sistemalar-morfologiya va sintaksis qorishtiriladi, oʻzaro farqlanmaydi, leksik va semantik sathlar tadqiqotdan chetda qoladi<sup>187</sup>. Shuningdek, mazkur metod tilning eng sodda sintaktik birligi nima va qanday qilib sodda birliklardan murakkab sintaktik konstruktsiyalar (soʻz birikmasi, gap, matn kabilar) hosil boʻladi, degan savolga ham javob bera olmaydi.

Xullas, aytilgan kamchiliklarga koʻra bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodini toʻldiruvchi, uni mustahkamlash uchun xizmat qiladigan usul sifatida transformatsion tahlil metodi yuzaga keldi.

### Mustahkamlash uchun savollar: Question for consolidation:

1. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodi qanday metod?

What method is the method of direct dividing into the components?

<sup>186</sup> Qar: B.I. Kosovskiy, Oʻsha asar, 23-25-betlar. N.A. Baskakov. A.S. Sodiqov, A.A. Abduazizov. Oʻsha asar, 125-bet.

<sup>187</sup> Qar: B.I. Kosovskiy, Oʻsha asar, oʻsha bet. N.A. Baskakov. A.S. Sodiqov, A. A. Abduazizov. Oʻsha asar, 127-bet.

2. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodining distributiv tahlil metodidan farqi nimada?

What is the difference between the abovementioned method and distributive analysis method?

#### Asosiy tushunchalar:

##### Basic notions:

1. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodi – soʻz birikmasi va gap kabi nutq birliklarining, ularning tuzilishini, yaʼni, qanday qismlardan tashkil topishini, ular orasidagi munosabatni, aloqani aniqlaydi, oʻrganadi.

Method of analysis direct diving into components defines and studies the structure, i.e. its components of speech units like word combination and sentence and their relations with each other.

2. Sintaktik birliklar – soʻz birikmasi, gap kabi nutq birliklari.

Syntactica units are speech units like word combination and sentence.

#### 4. Transformatsion tahlil metodi

Struktural tilshunoslik metodlari «oilasiga» (guruhiga) tegishli boʻlgan transformatsion tahlil metodi, ayniqsa, sintaktik kon-struksiyalar – nutq birliklari tadqiqida faol qoʻllanishi bilan muhim ahamiyatga egadir.

Transformatsion tahlil metodiga koʻra sintaktik konstruksiyalar (qurilmalar) muayyan qoidalar asosida oʻzgaradi, yaʼni, boshqacha shaklga, koʻrinishga ega boʻladi, transformatsiyalashadi. Bunday transformatsiyalar orqali muayyan sintaktik konstruksiyaning – qurilmaning bir nechta shakllari aniqlanadi, oʻzaro farqlanadi, ularning mohiyatiga, tarkibiga chuqurroq kiriladi. Natijada transformatsiyaga (oʻzgarishga) uchragan har bir sintaktik konstruksiyaning oʻziga xos semantik jihatlari ham namoyon boʻladi. Masalan, *talaba kitob oldi* gapining nutqiy turlicha koʻrinishlari, variantlari-transformatsiyasi quyidagilar:

1. *Talaba olgan kitob.*

2. *Talaba tomonidan olingan kitob.*

3. *Kitob olgan talaba.*

4. *Talabaning kitobi.*

Demak, transformatsion tahlil metodi muayyan asos (yadro) gaplardan (masalan, talaba kitob oldi) tuzilgan-transformatsiyalashgan gaplarni, ya'ni, muayyan sintaktik model (masalan, ot+fe'l) asosida hosil qilingan qator gaplarni o'rganish, transformatsiyalanish mexanizmini, transformatsiyalarning hosil bo'lish qoidalarini ochishdir.

Aytish mumkinki, transformatsion tahlil metodining asosiy maqsadi natijamizda voqe bo'ladigan turlicha gaplarning asosida yadro vazifasini bajaruvchi asos gaplar mavjudligini, ushbu gaplar esa mana shu yadro gaplardan kelib chiqqanligini, tashkil topganligini, ularning o'zaro semantik-grammatik munosabatlarini aniqlash vazifasini bajarishdir. Demak, transformatsion tahlilda faqat transformatsiyalashgan (o'zgarishga uchragan) gaplar emas, balki ushbu gaplarga asos bo'lgan yadro gaplar aniqlanadi, u o'z asosida kelib chiqqan «yangi» gaplar bilan qiyoslanadi, umumiy va xususiy jihatlari belgilanadi.

Xullas, transformatsion tahlil metodi til sistemasi sintaktik tashkilining, uning qator ichki mikrosistemalarini tadqiq qiladi. Ushbu mikrosistemalardan biri asosiy, yadro gaplar bo'lib, boshqalari esa mazkur gaplardan hosil bo'lgan transformalar hisoblanadi. Mana shu transformalarning yadro gaplardan hosil bo'lishini o'rganish jarayoni transformatsion tahlil deyiladi. Transformatsion tahlil metodining asosiy vazifasi muayyan tilda (rus, o'zbek, nemis, ingliz va b.) mavjud bo'lgan yadro gaplarni aniqlash, uning sintaktik sistemadagi mohiyati, tabiati, muayyan maqsadga ko'ra turlicha shakllarda namoyon bo'lish imkoniyatlarini ochishdir<sup>188</sup>.

Ma'lum bo'ldiki, transformatsion tahlil metodida markaziy, yadroviy birlik, sintaktik qurilma aniqlanib (yoki tanlanib), ushbu qurilmadan boshqa ma'no (mazmun) va vazifaga ega qurilmalarning hosil bo'lish chizmalari (sxemalari), masalan, ko'chirma gapli qurilmalardan o'zlashtirma gapli qurilma hosil qilish chizmasi aniq belgilanadi, kodlashtirib modellashtiriladi.<sup>189</sup> Bu tahlil metodi mashina tarjimasida, matnlarni avtomatik tahlil jarayonlarida keng qo'llaniladi, ko'p holda injener (kompyuter) lingvistikasi va matematik lingvistika bilan qorishib ketadi.<sup>190</sup>

Shunday qilib, distributiv tahlil metodi muayyan lisoniy birliklar: fonema, morfema, so'zlarni, ularning qo'llanishini, joylashishini, o'rnini o'rgansa, bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodi esa,

<sup>188</sup> Qar: N. A. Baskakov, A.S. Sodiqov, A. A. Abduazizov. O'sha asar, 129-130-betlar.

<sup>189</sup> Qar: H.Ne'matov O'sha asar, 134-bet.

<sup>190</sup> Qar: N. A. Baskakov, A.S. Sodiqov, A. A. Abduazizov. O'sha asar. 131-bet.

asosan, muayyan nutq birligining – gap konstruksiyasining ichki, jufi holdagi birliklarining sintaktik munosabatlarini aniqlaydi. O‘z navbatida transformatsion tahlil metodi esa distributiv va bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodlaridan farqli holda nafaqat fonema, morfema, so‘z, gap kabi lisoniy birliklarni, ularning joylashishini, balki sintaktik konstruksiyalarning (strukturalarning, qurilmalarning) boshqa sintaktik birliklar (strukturalar, qurilmalar) bilan formal – semantik aloqasini, munosabatini, o‘xshashlik va farqli jihatlarini tadqiq qiladi<sup>191</sup>. Shunga ko‘ra transformatsion tahlil metodining qo‘llanish doirasi, qo‘llanish imkoniyatlari keng, chuqur bo‘lib, u deskriptiv va bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish struktural tilshunoslikning – struktural metodlarning mantiqiy va zaruriy davomi sifatida jahon tilshunosligi amaliyotida keng qo‘llaniladi, mustahkam o‘rin egallaydi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Question for consolidation:**

1. Transformatsion tahlil metodi qanday metod?  
What kind of method is the method of transformational analysis?
2. Transformatsion tahlil metodining eng muhim jihati nimada?  
What is the most important aspect of the method of transformational analysis?
3. Transformatsion tahlil metodi qaysi jarayonlarda keng qo‘llaniladi?  
What processes method of transformational analysis can be widely used in?

#### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Transformatsiya – qayta tuzish, o‘zgartirish.  
Transformation means the restructuring, modifying.
2. Transformatsion tahlil metodi – muayyan markaziy (yadro) sintaktik birlik (masalan, gap) asosida yaratilgan, hosil qilinadigan qator boshqa gaplarni aniqlaydi, ularning transformatsiyalanish mexanizmini o‘rganadi. Transformatsion tahlil metodi yadro gaplarni va ularni transformatsiyalash natijasida yuzaga kelgan “yasama” hosila gaplarni aniqlab, o‘zaro qiyoslaydi, ular orasidagi umumiy va farqli jihatlarini

<sup>191</sup> Qar: O‘sha asar, o‘sha bet.

belgilaydi. Ushbu metod orqali dastlab transformatsiyaga asos bo'lgan gaplar, so'ngra ular asosida hosil bo'lgan qayta tuzilgan gaplar tahlil qilinadi, ular orasidagi formal – semantik, sintaktik munosabatlar o'rganiladi.

The method of transformational analysis identifies a number of sentences that are based on certain central syntactic unit (nucleus, for example, sentences), studies the mechanism of the transformation. The method of transformational analysis identifies nuclear sentences and an "artificial" derivative received as a result of transformation of nuclear ones, compares them with each other, and determines the similarities and differences between them. Using this method the central sentences and derivatives ones are analysed, also formal-semantic and syntactic relationships between them are studied.

### 5. Komponent tahlil metodi

Tilshunoslikda (masalan, turkiy-o'zbek tilshunosligida) lisoniy birliklarni tadqiq qilishda faol qo'llanilayotgan metodlardan biri komponent tahlil metodidir. Komponent tahlil metodi til birliklarini paradigmatic birlik sifatida, paradigmatic munosabatda, aloqada oladi, paradigmatic qatorda o'rganadi.

Ushbu metodning o'ziga xos xususiyati shundaki, u, asosan, so'zga-so'z ma'nosiga nisbatan qo'llaniladi, so'z ma'nosini mukam-mal tahlil qilishda, uni tarkibiy qismlarga-komponentlarga ajratishda keng foydalaniladi. Demak, komponent tahlil metodi so'zning mazmun jihati bo'lgan ma'noni (sememani) muayyan semantik sistema sifatida tekshirishda, ayni sistemani tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarni, ma'noviy bo'laklarni, ya'ni, semalarni aniqlashda, ularning semantik sistemadagi – sememadagi mohiyatiga, o'rniga, ahamiyatiga, imkoniyatiga, o'ziga xosliklariga alohida e'tibor beradi, ularni aniqlaydi, qo'llanish doirasini belgilaydi.

So'z ma'nosini komponent tahlil metodi orqali o'rganishda so'z ma'nosi-semema mantiqan va zaruran muayyan bo'laklarga, komponentlarga ajraladi. Anig'i, so'z ma'nosini shu ma'noni – sememani tashkil qilgan ma'noviy bo'laklarga ajratish jarayoni, ajratilgan bo'laklarning har birini alohida o'rganish, ularning so'z ma'nosi tarkibidagi «quvvatini», nutqda qanday vazifani bajarishi kabilarni o'rganish jarayoni komponent tahlil metodi asosida amalga oshadi.

Eslatamiz, nazariy tilshunoslikda soʻz maʼnosini tashkil qiluvchilarga nisbatan sema termini faol qoʻllaniladi. Demak, komponent tahlil metodining faollik koʻrsatadigan asosiy «qurol» sifatida sema termini xizmat qiladi. Sema sememaning tarkibiy qismi, nutqdagi vakili, butunning boʻlagidir. Sema va semema (yoki semalar va sememalar) oʻzaro dialektik bogʻliq boʻlib, butun va boʻlak kategoriyasi nuqtayi nazaridan baholanadi.

Sememani tahlil qilish, semalarni oʻrganish, demak, semalar mohiyatini oʻrganish, sememani oʻrganishdir, sememaning semalar tarkibini belgilash, aniqlashdir.

Shunday qilib, soʻz leksik maʼnosi - semema uni tashkil qiluvchi komponentlardan – semalardan tarkib topadi. Maʼlum boʻldiki, soʻzning semantik tuzilishi (strukturasi) bevosita maʼno (semema) bilan bogʻlanadi. Chunki semantik komponentga ega boʻlmagan maʼno semema yoʻq va boʻlishi ham mumkin emas.

Soʻzning maʼnosi, maʼno tarkibi muayyan maʼnoviy boʻlak-lardan tarkibiy qismlardan (semalardan) tashkil topadi. Bu tarkibiy qismlar soʻz maʼnosini shakllantirib, har bir maʼnoning alohida til «birligi» sifatida mavjudligini taʼminlaydi. Soʻz maʼnosining tarkibiy qismlari nutqda muayyan xabar (darak) tashiydi. Demak, soʻz maʼnosining kichik tarkibiy qismlari oʻzaro barqaror butunlik (sistema) munosabatida boʻlib, maʼnoning nutqiy «ifodasi», nutq «birligi» sifatida xizmat qiladi.

Xullas, soʻz maʼnosini tarkibiy qismlarga ajratib oʻrganish usuli komponent tahlil metodi soʻz maʼnosini-uning tarkibini, tuzilishini aniqlashda eng asosiy va eng qulay obyektiv usul hisoblanadi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Komponent tahlil metodining oʻziga xosligi nimada?

What are the peculiarities of componential analysis?

2. Komponent tahlil metodi soʻz maʼnosini qanday qismlarga ajratib oʻrganadi va nimalarga eʼtibor beradi?

What does componential analysis method divide the meaning of words and what does it focus on?

3. Nazariy tilshunoslikda soʻz maʼnosiga va uning tarkibiy qismlariga nisbatan qanday terminlar ishlatiladi?

What terms are used to define the meaning of words and their components in theoretical linguistics?

## Asosiy tushunchalar:

### Basic notions:

1. Komponent tahlil metodi – soʻz maʼnosiga, uning tuzilishiga aloqatli ishlatilib, maʼnoni tarkibiy qismlarga – komponentlarga (tomonlarga) ajratadi. Har bir semaning maʼno (semema) tarkibidagi ahamiyatini, oʻrni, imkonini aniqlaydi, ishlatilish doirasini belgilaydi.

Componential analysis method is used in relation with the meaning of the word and their components (semees). It defines each seme of the meaning, its place and usage limits.

2. Semema – maʼno, soʻzning mazmun jihati, ichki tomoni

Sememe is meaning and the meaning aspect of the word.

3. Sema – sememaning tarkibiy qismi, maʼnoviy boʻlagi, komponenti.

Seme is a component of sememe, a part of meaning and its component.

## 6. Valentlik tahlil metodi

Til sistemasi muayyan lisoniy birliklardan iborat boʻlib, ushbu birliklar ham sistem tabiatga egaligi bilan ajralib turadi. Aniqrogʻi, maʼnan, har bir soʻz oʻz belgi va xususiyatlarining birligidan iborat muayyan element, qirra, tomon, imkoniyatlarga ega oʻziga xos sistemachadir<sup>192</sup>.

Maʼlumki, mikrosistem xarakterga ega boʻlgan soʻzning til sistemasidagi ahamiyati katta, qoʻllanish doirasi va imkoniyatlari juda keng boʻlib, u jahon tilshunosligi miqyosida doimo turli lingvistik yoʻnalishlarning tadqiqot obyekti boʻlib kelgan va shunday boʻlib qoladi.

Valentlik tahlil metodi ham, asosan, soʻz muammosi bilan shugʻullanadi, soʻzning nutq faoliyatidagi-nutq birligi sifatidagi semantik-sintaktik, funksional faolligini oʻrganadi, tekshiradi, uning ichki-mazmun jihati bilan bogʻliq imkoniyatlarini, xususiyatlarini ochib beradi. Aniqrogʻi, valentlik tahlil metodi orqali muayyan soʻzning oʻz maʼnosi asosida boshqa soʻzlar bilan sintaktik (semantik-sintaktik) munosabatga kirishuvi aniqlanadi, yaʼni, soʻzning turli maʼnoga ega qator soʻzlarni oʻziga birlashtirish xususiyatlari yoritiladi. Valentlik tahlil metodining obyektivligi, ilmiy-amaliy mohiyati, zarurligi soʻz bilan – soʻzning leksik – semantik kuchi, mavqei bilan belgilanadi. Demak, soʻzning «ruhi», «joni» boʻlgan semantikasi uning boshqa soʻzlar bilan birikishini taʼminlaydi, birikma, gap kabi nutq birliklari soʻzning

<sup>192</sup> V. M. Solnsev. Oʻsha asar, 16-bet.

fikr ifodalash jarayonida boshqa soʻzlar bilan birika olish semantik imkoniyatining, valentlik munosabatining natijasi sifatida yuzaga keladi.


Murakkab tushuncha ifodalovchi nutq birliklaridan tortib, bir ifodalovchi nutq birliklarining hosil boʻlishi bevosita soʻz valentligi bilan bogʻliqdir.

Valentlik tahlil metodi orqali soʻzlarning birikishi-soʻzlar orasidagi mantiqiy aloqa dastavval ularning semantik imkoniyatiga (substantival xususiyatiga) koʻra amalga oshishi, soʻzlarning semantik bogʻlanishi asosida esa ular sememalarining (semalarining) semantik munosabati mavjudligi aniqlanadi.


Valentlik tahlil metodi orqali soʻzlar orasidagi semantik munosabat bevosita sintaktik munosabatni yuzaga keltirishi, yaʼni, semantik sintagmalarni, sintaktik konstruksiyalarni (qurilmalarni) hosil qilishi maʼlum boʻladi.

Ushbu metod orqali soʻzlar orasidagi sintaktik aloqa asosida soʻzning valentlik imkoni mavjudligi, sintaktik aloqa soʻzning valentlik qobiliyatiga egaligini, valentlik umumiy xususiyatining nutqda, soʻzlar orasidagi turlicha bogʻlanishlarda – xususiyliklarda namoyon boʻlishini koʻrsatadi.


Valentlik tahlil metodi orqali, masalan, soʻz semantik valentligining muayyan koʻrinishi boʻlgan feʼl (yoki ot, sifat va b.) valentliklarini, uning nutqda qaysi soʻzlar bilan birika olishini, sintaktik munosabatga kirishishini aniqlash mumkin.

*Oʻqtaldi*  *U*  
*miltiqni*  
*shubhali odamga*  
*ehtiyotdan*  
*eshik oldida*

*Toʻxtadi:* nima, qayerda, qachon, nima sababdan.

*Toʻxtadi*  *Mashina*  
*uyning oldida*  
*erta tongda*  
*benzin olish uchun*

*Chimirdi:* kim, nima sababdan, nimani.

*Chimirdi*  *U*  
*asabiylashib*  
*qoshini*



Fe'l valentligining o'ziga xosligi shundaki, u valentlik semantik imkoniyatiga ko'ra gapning ko'rinishini (tuzilishini) belgilaydi, uning qanday so'zlardan tarkib topishini ma'lum qiladi. Masalan, *o'qalmog'* so'zining semantik imkoniyati – valentlik qobiliyati gapda quyidagi variantlar (ishtirokchilar, qatnashuvchilar) orqali namoyon bo'ladi. Misol: *O'qaldi:* kim, nimani, kimga, nima sababdan, qayerda.

Xullas, valentlik tahlil metodi nutq faoliyatini, uning muayyan so'z birliklaridan, ularning o'zaro semantik-sintaktik munosabatga kirishuvidan tarkib topishini, nutqning hosil bo'lish mexanizmini differensial – semantik metod-komponent tahlil metodi bilan hamkorlikda o'rganib berishiga ko'ra muhim ahamiyatga egadir.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Valentlik tahlil metodi qanday metod?

What is valency analysis method?

2. So'z valentligi nima?

What is word valency?

3. Fe'l valentligi nima?

What is verb valency?

### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Valentlik tahlil metodi – so'zning nutq faoliyatidagi semantik-sintaktik, funksional faolligini o'rganadi, uning ma'no jihati bilan bog'liq imkoniyatlarini yoritadi. Ushbu metod so'zning ma'nosi asosida boshqa so'zlar bilan semantik munosabatga kirishuvini, ularni o'ziga birlashtirish xususiyatlarini tekshiradi.

Valency analysis method studies word's speech activeness from semantically and functionally activeness points of view, and covers its property related to its meaning. This method examines collocation properties of the word and semantics relations.

2. So'z valentligi – so'zning ma'no imkoniyati – ma'no talabi asosida boshqa – talab qilingan so'zlar bilan birlashtirishi.

Word valency is the meaning possibility of the word and making collocation with other words based on meaning requirements.

3. Fe'l valentligi – fe'lning semantik imkoniyatiga ko'ra gapning tuzilishini, uning qanday so'zlardan tarkib topishini belgilaydi.

Verb valency studies the structure of a sentence based on the verb's semantic possibilities and defines what words it consists of.

## 7. Eksperimental – fonetik tahlil metodi

Fonetik sistemaning eksperimental fonetika sohasi bo'lib, u nutq tovushlarini maxsus texnik vositalar, asboblardan yordamida o'rganishi bilan muhimdir. Eksperimental fonetika nutq tovushlarini tadqiq qilishda eksperimental (yoki instrumental) fonetik metodlardan foydalanadi. Eksperimental fonetik metod nutq tovushlarini, prosodik hodisalarni (masalan, intonatsiya, pauza, ritm) o'rganishda tovushlarni yaratib oluvchi, ularni, mohiyatidan kelib chiqib, tahlil qiluvchi maxsus texnik vositalardan, asboblardan foydalanadi.

Ushbu metod tilning tovush sistemasini tekshirishda bir qator maxsus usullarni qo'llaydi. Mazkur usullar nutq tovushlarini tadqiq qilish maqsadi va vazifasidan, qo'llanadigan, foydalaniladigan tahlil vositalarining xarakteridan kelib chiqib, o'z ichida bir nechta turlarga bo'linadi.

Eksperimental – fonetik metod o'z ichida somatik, pnevmatik va elektroakustik (yoki elektrografik) turlarga bo'linadi.

1. Somatik usulning o'ziga xosligi shundaki, u gapning (so'zlash) fiziologik jarayonlarining somatik (jismoniy, tana bilan bog'liq) ifodasini tekshirish orqali fonetik hodisalar haqida ma'lumot beradi, xulosa chiqardi. Bu jarayonda artikulyatsiya a'zolarini suratga olish, nutq apparatining rentgen tasvirini tushirish, nutq faoliyati davomida nafas olish va chiqarish holatini o'lchash kabi jarayonlar somatik usulning fonetik hodisalarni-nutq tovushlarini tekshirish yo'llari (usullari) sifatida xizmat qiladi. Demak, somatik usul, umumiylik atida, qayd etilgan yo'llar, xususiyliklar orqali ish olib boradi.

2. Pnevmatik usullar orqali esa nutq a'zolarining talaffuz jarayonidagi harakati, havo oqimining og'iz, burun va bo'g'iz bo'shlig'idagi harakati natijasida hosil bo'luvchi asosiy tovush (ton) va shovqinlarning o'zgarishi aniqlanadi.

3. Elektroakustik usullar esa nutqning tovush xususiyatlarini elektr tebranishiga o'zgartirishga asoslanadi<sup>193</sup>. Demak, elektroakustik usullar

<sup>193</sup> V.I. Koduxov. O'sha asar, 250-251-betlar.

nutq faoliyatidagi, fikr almashish jarayonidagi tovushlarni, ularga xos turlicha xususiyatlarni (masalan, cho'ziqlik, qisqalik, baland-pastlik, ohangdorlik, shovqin kabilarni) elektr tebranishlarga o'zgartirib, o'tkazib yoki elektr tebranishlari nuqtayi nazaridan, uning me'yorlari asosida tahlil qiladi va mazkur yondashuvdan kelib chiqib, ular asosida nutq tovushlarini «baholaydi», tavsiflaydi. Shunga ko'ra, ayni usul elektroakustik usul nomi bilan yuritiladi.

Xullas, eksperimental – fonetik yoki instrumental – fonetik metod nutq tovushlarining artikulyatsion va akustik jihatdan aniq, ishonchli va obyektiv ta'rifini, talqinini beradi.

### **Mustahkamlash uchun savollar: Questions for Consolidation:**

1. Eksperimental – fonetik tahlil metodi qanday metod?  
What is experimental-phonetic analysis method?
2. Eksperimental – fonetik tahlil metodining qanday ko'rinishlari mavjud?  
What types of experimenmtal-phonetic analysis methods are there?
3. Somatik usul qanday usul?  
What is somatic method?
4. Pnevmatik usul qanday usul?  
What is pneumatic method?
5. Elektroakustik usul qanday usul?  
What is electro-acoustic method?

### **Asosiy tushunchalar: Basic notions:**

1. Eksperimental-fonetik tahlil metodi – nutq tovushlarini, prosodemik hodisalarni tadqiq qiladi, ularning artikulyatsion, akustik va boshqa jihatlarini, xususiyatlarini o'rganishda maxsus texnik vositalardan foydalanadi.

Method of experimental-phonetic analysis studies speech sounds and prosodic phenomena and it uses special technical equipment to study their articulatory, acoustic and other properties.

2. Somatik usul – nutq (soʻzlash) jarayonida artikulyatsiya aʼzolarini oʻrganadi, ularning rentgen tasvirini tushiradi, nafas olish va chiqarish holatini oʻlchaydi.

Somatic method studies articulatory organs in the process of speech and X-rays breathing in and out processes and measures

3. Pnevmatik usul – nutq aʼzolarining talaffuz jarayonidagi faolligini, havo oqimining harakati natijasida hosil boʻluvchi ovoz, tovush va shovqinlarni, ularning oʻzgarishi kabilarni aniqlaydi.

Pneumatic method studies the activeness of the speech organs in the process of speech and defines the sounds formed under the movement of air stream, noise and their change.

4. Elektroakustik usul – nutq faoliyatidagi tovushlarni, ularning choʻziqlik, qisqalik, baland-pastlik, ohangdorlik kabi xususiyatlarini elektr tebranishlarga qiyoslab, ularga oʻtkazib, elektr tasviri sifatida oʻrganadi.

Electro-acoustic method studies speech sounds, their quality including long, short, high and low characteristics, euphony in comparison with electrovibration and transferring them to electro picture (reflection).

## 8. Avtomatik tahlil metodi

Avtomatik tahlil metodi davr talabi bilan yaratilgan zamonaviy tahlil metodlaridan biridir. Elektron - hisoblash mashinalarining (EHM), kompyuterlarning paydo boʻlishi tilshunoslik fanida ham ilmiy - tadqiqot ishlarining amaliyoti oldiga yangi vazifa va muammolarni qoʻydi. Tilshunoslikda bunday muammolar sifatida avtomatik tarjima, matni elektron-hisoblash mashinalari yordamida tuzish, qisqartirish kabilarni koʻrsatish mumkin. Demak, fanning taraqqiyoti, texnikadagi yangiliklar, yangi texnik vositalarning- "kompyuter" paydo boʻlishi kabilar avtomatik tahlil metodining «tuzilishiga», shakllanishiga olib keldi, sabab boʻldi.

Avtomatik tahlil metodining oʻziga xosligi shundaki, u tilni – lisoniy birliklarni muayyan boʻlaklarga, formal qismlarga ajratadi. Ajratishdan hosil boʻlgan tilning ushbu qismlari, yaʼni, formal elementlari boshqa tilning shunday maʼnodagi boʻlaklariga-formal elementlariga muvofiq, mos keladi, ekvivalent boʻladi. Demak, tillaro muayyan lisoniy birliklarning (masalan, matnning, gaplarning, soʻz birikmalarining) - formal qismlarning mazmuniy – fikriy mosligi, mazmunan – fikran muvofiqligi asosida ushbu tillarning biridan ikkinchisiga – bir tildan boshqa tilga kompyuter yordamida tarjima

qilish imkonini beradi<sup>194</sup>. Boshqacha aytganda, bir tildagi – lisoniy birliklardagi mazmun boshqa bir tilga – shu til birliklari, vositalari orqali kompyuter yordamida tarjima qilinadi. Kompyuter orqali matnni bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish uchun:

1. Maxsus tanlangan soʻzlar bilan birgalikda matnni mexanik (mekanistik) ravishda tarjima qilish imkoniyatini beradigan qoidalar sistemasini yaratish kerak.

2. Bu qoidalarni va soʻzlarni «mashina tilida» yozish, yaʼni, mazkur qoidalarni amalga oshiruvchi dastur (programma) tuzish kerak.

Programma va lugʻat maxsus shartli belgilar bilan yoziladi va mashinaga kiritiladi, natijada mashina tarjimaga tayyor boʻladi<sup>195</sup>.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

#### **Questions for Consolidation:**

1. Avtomatik tahlil metodi qanday metod?

What is an automatic method?

2. Kompyuter yordamida qanday lingvistik masalalarni hal qilish mumkin?

What linguistic problems can be solved by the help of computer?

### **Asosiy tushunchalar:**

#### **Basic notions:**

1. Avtomatik tahlil metodi – muayyan tildagi birliklarning (masalan, soʻz birikmasi, gap, matn kabilarning) boshqa bir tilning shunday birliklariga mazmuniy-fikriy mosligi, muvofiqligi asosida ushbu tillarning biridan ikkinchisiga (bir tildan boshqasiga) shu (ikkinchi) til birliklari orqali kompyuter yordamida tarjima qilish jarayonini oʻrganadi.

Method of Automatic Analysis studies a translation process of linguistic units (for instance, word combination, sentence, text and others) of certain languages to define their content, correspondence by translating via computer.

2. EHM – elektron hisoblash mashinasi.

EC is electronic computer.

<sup>194</sup> Qar.: S. Usmonov. Oʻsha asar, 202-bet.

<sup>2</sup> С.Усмонов. Умумий тилшунослик, 203-бет.

**Adabiyotlar:**  
**Bibliography:**

- 1 О.С. Ахманова. Словарь лингвистических терминов.- М., 1966
2. Б.И. Косовский . Общее языкознание. -Минск. 1969.
3. В.М.Солнцев. Язык как системно – структурное образование М.,1971.
4. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. -Т., 1972.
5. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований М., 1973.
6. В.И. Кодухов . Общее языкознание.- М., 1974.
- 7.Д.Э.Розенталь,М.А.Теленкова. Словарь - справочник лингвистических терминов.- М., 1976.
8. А.Т. Хроленко. Общее языкознание.- М., 1981.
9. Н.А Баскаков, А.С Содиқов, А.А Абдуазизов. Умумий тилшунослик. -Т., 1979.
10. А. Шерматов, Б.Чориев . «Умумий тилшунослик» курсидан мустақил ишлар.- Т., 1989.
- 11 Основы лингвистических исследований (тексты лекций спецкурса).- Т. 2000.
12. Н.Не'matov. Ilmiy tadqiq metodikasi,metodologiyasi va metodlari. Buxoro, 2006.

## XULOSA

Til tabiatan, mohiyatan o'ta murakkab, o'ziga xos ziddi-yatlarga ega ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatga fikrlarning mantiqiy aloqasini, moddiy namoyon bo'lishini ta'minlovchi qudratli qurol sifatida xizmat qilib kelmoqda. Ayni vaqtda u, ushbu jarayonda, turli lisoniy oqimlar, yo'nalishlar tomonidan turli tekshirish metodlari, usullari orqali o'rganilib borilmoqda, tahlil qilinmoqda, uning o'ziga xosligi, ichki «sir-sinoati» - mohiyati ochib berilmoqda.

Tilni – uning hodisalarini, tilning mavjudligini, moddiyligini ta'minlovchi lisoniy birliklarni – eng “oddiy shakl” – fonema (tovush)dan tortib, eng murakkab – gap, matn kabilarning tabiatini yoritish, ularning har birining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, topish, mukammal bilish, shak-shubhasiz, muayyan metodlar, muayyan yondashuvlar asosida amalga oshadi. Shunday ekan, aytilganlardan tilni butun bir murakkab sistema sifatida o'rganish, ayni sistemaning strukturasi yoritish uchun qo'llaniladigan turli-tuman metodlarning bo'lishi tabiiy va zaruriydir. Ushbu fikrning o'ziyiq lisoniy tadqiq metodlari muammosining mavjudligini, murakkab va dolzarb ekanini ko'rsatadi. Negaki, sistemalar siste-masi bo'lgan til haqida obyektiv, ilmiy-nazariy, falsafiy g'oyalar, umumlashmalar, mukammal ta'limotlar yaratish faqat muayyan tadqiq metodlari orqali, ularni o'z o'rnida to'g'ri qo'llash va ulardan mohirona foydalanish orqali amalga oshadi. Negaki, tadqiq metodlari fan uchun, ilmiylik uchun, fan taraqqiyoti uchun xizmat qiladi.

Demak, u yoki bu fanning mavjudligi, uning faol harakati, xulosalari faqat tadqiq obyekti (manbai), tadqiq maqsadi kabilari bilangina belgilanmaydi, balki uning tadqiq metodlari bilan ham belgilanadi. Tadqiq metodlarisiz birorta fan ham o'z maqsadiga (strategiyasiga), tadqiq obyektining mohiyatini ochishga erisha olmaydi. Chunki u yoki bu fanning tabiat va jamiyat hodisalarini aniqlashi, ularga xos qonuniyatlarni topishi, ular haqida ilmiy-falsafiy g'oyalar chiqarishi, shak-shubhasiz, muayyan metodlar orqali amalga oshadi.

## TO'RTINCHI QISM

### “UMUMIY TILSHUNOSLIK” FANIDAN TEST SAVOLLARI

1. “Umumiy tilshunoslik” fani qanday fan?

- a) siyosiy fan;
- b) amaliy fan;
- v) falsafiy fan;
- g) ilmiy-nazariy, falsafiy fan;
- d) ijtimoiy fan.

2. “Umumiy tilshunoslik” fani qanday muammolarni o‘rganadi?

- a) tilshunoslik tarixini, tilshunoslikning nazariy masalalarini, tilshunoslik metodlarini;
- b) grammatik qonuniyatlarni;
- v) tillarni ilmiy o‘rganish metodlarini;
- g) so‘z yasalishini;
- d) sintagmatik munosabatlarni.

3. Jahon tilshunosligi tarixida qaysi maktablar tan olinadi?

- a) hind, yunon, xitoy, rum, arab maktablari;
- b) arab, Moskva, Toshkent maktablari;
- v) rum, xitoy, yapon maktablari;
- g) hind, Koreya, Yunon, nemis maktablari;
- d) yunon, fransuz, Amerika, Angliya maktablari.



**4. Hind tilshunosligida til bilan shug'ullanish qanday ahamiyatga ega bo'lgan?**

- a) nazariy ahamiyatga;
- b) amaliy ahamiyatga;
- v) siyosiy ahamiyatga;
- g) ilmiy ahamiyatga;
- d) metodik ahamiyatga.

**5. Hind Vedalari nechta kitobdan iborat bo'lgan?**

- a) o'n kitobdan;
- b) yigirma kitobdan;
- v) o'ttiz kitobdan;
- g) besh kitobdan;
- d) to'rt kitobdan.

**6. Sanskrit qaysi til?**

- a) qadimgi nemis adabiy tili;
- b) qadimgi hind adabiy tili;
- v) qadimgi irland adabiy tili;
- g) qadimgi ingliz adabiy tili;
- d) qadimgi rus adabiy tili.

**7. Hind tilshunosligining mashhur namoyandasi kim?**

- a) A. Vostokov;
- b) Alisher Navoiy;
- v) Panini;
- g) Zamahshariy;
- d) V. Vinogradov.

8. Hind tilshunosligida soʻzlar, asosan, nechta turkumga ajratilgan?

- a) besh turkumga;
- b) toʻrt turkumga;
- v) olti turkumga;
- g) ikki turkumga;
- d) sakkiz turkumga.

9. Hind tilshunosligida nechta kelishik qayd etilgan?

- a) yettita;
- b) oʻn bitta;
- v) beshta;
- g) toʻrtta;
- d) sakkizta.

10. Qadimgi hind tilshunosi Guru morfologiyani nechta boʻlimdan iborat deb hisoblagan?

- a) besh boʻlimdan;
- b) olti boʻlimdan;
- v) yetti boʻlimdan;
- g) uch boʻlimdan;
- d) ikki boʻlimdan.

11. Qadimgi hind tilshunosligida feʼning qaysi mayllari ajratilgan?

- a) aniqlik, istak, buyruq va shart;
- b) istak, buyruq va shart;
- v) aniqlik, istak, buyruq;
- g) buyruq va shart;
- d) aniqlik.

**12. Qadimgi hindlarda tilshunoslikning qaysi bo'limi nisbatan kam tadqiq qilingan?**

- a) fonetika;
- b) morfologiya;
- v) leksikografiya;
- g) sintaksis
- d) fonologiya.

**13. Yunon tilshunosligi taraqqiyotini nechta davrga bo'lish mumkin?**

- a) uch davrga;
- b) ikki davrga;
- v) besh davrga;
- g) olti davrga;
- d) to'rt davrga.

**14. Yunon olimlari tilni qaysi jihatiga ko'ra izohlaganlar?**

- a) siyosiy jihatiga ko'ra;
- b) falsafiy jihatiga ko'ra;
- v) mantiqiy jihatiga ko'ra;
- g) ilmiy jihatiga ko'ra;
- d) nazariy jihatiga ko'ra.

**15. Yunon faylasuflari tilda qanday munosabatni belgiladilar?**

- a) so'z va jamiyat munosabatini;
- b) predmet va shakl munosabatini;
- v) so'z va predmet munosabatini;
- g) shakl va mazmun munosabatini;
- d) umumiylik va xususiylik munosabatini.

**16. Analogiya nima?**

- a) o'xshashlik;
- b) noo'xshashlik;
- v) farqlilik;
- g) umumiylik;
- d) yakkalik.

**17. Anomaliya nima?**

- a) umumiylik;
- b) o'xshashlik;
- v) farqlilik;
- g) noo'xshashlik;
- d) xususiylik.

**18. Predmet va uning nomi orasidagi munosabat qaysi asarda bayon qilinadi?**

- a) «Kratil»da;
- b) «Poetika»da;
- v) «Brut»da;
- g) «Ritorika»da;
- d) «Sintaksis haqida» asarida.

**19. Yunon tilshunosligi falsafiy davrining asosiy vakillari kimlar?**

- a) Yaski, Panini, Guru;
- b) Geraklit, Demokrit, Platon, Aristarx, Krates, Epikur va Prodik;
- v) Zenodot, Dionisiy, Apolloniy Diskol;
- g) Geraklit, Demokrit, Platon, Aristarx;
- d) Aristarx, Krates, Epikur va Prodik.

**20. Apolloniy Diskol qaysi asarni yozgan?**

- a) «Kratil»ni;
- b) «Poetika»ni;
- v) «Sintaksis haqida»ni;
- g) «Ritorika»ni;
- d) “Brut”ni

**21. Aristarx nechta soʻz turkumini ajratgan?**

- a) beshta soʻz turkumini;
- b) oltita soʻz turkumini;
- v) yettita soʻz turkumini;
- g) sakkizta soʻz turkumini;
- d) oʻnta soʻz turkumini.

**22. Dionisiy yozgan asar qaysi?**

- a) «Grammatika sanʼati»;
- b) «Poetika»;
- v) «Rus tili»;
- g) «Ritorika»;
- d) “Sintaksis haqida”.

**23. Yunon tilshunosligida qaysi boʻlim nisbatan kam tadqiq qilingan?**

- a) fonetika;
- b) morfologiya;
- v) leksikografiya;
- g) sintaksis va fonetika;
- d) leksikologiya.

**24. Qadimgi Rim tilshunosligining vakillari kimlar?**

- a) Yaski, Panini, Guru;
- b) Geraklit, Demokrit, Platon, Aristotel, Aristarx, Krates, Epikur va Prodik;
- v) Zenodot, Dionisiy, Apolloniy Diskol;
- g) Yuliy Sezar, Mark Terensiy Varron, Eliya Donata, Verriy Flakk, Prissian
- d) Verriy Flakk, Prissian, Esxil.

**25. Qadimgi Rim tilshunosligida nechta soʻz turkumi ajratilgan?**

- a) beshta soʻz turkumi;
- b) oltita soʻz turkumi;
- v) yettita soʻz turkumi;
- g) sakkizta soʻz turkumi;
- d) oʻnta soʻz turkumi.

**26. Yuliy Sezarning grammatikaga oid asari qaysi?**

- a) «Analogiya haqida»;
- b) «Poetika»;
- v) «Brut»;
- g) «Ritorika»;
- d) “Nemis tili”.

**27. Rim grammatikasi qaysi tilshunoslik maktabining shahobchasi sifatida paydo boʻlgan?**

- a) hind tilshunosligining;
- b) xitoy tilshunosligining;
- v) grek tilshunosligining;

- g) rus tilshunosligining;
- d) arab tilshunosligining.

**28. Xitoy tilshunosligiga tarixan katta hissa qo'shgan olimlar kimlar?**

- a) Yaski, Panini, Guru;
- b) Geraklit, Demokrit, Platon, Aristarx, Krates, Epikur va Prodik;
- v) Zenodot, Dionisiy, Apolloniy Diskol;
- g) Syuy Shen, Van Nyan – Sun, Van In-Chji.
- d) Aristarx, Krates, Epikur va Prodik.

**29. Xitoy tilshunosligining asosiy sohasi qaysi?**

- a) fonetika;
- b) morfologiya;
- v) leksikografiya;
- g) leksikologiya;
- d) sintaksis va fonetika.

**30. Syuy Shen qanday asar yozgan?**

- a) «Elementlar va murakkab belgilar haqida»;
- b) «Poetika»;
- v) «Brut»;
- g) «Ritorika»;
- d) “Sintaksis haqida”.

**31. Arab tilshunosligi maktablari qaysilar?**

- a) Kufa maktabi;
- b) Basra maktabi;
- v) Bag‘dod maktabi;

- g) Kufa va Basra maktabi;
- d) Madina maktabi.

**32. Arab tilshunosligining mashhur namoyandasi kim?**

- a) Abu Rayhon Beruniy;
- b) Abu Ali ibn Sino;
- v) Alisher Navoiy;
- g) Amir bin Usmon Sibavayxiy;
- d) Mahmud Koshg'ariy.

**33. Amir bin Usmon Sibavayhiy qanday asar yozgan?**

- a) «Al - kitob»;
- b) «Poetika»;
- v) «Kratil»;
- g) «Ritorika»;
- d) «Muhokamat ul-lug'atayn»;

**34. Amir bin Usmon Sibavayhiy tilshunoslikning qaysi bo'limini ishlab chiqqan?**

- a) fonetika;
- b) grammatika;
- v) leksikografiya;
- g) leksikologiya;
- d) sintaksis.

**35. Arab tilshunosligida, ayniqsa, qaysi sohaga katta o'rin ajratilgan?**

- a) fonetikaga;
- b) morfologiyaga;



- v) leksikografiyaga;
- g) sintaksisga;
- d) leksikologiyaga.

**36. Xalil al - Farohidiyning birinchi arab tili lug‘ati qanday nomlanadi?**

- a) «Al - kitob»;
- b) «Kitobul avomil»;
- v) «To‘lqinlar toshqini»;
- g) «Kitobul ayn»;
- d) “Sintaksis haqida”.

**37. Feruzobodiyning 60 tomlik lug‘ati qanday nomlanadi?**

- a) «Al - kitob»;
- b) «Kitobul avomil»;
- v) «To‘lqinlar toshqini»;
- g) «Qomus».
- d) “Sangloh”.

**38. Sag‘aniyning 20 tomlik lug‘ati qanday nomlanadi?**

- a) «Al - kitob»;
- b) «Sangloh»;
- v) «To‘lqinlar toshqini»;
- g) “Ritorika”;
- d) «Arab tili»;

**39. Arab leksikografiyasida lug‘atlar mazmunan nechta turga bo‘lingan?**

- a) besh turga;

- b) sakkiz turga;
- v) yetti turga;
- g) olti turga;
- d) uch turga.

**40. Arab tilshunosligida soʻz oʻzagi, asosan, nechta undoshdan tashkil topadi?**

- a) olti undoshdan;
- b) uch undoshdan;
- v) toʻrt undoshdan;
- g) ikki undoshdan;
- d) besh undoshdan;

**41. Arab tilshunosligida soʻz turkumlari nechta?**

- a) toʻrtta;
- b) uchta;
- v) beshta;
- g) ikkita;
- d) sakkizta.

**42. Nahv termini arab tilshunosligining qaysi sohasini anglatadi?**

- a) morfologiyani;
- b) sintaksisni;
- v) fonetikani;
- g) leksikologiyani;
- d) toponimikani.

**43. "At-tuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya" asari nechta bo'limdan iborat?**

- a) besh bo'limdan;
- b) sakkiz bo'limdan ;
- v) yetti bo'limdan;
- g) uch bo'limdan;
- d) to'rt bo'limdan.

**44. Asiruddin Abu Hayyon al-Andalusi turklar tili masalalariga bag'ishlangan qanday asar yozgan ?**

- a) «Al - kitob»;
- b) «Kitob al idroki lisonul atrok»;
- v) «To'lqinlar toshqini»;
- g) «Qomus».
- d) "Sintaksis haqida".

**45. O'rta Osiyolik qaysi olim arab tilida dastlabki asar yaratgan?**

- a) Abu Rayhon Beruniy;
- b) Abu Ali ibn Sino;
- v) Abu Nasr Forobiy;
- g) Alisher Navoiy;
- d) Mahmud Koshg'ariy.

**46. Abu Nasr Forobiyning tilshunoslikka bag'ishlangan asari qaysi?**

- a) «Al - kitob»;
- b) «Diyvon ut-tamoyil»;
- v) «To'lqinlar toshqini»;

- g) «Fanlar tasnifi haqida soʻz».
- d) «Kitobul ayn».

**47. «Kitob lisonul arab» asarini kim yozgan?**

- a) Mahmud Koshgʻariy;
- b) Alisher Navoiy;
- v) Aburayxon Beruniy;
- g) Abu Ali ibn Sino;
- d) Bobur.

**48. Abu Ali ibn Sinoning nutq tovushlariga oid asari qaysi?**

- a) «Hamsa»;
- b) «Sangloh»;
- v) «Asbobi hudut al huruf»;
- g) «Al-kashshof»;
- d) «Sintaksis haqida».

**49. Mahmud az Zamahshariy kim?**

- a) arab tilshunosligi rivojiga ulkan hissa qoʻshgan xorazmlik buyuk alloma.
- b) etnograf olim;
- v) mashhur yozuvchi;
- g) geograf olim;
- d) yirik lugʻatshunos.

**50. Mahmud az Zamahshariyning grammatikaga oid asari qaysi?**

- a) «Asos ul - balogʻa»;
- b) «Navobigʻ ul - kalim»;
- v) «Al - mufassal fi sanʻat il-iʻrob»;

- g) «Devonu lug‘otit turk »;
- d) «Muhokamat ul-lug‘atayn»

**51. Mahmud az Zamahshariyning qur‘on tafsifiga bag‘ishlagan asari qaysi?**

- a) «Poetika»;
- b) «Al - kashshof»;
- v) «Alfoiq fi g‘arib il - hadis»;
- g) «Lisonut tayr»;
- d) «Muhokamat ul-lug‘atayn»

**52. «Devonu lug‘otit turk» asarini kim yozgan?**

- a) Abu Ali ibn Sino;
- b) Alisher Navoiy;
- v) Mahmud Koshg‘ariy;
- g) Mahmud az Zamahshariy;
- d) Bobur.

**53. «Devonu lug‘otit turk asari» necha qismdan iborat?**

- a) uch qismdan;
- b) besh qismdan;
- v) ikki qismdan;
- g) olti qismdan;
- d) o‘n qismdan.

**54. Abu Rayhon Beruniyning lisoniy qarashlari qaysi asarda aks etgan?**

- a) «Al - kitob»;
- b) «Sangloh»;

- v) «Toʻlqinlar toshqini»;
- g) «Saydana»;
- d) «Muhokamat ul-lugʻatayn».

**55. «Saydana» asari nechta bob va maqoladan iborat?**

- a) besh bob va 2000 maqoladan;
- b) sakkiz bob va 2500 maqoladan;
- v) yetti bob va 1000 maqoladan;
- g) yigirma toʻqqiz bob va 1116 maqoladan;
- d) oʻn bob va 100 maqoladan.

**56. Mirzo Mehdixonning tilga oid asari qaysi?**

- a) «Al-Mufasssal»;
- b) «Kitob lison-ul arab»;
- v) «Kitob ul ayn»;
- g) «Sangloh»;
- d) «Muhokamat ul-lugʻatayn».

**57. Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid asari qaysi?**

- a) «Hamsa»;
- b) «Mahbub ul qulub»;
- v) «Muhokamat ul - lugʻatayn»;
- g) «Xazoyinul maoniy»;
- d) «Nasoyim ul-muhabbat».

**58. Alisher Navoiy tilshunoslikka oid asarida qaysi til ulugʻlaydi?**

- a) arab tilini;
- b) turkiy tilni;

- v) tojik tilini;
- g) fors tilini;
- d) yunon tilini.

**59. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul - lugʻatayn» asarida nechta feʼl izohlangan?**

- a) beshta;
- b) sakkizta;
- v) yetmishta;
- g) yuzta;
- d) saksonta.

**60. Alisher Navoiy qaysi tadqiqot metodining asoschisi hisoblanadi?**

- a) qiyosiy – tarixiy metodning;
- b) komponent tahlil metodining;
- v) distributiv tahlil metodining;
- g) statistik tahlil metodining;
- d) tasviriy metodning.

**61. Yevropada uygʻonish davri tilshunosligi qaysi asrlarni oʻz ichiga oladi?**

- a) XII – XIV;
- b) XII – XV;
- v) X – XII;
- g) XV – XVIII;
- d) XI – XII.

**62. Yevropa tilshunosligida, asosan, qaysi sohalar bo'yicha asarlar yaratilgan?**

- a) fonetika;
- b) fonetika va grammatika;
- v) leksika va grammatika;
- g) leksikografiya;
- d) sintaksis.

**63. J.Skaliger tilga oid qanday asar yaratgan?**

- a) "Ritorika";
- b) "Lotin tili asoslari";
- v) "Sintaksis asoslari";
- g) "Rus grammatikasi";
- d) "Rus tili".

**64. Yevropa tilshunosligida grammatik hodisalar qaysi fan nuqtayi nazaridan baholangan?**

- a) falsafa;
- b) adabiyot;
- v) mantiq;
- g) psixologiya;
- d) tarix.

**65. "Por-Royal grammatikasi" da ilk bor qaysi fanlarning aloqasi haqida fikr yuritiladi?**

- a) grammatika bilan adabiyot ;
- b) grammatika bilan falsafa ;
- v) grammatika bilan mantiq ;



- g) grammatika bilan notiqlik ;
- d) grammatika bilan etimologiya.

**66. “Por-Royal grammatikasi” nechta qismdan iborat?**

- a) ikki qismdan;
- b) uch qismdan;
- v) to‘rt qismdan;
- g) besh qismdan;
- d) olti qismdan.

**67. Falsafiy grammatika tilga qanday hodisa sifatida qaraydi?**

- a) o‘zgaradigan;
- b) o‘zgarmaydigan;
- v) irsiy;
- g) ruhiy;
- d) rivojlanuvchi.

**68. Qaysi til komparativistika vakillarining fikricha bobotil hisoblanadi?**

- a) rus tili;
- b) qadimgi slavyan tili;
- v) sanskrit tili;
- g) qadimgi yaxudiy tili;
- d) oltoy tili.

**69. Qiyosiy – tarixiy tilshunoslik fanining “tug‘ilgan” yili qaysi yil?**

- a) 1880;
- b) 1799;

v) 1816;

g) 1890;

d) 1888.

**70. V. Gumboldtning «Yava orolidagi kavi tili haqida» nomli asari qachon nashr qilingan?**

a) 1836-1840;

b) 1890;

v) 1766;

g) 1888;

d) 1913.

**71. F. de Sossyurning mashhur asari qanday nomlanadi?**

a) «Kratil»;

b) «Ritorika»;

v) «To'liqlar toshqini»;

g) «Umumiy tilshunoslik kursi»;

d) «Rus grammatikasi».

**72. F. de Sossyur tilda nechta aspektni farqlaydi?**

a) besh aspektni;

b) sakkiz aspektni;

v) yetmish aspektni;

g) ikki aspektni;

d) to'rt aspektni.

**73. F. de Sossyurning fikricha, til nutqdan nechta belgisiga ko‘ra farqlanadi?**

- a) besh belgisiga;
- b) sakkiz belgisiga;
- v) yetti belgisiga;
- g) uch belgisiga;
- d) ikki belgisiga.

**74. Til va nutq muammosi haqida qaysi olim mukammal fikr yuritgan?**

- a) M. V. Lomonosov;
- b) Aristotel;
- v) A. A. Potebnya;
- g) F. de Sossyur;
- d) A. Shleyxer.

**75. Praga lingvistik maktabining vakillari kimlar?**

- a) F. Bopp, R. Rask, Ya. Grimm, A.X. Vostokov, V.Gumboldt;
- b) L.Uelmslev, V.Bryondal, X.Ulda;
- v) V.Matezius, M.Vaxek, B.Gavranek, N.S.Trubetskoy, R.O.Yakobson, S.I.Karsevskiy ;
- g) A.Shleyxer, G.Shteyntal, A.A. Potebnya;
- d) F. Boas, E. Sepir, L. Blumfeld, Ch. Friz.

**76. Amerika strukturalizmining vakillari kimlar?**

- a) F. Bopp, R. Rask, Ya. Grimm;
- b) L.Uelmslev, V.Bryondal, X.Ulda;
- v) V.Matezius, M.Vaxek, B.Gavranek;

- g) F.Boas, E.Sepir, L.Blumfeld, Ch.Friz;
- d) A. Shleyxer, G. Shteyntal, A. A. Potebnya.

**77. Kopengagen strukturalizmining vakillari kimlar?**

- a) R. Rask, Ya. Grimm, V.Gumboldt;
- b) L.Uelmslev, V.Bryondal, X.Ulda;
- v) V.Matezius, M.Vaxek, B.Gavranek, N.S.Trubetskoy.

R.O.Yakobson;

- g) A. G.Shteyntal, A.A. Potebnya;
- d) A. Shleyxer, F. De Sossyur, V. Gumboldt.

**78. Rus tilshunosligida qaysi asrdan boshlab, rus milliy adabiy tili me'yorlarini yaratishga kirishildi?**

- a) XVIII asrning 30-yillaridan;
- b) XVI asrning 20-yillaridan;
- v) XIX asrning 30-yillaridan;
- g) XX asrdan;
- d) XX asrning 50-yillaridan.

**79.Rus tilshunoslaridan kimlar 7 tomli to'liq sanskrit lug'atini yaratdi?**

- a) V.R.Rozen
- b) I. Reyxman;
- v) S. Pallas;
- g) Otto Betling va Rudolf Rot;
- d) V. Vinogradov.

**80. Kim birinchi bo'lib rus tili grammatikasini yaratdi?**

- a) V.Vinogradov;

- b) A.A.Potebnya;
- v) Boduen de Kurtene;
- g) M.V.Lomonosov;
- d) A. Shaxmatov.

**81. «Rossiya grammatikasi» asari nechta qismdan iborat?**

- a) olti qismdan;
- b) sakkiz qismdan;
- v) to'rt qismdan;
- g) besh qismdan;
- d) uch qismdan.

**82. M. V. Lomonosov tilni qanday vosita deb tushundi?**

- a) aloqa vositasi;
- b) belgilar vositasi;
- v) moddiy vosita;
- g) semiotik vosita;
- d) ijtimoiy vosita.

**83. M.V. Lomonosov rus adabiy tilida nechta uslubni (stilni) ajratdi?**

- a) to'rt uslubni;
- b) besh uslubni;
- v) uch uslubni
- g) olti uslubni;
- d) ikki uslubni.

**84. Komparativistika nima?**

- a) amaliy tilshunoslik;

- b) qiyosiy tilshunoslik;
- v) qiyosiy – tarixiy tilshunoslik;
- g) nazariy tilshunoslik;
- d) etimologik tilshunoslik.

**85. Tilshunoslik alohida fan sifatida qaysi asrda shakllandi?**

- a) XX asr oxirida;
- b) XVIII asr oxirida;
- v) XVII asr oxirida;
- g) XIX asrning birinchi yarmida ;
- d) XII asr boshida.

**86. V.Vinogradovning eng buyuk asari qaysi?**

- a) «Rossiya grammatikasi»;
- b) «Umumiy tilshunoslik»;
- v) «Tilshunoslikka kirish»;
- g) «Rus tili»;
- d) «Rus tilining etimologik lug‘ati».

**87. Umumiy nazariy tilshunoslik asoslari kim tomonidan yaratildi?**

- a) A.A.Potebnya;
- b) V.F. Gumboldt;
- v) Ya.Grimm;
- g) M.Myuller;
- d) V. Vinogradov.

**88. V.F.Gumboldt tilning qaysi jihati haqida ta’limot yaratdi?**

- a) tilning «tashqi formasi» haqida;

- b) tilning «formasi» haqida;
- v) tilning «ichki formasi» haqida;
- g) tilning tovushi haqida;
- d) tilning birliklari haqida.

**89. Tilning sistem xarakterga ega ekanligiga dastavval kim e'tibor berdi?**

- a) A.Shleyxer;
- b) G.Kursius;
- v) A.Pott;
- g) V.F. Gumboldt;
- d) F. de Sossyur.

**90. Naturalizm tilga qanday hodisa sifatida qaradi?**

- a) ijtimoiy hodisa;
- b) ruhiy hodisa;
- v) biologik hodisa;
- g) moddiy hodisa;
- d) amaliy hodisa

**91. Naturalizm oqimining mashhur vakili kim?**

- a) A.Pott;
- b) A.A.Potebnya;
- v) Korsh;
- g) A.Shleyxer;
- d) F.de. Sossyur.

**92. Psixologizm tilga qanday hodisa sifatida qaradi?**

- a) biologik hodisa;

- b) moddiy hodisa;
- v) ijtimoiy hodisa;
- g) ruhiy hodisa;
- d) amaliy hodisa.

**93. Psixologizm oqimining mashhur namoyandasi kim?**

- a) V.M.Lomonosov;
- b) V.V.Radlov;
- v) A.Shleyxer;
- g) G.Shteyntal;
- d) V. Vinogradov.

**94. Psixologizm oqimi vakillaridan kim tilni tafakkurdan ajratmadi?**

- a) A.A.Potebnya;
- b) G.Shteyntal;
- v) A.Shleyxer;
- g) Korsh;
- d) F. de Sossyur.

**95. Sho‘ro davri tilshunosligi tilni materialiga ko‘ra qanday hodisa deb tushuntiradi?**

- a) ruhiy hodisa;
- b) ijtimoiy hodisa;
- v) moddiy hodisa;
- g) tarixiy hodisa;
- d) amaliy hodisa.



**96. Sho‘ro davri tilshunosligida til paydo bo‘lishiga ko‘ra qanday hodisa deb tushunildi?**

- a) biologik hodisa;
- b) moddiy hodisa;
- v) ruhiy hodisa;
- g) ijtimoiy hodisa;
- d) sun’iy hodisa.

**97. Til, asosan, qanday vazifani bajaradi?**

- a) emotiv vazifani;
- b) kommunikativ vazifani;
- v) informativ vazifani;
- g) nominativ vazifani;
- d) fakultativ vazifani.

**98. Fonema nazariyasi kim tomonidan yaratilgan?**

- a) N.Ya.Marr tomonidan;
- b) I.I Meshaninov tomonidan;
- v) L.V.Sherba tomonidan;
- g) V.V.Vinogradov tomonidan;
- d) A. A. Shaxmatov tomonidan.

**99. Lingvistikaning qanday turlari mavjud?**

- a) ichki, tashqi, dinamik, statik, sinxron, diaxron, matematik linvistika va boshqalar;
- b) etimologik lingvistika;
- v) etnografik lingvistika;
- g) toponimik lingvistika;
- d) tarixiy lingvistika.

**100. Til birligining ikki jihati nimadan iborat?**

- a) substansiya va shakldan;
- b) umumiy va xususiyligidan;
- v) shakl va mazmundan;
- g) ichki va tashqidan;
- d) moddiy va nomoddiydan.

**101. Nutq nima?**

- a) tildan fikr almashuv maqsadida foydalanish jarayoni;
- b) tildagi xotira;
- v) sintaktik ifoda turi;
- g) lingvistikaning bir bo'limi;
- d) ijtimoiy-tarixiy kategoriya.

**102. Sistema nima?**

- a) qismlardan iborat butunlik;
- b) ma'no;
- v) tuzilish;
- g) tilning rivojlanish qonuni;
- d) barqaror butunlik.

**103. Struktura nima?**

- a) mohiyat;
- b) ma'no;
- v) tuzilish, qurilish;
- g) tilning rivojlanish qonuni;
- d) barqaror butunlik.

**104. Strukturalizm ta'limoti til nazariyasining asosi deganda nimani tushunadi?**

- a) naturalizmni;
- b) analogiyani;
- v) til strukturasi;
- g) sotsiologiyani;
- d) psixologizmni.

**105. Semiotika nima?**

- a) turli-tuman belgilar sistemasining umumiy xususiyatlarini o'rganuvchi fan;
- b) tilshunoslikning so'z va morfemalarning kelib chiqishi hamda tarixini o'rganuvchi bo'limi;
- v) omonimlarning tilda paydo bo'lishini, kelib chiqishi va tarqalishini o'rganuvchi soha;
- g) leksikologiyaning joy nomlarini o'rganuvchi bo'limi;
- d) tabiiy tillarning matematik modelini o'rganuvchi fan.

**106. Tilning semiotika faniga qanday aloqasi bor?**

- a) majburiy;
- b) tasodifiy;
- v) bevosita;
- g) moddiy;
- d) shakliy.

**107. Tilning ichki jihatiga nima kiradi?**

- a) shakl;
- b) hodisa;
- v) ma'no, mazmun;

- g) umumiylik;
- d) sabab.

**108. Til birliklari qaysilar?**

- a) soʻz, soʻz birikmasi, gap;
- b) fonema, morfema, leksema, model;
- v) jumla, mikromatn, makromatn;
- g) fonema, morfema, leksema, soʻz birikmasi;
- d) fonetik birlik, sintaktik birlik.

**109. Nutq birliklari qaysilar?**

- a) fonema, soʻz, leksema, qolip ;
- b) jumla, mikro va makro matn;
- v) tovush, soʻz, soʻz birikmasi, gap, matn;
- g) soʻz, soʻz birikmalari;
- d) leksema, sintaktik qoliplar.

**110. Ifodalovchi nima?**

- a) gʻoya;
- b) toponimika;
- v) lisoniy birliklarning tashqi - tovush tomoni;
- g) til (nutq) birligining ichki tomoni;
- d) tushuncha.

**111. Ifodalanuvchi nima?**

- a) hukm;
- b) model;
- v) til (nutq) birliklarining ichki - maʼno tomoni;

- g)konnotatsiya;
- d)so‘z birikmasi.

**112. Tillarni turiga ko‘ra tasnif qilish qanday ataladi?**

- a) geneologik tasnif;
- b) tipologik tasnif;
- v) semantik tasnif;
- g) sintaktik tasnif;
- d) etimologik tasnif.

**113. Tillarni kelib chiqishiga ko‘ra tasnif qilish qanday ataladi?**

- a) geneologik tasnif;
- b) tipologik tasnif;
- v) semantik tasnif;
- g) sintaktik tasnif;
- d) etimologik tasnif.

**114. N.Ya. Marr faoliyatining ikki qirrasini ko‘rsating.**

- a) mashhur arxeolog va filolog;
- b) siyosatshunos va filolog;
- v) etnograf va filolog;
- g) vrach va filolog;
- d) tarixchi va filolog.

**115. Paralingvistika nimani o‘rganadi?**

- a) tillarning kelib chiqish tarixini;
- b) til birliklarining mazmun jihatini;
- v) emotsiyalarning tilda ifodalanishini;
- g) til va nutq birliklarining shakliy tomonini;

d) tilshunoslikning aloqa – aralashuv jarayonidan imo – ishora, mimika, nutq vaziyati kabi omillarni.

**116. Iyerarxik munosabat nima?**

- a) til birliklarining o'xshashlik munosabati;
- b) til birliklarining murakkablashish (pog'onaviy) munosabati;
- v) bir paradigмага birlashuvchi til birliklarining o'zaro munosabati;
- g) til birliklarining yonma – yon joylashish (qo'shnichilik) munosabati;
- d) nutq birliklarining o'zaro tobelik munosabati.

**117. Paradigmatik munosabat qanday munosabat?**

- a) bir paradigмага birlashuvchi til birliklarining o'zaro munosabati;
- b) til birliklarining pog'onaviy (iyerarxik) munosabati;
- v) til birliklarining muayyan izchillikda kelishi;
- g) so'z tarkibiy qismlarining o'zaro aloqasi;
- d) nutq birliklarining o'zaro tobelik munosabati.

**118. Sintagmatik munosabat qanday munosabat?**

- a) so'z birikmasi hamda gap qismlarining o'zaro bog'lanishi;
- b) otlarning turlanishi;
- v) til birliklarining ketma-ket (yonma – yon) joylashishi ;
- g) fe'llarning tuslanishi;
- d) til birliklarining vertikal joylashishi.

**119. Kompyuter lingvistikasi nimani o'rganadi?**

- a) lisoniy birliklarning kelib chiqishini ;
- b) matnga kompyuter yordamida ishlov berish bilan bog'liq vazifalarni;

- v) leksikologiyaning joy nomlarini;
- g) imo – ishora, mimika, nutq vaziyati kabilarni;
- d) tilning ijtimoiy taraqqiyotini.

**120. Tipologiya nimani o'rganadi?**

- a) nutqni;
- b) tillarni tipologik tasnif qilish prinsipi va usullarini;
- v) geografik nomlarni;
- g) imo-ishoralarni;
- d) lug'at tarkibini.

**121. Fonema nima?**

- a) ma'no;
- b) tilning eng kichik moddiy birligi - tovush;
- v) fikr ifodalovchi birlik;
- g) omonim;
- d) tushuncha.

**122. So'z shakllari deganda, qanday shakllar tushuniladi?**

- a) sintetik shakl;
- b) analitik shakl;
- v) sintetik, analitik, sintetik – analitik shakl;
- g) morfologik – grammatik shakl;
- d) sintetik – analitik shakl.

**123. Morfema nima?**

- a) til birligi, tilning ma'noli, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan eng kichik qismi.
- b) so'z ma'nosi;

- v) tilning lug'at tarkibiga xos birlik;
- g) tilning moddiy tomoni;
- d) tushuncha.

**124. Lisoniy birliklarining shakli va mazmuni o'rtasidagi bog'lanish qanday bog'lanish?**

- a) siyosiy bog'lanish;
- b) amaliy bog'lanish;
- v) ijtimoiy bog'lanish;
- g) shartli- ijtimoiy bog'lanish;
- d) falsafiy bog'lanish.

**125. Sistem tilshunoslikda leksemaning shakl tomoni qanday nomlanadi?**

- a) morfema;
- b) semema;
- v) leksema;
- g) nomema;
- d) sintagmema.

**126. Sistem tilshunoslikda leksemaning ma'no tomoni qanday nomlanadi?**

- a) morfema;
- b) semema;
- v) leksema;
- g) nomema;
- d) sintagmema.



**127. Sistema va struktura qanday kategoriya?**

- a) siyosiy kategoriya;
- b) amaliy kategoriya;
- v) ijtimoiy kategoriya;
- g) falsafiy kategoriya;
- d) mantiqiy kategoriya.

**128. Taniqli o'zbek tilshunoslari kimlar?**

- a) Zamaxshariy, Mehdixon;
- b) A.G'ulomov, G'.Abdurahmonov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, H.Ne'matov.

- v) Korsh, A.A.Potebnya
- g) A.Shleyxer, A.K.Borovkov, G'ozi Olim Yunusov;
- d) F. de. Sossyur.

**129. Metod nima?**

- a) fikrlashni o'rganish usuli;
- b) predmetni o'rganish usuli;
- v) hodisani o'rganish usuli;
- g) predmet-hodisalarni ilmiy tahlil qilish, ularning mohiyatini, tabiatini, tarkibi kabilarni aniqlash, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish usuli;
- d) tovushni o'rganish usuli.

**130. Metodika nima?**

- a) faktlarni yig'ish usuli;
- b) faktlarni tahlil qilish usuli;
- v) olimning tadqiq manbaini mukammal tekshirishi, individual ish olib borish usuli;

- g) umumlashtirish usuli;
- d) axborot berish usuli.

**131. Metodologiya nima?**

- a) dunyoqarash;
- b) tadqiqotchining ilmiy dunyoqarashi, uning tadqiq manbaini qanday tushunishi, unga qaysi metod bilan yondashishi, u haqda nazariy yoki amaliy, tavsifiy bilimlarni hosil qilishi;
- v) amaliyot;
- g) nazariya;
- d) g'oya.

**132. Metodning qanday ko'rinishlari mavjud?**

- a) ilmiy;
- b) falsafiy;
- v) nazariy;
- g) formal;
- d) falsafiy (dialektik, umumiy) va fanga oid (xususiy).

**133. Tilshunoslikning tadqiq metodlari nechta?**

- a) ikkita;
- b) beshta;
- v) yettita;
- g) to'qqizta;
- d) o'nta.

**134. Diaxron tadqiq metodi qanday metod?**

- a) tarixiy metod;
- b) sinxron metod;

- v) yangi metod;
- g) amaliy metod;
- d) nazariy metod.

**135. Diaxron tadqiq metodiga qaysi metodlar kiradi?**

- a) struktural metod;
- b) avtomatik tahlil qilish metodi;
- v) tipologik metod;
- g) eksperimental metod;
- d) tasviriy, qiyosiy-tarixiy, chog'ishtirish, tarixiy-qiyosiy, tipologik metod.

**136. Tasviriy metodning maqsadi nimadan iborat?**

- a) lisoniy birliklarni tasvirlash, tavsiflash;
- b) lisoniy birliklarni shaklan guruhlash;
- v) lisoniy birliklarni mazmunan guruhlash;
- g) lisoniy birliklarga falsafiy yondashish;
- d) lisoniy birliklarga formal-semantik yondashish.

**137. Qiyosiy-tarixiy metodning maqsadi nimadan iborat?**

- a) tillarni sharhlash;
- b) qarindosh tillarni qiyoslab, ular o'rtasidagi o'xshashlik-umumiyligni aniqlash;
- v) tillarga tarixiy yondashish;
- g) tillarni chog'ishtirish;
- d) tillarni umumlashtirish.

**138. Qiyosiy-tarixiy metod qaysi tilshunoslikning yaratilishiga xizmat qildi?**

- a) struktural tilshunoslikning;
- b) sistem tilshunoslikning;
- v) qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning;
- g) nazariy tilshunoslikning;
- d) sinxron tilshunoslikning.

**139. Qiyosiy-tarixiy metodning asoschilari kimlar?**

- a) V. Gumboldt, A. A. Potebnya;
- b) F. Bopp, R. Rask, Ya. Grimm, A. Vostokov.
- v) A. Shleyxer, A. Marr, F. Fortunatov;
- g) Navoiy, Kursius, M. Zamaxshariy;
- d) M. Mehdixon, V. Vinogradov.

**140. Chog'ishtirish metodining maqsadi nimadan iborat?**

- a) tillarni statistik tekshirish;
- b) tillarni tarixiy o'rganish;
- v) tillarni eksperiment qilish;
- g) qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tillarni qiyoslash;
- d) qarindosh tillarni taqqoslash.

**141. Tarixiy-qiyosiy metodning maqsadi nimadan iborat?**

- a) tillarni komponent tahlil qilish;
- b) tillarni tasnif qilish;
- v) tillarni sinxron o'rganish;
- g) tillarni tipologik o'rganish;
- d) bir tilni yoki qarindosh tillarni tarixiy jihatdan qiyoslab, ulardagi umumiylikni va farqlarni aniqlash.

**142. Tipologik metodning maqsadi nimadan iborat?**

- a) tillarni avtomatik tahlil qilish;
- b) qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarni qiyosiy o'rganib, ular tuzilishiga xos umumiy va farqli jihatlarni aniqlash;
- v) tillarni morfologik tasnif qilish;
- g) tillarni geneologik tasnif qilish;
- d) tillarni tuzilishiga ko'ra o'rganish.

**143. Sinxron tadqiq metodi qanday metod?**

- a) hozirgi - vaqt jihatidan yuzaga kelishiga, qo'llanishiga ko'ra yangi, zamonaviy metod;
- b) tarixiy metod;
- v) qiyosiy-tarixiy metod;
- g) statistik tahlil metodi;
- d) tavsifiy metod.

**144. Distributiv tahlil metodining maqsadi nimadan iborat?**

- a) lisoniy birliklarning nutqda joylashgan o'rmini, muayyan tartibda kelishini, o'zaro bog'lanishini o'rganish;
- b) lisoniy birliklarni fonetik tahlil qilish;
- v) lisoniy birliklarni tarjima qilish;
- g) lisoniy birliklarni etimologik tahlil qilish;
- d) lisoniy birliklarni sintaktik tahlil qilish.

**145. Distributsiya nima?**

- a) lisoniy birliklarni aniqlash;
- b) lisoniy birliklarni qiyoslash;
- v) lisoniy birliklarning uchrashi, qo'llanishi mumkin bo'lgan jamiki qurshov;

- g) lisoniy birliklarni o'zaro bog'lash;
- d) lisoniy birliklarni fonetik tahlil qilish.

**146. Statistika tahlil metodining vazifasi nimadan iborat?**

- a) lisoniy birliklarni komponent tahlil qilish;
- b) lisoniy birliklarning nutqda ishlatilish miqdorini aniqlash;
- v) lisoniy birliklarni ma'no jihatdan tahlil qilish;
- g) lisoniy birliklarni avtomatik tahlil qilish;
- d) lisoniy birliklarni so'z turkimlariga ajratish.

**147. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodining vazifasi nimadan iborat?**

- a) so'z birikmasi va gapning tuzilishini aniqlash;
- b) so'z birikmasi va gapni valentlik tahlil qilish;
- v) so'z birikmasi va gapni tarjima qilish;
- g) so'z birikmasi va gapni leksik tahlil qilish;
- d) so'z birikmasi va gapni tarixan o'rganish.

**148. Transformatsion tahlil metodining vazifasi nimadan iborat?**

- a) sintaktik birlikni (gapni) qismlarga ajratish;
- b) sintaktik birlikni (gapni) mazmuniga ko'ra tahlil qilish;
- v) sintaktik birlikni (gapni) tuzilishiga ko'ra tahlil qilish;
- g) sintaktik birlik (gap) asosida hosil qilingan boshqa gaplarni aniqlash va ularni yadro gap bilan qiyoslash;
- d) sintaktik birlikni (gapni) chet tiliga tarjima qilish.

**149. Komponent tahlil metodining vazifasi nimadan iborat?**

- a) so'z ma'nosini etimologik o'rganish;
- b) so'z ma'nosini izohlash;

- v) soʻz maʼnosini tarkibiy qismlarga – komponentlarga ajratish va ularni har tomonlama oʻrganish;
- g) soʻz maʼnosini sinxron oʻrganish;
- d) soʻz maʼnosini diaxron oʻrganish.

**150. Semema nima?**

- a) maʼno;
- b) tovush;
- v) shakl;
- g) ohang;
- d) gap.

**151. Sema nima?**

- a) semema;
- b) maznun;
- v) maʼnoning tarkibiy qismi, maʼnoviy boʻlak;
- g) signifikat;
- d) denotat.

**152. Valentlik tahlil metodining vazifasi nimadan iborat?**

- a) soʻzni formal tahlil qilish;
- b) soʻz maʼnosini aniqlash;
- v) soʻzni tarixan oʻrganish;
- g) soʻzni tarjima qilish;
- d) soʻzning maʼnosi asosida boshqa soʻzlar bilan birikishini aniqlash.

**153. Eksperimental-fonetik tahlil metodining vazifasi nimadan iborat?**

- a) fonetik birliklarning (masalan, tovushlarning) artikulyatsion, akustik xususiyatlarini texnik vositalar yordamida oʻrganish;

- b) fonetik birliklarning talaffuz qilinish xususiyatlarini o'rganish;
- v) fonetik birliklarning nutqda qo'llanish xususiyatlarini o'rganish;
- g) fonetik birliklarning nutqda o'zgarish xususiyatlarini o'rganish;
- d) fonetik birliklarning eshitilish xususiyatlarini o'rganish.

**154. Eksperimental - fonetik metod qanday usullar bilan ish olib boradi?**

- a) somatik usul bilan;
- b) somatik, pnevmatik va elektroakustik usullar bilan;
- v) elektroakustik usul bilan;
- g) pnevmatik usul bilan;
- d) qiyoslash usuli bilan.

**155. Avtomatik tahlil metodining vazifasi nimadan iborat?**

- a) bir tildagi lisoniy birliklarni mazmun mezoni asosida boshqa bir tildagi muqobiliga kompyuter orqali tarjima qilish;
- b) bir tildagi lisoniy birliklarni boshqa bir tildagi muqobili bilan qiyoslash;
- v) bir tildagi lisoniy birliklarni komponent tahlil qilish;
- g) bir tildagi lisoniy birliklarni distributiv tahlil qilish;
- d) bir tildagi lisoniy birliklarning nutqdagi pozitsion imkoniyatlarini o'rganish.



## TEST SAVOLLARINING JAVOBI – KALITI

1-G	45-V	88-V	131-B
2-A	46-G	89-G	132-D
3-A	47-G	90-V	133-A
4-B	48-V	91-G	134-A
5-A	49-A	92-G	135-D
6-B	50-V	93-G	136-A
7-V	51-B	94-A	137-B
8-B	52-V	95-V	138-V
9-A	53-V	96-G	139-B
10-G	54-G	97-B	140-G
11-A	55-G	98-V	141-D
12-G	56-G	99-A	142-B
13-B	57-V	100-V	143-A
14-B	58-B	101-A	144-A
15-V	59-G	102-A	145-V
16-A	60-A	103-V	146-B
17-G	61-G	104-V	147-A
18-A	62-V	105-A	148-G
19-B	63-B	106-V	149-V
20-V	64-V	107-V	150-A
21-G	65-V	108-B	151-V
22-A	66-A	109-V	152-D
23-G	67-D	110-V	153-A
24-G	68-V	111-V	154-B
25-G	69-V	112-B	155-A
26-A	70-A	113-A	
27-V	71-G	114-A	
28-G	72-G	115-D	
29-A	73-A	116-B	
30-A	74-G	117-A	
31-G	75-V	118-V	
32-G	76-G	119-B	
33-A	77-B	120-B	
34-B	78-A	121-B	
35-V	79-G	122-V	
36-G	80-G	123-A	



## MUNDARIJA

<b>Muharrirdan</b> .....	3
<b>So‘zboshi</b> .....	7
<b>Birinchi qism</b> .....	9
<b>Tilshunoslik tarixi</b> .....	9
<b>I. Qadimgi asrlar tilshunosligi</b> .....	9
Qadimgi Hind tilshunosligi .....	9
Qadimgi Yunon tilshunosligi .....	15
1. Tilshunoslikning falsafiy davri .....	15
2. Tilshunoslikning grammatik davri .....	20
Qadimgi Rim tilshunosligi .....	24
Qadimgi Xitoy tilshunosligi .....	27
<b>II. O‘rta asrlar tilshunosligi</b> .....	30
Arab tilshunosligi .....	32
O‘rta Osiyoda tilshunoslik .....	41
Abu Nasr Forobiy .....	41
Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al – Beruniy .....	42
Abu Ali ibn Sino .....	43
Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Koshg‘ariy .....	44
Abul Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy .....	47
Alisher Navoiy .....	50
Mirzo Mehdixon .....	54
<b>III. Yevropada uyg‘onish davridagi tilshunoslik</b> .....	58
Por – Royal grammatikasi .....	60
Rus tilshunosligi .....	63
Mixail Vasilyevich Lomonosov .....	65
Fyodor Ivanovich Buslayev .....	68
Aleksandr Afanasevich Potebnya .....	69
<b>IV. Komparativistika</b> .....	74
Frans Bopp .....	76
Rasmus Rask .....	77

Yakob Grimm .....	78
Aleksandr Xristoforovich Vostokov .....	79
Vilgelm fon Gumboldt va umumiy tilshunoslik .....	81
Avgust Shleyxer. Naturalizm .....	87
Geyman Shteyntal. Psixologizm .....	92
<b>V.Yosh grammatikachilar maktabi .....</b>	<b>95</b>
Leypsig maktabi.....	96
<b>VI. Rossiya tilshunoslik maktablari .....</b>	<b>99</b>
Moskva maktabi .....	99
Qozon maktabi .....	101
Ferdinand de Sossyur. Sotsiologizm. Sotsiologik tilshunoslik.....	105
Strukturalizm .....	110
Praga strukturalizmi .....	110
Amerika strukturalizmi .....	111
Kopengagen strukturalizmi .....	113
<b>VII. Sho‘ro davri tilshunosligi .....</b>	<b>117</b>
Ivan Ivanovich Meshaninov .....	118
Lev Vladimirovich Sherba .....	119
Viktor Vladimirovich Vinogradov .....	121
Yevgeniy Dmitriyevich Polivanov .....	123
Aleksandr Ivanovich Smirnitkiy .....	124
Vadim Mixaylovich Solnsev .....	125
<b>VIII. O‘zbek tilshunosligi .....</b>	<b>129</b>
Ayub G‘ulomov.....	129
Said Usmonov .....	132
Shonazar Shoabdurahmonov .....	133
Mazluma Asqarova .....	135
G‘anijon Abdurahmonov .....	135
Shavkat Rahmatullayev .....	137
Miraziz Mirtojiyev.....	133
Azim Hojiyev .....	140
Rahmatulla Qo‘ng‘urov .....	141

Ernst Begmatov .....	142
Bozor O‘rinboyev .....	144
Hamid Ne‘matov .....	145
Abduhamid Nurmonov .....	146
Ravshanxo‘ja Rasulov .....	148
Ibodulla Mirzayev .....	150
Abdi Mamatov .....	151
Nizomiddin Mahmudov .....	152
<b>Xulosa</b> .....	155
<b>Ikkinchi qism</b> .....	156
<b>Tilshunoslikning nazariy masalalari.....</b>	156
Lingvistika va uning turlari .....	156
Tilning ta‘riflari .....	164
Til va nutq .....	172
Substansiya va forma.....	180
Sistema va struktura .....	185
Tilni informatsiya nazariyasiga ko‘ra kod bilan tenglashtirish ....	192
Semiotika .....	193
Tilning ikki jihati: ifoda va mazmun jihatlari .....	197
Til va nutq birliklari .....	202
Til sistemasi.Paradigmatika va sintagmatika .....	221
Tipologiya .....	228
<b>Xulosa</b> .....	231
<b>Uchinchi qism</b> .....	232
<b>Tilshunoslikning tadqiq metodlari</b> .....	232
Metod haqida .....	232
<b>I .Diaxron tadqiq metodlari</b> .....	237
1.Tasviriy metod .....	237
2.Qiyosiy - tarixiy metod .....	240
3.Chog‘ishtirish metodi .....	244
4.Tarixiy - qiyosiy metod .....	246
5. Tipologik metod .....	248

<b>II .Sinxron tadqiq metodlari</b> .....	250
1.Distributiv tahlil metodi .....	252
2.Statistik tahlil metodi .....	254
3. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodi .....	256
4.Transformatsion tahlil metodi .....	258
5.Komponent tahlil metodi .....	261
6.Valentlik tahlil metodi .....	263
7.Eksperimental –fonetik tahlil metodi .....	266
8.Avtomatik tahlil metodi .....	268
<b>Xulosa</b> .....	271
<b>To‘rtinchi qism</b> .....	272
<b>“Umumiy tilshunoslik” fanidan test savollari</b> .....	272
<b>Test savollarining javobi – kaliti</b> .....	313

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
 OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
 TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ  
 DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
 AXBOROT RESURS MARKAZI

- 9524 -

**RASULOV RAVSHANXO'JA**

# **UMUMIY TILSHUNOSLIK**

**Toshkent – «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi» – 2021**

Muharrir:	Sh.Kusherbayeva
Rassom:	U.Ortiqov
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova



**E-mail: [tipografiyacent@mail.ru](mailto:tipografiyacent@mail.ru) Tel: 97-450-11-14, 93-381-22-07.**

**Bosishga ruxsat etildi 06.09.2021.**

**Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. «Timez New Roman» garniturasini.**

**Ofset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog'i 19,75. Nashriyot bosma tabog'i 20,0.**

**Tiraj 100. Buyurtma № 120.**

Ushbu kitobning muhbirlik qoʻllanmasi

Ushbu kitobning muhbirlik qoʻllanmasi

Ushbu kitobning muhbirlik qoʻllanmasi

Ushbu kitobning muhbirlik qoʻllanmasi

Ushbu kitobning muhbirlik qoʻllanmasi


Ushbu kitobning muhbirlik qoʻllanmasi

Ushbu kitobning muhbirlik qoʻllanmasi

Ushbu kitobning muhbirlik qoʻllanmasi

Ushbu kitobning muhbirlik qoʻllanmasi

Ushbu kitobning muhbirlik qoʻllanmasi



Ushbu kitobning muhbirlik qoʻllanmasi




Ushbu kitobning muhbirlik qoʻllanmasi

«Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi»  
bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent sh., Foziltepa ko'chasi, 22 b uy.







## **RASULOV RAVSHANXO'JA**

O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi, O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi a'zosi, filologiya fanlari doktori, Chirchiq davlat pedagogika instituti professori.

R.Rasulov o'zbek tilshunosligining leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya, sintaksis, nutq madaniyati, umumiy tilshunoslik, notiqlik san'ati va rusiyzabon talabalarga o'zbek tilini o'qitish sohalari bo'yicha barakali mehnat qilib kelayotgan, qator ilmiy-nazariy va ilmiy-metodik asarlar yaratgan nazariyotchi olim.

ISBN 978-9943-7186-4-7



9 789943 718647